

908
9-49

A.X. DONIYOROV, O.B. BO'RINYEY,
A.A. ASHIROV

MARKAZIY OSIYO
XALQLARI
ETNOLOGIYASI

308.
D-72.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TAILIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

A. X. DONIVOROV, O. BO'RUYEV, A. A. ASHIROV

MARKAZIY OSIYO XALQLARI
ETNOLOGIYASI

-15859/48-

5120300 – Tarix (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha) ta'lim
yo'nalishi talabarlari uchun darslik

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TAILIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT
NIF MSH
2021

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TAILIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
2-FILIALI

UO'K: 950(575.1)
BBK: 63.3(5Uz)
D 72

Doniyorov A. X., Bo'riyev O., Ashirov A. A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi / Darslik. – Toshkent: NIF MSH, 2021. 282 bet.

Mazkur darslik ijtimoiy-gumanitar yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarga Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlar etnologiyasi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, ushbu kitobda mintaga xalqlari etnogenezi va etnik tarixi, an'anaviy xo'jaligi, moddiy hamda ma'naviy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari keng gamrovli tarixiy-etnologik adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida bayon qilingan.

Ushbu darslik talabalarni mintaga xalqlari etnologiyasiga oid etnografik materiallar yig'ish va to'plangan ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilishga ham o'rgatadi. Kitob ijtimoiy-gumanitar fanlarga ixtisoslashgan Oliy o'quv yurtlarining bakalavriat va magistratura talabalari hamda etnologiya fani bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

U. S. Abdullayev, tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

R. Balliyeva, tarix fanlari doktori, professor

B. Odilov, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Darslik Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2020-yil 19-maydagi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli buyrug'iga asosan, 5120300 – Tarix (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. (Ro'yxat raqami 418-042)

ISBN 978-9943-7012-5-0

© A. X. Doniyorov, O. Bo'riyev, A. A. Ashirov, 2021.
© "NIF MSH", 2021.

MUQADDIMA

Jahon xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti rivojlanib, globallashuv jarayonlari tobora kengayib borayotgan hozirgi davrda insoniyatni kelgusi hayoti, ayniqsa, jahon sivilizatsiyasining taqdiri va barqarorligi ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho qadriyatlarining keng ko'lamda o'rganish va targ'ib qilish bilan bevosita bog'liqdir.

Ma'lumki, hozirda sayyoramizda yashovchi 7,8 mlrd aholi (2020-yil iyul) 200 dan ortiq katta va kichik mamlakatlarda yashaydi. Germaniyaning fuqarosi Weltbevölkerung (DSW) – "yer aholisi" jam'aritasi ma'lumotlariga ko'ra, agar bugungi kunda dunyo 100 kishidan iborat qishloq deb olinsa, shundan 59 kishi Osiyo, 17 kishi Afrika, 10 kishi Yevropa, 8 kishi Lotin Amerikasi, 5 kishi esa Shimoliy Amerika va bir kishi Okeaniya vakili bo'lar edi.

Dunyo mamlakatlari orasida o'zining katta hududi va ko'p millionli aholiga ega mamlakatlar (Xitoy, Hindiston, Braziliya va boshq.) bilan birga kichik davlatlar (Afrikada – Jibuti, Ispaniya hamda Fransiya ehtojlarida – Andorra, Venesuela yaqinida – Trinidad va Tobago) mavjud. Aynan mazkur mamlakatlarda turli etnos va etnografik guruhlar istiqomat qiladi. Shubhasiz, yer yuzida yashovchi barcha xalq va millatlarni o'ziga xos jihatlarini tadqiq qiluvchi fan tarmog'i ijtimoiy fanlar tizimida etnologiya fani tarzida ma'lum hamda mashhurdir.

O'z navbatida shuni ham ta'kidlash joizki, etnologiyaning fan sifatida shakllanishidan to bugungi kungacha uning asosiy tadqiqot obekti bilan bog'liq muammolar yechimi borasida dunyo olimlari orasida umumiy yoki di' fikrlar mavjud emas. Chunonchi, inglizabon mamlakatlarda "Etnologiya" atamasi o'runga "ijtimoiy yoki madaniy antropologiya" terminini qo'llash keng tarqalgan. To'g'ri, etnologiya fani turli xalqlar va millatlar hayot tarzini tavsiflash bilangina cheklanmaydi, balki uning tadqiqot obekti va predmeti hisoblangan xalq hayoti bilan bog'liq kengroq sohalarda ham yo'nalishlarni qamrab oladi.

Chunonchi, bu borada XX asrning so'ngi choragidan boshlab faning tadqiqot obekti va metodlarida ham ayrim jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Endilikda etnologik yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar nafaqat arxaik turmush tarziga ega, shu bilan birga zamonaviy industrlashgan xalqlar va madaniyatlarini ham tadqiqot obekti sifatida o'rganishga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Shuningdek, hozircha

I BOB. ETNOLOGIYA FANI TARIXI, PREDMETI VA MANBALARI

*

Mavzuga oid tayanch soʻz va iboralar: Etnografiya, etnologiya, etnos, xalq, etnologik maʼlumot, yunon va rim mualliflarining asarlari, etnologimlar, etnik qiyofa, musulmon Uygʻonishi davri manbalari, Amir Temur va temuriylar davri manbalari, oʻzbek urugʻlari haqida maʼlumotlar, rus sharqshunoslari, sayohatlar, "Turkiston" fotoalbomi, ilmiy jamiyatlar va toʻgaraklar, Rus Geografiya jamiyati "Turkiston" boʻlimi, Turkiston havaskor arxeologlar toʻgaragi, etnologik tadqiqotlar, XX asrning 20-yillaridagi etnologik asarlar, etnologik atamalar.

1.1. Etnologiya fani predmeti, tarixi va tadqiqot usullari

"Etnologiya" atamasi qadimgi yunoncha – "etos" (xalq) va "logos" (fan) degan soʻzlardan tashkil topgan. Uning tub mahosini "xalqni taʼriflash" yoki "xalqshunoslik" deb atash mumkin.

Maxsus etnologik adabiyotlardan maʼlumki, jahondagi koʻplab xalq va elatlar oʻz tili, kelib chiqishi, moddiy hamda maʼnaviy madaniyati, maishiy turmushi va psixologiyasi bilan ham bir-biridan ajralib turadi. Xalqlarning oʻzaro tafovuti yoki umumiyligi va oʻxshashligi handa ularning oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganuvchi maxsus fan sohasi "etnologiya" deb ataladi.

Etnologik bilimlar eng qadim zamonlardan paydo boʻlgan boʻlsa-da, lekin mazkur fan mustaqil fan sifatida XIX asrning oʻrtalarida vujudga keldi. Dastlab ushbu atamani XVII asrning oxirida nemis yozuvchisi Iogan Zummer ishlatgan, keyin esa XVIII asrning oxirlari va 1808-yilda maxsus jurnallar shu nom bilan chiqa boshlagan. "Etnologiya" soʻzi mashhur fransuz tabiatshunosi va fiziği Jan Jak Amper tomonidan 1830-yilda alohida fan sohasi sifatida qoʻllanilgan.

Etnologiya – jahondagi barcha xalqlarning turmush tarzi, urf-odatlari, moddiy va maʼnaviy hayoti, ularning katta-kichikligi, ijtimoiy tuzumi, qoloq yoki rivojlangan boʻlishidan qatʼiy nazar, teng, bab-baravar oʻrganuvchi muhim ilm sohasidir.

Etnologiya dastlab hozirgi xalqlarning kelib chiqishi, shakllanishi, joylashuvi, etnik tuzilishi, xoʻjalik mashgʻulotlari, madaniy-tarixiy munosabatlari, moddiy va maishiy turmushi, urf-odatlari, maʼnaviy madaniyati hamda milliy xususiyatlarini tarixiy jarayonlar bilan bogʻliq

holda oʻrganilgan. Ushbu soha olimlarining diqqat markazida hozirgi davrdagi xalq va elatlarning maishiy hamda madaniy hayotida paydo boʻlayotgan barcha yangilik (innovatsiya)lar, tub ijtimoiy oʻzgarishlar, turmush tarzidagi umumiy va xususiy belgilar hamda boshqa muhim masalalar va muammolar turadi. Tarixiy etnografiya yoʻqolib ketgan xalq va elatlar, oʻtmishdagi etnik jarayonlar, maishiy turmush va maʼnaviy madaniyat xususiyatlarini ham oʻrganadi.

Har bir fan dastlab faktik bilimlarni toʻplaydi, keyin esa ularni tahlil etish orqali mohiyatini anglab, nazariy xulosalar chiqaradi. Etnografiya fani ham ayni shunday yoʻldan borib, mazkur fan tadqiqotchilari xalq orasida yurib, kuzatib, axborotchilar bergan maʼlumotlarni yigʻib, moddiy va yozma yodgorliklarni tahlil qilib, toʻplangan materiallarni mazmuniga koʻra, yoʻnalishlar, maqsad va vazifalarga qarab tasnif etadi. Soʻngra ular muayyan ilmiy maqsad bilan tahlil qilinadi va zarur xulosalar chiqariladi.

Lekin, qadimda etnologik bilimlar kundalik hayotiy jarayonlarda oʻziga xalqlar bilan oʻzaro aloqalar davomida amaliy ehtiyojlarni qondirish uchun qoʻllanilgan. Bunda hali etnologik bilimlarga ilmiy maʼno berish atamalarini boʻlmagan. Masalan, ayrim qoʻshni qabila, xalq va elatlarning maʼnaviy turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlari va etnik xususiyatlarini oʻrganish, ularni aniq tushunish amaliy ehtiyojlarni qondirish tazoosi bilan vujudga kelgan. Eng qadimgi Sharq mamlakatlarida uzoq-yaqin qoʻshnilar bilan sannaʼrali savdo-sotiq munosabatlarini oʻrnatish, shuningdek, ularga qarshi muvaffaqiyatli urushlar olib borish uchun ham birinchi navbatda, etnologik bilimlarga ega boʻlish zarur edi.

Jahonda eng qadimgi yozuvlar sirasiga kiruvchi ierogliflar, shumer va eroniy mixxatrlari hamda qoyatosh bitiklarining guvohlik berishicha, qadimgi Misr, Mesopotamiya va Eron aholisi qoʻshni va uzoq xalqlar hamda elatlar toʻgʻrisida batafsil maʼlumotga boʻlgan. Ushbu maʼlumotlar faqat yozma manbalardagina emas, balki xalq ogʻzaki ijodida ham tulli rivojlanib, hikoya va afsonalar koʻrinishida aks etgan. Masalan, qadimgi mesopotamiyaliklarning "Gilgamesh" dostoni, miloddan avvalgi XX asrlarda Misrda yaratilgan "Sinuxet sarguzashtlari", keyinroq tosh va qahr toshlarga bitilgan zafaronmalar, Tel-Amarnadan topilgan arxiv hujjatlar, qadimgi Shumer va Ossuriya obidalaridagi yozuvlar, Eron-ahamony podshohlarining deklarativ (bayonot) matnlari va tevarak-atrofdagi mamlakatlar aholisi toʻgʻrisida nodir maʼlumotlar bizgacha yetib kelgan.

Antik davrga kelib etnologik bilimlar bir muncha kengayib va ko'payibgina qolmay, madaniyatning o'sishi bilan bazi nazariy xulosalar ham vujudga kelgan.

Qadimgi greklarning "Iliada va "Odiseya" dostonida yaqin qo'shni elalar to'g'risida afsonaviy ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa, ularning Kichik Osiyo va Qora dengizning shimoliy qirg'oqlarida "Buyuk kolonizatsiyasi" (mil. avv. VII-V asrlar)dan keyin tevarak-atrofdagi xalqlar to'g'risida bilimlari doirasi yanada kengaydi va va asta-sekinlik bilan boyib bordi.

Gerodotning noyob etnologik ma'lumotlar bilan mashhur 9 jildlik "Tapix" asari nafaqat oddiy etnologik kuzatuv, shu bilan birga tadqiqiy xarakterga ega manbaga aylangan.

Buyuk Iskandarning Sharqqa qilgan yurishlari natijasida vujudga kelgan katta imperiya G'arbdan Sharqgacha bo'lgan ulkan hududlarda yashagan xalqlarning turmush madaniyatini o'rganishda yangi bosqich vazifasini bajardi. Ushbu davrda greklarning umumiy madaniy saviyasida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi va natijada etnologiya fanining barcha sohaları gunkirab o'sdi. Ellinizm davri (Ellin – "Ellada" so'zidan olingan sifat bo'lib, greklarning eng qadimgi nomi)da grek madaniyati Sharqda Hindiston va O'rta Osiyo, G'arbda esa Pireney yarim oroli hamda Britaniyagacha tarqalib, mahalliy xalqlarning madaniyati bilan aralashib, ular o'rtasida yangi hamda boy ma'lumotlar bilan to'ldirildi.

Ma'lumki, "xalq" tushunchasi bir nechta ma'noga ega. Ba'zan oddiy tilda bir to'p kishilarni yoki avomni "xalq" deb hisoblasak, boshqa holatda esa bir nechta elat va millatlardan tashkil topgan davlat yoki mamlatkat aholisini ham "xalq" deb ataymiz. Aslida, "xalq" so'zi arabchada "yararmoq" degan ma'noni anglatadi, lekin o'zbek tilida ushbu atama muayyan ijtimoiy tarixiy birlikni anglatadi. Etnologiyada xalq ma'nosida "emos" atamasi qo'llaniladi. Etnoslar muayyan tarixiy davrning mahsuli sifatida ayrim shaxs yoki kishilarning istagi bilan emas, balki obektiv tarixiy zaruriyat natijasida yuzaga keladi va rivojlanadi. Shuning uchun ham etnoslarning joylashuvi, ularning mazkur mintaqaning tubjoy aholisi

(avtohton yoki aborigen) ekanligi yoki boshqa yerdan migratsiya natijasida ko'chib kelganligini kelganligini aniqlashda etnografik paleoantropologik ma'lumotlardan foydalanadi. Ularning qaysi irqqa oid ekanligini aniqlashda antropologiya fani yordam beradi. Etnografiya "sof" irqni emas, balki turix tagozosi bilan o'zaro yaqinlashgan ijtimoiy birliklarni o'rganadi. Antropologiya esa u yoki bu xalq yoxud etnik birlikning jismoniy qiyofasini tipologik asosda tadqiq qiladi.

Aholining joylashuvi, o'sish dinamikasi, tevarak-atrofning ta'siri va migratsiyasi kabi masalalarni o'rganishda tarixiy-geografik va demografik tadqiqot usullaridan foydalaniladi. Etnoslarning ma'naviy madaniyati san'atshunoslik, musiqashunoslik, dinshunoslik, folklor va badiiy adabiyot bilan hamkorlikda o'rganiladi.

Mazkur fanlarning o'zaro bog'liqligi tufayli keyingi yillarda qo'shaloq ilmiy sohalar ham vujudga keldi. Masalan, etnogenez va etnik tarix muammolarini o'rganishda etnik antropologiya, paleoetnografiya va etnolingvistika kabi sohalar samarali ish olib bormoqda. Hozirgi davrdagi etnik jarayonlarni teran va keng miqyosda tadqiq qilishda keyingi yillarda o'tkazilayotgan sotsiologik tadqiqotlar yaxshi samara bermoqda. Natijadi, etnosotsiologiya va etnopsixologiya singari yangi ilmiy sohalarining vujudga kelganligi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bundan tashqari, tabiiy-geografik sharoitga qarab madaniylashmagan o'simliklarni yetishtirish va yovvoyi hayvonlarni xonaklasihtirish hamda urchitish kabi o'ziga xos turmush xususiyatlariga ega bo'lgan elatlarning xo'jalik kususiyatlarini o'rganishda etnografiya bilan hamkorlikda etnobotanika va etnozologiya kabi yangi fan sohalarini vakillari ham ish olib bormoqda.

Xalqlarni o'rganishda etnografiya fani nihoyatda keng va xilma-xil manbalar hamda usullaridan foydalanadi. Etnoslarning ko'p qirrali va rang-barang hayotini o'rganishda ularning kundalik turmush tarzini bevosita kuzatish asosida har hududning o'zidan to'plangan materiallar asosiy hamda eng manba hisoblanadi. Bir joyda uzoq vaqt mobaynida yashash va kuzatish yo'li bilan o'tkazilgan tadqiqotlar eng samarali ekanligini mashhur etnografiklar – L. G. Morgan, N. N. Miluxo-Maklay va V. G. Bogorazlar alohida qayd etgan. Bunday tadqiqotlar usuli *stasionar tadqiqot* deb ataladi. Lekin, afsuski, hozirgi sharoitda mazkur usuldan kam foydalanilmoqda. Qisqa muddat davomida va ayrim mavsumlarda o'tkaziladigan tadqiqotlar ekspeditsiyaga xos usul bo'lib, *marsumiy usul* deb ataladi.

Dala-etnografik tadqiqotlarda asosan, axborotchilardan suhbat yo'llari bilan yozma yoki diktafon orqali ma'lumotlar to'plash, muayyan maishiy-

madaniy turmush hodisalari, oila-nikoh munosabatlari va marosimlari, xalq sayillari va o'yinlarini kuzatish, ularni bevosita ishtirok etish hamda ularni jiddiy o'rganish (yozish, chizish va rasimga olish) kabi usullar qo'llaniladi. Zamonaviy texnika vositalari yordamida (raqamli videokamera va raqamli fotoapparat hamda diktofonga audio yozuvlarni yozish) va an'anaviy dala yozuvlarida xalq mahnaviy hayotining ob'ektlari hamda ko'rinishlari (an'analar, marosimlar, urf-odatlar, folklor qo'shiqlar va shu kabilar) aks etadi. Bazida dala tadqiqotlari jayronida ayrim moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari muzeylar kolleksiyasi uchun yig'iladi. Etnosotsiologik tadqiqotlar esa asosan, maxsus anketalar tarqatish yo'li bilan o'tkaziladi va ular keyinchalik kompyuter dasturlari asosida tahlil qilinadi.

Etnografiyada "madaniyat" deyilganda, asosan, inson qo'li va aql-idroki bilan yaratilgan barcha moddiy hamda ma'naviy boyliklar tushuniladi. Aslida, rus tilidagi "kultura" atamasi latinchada so'z bo'lib, "ishlab chiqarish", "yasash" va "yaratish" degan ma'nolarni anglatadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "madaniyat" so'zining etimologik mohiyati berilmasdan, umumiy tarzda "Jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuri" deb ta'riflangan. Etnologik jihatdan moddiy madaniyatga xo'jalik va transport vositalari, turar-joylar, uy-ro'zg'or va badiiy buyumlar hamda jihozlar, kiyim-kechak va bezaklar, shuningdek, milliy taomlar kiradi. Ma'naviy madaniyat deyilganda esa, etnoslarning milliy his-tuyg'ulari va tabiati, urf-odat va marosimlari, xalq o'yinlari va sayillari, raqs va kuylari, folklor namunalari, diniy tasavvurlari va hokazolar tushuniladi.

1.2. Etnologiyaga oid dastlabki yozma manbalar

Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimiy ajdodlari to'g'risida ma'lumotlar juda ham kam. Qadimgi Sharqning Eron, Bobil va Ossuriya davlatlari hukmdorlari o'zlarini ulug'lash maqsadida toshga bitilgan zafaromalarda bosib olingan elat va xalqlari tilga olinib, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi ajdodlari moddiy-ma'naviy madaniyati to'g'risida ayrim ma'lumotlariga keltirilgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimiy ajdodlari va ularning turar-joylari, urf-odat va marosimlari to'g'risida noyob ma'lumotlarni bizgacha yetib kelgan zardushiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da ham ko'rish mumkin. Miloddan avvalgi VI-I asrlardan arab istilosigacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyo xalqlariga tegishli ma'lumotlarni qadimgi Eron podshohligiga oid qoyatosh bitiklari, parfyoni, sug'diy, xorazmiy va

buxtoriy yozma yodgorliklari, xitoy yilnomalari, Xitoyning g'arbdaagi o'lkalariga yuborgan xufiyalari Chjan Szyan, Syuan Szan va Xoy Chao sayohatnomalari, qadimgi yunon va Rim tarixchi hamda geograflarning asarlari, sosoniyalar Eronning forsiy-pahlaviy va arman tilidagi manbalar hamda qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda uchratish mumkin.

Arab hukmronligi o'rnatilgandan keyingi davrlar (IX–XII asrlar)da mashhur tarixchi va geograf Abu Ja'far ibn Muhammad ibn Jarir at-Tabariy va sayyohlar – ibn Xurdodbeh, al-Balxiy, al-Isfariy, ibn Havqal, Mas'udiy hamda Yo'qut Hamaviylar o'z asarlarida zamonadosh elatlar to'g'risida bog' ma'lumotlar yozib qoldirgan. Masalan, Xurosonda yashagan atqoli geograf olim Abu Zayd Balxiy 60 ga yaqin asar yozgan bo'lib, uning asarlarida keltirilgan xaritalardan birinchi Buxorodagi Somoniylar kutubxonasida saqlangan. Muallif unda mahalliy elatlar to'g'risida muhim ma'lumotlar beradi. Eronlik geograf va sayyoh al-Isfariy Balxiy bilan Samarqandda uchrashib, uning asarlarini o'rganib, yangi ma'lumotlar bilan to'ldirgan. Iroqlik sayyoh ibn Havqal esa O'rta yer dengizi bo'yidagi mamlakatlarga doir ma'lumotlarni to'plagan.

Shunday qilib, Abu Zayd Balxiy, al-Isfariy va ibn Havqalning asarlarida Sharq xalqlari etnografiyasi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar to'plangan. Ularga ilova qilingan dunyo va ayrim viloyatlar hamda elatlarning joylashuv xaritalari esa noyob manba hisoblanadi. Ammo, ma'lum bo'lishicha, mazkur xaritalarning bazilari Muso al-Xorazmiy va boshqalar tomonidan chizilgan xaritalarga asoslangan. X asrda Balxiy va uning muxlislari butun Sharq kartografiyasining samaralarini jam qilib, yaklit bir asar shakliga keltirgan. Ularning asarlarida yer yuzi 20 ta "iqlim"ga bo'lingan. Shartli ravishda "iqlim" deb atalgan viloyatlar shuqardan g'arbga qarab ta'riflangan, har birida shaharlar, yo'llar, yetishtiriladigan mevalar, ishlab chiqariladigan mahsulotlar hamda boshqa qiyosbotlarning ta'rifi berilgan.

Atqoli olim Yo'qut Hamaviy o'zining geografik lug'atida Abu Zayd Balxiy ta'rifiga asoslanib, Toshkent to'g'risida shunday yozgan edi: "Sho'fiy yoz faslida baramisoli jannat, kishini issiq ta'siridan qalqondek saqlaydi". Buxoroni esa Balxiy bunday tasvirlaydi: "Qo'rg'ondan tashqari germanzaralikda Buxorodan chiroyliroq shaharni ko'rmadim... Osmo gumbari bilan ko'klamzorlar oralig'ida ko'ringan qasrlar ko'kdagi yulduzlarga o'xshaydi, ekinzorlar sathi tep-teks. Buxoroliklarning ekinzorlari bepoyon va unga teng keladigan joy Xurosonda ham, Movarounnahrda ham toplanmaydi".

Movavonunahning buyuk mutafakkirlari, mashhur matematik olim Muhammad al-Xorazmiy, faylasuf Abu Nasr Forobiy, ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniy va buyuk tabib Abu Ali ibn Sino, geograf va astronom Al-Farg'oni, shuningdek, arab muarrix Abu Sal'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniylar kabllarning asarlarida o'zbeklar va Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari ajdodlari, ularning maishiy turmush tarzi va mahaviy madaniyatining ayrim jihatlari ta'rif berilgan.

Tarixiy va etnologik jihatdan nihoyatda muhim manbalar qatorida "Dada-Qo'rqu", "Alpomish", "Manas" va "Go'ro'g'li" dostonlari hamda boshqa xalq og'zaki ijodi namunalari hissi ham beqiyosdir.

IX-XII asrlardagi Sharq Renessansining birinchi bosqichida Markaziy Osiyoda fan va madaniyat yuksak darajada rivojlandi. Dastlabki ilmiy etnologik ma'lumotlar ham aynan uyg'unlash davrida paydo bo'la boshladi. Arxeolog S. P. Tolstovning ta'rificha, "So'nggi Afrig'iylar davrida Xorazm Arab xalifaligi tarkibiga kirgach, xorazmlik olimlar shuhrat qozongan va "arab fani" deb atalgan faning yaratuvchilari orasida eng yuqori o'rinni egallagan. Bularning orasida mashhur siyma Muhammad Muso al-Xorazmiyning nomi alohida qayd etilganligi shubhasiz. Uning nomi bilan hozirgi ilmiy-texnik taraqqiyotning neqizini tashkil qiluvchi matematikaning algoritim va boshqa fan tarmoqlari ham bog'liq. Muhammad Muso al-Xorazmiyning arifmetika va algebrasi ko'p tillarga tarjima qilingan bo'lib, "Aljabr" val muqobala" nomi asaridan "algebra" atamasi kelib chiqqan. Al-Xorazmiyning geografiya, tarix va etnografiya sohasidagi xizmatlari ham bemihoyat katta. U geograf sifatida Bag'dod xalifasi Xazarifraga yuborgan elchilari qatoriga kirgan, degan ma'lumotlar mavjud. Mashhur arxeolog S. P. Tolstov yozganidek, "Sharqiy Yevropa geografiyasi va etnografiyasiga doir dastlabki ma'lumotlarga ayini Xorazmiyning o'zi asos solgan. Keyinchalik ushbu ma'lumotlar geografik asarlarning biridan-ikkinchisiga o'tib, eng aniq va o'zgarasiz ma'lumot bo'lib qoldi".

Xorazmda tug'ilib, Bag'dodda ta'lim olgan, mashhur Ma'mun akademiyasi "Baytul al-hikma" ("Donishmandlar uyi")da eng yirik namoyondalardan biri sifatida tanilgan va 70 dan ortiq olinga dunyo atlasini tuzishda rahbarlik qilgan Muhammad al-Xorazmiy taxminan 840-yilda o'ziga yuklatilgan vazifani to'liq bajarib, u tomonidan tuzilgan xarita "Jahon xaritalari" yoki "Ma'mun dunyo xaritasi" nomi bilan mashhur bo'ldi. Mazkur birinchi jahon atlasining tuzilishi munosabati bilan unga izohnoma tarzida al-Xorazmiy o'zining "Cypr ar-ap's" ("Yerning surati" yoki "geografiya") nomi ajoyib asarini yaratgan. Unda bir nechta o'nlab

noyob xaritalar va ularga berilgan izohlar keltirilgan. Kitobda 537 ta eng muhim joyning nomi, shaharlar, tog' va daryolar, dengiz va orollar birma-bir yozilgan hamda ularning koordinatlari izohlangan. Muallif ba'zi nomlarga izoh munosabati bilan ularga qo'shni joylarning ham tavsifi va ta'rifini berib ketgan.

Italiyalik arabshunos K. Nallino 1895-yilda yozgan katta maqolasida Al-Xorazmiyning geografik merosiga yuksak baho berib, "Yevropadagi bitor bir xalq Xorazmiy erishgan yutuqqa erishish va bunday asar yaratishga qobil emas edi", deb qayd etgan edi. Italiya Fanlar akademiyasi Al-Xorazmiyning "Cypr ar-ap's" asarining o'z davri uchun juda qimmatli qo'llama bo'lganligi va geografiya fani taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etganini tasdiqlagan. Ushbu kitob bir nechta asr davomida qayta-qayta ko'chirilib, tarjima qilinib, to'ldirilib, qisman o'zgartirilib, yangicha tahrirda turli sarlavha va hatto imzolar ostida ma'lum bo'lib kelgan. Masalan, X asrining birinchi yarmida itroqlik Suhrob nomi shaxs "Cypr ar-ap's"ni tahrir qilib, "Етти икким китоб" nomi bilan chop etgan. Aslida, u ushbu asarga faqat so'zboshi qo'shgan. Al-Xorazmiydan ikki asr keyin yashagan Abu Rayhon Beruniy ham uning nomini ehtiromla bilan tilgan oladi.

Dastlabki ilmiy etnologik ma'lumotlar, ayniqsa, buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning asarlarida o'zining yorqin ifodasini topgan. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, Markaziy Osiyo va Xuroson geografiya tarixini aslida "Beruniyning geografiya maktabi" deb atash mumkin. Etnografiya fani ham geografiya bilan yonma-yan shakllanib kelganligini inobatga olsak, Markaziy va Janubiy Osiyo etnografiyasini ham Beruniy maktabidan boshlasak xato bo'lmaydi. Ma'lumki, ushbu ulug' allomaning asarlari butun jahonga tanilgan bo'lib, "Beruniyshunoslik" deb atalishi ham bejiz emas. Uning deyarli barcha asarlarida Markaziy Osiyo, shu jumladan, hozirgi O'zbekiston hududidagi shaharlar tilga olinib, ushbu shaharlarning tarixi, aholining etnik qiyofasi va tabiiy-geografik sharoiti haqida noyob ma'lumotlar berilgan. Masalan, Beruniyning "Qonuni Mas'udiy" nomi kitobidagi geografik jadvalda ko'rsatilgan 603 joyning 85 tasi Markaziy Osiyoga tegishli bo'lib, ularning ko'pchiligiga qisqacha izohlar berilgan.

Muallifning etnotoponimiyaga oid ma'lumotlari ham bebaho. Amudaryo va Qoraqumning qadimgi geografiyasi hamda etnotoponimiyasini birinchi bo'lib tekshirgan va ilmiy jihatdan to'g'ri izohlab berilgan Beruniyning "Amydape makonaci" deb atalgan maqolasida bag'inaq (rus solnomalarida pecheneglar) Orol dengizining shimoliy-g'arbiy tomonida, Xorazm shaharlaridan Kat esa Jayhunning

sharqiy qirg'og'ida joylashganligi haqida Xorazmning ikkinchi, eng qadimiy markazlaridan biri ekanligi ta'kidlanadi.

Mazkur asarda Toshkent shunday ta'riflangan: "Binkat – Shoshning markazi turkcha Toshkand". Buxoro yonidagi Paykand shahri Azhayin, Qashqadaryodagi Kash forscha tushunari emas, deb xabar qilinadi. Sirdaryoning eng qadimiy nomi "Yaksart" ekanligi to'g'risida fikr bildirib, olim unga shunday izoh bergan edi: "Sutkand Shosh viloyati deb mashhur bo'lgan Yaksart daryodir". Demak, Bermaniyning ta'rif berishicha, qadimgi yunon manbalarida tilga olingan "Yaksart" atamasi Sirdaryoning grekcha nomi emas, balki asl o'g'uzlar yashagan yurtdagi daryoning nomi bo'lgan "Hasrat (yoki Kasart)" so'zining yunoncha buzilgan shaklidir.

Abu Rayhon Bermaniyning ilmiy merosi Markaziy Osiyo bilan qo'shni, ayniqsa, Janubiy Osiyoda yashagan elat va xalqlar to'g'risidagi tarixiy-etnologik ma'lumotlar jahon xalqlarining etnik xususiyatlari haqida tushunish tarzini o'rganishda noyob manba hisoblanadi. Afsuski, tarixiy etnografiya fanida mazkur ma'lumotlar yetarli darajada o'rganilmagan.

Turkiy xalqlar, shu jumladan, o'zbeklar etnografiyasi va etnik tarixini o'rganishda o'rta asrlar mualliflaridan Mahmud Koshg'ariyning "Devony mufohit tyrk" asari alohida o'rinni egallaydi. Ushbu asarda ayrim shahar va qishloqlar aholisining lingvistik haqida etnik tarkibi, ijtimoiy tuzumining qisqacha ta'rif, etnotoponimikasi, ayrim qabila va urug'larning joylashuvi to'g'risida noyob ma'lumotlar keltirilgan. Eng muhimi, ushbu kitobda o'zbeklarning qadimiy ajdodlari hisoblangan chig'il, yag'mo, qarluq, qipchoq, tuxsi va boshqa urug'larning ijtimoiy haqida oilaviy turmush tarzi, urf-odat va marosimlari, qolaversa, diniy e'tiqodlari kabi ayrim etnologik xususiyatlarni aniqlashga yordam beradigan izohlar mavjud. Mahmud Koshg'ariy Jayhundan to quyi Chin (Xitoy)gacha bo'lgan qabilalarning hammasini chig'il, deb atashning xato ekanligi va bu yerda juda ko'p urug'lar borligini alohida ko'rsatib bergan.

Mahalliy aholining ijtimoiy-siyosiy hayoti, etnotoponimiyasi, diniy e'tiqodlari va etnik qiyofasi haqida ayrim etnoslar (elat va qabilalar)ga oid qimmatli etnografik materiallar Abu Bakr Narshaxiyning "Buyxopo rapxru" asarida ham mavjud.

Ma'lumki, XIII asr boshlarida Chingizxon, keyin esa uning merosxo'rlari nihoyatda keng hududga tarqalgan imperiyani yaratgan edi. Bunday qudratli davlatning qisqa muddat ichida paydo bo'lishi va uning kuch-qudrati nimada ekanligini bilish Yevropa mustabidlari va Rim papasi uchun katta bir muammo bo'lib kelgan. Shuning uchun ular mazkur davlat

bilan siyosiy, savdo va diplomatik munosabatlarni o'rnatishga intilib, o'z elchilarini yuborib turgan.

Dastlab ushbu maqsadda faol harakat qilgan Rim papasi Innokentiy IV 1245-yilda Mo'g'ulistonga monax Plano Karpini boshchiligidagi elchilarni jo'natadi. Undan keyin shu yo'l bilan flamanlik monax V. Rubruk sayohat qilgan va o'z taassurotlarini yozib qoldirgan. Mashhur sayyoh Marko Polo ham Rim papasi toposhig'i bilan bir necha yil Xitoy va unga qo'shni mamlakatlarga borib, muhim etnologik ahamiyatga ega bo'lgan "Caèxarhoma" yaratgan.

Shuningdek, o'sha davrda yashagan mualliflardan tarixchi Fazlulloh Rashiddin (1247–1318) o'zining asarida o'zbeklar tarkibiga kirgan ayrim turk va mo'g'ul urug'lar to'g'risida muhim tarixiy-etnologik ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Uning Markaziy Osiyo, Eron va qo'shni mamlakatlar tarixi haqida etnografiyasi to'g'risidagi "Jkome yt-rabopux" nomli kitobi juda qimmatli manba bo'lganligi tufayli ko'p olimlar tomonidan sharhlangan, tahrir qilib to'ldirilgan va o'rtiqcha tafsilotlari qisqartirilgan. Shunday olimlardan bin Ohangaron bo'yidagi Banokati shahridan chiqqan tarixchi va geograf Faxriddin Abu Sulaymon Banokatib bo'lib, ushbu alloma mazkur asarni qayta ishlashga muvaffaq bo'lgan.

Qudratli imperiya tashkil qilgan Amir Temur va uning vorislari hukmonilik qilgan davrda Markaziy Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston yirik madaniyat markaziga aylandi haqida boshqa mamlakatlar bilan savdo va diplomatik aloqalar har tomonlama kuchaydi. Sohibqiron tomonidan yaratilgan "Temyr tyvkraput" ham noyob manba hisoblanadi. O'sha davrda yashagan va saroy tarixchisi bo'lib, Temuriylarga xizmat qilgan Hofizi Abro' "Jyóðar yt-rabopux" ("Tarixlar qaymog'i") nomli yirik tarixiy-etnologik asarini yozgan edi. Ushbu asarda Movarounnahrda oid ba'zi etnologik ma'lumotlar ham keltirilgan. Muallif mazkur o'lita (Movarounnahr)ning geografik ta'rifini yozar ekan, ayrim shahar va tumanlar to'g'risida batafsil hikoya qiladi. Masalan, asarda Samarqandning qisqacha tarixidan so'ng shahar va uning atroflari, qalalar, saroylar, masjidlar, bog'lar va qishloqlar ta'rif berilgan.

Buxoro haqida gapirilganda, asosan, aholining kundalik mashg'uloti va turmush tarzi tasvirlanadi. Muallifning yozishicha, "Buxoro mevasi hamma mevalardan yaxshi va shirindir, xususan, Buxoro olxo'ri butun yer yuziga tarqalgan, u yerda qeynatilgan qiyomni asaldan farq qilib bo'lmaydi. Tamomi dasthada mol bisyor, o'tinni aksari bog'lardan yig'ishadi, tashqaridan keltirishadi. Va yana Buxoroning xosiyatlaridan deydlarki, odamlaridek g'aribdo'st, kishilar hyech mavzeda yo'qdir".

Olim Kesh (Shahrisabz)ni ham ta'riflab, yaqinida tog', unda hasrang tosh bo'lib, tiniq va ba'zan rangdor, undan har xil buyumlar taroshlanadi, deb yozgan edi. Kesh – Movarounnahrning issiq joyidir, gohida ushbu shaharda qurg'oqchilik va vabo bo'ladi. Shahar va uning atrofiga madrasalar, xonqohlar, raboatlar va hovuzlar qurilgan. Keshga yaqin joylashgan Naxshab (Nasaf)da bog'larga quduqlardan suv olinadi, tegimonlarni chorva qo'shib aylantiradi, deb ta'rifladi. Asarda keltirilgan suratlar ichida eng muhimi dunyo xaritasidir. Bugungi kunda Hofizi Abro'ning "Zyodlar y'r-ravopux" ("Tarixlar qaymog'i") asarini qo'lyozma nusxasining biri Toshkentda, ikkinchisi esa Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

Ayrim olimlarning fikricha, Hofizi Abro'ning bosh asari hisoblangan dunyo xaritasi butun Sharq olimlari faxrlansa arziydigan manba bo'lib, muallif mashhur Beruniy va Najib Bakron kartografiya an'analarni davom ettirib, dunyoga tanigan. 1419-yilda Xuroson hokimi Xitoyga elchilar yuborgan va ularning orasida geograf olim Hoji G'iyosiddin Naqosh ham bor edi. Elchilar o'z yurtlariga Andijon, Samarqand, va Amudaryo orqali jo'hab ketgan. G'iyosiddin uch yil davom etgan safari mobaynida yozganlarini Shohruh Mirzoga topshirgan. Bularni dastlab Hofizi Abro' o'qib ko'rib, uning ayrim qismlarini o'z asariga kiritgan. Unda muallif qo'shni mamlakatlar to'g'risida ko'pgina ma'lumotlar berganligi uchun mazkur xotira daftari G'arbiy Yevropa va turk tillariga bir necha bor tarjima qilingan.

Mazkur davrga oid ba'zi qiziqarli etnologik ma'lumotlarni ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning sayohat kundaliklari (1404-yil), rus sohomalari va mahalliy mualliflar: Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Husayn Qubraviy, Ali Qushchi va boshqalarning asarlarida uchratish mumkin. Masalan, Zahiriddin Muhammad Boburning avtobiografik asari hisoblangan "Boburnoma"da – Temuriylar davlatining yemirishi, Movarounnahr va qo'shni mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hayoti har tomonlama batafsil tasvirlangan bilan alohida diqqatga sazovoridir. Yirik davlat arbobi Bobur Mirzo ko'p o'ikalarni egallab, o'z boshidan kechirgan sarguzashtlarini yozib qoldirgan. Uning "Boburnoma" asarida Markaziy Osiyoga oid muhim tarixiy-etnologik ma'lumotlar keltirilgan. Muallif Movarounnahr va unga qo'shni bo'lgan mamlakatlarda yashagan elatlarning etnik tarkibi va tarixi, urf-odat hamda marosimlari va madaniyati to'g'risida ma'lumot beradi. Buyuk alloma tomonidan keltirilgan ma'lumotlarning to'g'rligini Xondamir, Muhammad Haydar

Mirzo Muhammad Solih va Kamoliddin Binoiy kabi tanilgan tarixchi hamda shoirlar ham tasdiqlaydi. Uning Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Qashqar, Koson va Marg'ilon kabi yirik shaharlar to'g'risidagi ta'riflari muhim etnologik ahamiyatga ega.

Zahiriddin Muhammad Boburning to'ng'ich qizi Gulbadanbegim o'zining iste'dodi, bilimdonligi va idrokiligi bilan olasining ishini davon ettirib, "Xumono" nomi tarixiy-biografiya asar yaratgan edi. Tadqiqotchilarning fikricha, mazkur asarni "Boburnoma"ning uzviy davomi desa ham bo'ladi. Unda 140 ta mavze – dahalarning nomlari zikr etilgan bo'lib, Toshkent hamda Andijondan to'qshig'ar va Hind okeani bo'ylarigacha bo'lgan hududda joylashgan shaharlar va viloyatlar, ularning aholisi haqida batafsil ma'lumotlar bayon etilgan.

XVI asr oxirlarida yashab ijod etgan atiq shoir, tarixchi va o'lkashunos Hofiz Tanish Buxoriyning "Adudlanoma" (Sharafnoma) shohiy) asarida boshqa manbalarda uchramaydigan turli tarixiy-etnologik materiallar keltirilgan. Muallif asarni yozishda movarounnahrlik olimlardan Abu Bakr Muhammad Narshaxiy, Hofizi Abro' va Muhammad Haydar Mirzo asarlariga tayangan. Asarda yozilishicha, Movarounnahrda "xdt shahar bo'lsin, xoh qishloq, xoh tekislik, xoh o'tloq – obodonlikda, unga teng mamlakat yo'q".

XVI asr boshlarida Dashti Qipchoq o'zbek urug'larining Movarounnahr hududiga kirib kelishi, ularning etnik tarkibi, joylashgan hududlari, turmush tarzi va urf-odalari haqida Mas'ud ibn Qo'histomiyning "Tarihi Adulxayroniy", Muhammad Solihning "Shayboniyoma" va Abulxayr Fazlulloh Ro'zbexonning "Muxommonan Buxoro" kabi asarlarida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Shubhasiz, islom madaniyat, fani, adabiyoti va she'rivotida muhim rol o'ynagan Umar Xayyom va Nost Xisravlardan keyingi buyuk donishmandlardan Xoja Ismoil al-Buxoriy, Hakim al-Termiziy, Ahmad Yassaviy, turkiy she'riyat mulki suloni Alisher Navoiy kabilari ham etnologik lavhalariga boy asarlarini yaratgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining etnik tarixini o'rganishda Munir, Ogahiy va Bayoniyning asarlari ham alohida o'tin egallaydi. Ushbu davrga oid etnologik jihatdan nihoyatda muhim manba Xiva xoni va mashhur tarixchi hamda geograf olim Abul'oziz Bahodirxonning qalamiga mansub "Шажарайи турк" hamda "Шажарайи туркнома" asarlari hozirgacha o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan.

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI O'LIY TALIMI,

FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXBOROT RESURS MARKAZI

2-FILIALI

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI O'LIY TALIMI,

FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXBOROT RESURS MARKAZI

1.3. Yevropa mamlakatlarida Markaziy Osiyo xalqlari tavsifi

Tarixdan malumki, XVI–XVII asrlarda Markaziy Osiyo hududida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tashkil topganidan keyin Rus davlati bilan munozam ravishda savdo hamda diplomatik munosabatlar o'rnatila boshlandi. XVI asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyodan Rossiyaga sakliz marta elchilar yuborilgan bo'lsa, XVII asrda Xiva xonligidan 12 marta, Buxorodan esa 13 marta elchilar jo'natilgan. Bunga javoban, Rossiya davlati ham o'z elchilarini o'zbek xonliklariga yuboradi va ularga diplomatik vazifalardan tashqari mazkur o'lkalar to'g'risida ma'lumotlar to'plash vazifasi ham yuklatiladi. Shuni qayd etish kerakki, rus elchilarining ma'lumotlari ilmiy jihatdan hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan manbalar sirasiga kiradi.

Ushbu sohadaagi tashabbusni dastlab 1558-yilda Xitoydan Markaziy Osiyo orqali o'tadigan savdo yo'lini aniqlash maqsadida Moskvaga kelgan Angliya savdo kompaniyasining vakili Antony Jenkinson boshlab bergan edi. U Moskva hukumati yordamida Astraxan va Kaspiy dengizi orqali Mang'ishloq yarim oroliga chiqib, u yerdan savdo karvoni bilan Xiva hamda Buxoroga boradi. Qishni o'sha yerda o'tkazib, 1558-yilda Buxoro va Xivadan qo'shib yuborilgan elchilar bilan Moskvaga qaytib keladi. Antony Jenkinson o'z maqsadiga erishmagan bo'lsa-da, Rossiya va o'zbek xonliklari o'rtasida munozam munosabatlarning o'rnatilishiga sababchi bo'ldi hamda ushbu o'lkalar to'g'risida ayrim ma'lumotlarni to'plashga muvaffaq bo'ldi.

Mazkur munosabatlar ayniqsa, XVIII asrda kuchaydi. Pyotr I davridan boshlab Rossiya imperiyasi iqtisodiy jihatdan rivojlanib, xom ashyo manbai va sanoat mahsulotlari sotadigan yangi bozorlarga muhtoj bo'lib qoladi. Natijada, qo'shni mamlakatlar, shu jumladan, O'rta Osiyo xonliklariga ham diplomatik savdo vakillari yubora boshlaydi hamda ularni o'rganish bo'yicha maxsus ekspeditsiyalar tashkil qilindi. Pyotr I O'rta Osiyoni o'z ta'siri ostiga olish va ushbu boy o'lka bilan savdo munosabatlarni kuchaytirish maqsadida ikkita ekspeditsiya tashkil etadi. Ushbu ekspeditsiyalarning bittasiga knyaz Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy, ikkinchisiga esa Ivan Buxgol'sni rahbar qilib tayinlaydi.

Mazkur ekspeditsiyalar mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, Pyotr I umrining oxirigacha xonliklarning hayoti va ushbu o'lkaga yo'l ochish imkoniyati to'g'risidagi ma'lumotlarga to'liq ega bo'lish maqsadidan voz kechmadi. Uning buyrug'i bilan 1718-yilda Kaspiy dengizini tekshirish uchun yangi ekspeditsiya tashkil qilindi. Bu va undan oldingi ekspeditsiyalarning to'plagan materiallari asosida 1720-yilda Kaspiy

dengizining birinchi xaritasi tuzilgan edi. Kelasi yilda Buxoroga elchi bo'lib kelgan Florio Benveni Xivaga ham borib, 1725-yilda Rossiyaga qaytib kelib, ushbu mamlakatlar to'g'risida qimmatli geografik, tarixiy hamda etnologik ma'lumotlar to'plashga muvaffaq bo'lgan edi.

Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasiga oid ilmiy ahamiyatga ega materiallar to'plash davri keng mahoda XIX asrdan boshlandi. Ushbu davrdagi ko'pgina yirik ekspeditsiyalarning asosiy bazasi hisoblangan Orenburg shahri bu sohada muhim rol o'ynagan edi. Orenburgning ilmiy markazga aylanishida uning birinchi gubernatori geograf N. K. Kirillov katta hissa qo'shdi. XIX asrning I yarmida N. N. Muravyov, A. F. Negin, N. V. Xanikov, G. I. Daniyevskiy va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasini o'rganishdagi muhim ilmiy qadamlar edi.

Ularning orasida 1819–1870-yillarda Xiva xonligiga sayohat qilgan N. N. Muravyovning nomini alohida qayd etish kerak. U o'z taassurotlarini yozib, chop ettirgan edi. Ushbu tadqiqotchi qalarniga mansub "Esdalik" asarining ba'zi boblarida o'zbeklarning diniy e'tiqodlari, urf-odatlar, kiyim-kechaklari va uy-ro'zg'or buyumlari hamda urug'-aymqchilik an'analarga oid muhim etnologik ma'lumotlar keltirilgan.

Rossiya bilan Markaziy Osiyo o'rtasidagi ko'p asrlik savdo va diplomatik munosabatlar, Sibir liniyasi hamda Orenburg guberniyasining tashkil etilishi, ushbu ikki o'lkani iqtisodiy jihatdan bir-biriga yaqinlashtirib, bosqinchilik siyosatiga o'tgan Rossiya imperiyasi hukumatining talonchilik niyatlarini amalga oshirishga shart-sharoit yaratgan edi. Natijada, XX asrning 60–80-yillarida Rossiya imperiyasi Buxoro va Xiva xonliklarining kattagina qismi hamda Qo'qon xonligini to'liq bosib olib, o'z mustamlakasiga aylantirdi.

Tadqiqotchi V. P. Nalivkin o'lka etnografiyasini o'rganishda ko'zga yuqol ko'zga tashlanadigan muhim tadqiqotlarni amalga oshirgan edi. Akademik V. V. Bartoldning ta'rificha, V. P. Nalivkin "Ruslar orasida o'zbeklarning tili, turmushini eng yaxshi bilgan olimdir". U rafiqasi bilan hammualliflikda 1886-yilda Qozon shahrida "Фаронадаги ўтрок маҳаллий аҳоли хотин-қизларининг турмуш ҳақида лавҳалар" nomli asarini nashr etgan edi.

Etnologik materiallarni keng ommaga yetkazish va ularni saqlab qolishda ilmiy jurnallar, statistik komitetlarning to'plamlari hamda "Тыксетарские ведомости" gazetasining xizmatlarini alohida qayd etish o'rinni. Mazkur davrda nashrlarda A. A. Kun, A. A. Divayev, A. P. Ostroumov, N. S. Likoshin, N. Gabbin, A. N. Kushakovich,

V. K. Razvadovskiy, A. A. Semyonov, N. A. Kirpichnikov, A. D. Kallyakov, F. Pospelov va boshqalarning asarlari tez-tez nashr etilgan.

Markaziy Osiyo xalqlarini etnologik jihatdan o'rganishda 1872-yilda Moskvada ochildigan politexnika ko'rgazmasiga qo'yilgan Markaziy Osiyo xalqlarining kiyim-kechaklari, hunarmandchilik mahsulotlari katta qiziqish tug'dirdi.

O'sha ko'rgazmada ko'rsatilgan kolleksiyalarning ta'rifi keyinchalik nashr qilingan maxsus katalogda berilgan. Ko'rgazma munosabati bilan tayyorlangan "Туркестон фотро альбому" aynigsa katta ahamiyatga egadir.

447 ta karton varoqda 1262 ta fotosurat va rasmlar fan jamoatchiligi tomonidan yuksak baholandi. Albomning asosiy g'oyasi Turkiston va undagi hayoti tarix, antropologiya, etnografiya va san'at jihatidan tasvirlab berishdan iborat edi.

Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi va etnografiyasini o'rganishda XIX asrda tashkil etilgan ilmiy jamiyatlarning roli nihoyatda kattadir. Rus Geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi, tibbiyot, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyatining Turkiston bo'limi, Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi, Turkiston qishloq xo'jalik jamiyati, Xomutov to'garagi, O'rta Osiyo olimlar jamiyati, Rus texnika jamiyatining Turkiston bo'limi, sharqshunoslik jamiyatining Toshkent bo'limi, Turkiston tabiatshunoslari va vrachlari jamiyati, Turkiston tibbiyot jamiyati hamda Farg'ona va Samarqand vrachlari jamiyatlari – ushbu muassasalar ko'lamining naqadar keng ekanligini ko'rsatib turibdi.

Shunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida o'zbeklar va Markaziy Osiyoning boshqa xalqlarini etnologik jihatdan o'rganishda muhim qadamlar tashlangan edi. Mustamlakachilik siyosatiga amal qilib kelgan fanning tor doiradagi talimoti va cheklangan imkoniyatlariga qaramay, o'sha davridayoq Turkiston xalqlari tarixi va etnografiyasiga oid boy ma'lumotlar keyingi tadqiqodlar uchun muhim fundament vazifasini bajargan edi.

1917-yildan so'ng tadqiqotchilar, shu jumladan, etnografilar orasida tabaqalanish boshlandi. Ya'ni, ayrimlari yangi tuzum tarafdori bo'lsa,

boshqalari esa sovetlarga qarshi kuchlar tomoniga o'tib ketdi. Ammo, rus olimlari an'analarni davom ettirib, yoshi etnografikni tayyorlashda o'z himmlarini qo'shdi. Masalan, etnograf va sharqshunoslardan N. G. Malitskiy, M. S. Andreyev, A. A. Semyonov hamda A. A. Divayevlar O'rta Osiyo Davlat universitetida qolib, o'z ilmiy ishlarni davom ettirdi.

O'rta Osiyo Davlat universitetida o'zbeklar etnografiyasi bo'yicha maxsus kurs kiritilib, etnografiya fanining tasviriqotchisi N. S. Likoshinning bu boradagi faoliyati diqqatga sazovor. Keyinchalik O'rta Osiyo Davlat universitetining maxsus fakultetiga aylangan Shax matluti o'quv rejasida etnografiya faniga alohida e'tibor berilganligi tufayli sobiq talabalar orasidan yirik olimlar yetishib chiqdi.

XX asrning 20-yillarida o'zbek xalqi etnogenezi va urug' qabilaviy tuzilishi, ijtimoiy hamda oilaviy turmush tarzi, xo'jaligi va boshqa masalalarga oid bir necha etnologik asarlar paydo bo'ldi. Ilk nashrlardan professor Ye. D. Polivanov va etnograf L. P. Potapovlarning ishlari diqqatga sazovordir. G. Golser o'zbeklarning dehqonchilik xo'jaligi to'g'risida kitob chiqargan bo'lsa, F. Gavrilov, M. S. Andreyev va A. N. Samoylovichlar esa hunarmandchilikka bag'ishlangan asarlarni yaratdi.

Shunday bo'lsa-da, bugungi kunda Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasiga oid qator masalalar atroflicha o'rganilmagan, ayniqsa, o'zbek xalqi etnogenezi, moddiy va ma'naviy madaniyati bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar yetarli emas. Ushbu muammolarni mamlakatimiz va jahon etnografiya fanining qo'lga kiritgan so'nggi yutuqlariga asoslangan holda hal etish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Etnologiya fani nimani o'rganadi?
2. Etnologik ma'lumotlar beruvchi asarlar borasida nimalarni bilasiz?
3. Etnologiya fanining tadqiqot usullarini aniqlang?
4. Markaziy Osiyo xalqlari ajdodlari to'g'risida dastlabki ma'lumotlar qayeri manbalarda uchraydi?
5. Dastlabki ilmiy etnologik ma'lumotlar qachon paydo bo'la boshlagan?
6. Turli tarixiy etnologik ma'lumotlar bir-biridan qaysi jihatlar bilan farq qiladi?
7. Rossiya imperiyasi davrida o'lkada olib borilgan etnologik tadqiqotlar ko'lamini to'g'risida nimalarni bilasiz?

8. Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid rus manbalari haqida nimalarni bilasiz?
9. Mintaqa xalqlari tarixiga oid Yevropa manbalari to'g'risida ma'lumot bering?

II BOB. MARKAZIY OSIYO MINTAQASINING TARIXIY-ETNOLOGIK TAVSIFI

*

Mintaqa o'ld tayanch so'z va iboralar: Tarix, Turon, Transokkaziya, Turon hududlari, Turkiston o'lkasi, antropologiya, O'ral Osiyo ikki daryo oraliq'i tipi, mongoloid, yevropeoid, Janubiy Sibir tipi, Oltoy oilasi, turkiy tillar guruhli, hind-Yevropa tillari oilasi, eroniy tillar guruhli, o'g'uz tillari guruhli, qipchoq tillari guruhli, "Avesto" tili, Sug'd tili, Qadimgi Xorazm tili, Bag'riya tili, Parfiya tili, Yag'nob tili, tojik tili, qashqar, elat, xalq, turkiy xalqlar, Xun imperiyasi, Turk xoqonligi, jian-huanlar, efthalylar.

II.1. Markaziy Osiyoning geografik o'rni

Markaziy Osiyo – Osiyo materigining ichki qismidagi tabiiy hudud bo'lib, maydoni 6 mln. km² dan iborat. Shimoliy va g'arbiy chekkani Mongoliya va XXR bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi davlat chegarasigacha bo'lib, sharqiy qismi Katta Shingon, janubiy tomoni esa Tibet hududidagi Sangpo (Brahmaputra) va Hind daryolarining yuqori qismi bilan o'ralgan. Markaziy Osiyo dengiz sahndan ancha balandda joylashgan.

Kelafi kenglik bo'ylab cho'zilgan tog' tizmalari (Mongoliya Oltoy, Xonguy, Xontey, Tyan-shan, Nanshan, Kunlun) va keng hamda ancha chuqur botiqlar (Jungoriya va G'arbiy Mongoliyadagi Katta Ko'llar soylig, Turan hamda Saydam)dan iborat. Ayrim joylarda mutlaq balandlik dengiz sathidan past (mass, Turfon botiq'i – 154 m). Qum va shag'alli balard to'plamlar, kichik tog' ko'p. Iqlimi hamma yerda keskin kontinental, cho'l iqlimi, yog'in kam, yiliga o'rtacha 100–200 mm, markaziy qismlarda 10–30 mm, chekkalarida 300–400 mm, janubiy-sharqida, Tibet tog'larining etraflarida 1000 mm va undan ham ko'proq.

Qishda antitsiklon ta'sirida qattiq sovuq bo'ladi, yanvarning o'rtacha temperaturasi – 10°, – 25°, eng past temperatura – 50°, – 52°. Yangi tog', Nanshan va Qorag'urum tog'larida muzliklar mavjud. Seleng, Irtysh, Xunxue, Yanszi, Brahmaputra, Hind, Mekong, Tarim, Xaydik'od, Kelado, Tes, Mamas, Urunqu va Edzin-gol daryolari tog'lardan boshlanad. Chuqur suvi eng katta Xubusugul oqar ko'lining maydoni 2620 km², eng chuqur joyi – 238 m. Markaziy Osiyoning katagina qismini G'ol, Taklamakon, Alashan va boshqa cho'llar egallagan. Cho'l va chala cho'llar baland tog'larga qacha ko'tarilib boradi. Balandlik mintaqalari asosat,

Tangitog'ning sharqiy qismi, sharqiy Tangitog'ning shimoliy yon bag'irlari va Mongoliya Oltiyniing janubiy-g'arbiy yon bag'irlarida uchraydi. Xangay va Xentey tog'lari hamda Tibet tog'ligining janubiy-sharqiy qismida anchagina o'rmonlar mavjud.

Markaziy Osiyo deganda, Sovet Ittifoqi parchalangandan keyin mustaqillikka erishgan beshta Respublika: Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston nazarda tutiladi.

Sovet davrida ushbu hududga "O'rta Osiyo" va "Qozog'iston" atamasi (O'rta Osiyo va Qozog'iston iqtisodiy region) qo'llanilgan. Lekin, 1991-yilda mustaqillikka erishilgandan keyin ham ushbu davlatlar, ham xorijiy mamlakatlarda "Markaziy Osiyo" atamasi qo'llanila boshlandi. 1992-yil yanvarda beshta davlat rahbarlari rasmiy uchrashuvida "Markaziy Osiyo" atamasini qabul qilindi. Hozirda ushbu atama dunyo hamjamiyati tomonidan qabul qilindi, natijada aksariyat xalqaro tashkilot va ilmiy tadqiqot institutlarida Markaziy Osiyo bo'limlari ochildi. Lekin, geografik nuqta nazaridan yondashilsa, Markaziy Osiyoga Afg'oniston, Mo'g'uliston va Xitoyning Shinjon-Uyg'ur avtonom viloyatlari ham kiradi. Bundan tashqari, "Greater Central Asia" yoki "Kengroq Markaziy Osiyo" atamasi mavjud. Ba'zi siyosatchi va tadqiqotchilar ushbu hududga yuqorida zikr etilgan davlatlardan tashqari Eron, Ozarbayjon, Turkiya va hatto Hindistonning ayrim qismlarini ham qo'shadilar.

II.2. Turonzamin toponimlari tarixidan

Tarix fani hozirgi kun haqida mulohaza yuritib, taraqqiyot istiqbollari belgilash maqsadida boshariyat tarixi, uning barcha qirralari va konkretligi bilan o'rganadi. Jamiyat haqidagi boshqa fanlar qatorida tarix fan ham faktlar, voqeaalar va jarayonlarni manbalar asosida o'rganadi va shu asosda jamiyot taraqqiyot qonuniyatlari haqidagi ilmiy dunyog'arashlarni shakllantiradi.

Markaziy Osiyo xalqlari turli tarixiy davrlarda har xil nomlar bilan nomlanib kelingan. Qadimgi Markaziy Osiyoga na'fatat hozirgi Markaziy Osiyo, shu bilan birga Eronning shimoliy-sharqiy va Afg'onistonning shimoliy hududlari ham kiradi.

Tarixiy-etnologik tadqiqotlar ayrim etnos, elat, shu jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarining kishilik tarixida tutgan o'rni va mavqeyini aniqlashga yordam beradi. Tarixiy taqdiri bir, xo'jalik-madaniy jihatdan umumiy, maishiy turmush tarzi va jamiyot taraqqiyoti o'zaro yaqin mazkur mintaqaga xalqlari etnografiyasi ko'p jihatdan o'zgaruvchan xarakterga ega.

Tarixiy-etnologik va etnik tuzilishi qanchalik barqaror bo'lmasin, Markaziy Osiyo etnoslari zamonlar osha doimo rivojlanib, o'zgarib turgan.

Markaziy Osiyo xalqlari uzoq va murakkab mashqatli tarixiy jarayonning mahsuli bo'libgina qolmay, mahaviy madaniyati va psixologik xususiyatlari bilan ham nihoyatda jipslashib ketgan. Ushbu xalqlarning xususiyatlarini aniqlash uchun dastlab etnik tarixning ayrim sahifalarini yoritish zarur.


Miloddan avvalgi VI asrda ushbu hududlarda Eron podshohligi, IV asrda esa Iskandar Zulqarnayn boshliq yunon-makedon podshohligi hukm surgan. Keyinchalik mazkur hududlar Xorazm va Qang' davlatlari, so'ngra Kushon podshohligi (II asr oxiri - III asr boshlari), Eftaliylar davlati (IV-VI asrlar), Turk xogonligi (VI-VII asrlar), Arab xalifafigi (VIII asr) tarkibida bo'lgan.

X-XI asrlarda qadimgi Markaziy Osiyo (Movarounnahr)da Bomonviylar (819-1005), Saljuqiylar (XI asr), G'aznaviylar (X-XII asrlar) davlatlari vujudga kelgan. Birmuncha vaqt ushbu hududlar Qoraxoniylar (X asr) hukmronligiga ham o'tgan.

XII asr oxiri - XIII asr boshlaridan boshlab Xorazm podshohligi (995-1200) qo'l ostida bo'lgan. XIII asr ikkinchi o'n yilligi oxiridan mazkur hududlarni mo'g'ul istilochilari bosib olgan edi. XIV asr 70-yillarida Amir Temur davlati qaror topadi. XV asr oxiri - XVI asr boshlaridan ushbu yerlar Shayboniylar, so'ngra Asharxonviylar davlatlariga qaram bo'lgan.

Natijada, XVIII asr o'rtalarida uchta davlat: Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari tashkil topadi. XIX asr ikkinchi yarmida esa Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylandi. Tez orada Qo'qon xonligi tugatilib, o'lka Rossiyaning xom-ashyo bazasiga aylantirildi. Natijada, Markaziy Osiyo yerlari qariyb 26 asr mobaynida o'zga davlatlar qaramog'ida va zulmi ostida bo'lgan. Yozma manbalarga ko'ra, XVI asr oxiri - XVII asr boshlaridan to 1924-yilgacha ushbu hududlar "Turkiston" deb atalgan.

Ushbu mintaqaga hududi turli davrlarda "Turon", "Turkiston", "Movarounnahr", "O'rta Osiyo" va nihoyat "Markaziy Osiyo" nomlari bilan atilib kelinmoqda. Tabiiyki, mazkur mintaqalar hududiy jihatdan biron firq qilmagan, shu boisdan, Turonzamin hududi o'rinishda qanday nomlanganligi va uning tarixi barchani qiziqiradi, albatta.



Yunon bosqinchilari (mil. avv. IV asr) Markaziy Osiyoni Ahamoniylar imperiyasining bir qismi sifatida “Transoksiana” yoki “Transoksoniya” deb ataganlar. Qadimgi xitoyliklar (mil. avv. II–I asrlar) mintaqani Xi-yu, ya’ni “Gʻarbiy oʻlka” deb ataganlar va Sharqiy Turkistonning davomi deb bilganlar.

Mazkur atama bilan birga uning “Turkiy yurt”, “Turk eli”, “Turk budun” va “Turkiston” atamalari yozma bitiklarda uchraydi hamda barcha turkiy xalqlarning dunyoviy va ijtimoiy etnik birligini ifodalovchi asosiy tushuncha hamda nom sifatida qoʻllanilgan.

Turon – tarixiy geografik atamasi ilk bor qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy, muarrixlar al-Tabariy va al-Ishtaxriylarning asarlar, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” dostonida “Eron” bilan “Turon” nomlari keltirilgan. Ma’lumki, Eron va Turon hududlari chegarasi Amudaryo orqali belgilangan.


Dastlab, “Avesto”da qayd etilgan “tur” etnonimi keyinchalik Markaziy Osiyo dasht va togʻ hududlarida yashovchi chorvador aholi bilan bogʻliq edi. Olimlarning fikriga koʻra, “turk” atamasi sak-massagetlarning dastlabki nomi boʻlishi ham mumkin. Sak-massagetlar va ularga yaqin qarindosh qabilalar mil. avv. VI–IV asrlarda Oltoy va Janubiy Sibir dashtlariga tarqalgan. Bu haqida arxeologik ma’lumotlar ham dalolat beradi, shuningdek, Shingon-Lyugʻur oʻlkasida saklar yozuvlarining tarqalishi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Koʻrinib turebiki, Turon faqat Markaziy Osiyo hududining qadimgi nomi degan xulosa ~~manzaratini~~ hisoblanadi. Baʼzi olimlarning ta’kidlashicha, Turon – bu turklar, turkiy qabilalarning yurti, degan ma’noni anglatib, keyinchalik “Turkiston” atamasiga aylangan.

Alaiddin A. Muhammadjonovning fikricha, “Turon” atamasi eng dala “yer”, “tuproq”, “dala” va “dasht” kabi ma’nolarni bildiradi. Shunga koʻra, “Turon” toponimi pasttekislik, dala va dashtliklar, ya’ni keng yaylov degan ma’noni anglatadi. “Turon” va “turonliklar yurti” iboralarini keng hududlar bilan bogʻlash mumkin.

Yugoriida ta’kidlanganidek, tarixiy-geografik jihatdan Turon hududlari Tinch okeanidan Oʻrta yer dengizidagi Egey-Adriatikagacha, Shimoliy Muz okeanidan Tibet va Himolay togʻlarigacha, shimoliy hududlardan Onadoʻltagacha, ya’ni hozirgi Turkiyagacha boʻlgan hududlarda yashovchi turkiy xalqlar vatani anglatadi.

Turonning markaziy qismi geografik jihatdan “Turon” pasttekisligi deb ataladi va asosan, Markaziy Osiyoning shimoliy-gʻarbiy hamda Sharqiy Turkistonning janubiy-gʻarbiy qismlarini oʻz ichiga olib, uning chegaralari Kaspiy dengizi, shimolda Ural togʻi, sharqda Tangri togʻ etaklari, janubda esa Pomir va Kopetdogʻ togʻlarigacha borib taqaladi. Turonda qadimdan XX asr boshlarigacha Alp Er Toʻngʻa, Afrosiyob va Kushon aholilari, sharqiy va gʻarbiy Turk xoqonliklari, Attila, Parfiya, Germaniylar, Gʻaznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Chingizxon, Moʻgʻuloy, Temuriylar, Usmoniylar, Edil boʻyi, Sibir xonlari, Shayboniylar, Ashkariyomniylar hamda Buxoro amirligi, Xiva va Qoʻqon xonliklari mavjud boʻlgan.

Xollan, “Turon” atamasi turkiylar degan ma’noni anglatganligi uchun oʻz chegarasida barcha xalqlarni qamrab olgan umumiy bir nom hisoblanadi. “Turk” soʻzini barcha shoʻbalarni oʻz ichiga oladigan ulugʻ Turkiston deysizga toʻliq asoslar mavjud. Tarixchi Sh. Kamoliddinning fikricha, Markaziy Osiyo mintaqasining eng qadimgi nomi “Turon” boʻlib, ushbu atamaning keyingi asrlardagi davomchisi va ekvivalenti “Turkistor” hisoblanadi.



"Turkiston" atamasi milodiy 445-yildan boshlab turli manbalarda tilga olinadi. Mazkur atama ilk mara 639-yilda Turfonda tuzilgan sug'd hujjatlarida Markaziy Osiyo mintaqasining nomi sifatida ishlatilgan. "Turkiston" atamasi "Markaziy Osiyo" va "Movarounnahr" toponimlaridan farqli ravishda nafqat geografik, shu bilan birga etnologik tushunchani anglatib, siyosiy-huquqiy ahmiyatga ham ega bo'lgan. Arablar istilosidan so'ng ham "Turkiston" toponimi o'zining siyosiy-huquqiy ma'nosini yo'qotmagan. Uning sarhadlari uzoq shimol va sharqda Arab xalifaligi, Qarluq hamda Uyg'ur xoqonliklari bilan chegaradosh bo'lgan hududlargacha yoyilgan. Aynan ushbu davrlar "Turkiston" nomi bilan IX-XIII asrlardagi arab muarrix va geograflarining asarlarida qayd etilgan.

Qoraxoniylar davlati bapo etilishi bilan "Turkiston" toponimining ahmiyati o'zining sobiq hududlari chegarasida deyarli tiklangach, "Movarounnahr" atamasi esa Turkiston, ya'ni Qoraxoniylar davlatining bir qismi sifatida qarala boshlangan.

Muarrix va geograf Mahmud ibn Valining (XVII asr) "Baxr yir-acop" ("Sirtlar dengizi") asarida yozilishicha, "Turkiston keng va ko'rigilli yurtdir. Bu yurt uzunligi Sayhun daryosining qirg'og'idan Qorannun daryosining qirg'og'igacha bo'lib, bu yerni Mo'g'uliston nomi bilan atashgan". Muallif Turkistonning yana bir nomi bu – "Turon va uning aholisi turklar" deb ko'rsatgan.

"Turkiston" atamasi ham turkiy xalqlar yashaydigan o'lkasi, joy va yurt turkiy bitiklardagi "Turk Budun" mazmunini ifodalaydi.

XIX asr o'rtalarida Turkiston hududi g'arbda Ural tog'lari va Kaspiy dengizi, sharqda Oltoy tog'lari va Xitoy, janubda Xitoy va Afg'oniston, shimolda esa Tonsk hamda Tobolsk guberniyalari bilan chegaradosh bo'lgan.

1867–1886-yillardan qo'llanila boshlangan "Turkiston o'lkasi" ham muayyan mahnoda Rossiya podshohligining strategik manfaatlarini to'la ifodalay edi.

Sovetlar tuzumi davrida esa "Turkiston" atamasini geografik, tarixiy, etnik va siyosiy istilohlar tizimidan chiqarib tashlash va hatto ki unutishiga mahkum etildi.

Turkiston tarixiy-an'anaviy jihatdan keng ma'noda quyidagi qismlardan iborat:



Markaziy Turkiston (hozirgi O'zbekiston, Qozog'iston va qisman Tojikiston).

Sharqiy Turkiston (ichki Mo'g'uliston, Xitoyning Shinjon-Uyg'ur avtonom tumani, Qoradurum).

G'arbiy Turkiston (Eronning shimoli, Kavkaz, Kaspiy dengizi havzasi).

Shimoliy Turkiston (shimoliy Qozog'iston, Volgabo'yi, Sharqiy Ural tog'larigaacha cho'zilib kelgan Turon pastkisi, Ob, Yenisey, Lena daryolari oraliq'i, Sibiri), tor mahnoda Turkiston deb asosan markaziy Turkiston tushuniladi.

Novel davri qomuslarida takidlanganidek, Turkiston keng mahnoda turkiy xalqlar yashovchi hudud nomi hisoblangan. Tor mahnoda Turkiston 1867-1917-yillardagi Turkiston general-gubernatorligi (1886-yildan Turkiston o'lkasi) tushunilgan. Shuningdek, Rossiya imperiyasining asosiy Xiva va Buxoro xonliklari hududining tarixiy-geografik nomidir. Rossiya bosib olgan g'arbiy Turkiston hududida 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tuzildi, 1886-yildan rasman Turkiston o'lkasi deb atalgan. O'qiyalar to'rtarishidan so'ng g'arbiy Turkiston hududida Turkiston Axborot tuzilgan. Turkistonda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilish, yerni uning 3 ta Respublika va 2 ta avtonom viloyatga bo'linishi tufayli Sovetlar davrlarida Turkiston nomi ishlatilmaydigan bo'ldi. Chunki, Sovet hududini mustaqil Turkistoni tiklash g'oyasidan nihoyatda qo'rqqar edi.

Yoporida takidlaganidek, 1924–1925-yillarda Turkistonda milliy-hududiy chegaralanishi o'tkazilib, "Turkiston" atamasi sun'iy ravishda mustamlakadan chiqarildi va uning o'rniga rasman "O'rta Osiyo" geografik atamasi qo'yildi.

O'zbekiston o'z strategik o'rni, iqtisodiy va madaniy salohiyati jihatidan Turkistonning vorisi hisoblanadi. Mamlakatimiz mustaqillikka

erishgach, ushbu atama tarixiy, siyosiy va madaniy-etnik jihatidan qaytadan muomalaga kiritildi hamda keng ko'lamda qo'llanilmoqda.

"*Movaronnahr*" atamasi Markaziy Osiyoning markaziy va janubiy viloyatlariga nisbatan ham ishlatilgan. Ushbu geografik atama arabcha "daryo orti", "daryoning narigi tomoni", ya'ni Amudaryo ortida va uning o'ng qirg'og'idagi hudud degan ma'noni anglatishi keng tarqalgan edi. Uning xuddi shu ma'noni anglatadigan fors tilidagi "Vorand" va "Vora Jayhun" shakllari mavjud, ularning barchasi avval (XI asr) Xuroson viloyatining davomi sifatida, IX asr boshlaridan e'tiboran esa Turkiston, ya'ni Qoraxoniylar va undan keyingi turkiy davlatlar tarkibidagi ma'muriy birlik sifatida tushunilgan.

"*Movaronnahr*" atamasi ilk bor hadislarda tilga olingan. Aftidan, ushbu atama arablar o'rtasida islomgacha bo'lgan davrlarda ham ma'lum bo'lib, u vaqtda (VI asr) shimoli-sharqda Jayhun, ya'ni Amudaryoning orqasida joylashgan Turk xoqonligiga qarashi hududlarini anglatgan.

Qadimgi fors manbalariga tayangan arab geografi Yoqut Hamaviy "*Movaronnahr*" atamasini Turon mamlakatining nomi sifatida bilgan.

Arab tilida "daryoning narigi betidagi yerlar", degan ma'noni anglatadigan "*Movaronnahr*" atamasi qadimgi yunonlarning "*Transaksiana*" atamasining deyarli so'zma-so'z tarjimai hisoblaridir.

Arablar o'zlarining Sharqqa qilgan ilk yurishlari davomida (VII asr ikkinchi yarmi – VIII asr boshlari) ushbu o'lka haqida ikki xil tushuncha va ma'lumotga ega bo'lgan edi. "*Movaronnahr*", ya'ni "daryoning pastki tomoni" va "Ma-varo-an-nahr", ya'ni "*Movaronnahr*" daryoning narigi tomoni ma'nolarini anglatgan. Mazkur atama VII asrning 70-yillaridan, ya'ni Arab xalifaligi noiblari Marv shahriga kelib, Turkistonga vaqit-vaqit bilan o'lja olish uchun Poykent, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo hududlariga qilgan yurishlari davridan boshlab qo'llanilgan.

705-715-yillarda ushbu atama yanada keng iste'molga kirgan. Arablar ta'sirida "*Movaronnahr*" atamasi o'rta asrlardan boshlab Xo'jand, Samarqand va Buxoro shaharlari hamda uning atroflari, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari o'z ichiga olgan. Mazkur atama Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi keng hududni anglatgan ilmiy, tarixiy va geografik asarlardan Yevropa tillariga ana shu yuqorida chegaralangan hududni anglatuvchi atama sifatida o'tgan va qo'llanilgan.

"*O'rti Osiyo*" atamasini dastlab XIX asrda taniqli nemis geografi olimi A. Fon Gumbold "*Mittel Asia*" shaklida Osiyo qit'asining ichki qismlarini belgilash uchun qo'llagan edi. U Osiyo uchun O'rta parallelidan shimol va janubda 5 kenglikdagi hududni "*O'rta Osiyo*" deb ataydi. Olim

matnning g'arbiy qismini Kaspiy dengizi bilan chegaralagani holda Kaspiy qit'asining chegaralarini aniq ko'rsatmaydi.

Ma'lumot nemis geografi Ferdinand fon Rixhofen o'zining "*Skizze*" asarida ushbu hududga nisbatan yangi va birmuncha aniqroq ta'rifni taklif etgan edi. Uning fikricha, janubda Tibetdan shimolda Chingizcha, g'arbda Pomirdan sharqda Xingongacha bo'lgan hududlar – Markaziy Osiyodir. Olim Orol – Kaspiy pasttekisligini oraliq chiziqqa nisbatan, deb qayd etgan edi.

Markaziy Osiyo – Yevrosiyo materigining o'rta qismi, g'arbda Kaspiy dengizi qirg'oqlari, sharqda Xitoy, shimolda G'arbiy Sibir tekisligi, janubda Mahopur, Satedko'h va Hindikush tog'lariga cho'zilgan yirik tabiiy-geografik o'lkadir. U materikning ichkarisida, Atlantika okeanidan 4 mingga km va Hind okeanidan 2,5 mingga km, Tinch okeanidan 5,5 mingga km va Hind okeanidan 1000 kmga yaqin masofada joylashgan. Markaziy Osiyo hududi o'rta asrlarda – Turon, arab manbalarida – *Movaronnahr*, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida, aniqrog'i 1921-1925-yillarda o'lkaizilgan milliy-hududiy chegaralanishgacha Turkiston deb nomlangan, keyinchalik sovet davridan boshlab esa O'rta Osiyo deb ataladigan bo'ldi.

Markaziy Osiyoning tabiati, xo'jaligi, shaharlari va aholisiga oid dastlabki turkiy-geografik ma'lumotlar Gerodot (mil. av. V asr), Kvint Liviy Ruf va Strabon (mil. av. II asr) kabi yunon hamda Rim, shuningdek, xitoy olimlarining asarlarida uchraydi. Bundan tashqari, Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Ahmad as-Saraxsiy (IX asr) Jayhoni, Abu Zayd Balxiy (X asr), Abu Rayhon Beruniy, Ibn Hinn, Nasir Xisrav, Mahmud Koshg'ariy (XI asr), al-Xovakiy, Mahmud Zamaxshariy, Sam'oniy va boshqa mahalliy olimlarning asarlarida ham ushbu hudud haqidagi qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Markaziy Osiyo geografiyasiga oid ma'lumotlar IX–XII asrlarda yashagan sayyoh olimlar – Ibn Xorodobe'k, Ibn al-Faqih, Ibn Rusta, al-Muqaddasiy, al-Mas'udiy, Ibn Fadlan, Istaxriy va Ibn Xavqal kabiylarning asarlarida ham uchraydi.

Rossiya imperiyasi davrida Markaziy Osiyo deyilganda, Orol dengizining shimoliy nuqtasidan to Balkash ko'lining shimoliy qirg'og'igacha o'lkaizilgan to'g'ri chiziqdan Eron, Afg'oniston, Xitoy va Kaspiy dengizi chegaralarigacha bo'lgan oraliqda joylashgan hudud tushunilgan.

Sovet davrida ushbu tushunchalar bir oz o'zgargan, chunki 1924-1925-yillardagi milliy-hududiy chegaralanish natijasida sobiq ittifoqning katta qismi Qozog'iston SSR tarkibiga kiritildi.

Qozog'iston SSRning chegaralari esashimoliy-sharqda O'rtasi Sibir, g'arbiyda Ural tog'lari va Volga daryosining etaklari, qisman Yevropa qit'asigacha cho'ziladi.

Yugorida takidlanganidek, "Markaziy Osiyo" atamasi bugungi kunda barcha ilmiy-omniy adabiyotlar va jamoatchilik o'rtasida keng qo'llanilib kelimoqda. Ko'rinib turibdiki, insoniyat sivilizatsiyasi beshiklaridan biri hisoblangan azim Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi bepoyon hududlar turli davrlarda siyosiy, tarixiy hamda geografik asarlarda "Turon", "Turkiston", "Movarounnahr", "O'rta Osiyo" va "Markaziy Osiyo" nomlari bilan atalib kelingan. Mustaqillik sharoiti bilan milliy o'zlikni anglashga intilish yanada kuchaya boshlagan va tarixiy qadriyatlar tiklanayotgan hozirgi vaqtda, asrlarga bo'yashgan ushbu salohiyatli mintaga tarixini yanada teranroq o'rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda.

II.3. Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezi, etnik tarixi va lingvistik tuzilishi

Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixini o'rganishda lingvistik tasniflash muhim ahamiyatga ega. Mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning tillari rang-barang bo'lib, tarixan qadimiy va zamonaviy ko'rinishga ega.

Turkiy tillar. Mintaqa aholisining ko'pchiligi Oltay oilasining turkiy tillar guruhiga kiradigan til va shevalarda so'zlashadi. Ushbu guruhga o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpog, turkman, uyg'ur va tatar tillari kiradi. Turkiy tilda so'zlashadigan kishilar butun mintaqada aholisining taxminan 60 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Umuman olganda, turkiy tillarda so'zlashuvchilarning umumiy soni 130 million nafardan ortiq aholini tashkil etadi.

Ayrim lingvistlar turkiy tillarni mo'g'ul hamda tungus-manchur tillari bilan birga qo'shib, oltay tillari oilasiga birlashtiradi. Jumladan, ye. D. Polivanov va G. Y. Ramstedt kabi tilshunoslarning fikricha, ushbu tillar oilasi koreys va yapon tillarini qo'shish hisobiga kengayishi mumkin. Oltay nazariyasiga ko'ra, turkiy tilning tarixi oltay tillari bir til bo'lib tashkil topgan qadimdan, ya'ni oltay davridan boshlanadi. Oltay bobo tili (asos til) dastlab ikkiga – tungus-manchur va turk-mo'g'ul tillariga, so'ngi turk-mo'g'ul tili ham ikkiga – turk va mo'g'ul tillariga ajralgan. Lekin, turkiy tilning oltay tillariga genetik aloqadorligi haqidagi masalaga hamon taxmin darajasida qaramoqda.


Turkiy tillar deganda, Sibiridan Bolqon yarim oroliigacha bir chiziq bo'yida cho'zilgan ulkan geografik hududda tarqalgan o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpog, saxa (yocut), tuva, xakas, oltay, karagas, shet, turkman, ozarboyjon, turk, gagauz, tatar, boshqird, chuvash, qo'niq, mo'g'oy, qoraqoy-bolqor, tofa va chuvash kabi 25 dan ortiq til tushuniladi. Bug qadimgi turkiy yozma yodgorlik (Urxun-Enasoy yozuvi)lar VII-XI asrlarga mansub bo'lib, ular asosan, qabroshlar ko'rinishida ilmiy Mo'g'uliston, Qirg'iziston, Yenisey daryosining yugori qismi, Katan vodiysi va boshqa joylardan topilgan. Brahma va sug'd yozuvlarida kiritilgan qadimgi turkiy yodgorliklar ham uchraydi (Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo). Keyinchalik uyg'ur va arab alifbolari asosidagi turkiy yozuv shartiga (Qoshg'ar, O'rta Osiyo, Oltin O'rta hududi, Volgabo'yi) va g'arbda (Suljuqiylar davlati, Ozarboyjon, Turkiya va b. hududlar) qo'llanildi. Xitoyda yashovchi uyg'urlar XI asrdan hozirgacha arab alifboi asosidagi yozuvdan foydalanadi.

Indo-Yevropa til oilasining eroniy guruhiga tojiklar, balujlar, kurdlar, forlar va boshqalar kiradi. Tojiklardan tashqari yag'noq, shing'on, ruslan, vohan, bartang, yozg'ulom, ishkashim, bajo'yr hamda bir qancha boshqa Pomir xalqlari ham mavjud.

Mintaqada yashovchi ruslar, ukrainlar, beloruslar, dunganlar, koreyslar, yahudiy, mahalliy lo'li va arablar ham bir nechta til turkumiga oid xalqlarning avlodlari hisoblanadi. Demak, Markaziy Osiyo polemtik omilarga hisoblanib, mazkur hududda yuzdan ziyod millat va elalar umumiylashtiriladi. O'zbekistonning Buxoro va Samarqand viloyatlari hamda Farg'ona vodiysida yashaydigan Buxoro va Samarqand viloyatlari bo'lib tojik tilda so'zlashadi.

Eroniy tillar guruhiga kiradigan til va shevalarda gaplashadigan oz sonli xalqlardan balujlar, kurdlar va fors-eroniydardir. Turkmanistonda yashaydigan balujlar o'z ona tilining Xuroson shevasida, Xurosondan kelib qolgan kurdlar esa Turkmanistonning Ashxobod va Mari viloyatlarida yashaydi hamda o'zaro Xuroson shevasida so'zlashadi. Eroniy-forsiy xalqlarining bir guruh (Buxoro va Samarqand shaharlari atroflari) turli tarixiy davrlarda Eronidan ko'chib kelgan. Buxoro eroniyarlari eroniychi, Samarqand forsiylari esa asosan, tojik va o'zbek tillarida so'zlashadi.

**Markaziy Osiyoda yashayotgan xalqlar
orasida turkiy tillarning uch xil guruhini
tarqatgan:**



O'g'uz tillar guruhini VIII–XIII asrlar davomida o'g'uzlar va XI–XII asrlarda saljuqiylar orasida shakllangan. Ushbu tillarga turkman tili ham kiradi. Mazkur shevalar odarda, ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhni Turkmanistonning g'arbiy tumanlari va Toshovuz viloyatining ko'pchilik qismiga tarqalgan yovmut, Turkmanistonning Qizil Arvotdan Bayramligacha cho'zilgan markaziy tumanlarda qo'llanayotgan tekin, Qoragalin tumanining go'klan, Saraxs tumani bilan hozirgi Turkmanistonning shimoliy qismida tarqalgan salir, Elatan va Paxtabozor tumanidagi sarig' hamda Turkmanistonning Choro'y va Kerki viloyatlarida muomalada bo'lgan ersari shevalari tashkil etadi.

Ikkinchi guruh shevalari (no'xuri, oynovli, xasari va boshqalar) Eron bilan O'zbekistonga chegaradosh tumanlarda keng tarqalgan.

Qipchoq guruhini qozoq, qirg'iz va qorag'alpog' tillaridan iborat.

O'zbek tili. Mazkur til o'zbek xalqining milliy va O'zbekiston Respublikasining davlat tili. Ushbu til lingvistik geneologik tavsifga ko'ra, turkiy tillar oilasining qarluq guruhiga kiradi. O'zbek tili, asosan, O'zbekiston, shuningdek, qo'shni Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalari, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Xitoyning Shinjon-Uyg'ur muxtor tumani, AQSh, Germaniya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan.

XI–XII asrlardan eski turkiy tildan ajrala boshlagan eski o'zbek tili o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida murakkab etnogenetik va etnolingvistik jarayonlarni bosib o'tdi. Ana shu etnogenetik va siyosiy-tarixiy jarayonlar o'zbek tili tarixida ma'lum darajada iz qoldirdi.

Tarixan turli ilmiy manbalarda eski o'zbek tili "turkiy", "turkcha", "chig'atoy tili", "chig'atoy turkiysi", singari nomlar bilan atalib kelgan. Xususan, mashhur sayyoh X. Vamb'eri ("Чингайтуй тили даполини", 1867)

va uning izidan bir qator g'arb olimlari XIII–XIX asrlar oraliq'idagi eski o'zbek tilini noto'g'ri ravishda "chig'atoy tili" deb nomlagan ed. Yaqinlari, mo'g'ullar istilosi davrida hozirgi kunda o'zbeklar nomi bilan taniluvchi xalqning madaniyati, tili va adabiyotiga mo'g'ullarning biron-bir asarlari tasiiri bo'lgan emas, boshqacha ifodalaganda, eski o'zbek tilining Chig'atoy va mo'g'ullarga hеч qanday aloqasi yo'q, aksinchi, mo'g'ullar Movarounnahrda yashovchi etnoslarning yuksak madaniyatidan bahramand bo'lgan. Buning ustiga, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Babur kabi buyuk shoir va mutafakkirlar o'zlar i'jod qilgan tili "turkiy", "turkcha" deb atab, uni boshqa turkiy tillardan alohida ajratib ko'rsatadilar.

Chig'iz tili. Shimoliy va janubiy qurama shevalaridan tashkil topgan bo'lib, uning shakllanish jarayoni qadim zamonlarga borib taqaladi. Unga o'zbeklarning boshlarida Yenisey atroflarida yashagan qadimgi qirg'iz qabilalarining tili asos bo'lgan. Keyinchalik qipchoq, shuningdek, mo'g'ul tillarining ta'sirida bir muncha o'zgarishlarga uchragan.

Qozog' tili. Mazkur til bir qancha qadimgi qabilalar va boshqa tillar asosida tashkil topgan bo'lib, uch asosiy shevaga bo'linadi: g'arbiy, shimoliy-sharqiy va janubiy. G'arbiy sheva alshin qabilalar ittifoqi tildan paydo bo'lgan. Shimoliy-sharqiy sheva arg'in, nayman, qiray, qipchoq, go'g'it'oi qabilalarining umumiy tildan kelib chiqqan bo'lib, hozirgi qozog' adabiy tili ana shu shevaga asoslangan. Nihoyat, janubiy sheva uyghur, jalovir, qang'li, dug'lar va boshqa qabilalar tillaridan kelib chiqqan.

Qorag'alpog' tili qadimda bulg'o'ri va o'g'uz tillari ta'sirida rivojlanib kelgan. Keyinchalik bir qancha birlashtirmalar, masalan, pecheneg (X–XI asrlar) va qipchoq (XI–XIII asrlar) qabilalar ittifoqlariga, Oltin O'rda davlati (XIII–XV asrlar) tarkibida, so'ngira XV asrgacha Katta No'g'oy o'rdasi, keyin qisman esa o'zbek va qozog' tillari ta'sirida shakllana borgan. Qorag'alpog' xalq og'zaki tili ikki asosiy shevadani tashkil topgan: shimoliy-sharqiy va janubiy-g'arbiy. Birinchi (shimoliy-sharqiy) shevada hozirgi Qorag'alpog'iston Respublikasining Taxtak'o'pir va Mo'ynoq tumanlarida yashayotgan aholi vakillari so'zlashadi.

Uyg'ur tili. Mazkur til o'zbek tiliga yaqin bo'lsa ham, ko'p jihardan inson kerkim farq qiluvchi xususiyatlarga ham ega. Ushbu tilning shakllanish jarayoniga qadimgi uyg'urlarning ta'siri katta bo'lgan. Hozirgi uyg'ur tili ikki turmog'ga: MDH uyg'urlari va Shinjon uyg'urlarining adabiy tillariga bo'linadi. MDH uyg'urlarining adabiy tiliga uyg'ur tilining shimoliy shevalari asos bo'lgan. Shimoliy shevalarga kuchi-turfon va jarmehi yoki gulja shevalari ham kiradi.

Tojik tili g'arbiy Eron tillari guruhiga kiradi. Ushbu tilda, asosin, tojiklar so'zlashadi. Arab xalftaligi va Somoniylar hukmronligi davrida sug'd tili o'rta tojik tili ishlatila boshlangan. Mazkur jarayon, ya'ni sug'd tilining tojik tili tomonidan siqib chiqarilishi jarayoni ikki asrdan ortiq davom etadi. Shuningdek, ushbu tildan tojiklardan tashqari Buxoro yahudiylari, O'rta Osiyo lo'ylari va arablari hamda balluiylarning bir qismi foydalanishadi.

Tojik tilining yag'nob shoxobchasi (eroniy tillarning sharqiy guruhiga mansub va Tojikistondagi Yag'nob daryosi vodiysida tarqalgan til. Unda so'zlashuvchilar 2,5 ming nafar kishiga yaqin. Yag'noblar o'z hududlaridan tashqari va tojiklar orasida faqat yag'nob so'zlaridan iborat maxfiy tildan foydalanadi. O'z yozuviga ega emas, yozma til sifatida tojik tili qo'llaniladi) sug'd tili shevalarining biridan kelib chiqqan. Hozir Yag'nob daryosining o'rta ogini atrofidagi vodiya joylashgan baland tog'lardagi qishloqlar va Yarzob daryosi vodiysidagi aholi ham yag'nob tilda so'zlashadi. Mazkur til ikki xil shevaga bo'linadi: g'arbiy sheva va Yag'nob daryosining etagida esa sharqiy sheva.

G'arbiy Pomir guruhiga shug'non, rushon, yozg'ulom, ishkoshim va vohan tillari kiradi. Shug'non-rushon guruhiga esa shug'non, rushon, bartang va oroshar tillari kiradi.

Baluy tili. Eroniy tillarning shimoliy-g'arbiy guruhiga kirib, Turkmaniston hududida yashayotgan baluiylar ushbu tilning g'arbiy (Xuroson) shevasida gaplashadi. Midiyalar tilini shevalarining biridan mazkur til paydo bo'lgan.

Kurd tili. Eroniy tillarining shimoliy-g'arbiy guruhiga taalluqli bo'lib, kurmanji, kurd va bir qancha shevalarga bo'linadi. Kurdlar Turkmanistonda yashaydilar. Tadqiqotchilarning fikricha, ular Xurosondan kelib qolgan.

II.4. Markaziy Osiyo xalqlarining etnik shakllanish jarayoni

Markaziy Osiyo tarixi va etnografiyasini moddiy hamda yozma manbalar asosida o'rganish salmoqli natijalarni qo'lga kiritishga asos bo'lmogda. Markaziy Osiyodagi Delgor-Murgena bo'yidan topilgan ierogliflar, Buyuk Xitoy devori va Turkiy-run yozuvlari bizga mazkur hududni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Eng muhim jihatlardan biri, mazkur masalani yoritishdan avval urug', qabila, elat, xalq va millat tushunchalariga to'xtalish joiz. Odamlarning ilk to'da tarzidan juft oilalarga ajralishi urug' deb ataladi. Ayrim urug'larning birlashmasi urug' jamoasini tashkil etadi.

Xalq bu – birinchtidan, keng ma'noda muayyan mamlakatning barcha aholisi; ikkinchtidan, tarixning turli bosqichlarida jamiyatning progressiv taraqqiyoti vazifalarini hal qilishda qatnashishga qobiliyati bo'lgan qatlam va sinflarni o'z ichiga oladigan xalq ommasi, ijtimoiy birlik; tarix ijodkori, tub ijtimoiy o'zgarishlarning yetakchi kuchi, tarixning haqiqiy sub'ektidir, uchinchtidan, etnik birlik (qabila, elat, millat) larning turi shakllarini ifodalash uchun ishlatiladigan termin.

Millat kishilarning barqaror tarixiy birlik, umumiy iqtisodiy turmush tarzi hamda til va hududiy birlik, madaniyat, ong va psixologiyaning o'ziga xosligi asosida shakllangan ijtimoiy taraqqiyot shaklidir.

Uzoq o'tmishda, 3–4 ming yillar muqaddam Markaziy Osiyoning saxovatli tuprog'idan g'arbdan sharqqa tomon qadimiy hind-yevropa tillarida so'zlashadigan turli qabilalar Oltoy va Mo'g'uliston tomon ko'chib o'tgan. Mil. avv. I ming yillikning oxiridan boshlab sharqdan g'arbgga tomon katta ko'chish jarayoni ro'y beradi. Dastlab turkiy tilda gaplashadigan qadimiy xun qabilalari milodning I ming yilligi o'rtalarigacha ushbu hududga ko'chib o'tgan va etnik jihatdan sezilarli iz qoldirgan. Turkiy elatlarning bir necha asr davom etgan ko'chish jarayonida ayrim mo'g'ul qabilalarining migratsiyasi ham sodir bo'lgan. O'sha davrda g'oyat, kayi va boyandar kabi mo'g'ul qabilalarining mavjud bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlar diqqatga sazovordir.

Uzoq vaqt mobaynida Markaziy Osiyoga ko'chib kelgan elatlar o'lkamiz zaminida o'ziga xos moddiy madaniyat yodgorliklarini qoldirgan. Mazkur hududda I ming yillikning o'rtalarida ketma-ket ko'chib kea boshlagan xun, xion, oq xun, abdal, bajanak va boshqa turkiy qabilalari mahalliy xalqlar orasida turkiy aholi nufuzi hamda mavyeini mustahkamlaydi. Ammo, aborigen (tub aholi)lar orasida ham apasiak va angasiylar deb nom olgan qadimiy turk elati ham mavjud bo'lgan. Mazkur qabila elat rus solnomalarida ko'p tilga olingan pecheneg (bajanak)lar degan fikr ham yo'q emas. Ayrim tadqiqotchilarning taxminicha, asugasiyalari keyinchalik "o'g'uz" nomi bilan mashhur turk elati desa bo'ladi.

Turkiy xalqlarning tarix sahmasiga kelishi mil. avv. I ming yilligida Janubiy Sibir va quyi Volga hududlarida bir qancha turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalar va xoqonliklarning shakllanishi sodir bo'ldi. Bular: birinchi turk imperiyalari – Sharqiy turk va G'arbiy turk xoqonliklari, Uyg'ur hamda Turkiy xoqonlik, Xazar, Bulg'or, Qarluq, Qoraxon, Qalmoq, Oro'l atrofidagi o'g'uzlarning Qipchoq va Xorazm davlatlari hisoblanadi.

Turkiy xalqlarning qadimgi tarixi mil. avv. III asrdan boshlab qadimgi xunlar imperiyasining tashkil topishidan to milodning IX asrigacha bo'lgan katta bir davrni o'z ichiga oladi.

Demak, mil. avv. III asrdan IX asr o'rtalarigacha xunlar, turkiylar davri va turkiy xalqlar madaniyati tarixining asosi bo'lib hisoblanadi.

Turkiylarning o'zagi Markaziy Osiyo xunlari orasida (III asr – V asr o'rtalari) shakllangan. Mazkur qabilalar ona bo'ri Ashnaning afsonaviy o'g'lini o'zining ajdodi deb biladi. V asr o'rtalarida turklar Markaziy Osiyoda hukmonlik qilgan Juan-Juan xoqonligiga tobe bo'lgan va Oltayda yashagan. Bu yerda ular konlarni o'zlashtirib, temir eritishni shunday ko'landa tashkil etganki, hatto Juan-Juanga o'iponni temir bilan to'lagan. Turkklarning g'ayrali yetakchilari Asanshod, Tur va Bumin konchi, temir quyuvchi hamda temirchilar imkoniyatlaridan iloji boricha yaxshiroq foydalanib, otlq askarlariga sovut kiydirgan va yuz yildan ko'proq muddat mobaynida Oltaydagi barcha qabilalarni o'zlariga bo'ysundirgan. Bumin 546-yilda oltoyliklar bilan birga Jung'oriyada yashab turgan ko'p sonli tegret xalqini ham o'z qaramog'iga oladi. Shu davrdan boshlab, turklar o'ipon to'lovchidan Markaziy Osiyoda Juan-Juanlarning raqibiga aylangan.

Turk xoqonligi Markaziy Osiyo mintaqasi va unga tutash bir nechta o'lkalarni o'z ichiga olgan yirik saltanat bo'lib, milodiy VI–VIII asrlarda ushbu imperiya tarixiga doir ma'lumotlar Urxun-Yenisey bitiklari, xitoy yilnomalari, yunon (Vizantiya), arman, suryoniy, sug'd, arab, fors, tibet va baqtriy manbalarida saqlanib qolgan.

Turk xoqonligi tarixini o'rgangan olim G'aybulla Boboyorovning ta'kidlashicha, VI asrning ikkinchi yarmida Turk xoqonligi tarix sahmasida paydo bo'lgunga qadar mintaqada ikkita yirik davlat: Eftaliylar va Jujanlar imperiyalari hukmonlik qilgan edi. Turk xoqonligining asoschilari bo'lgan turkiy ashina qabilasi esa bu paytda Oltay tog'larining janubiy yon bag'irlarida istiqomat qilgan va Jujanlar davlatiga tobe edi. Jujanlar qo'l ostidagi ashina turklari kuchayib, 545-yilda tele qabilalari, 551-yilda esa jujanlarni yengadi.

Shu tariqa, aka-uka Bumin va Istami 552-yilda Turk xoqonligiga asos soladi. Bumin o'zini xoqon deb e'lon qiladi. 555-yilga kelib, Markaziy Osiyoning shimoliy-sharqidagi qabilalar, Uzoq Sharqdagi kidan (qoraxitoy), tatari, shivey kabi manchiur va mo'g'ul, Yenisey bo'yidagi turkiy elatlar ham Turk xoqonligi qo'shinlari tomonidan bo'ysundirib, 555-yildadayoq Sharqiy Turkistonning katta qismi Turk xoqonligi ko'l ostiga o'tadi. Turk xoqoni Mug'on (553-572) Xitoyga 556–557-yillarda

yerlarini qilib, bu yerdagi G'arbiy Vey (Toba) sulolasi o'zini egallagan Iltun si (550–577) va Chjou (577–581) sulolalarini o'z ta'sir doirasiga oladi. Turk xoqonligi 565-yilda Naxshab (hozirgi Qarshi shahri yaqinidagi Yeng'itog'on Xarobasi) atrofida eftaliylarga og'ir za'ba beradi. Turk xoqonligi eftaliylarga qarshili Choch, Farg'ona, Ustrushona, Samarkand, Koxan, Bukoro, Kesh va Nasafni qo'lga kiritgan bir paytda xoqonlikning eftaliylarga qarshi ittifoqchisi Sosoniylar Eroni hukmdori Xusrav I Anushirvon esa Eftaliylar tarkibida bo'lgan Tohariston, Kobuliston va Zhetuliston (shimoliy Afg'oniston) viloyatlarini egallaydi.

Juan-Juanlar va eftaliylar tor-mor etilgach, turklar Buyuk ipak yo'lining kattagina qismi – Xitoy devoridan tortib to Amudaryogacha bo'lgan hududlarga egalik qila boshlaydi. Ushbu hududda boy va ta'sirli savdogarlar qatlami bo'lgan yirik savdo shaharlari joylashgan edi. Turk savdogarlari va ularning fuqarolari o'z geografik joylashuvlari imkoniyatlaridan munim qadar kengroq foydalanishga harakat qiladi. Ular Xitoy bilan bevosita aloqa o'rnatadi. Buning ustiga, VI asrga kelib sug'dlar o'z ipak gazlamalarini chiqara boshlaydi. Shunga ko'ra, sug'dlar badavlati Vizantiya bilan vositachilik qilib, savdo orqali boyib borayotgan fofs savdogarlarini siqib chiqarishga urina boshlaydi. O'z savdogarlari va imkoniyatlarini himoya qilgan Eron turklar va sug'dlarning Vizantiya qo'l ostidagi yerlar bilan bo'lgan bevosita aloqalariga to'sqinlik qiladi va o'z yerlari orqali savdo karvonlarini o'tkazmay qo'yadi.

G'arbiy turk xoqonligi. Ba'zi bir tarixchilar G'arbiy turk davlatini "o'n kamon o'qi davlati" deb atashar edi. Ashina sulolasiga mansub g'arbiy hududlarining rasmiy unvonlari "turk jabg'u xoqoni" yoki "o'n kamon o'qi davlati xoqoni" bo'lgan. G'arbiy turk davlatida yetakchi o'rinni ikkita yirik birlashmadan iborat "o'n o'q budun" – "o'n kamon o'qi davlati" egallagan edi. Ulardan biri – beshita qabila "nushibi" uyushmasini tashkil qilib, Sirdaryodan Chuy daryosigacha bo'lgan yerlarni egallagan, umumiy "shidu" nomi ostida birlashgan, boshqa beshitasi esa Chuy daryosidan tortib Oltay va Jung'oriyani ham o'z ichiga olgan hududda joylashgan edi.

G'arbiy turk xoqonligi Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyoning boy dehqonchilik viloyatlari, Oro'lbo'yi dashtlari, quyi Volgebo'yi hamda shimoliy Kavkazni o'z ichiga olgan edi. Davlatning ma'muriy-siyosiy markazi avval Talos vodiysi, bu yerda Mingbuluq (hozirgi Bo'yterek qishlog'i atrofi) yozg'i qarorgoh xizmatini o'tagan, keyin Chuy vodiysi bo'lgan edi. 618-yildan boshlab Suyob shahri G'arbiy turk xoqonligining poytaxtiga aylanadi (hozirgi To'qmoq shahri yaqinidagi Oq Beshin yayronlari).

O'zaro urushlar oqibatida g'arbiy turklar faqat To'n Yabg'u xogon hukmronligi davri (618–630-yy.)da o'z mavqelarini tiklab oladi. Qabiladoshlari uni salohiyatli davlat arbobi va mehri sarkarda sifatida juda hurmat qilardi: "U jasur va ehtiyotkor. Uning har bir jangi g'alaba bilan yakunlanadi". To'n Yabg'u xogon Eronga qarshi siyosatda faollik ko'rsatib, ulardan Toharistonni tortib oldi, Afg'oniston va Shimoliy Hindistonning bir qismini ishg'ol qiladi. Vizantiya imperatori Irakliy bilan ittifoq tuzib, Eronning Kavkaz orti yer-mulkilariga hujum qiladi va Derbent, Tbilisi hamda Dratov shaharlarini ishg'ol qiladi.

To'n Yabg'u xogon muhim ma'muriy-siyosiy islohotni amalga oshiradi. Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistondagi ko'chmanchi hamda o'troq zodagonlar huquqlarini tenglashtiradi, noqonuniy soliqlarni ancha kamaytiradi. Hukmdorlarni nazorat qilish va soliqlarni yig'ish uchun noiblar tayinlanadi.

VII asrning birinchi yarmida Tan sulolasi (618–907-yillar) kuchaydi. Imperator Tay-Szun yetakchiligidagi Xitoy feodallarining ayonlari o'z oldilariga Buyuk ipak yo'lini bosib olishni asosiy vazifa qilib qo'yadilar. 630-yilda ko'chmanchi to'g'uz-o'g'uz qabilalari bilan ittifoqda bo'lgan Tay-Szun lashkarlari Sharqiy turk xogonligini tor-mor etdi. Tay-Szun turli turk otryadlari kuchi bilan Gaochan davlati (Turfon vohasi)ni bosib oldi va uning hududida Ansi tobe o'lkasini tashkil qildi. Xuddi mana shu mavze, G'arbiy turk xogonligiga hujum qilishda muhim strategik markaz vazifasini bajardi. Turklar Sharqiy Turkiston xalqlari bilan birgalikda dushman hujumlariga uzoq bardosh berdi, ammo Ma daryosidagi jang (556-yil)da xitoylik sarkarda Su-Danfan Ishbor xogon qo'shinini yengishga muvaffaq bo'ldi. Xogon janglar bilan Chuy vodiysiga chekinib va shu yerda 657-yilda butkul yengildi hamda halok bo'ldi.

Xitoy imperatorining Tangritog'ni uzoq o'lkalari ustidan real hokimiyatni o'rnatolmay, "o'n kamon o'qi davlati"ga Ashina sulolasi g'arb shaxobchasi vakilini xon qilib qo'ydi. Ushbu qo'g'irchoq xogonlar xalq o'rtasida obro'ga ega bo'lmadi, aholi esa bosqinchilarga qarshi kurashini to'xtatmadi. Xogonlik tanazzuli davom etdi va Ashina sulolasidan chiqqan yigirma uchinchi xogonni 704-yilda turgashlar Qulan shahri (hozirgi Lugovaya stansiyasi yaqinida)da o'ldirdi. Yettisiv va Tangritog'da hokimiyat turgashlik xogonlar sulolasi qo'lga o'ldi.

Nazorat savollari:

1. Hlat, qabila, xalq va millat tushunchalarini izohlab bering?
2. Markaziy Osiyoga I ming yillik o'ralarda qaysi turkiy elatlar ko'chib kelgan?
3. Xun imperiyasi qaysi davrda hukmronlik qilgan?
4. Turkiy tillar guruhiga qaysi tillar kiradi?
5. Hind-yevropa tillari oilasini tasniflang?
6. Eroniy tillar guruhiga kiruvchi tillar qaysi xalq va hududlarda tarqalgan?
7. Hozirgi kunda "Markaziy Osiyo" qaysi hududlarni qamrab olgan?

III BOB. O'ZBEK XALQI ETNOLOGIYASI

*

Matnuzga oid topunch so'z va iboralar: o'zbek xalqi, O'zbekiston Respublikasi, o'zbek xalqining shakllanishi, etnos, paleoantropologik materiallar, krumiologik materiallar, O'rtal Osiyo iktidaryo oroldig'i tip, sug'diyalar, qadimgi aholi, o'troq va chorvador aholi, an'anaviy xo'jalik madaniyati, moddiy madaniyat, milliy kiyimlar, marosimiy taomlar, an'anaviy turar-joylar.

III.1. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni

O'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududida qadimdan o'troq yashab, sun'iy sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan mahalliy sug'diyalar, baxtariylar, xorazmiylar, qadimiy farg'onaliklar, sak-massagetlar va qang'lar kabi etnik guruhlar tashkil etgan. Shuningdek, Janubiy Sibir, Oltoy, Yetisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo'yalaridan kelgan etnik komponentlar ham o'zbeklar etnogenezida ishtirok etganligi tarixdan ma'lum. Ushbu qabila va elatlar, asosan, turkiy va sharqiy eroniy tillarida so'zlashgan. Shuningdek, o'zbek xalqi tarixan shakllangan 90 dan ortiq urug', etnoelementlar ham maqsulidir. O'zbek xalqi startalarining bu kabi tarkibi va tizimli tahlili jarayonida mintaqaning o'ziga xos etno-regional xususiyatlari ham hisobga olinadi. Aynan o'zbek urug'larining ijtimoiy-tarixiy o'rni tahlil etilganda, uning natijasi o'zbek xalqi etnogenezini o'rganishdagi ahamiyati oydinlashadi, shu bilan birga uning umumturkiy makroetnosida tutgan tarixiy o'rni va ijtimoiy mavqeyi yuzaga chiqadi.

Qarluqlarda, xuddi Turk xoqonligi jamoalarida bo'lganidek, urug' boshlig'i – bek, jabg'u deb atalgan bir qancha urug' aymog'i, aymoqlar uyushmasi esa elni tashkil etgan. Ushbu urug'ning tuzilish tartibi (tizimi) qarluqlarda VIII asr o'rtalarigacha saqlanib kelgan. Qarluqlar Yetisuvni egallagach (VIII asrning 60-yillari), jabg'uning xizmat vazifasi kengiyadi. Endi jabg'u bir urug'ni boshlig'i emas, balki qarluqlar egallagan hududlardagi barcha urug'lar va o'troq aholini boshqaradigan bo'ldi. Endi u urug'lar ittifoqining jabg'usidir. Avvallari jabg'u urug' va aymoqlar yig'inida saylansa, endi u jabg'ular yig'inida, ya'ni urug' boshlig'lar tomonidan saylanadi. Ittifoqni boshqarishda unga tobe urug', aymoq va jabg'ular, ayniqsa, o'troq viloyatlar hukmdorlariga eltabarlik unvoni joriy etiladi. Bek va eltabarlar bir vaqtni o'zida harbiy sarkardalar hisoblangan.

Ma'lum tarihi qarluqlarda to 840-yilgacha, ya'ni Qarluq davlati tashkil topgunigacha qadar davom etgan.

VIII asr Movarounnahr va Xuroson xalqlari tarixida arablarga qarshi kurash bilan o'tadi. Mahalliy aholini ularga qarshi qo'zg'olonlarining natijasi ko'rinmas edi. G'arbiy Turk xoqonligi dulu va nushubilar orasidagi hadimiyat uchun ichki kurashlar tufayli tanazzulga uchragach (740-y.), Sharqiy Turkistonning g'arbiy viloyatlari (Qashg'ar, Xo'ton va Yortkent), Farg'ona vodiysining shimoliy-sharqiy qismi qarluqlar qo'lga o'tdi. 760-yilda qarluqlarning zarbasi bilan Yetisuvda tashkil topgan Turkesh xonligi (707–766-yy.) ham tugatildi.

Qarluqlar Yetisuv va Sharqiy Turkistonning g'arbiy viloyatlari va Farg'ona vodiysining shimoliy-sharqiy hududlarini egallaganlariga qadar, ushbu joylarda qadimdan turkiy arg'un, tuxsi, o'g'iz, qarluqlarning ilk qabilalari, turkesh, az, uz hamda yag'mo urug'lariga tegishli etnik guruhlar yashab kelardi. Ular ushbu zaminiga kirib kelgan qarluqlarning yangi urug' ittifoqi jamoalari bilan yonma-yon va aralashib, yashay boshlaydi. IX asrning 40-yillariga kelib yuqorida qayd etilgan katta hududiy doirada Qarluqlar davlati tashkil topadi. Qarluqlar davlati tarkib topgan hududlarda (768–740) 200 yil davomida G'arbiy Turk xoqonligi hukmronlik qilib, turkiy etnik qatlamning ushbu hududlarda son jihatidan ko'paygan. Turk xoqonligi hududiy doirasida yashagan urug' ittifoqlari va siyosiy uyushmalarda iqtisodiy hamda madaniy hayot rivojlandi. Xoqonlikning turkiy hududlari aholisiga tushumli yozuv va til shakllandi. Xoqonlik davrida tashkil topgan ayrim etnik uyushmalar (o'g'uz, uyg'ur, qarluq, qipchoq, qirg'iz, dulu (dug'lat) va boshqalar o'rta asrlar davomida vujudga kelgan qator elatlar (o'zbek, uyg'ur, turkman, qirg'iz, qozoq va qozoqlar)ning shakllanishiga asos bo'ldi.

Arab tarixchisi at-Tabariy VII–VIII asrlarda Balx, Tohariston, Badkiz, Ko'xiston, Seraxs, Chog'aniyon, Buxoro, Choch va Farg'ona aholisining asosini turkiy qavmlar tashkil etadi, deb qayd qilgan edi. Muallifning yozishicha, ushbu qavmlar orasida qarluqlarning o'rni katta bo'lgan. Yozma manbalarga ko'ra, Somoniylar bilan Qarluqlar davlati o'rtasida ma'lum chegara belgilansa-da, ammo hozirgi zamon tasavvuridagi aniq chegara bo'lmagan. Turkiy urug'lar Movarounnahrda Sirdaryoning shimoliy hududlaridan erkin ko'chib yurgan. Ma'sudiyning fikricha, qarluqlar X asrda butun Farg'ona, Shosh va ularning atroflarida yashagan.

Turkiy urug'larining Movarounnahrda tinch va osoyishta kirib kelishi arablarga ham, ularning hukmronligi davrida ham, hatto Somoniylarning turkiy urug'larni kirib kelishiga qarshi chegara

hududlarida mudofaa devorlarini bapo etishlariga qaramay, uzluksiz davom etar edi. Buning oqibatida ularning o'troq hayotiga ko'chishi va tub yeri aholining turklashuvi tezlashdi. Movarounnahrning turkiy qavmi va urug'lar keng tarqalgan hududlarida mazkur qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi va etnosiyosiy jihatdan birlashishi ta'minlandi.

Xuddi shunday tarixiy sharoit O'rta Osiyo turkiy qavmlari hayotida IX asrga kelganda o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Ayni vaqtda turk etnik qatlami orasida feodallashish jarayonlari ham jadal kechmoqda edi. Mazkur jarayon oliy hokimiyatdan mustaqil siyosat yuritish uchun inilayotgan yuqori tabaqa vakillarining o'zaro uzluksiz urushlari va talonhlik yurishlari bilan birga sodir bo'lmogda edi. Chorvador mintaqalarda beboshliklarga barham berish uchun kuchli davlat hokimiyati kerak edi. Ana shunday kuchli davlat hokimiyati ma'lum bir yetakchi urug' asosida tarkib topadi.

Shubhasiz, etnoslarning o'zaro yaqinlashish jarayonlarida ma'lum bir etnik guruh yetakchi rol o'ynaydi. Boshqa etnik guruhlar ana shu yetakchi guruh (urug') atrofida jipslashib, u bilan til va etnomadaniy, hududiy hamda iqtisodiy-xo'jalik jihatdan yaqinlashib boradi. Etnogenetik jarayon nihoyasiga yetganda, aniq bir hududda joylashgan etnik birliklar ma'lum rivojlanish pog'onalaridan o'tib, bir-birlari bilan qorishib, bir tilda yoki bir-birlariga yaqin lahjalarida so'zlashuvchi va qarashlari ko'p jihatdan umumiy bo'lgan siyosiy uyushma tashkil topadi. IX asrda turk dunyosidagi ana shunday siyosiy uyushma Qarluq ittifoqi edi. Ushbu turkiy urug'larning Qarluq ittifoqi hududiy doirasida, tanqli tishunos N. A. Baskakov ta'bir bilan ifodalaganda, aynan qarluq shevasi asosida shakllandi.

Qoraxoniylar davlatining tashir doirasi Yetisuvdan to qadimgi Farg'onaning sharqiy hududlari va Sirdaryoning o'rta havzalargacha cho'zilgan edi. Elishunos K. Shoniyozov to'g'ri ta'kidlaganidek, IX-X asrlarda siyosiy hokimiyat Movarounnahrda somoniylar qo'lida bo'lsa-da, uning shimoliy, shimoliy-sharqiy va shimoliy-g'arbiy viloyatlari Qarluq-Qoraxoniylar davlati doirasida o'zbek elati shakllangan edi. Aynan ushbu yirik turkiy etnomadaniy hududiy yaxlitlik o'zbek xalqi etnogenezi tarixida muhim fundamental asos sifatida xarakterlanadi.

IX-X asrlarda elat bo'lib shakllangan o'zbek ajdodlarining umumiy nomi (etnonimi) bo'lmasa ham, ularda o'zligini anglash hissiyoti kuchli edi. O'zbek elati qo'shni urug'lar bilan yaqin tilda (turti lahjalarida) so'zlashgan bo'lishlariga qaramasdan, o'zlarni ba'zi xususiyatlari bilan (madaniyati, til lahjasi, urf-odatlar, diniy e'tiqodlari va boshqalar) ulardan

fano qilgan. Boshqacha qilib aytganda, "ular (masalan, uyg'urlar va qirg'izlar) va "bizlar ("qarluqlar" va "xogonliklar)" degan iboralar bilan bir xalqni ikkinchi xalqdan (ayrim xususiyatlarini hisobga olib) ajratish hissiyoti paydo bo'lgan.

Etnik nom va o'zligini anglashdan tashqari ma'lum bir xalqning etnik birlik (elat) bo'lib yetish darajasini belgilovchi yana bir qancha boshqa ko'rsatkichlar (iqtisodiy, madaniy, siyosiy, til, hudud birligi va boshqalar) ham mavjud. Qarluqlar davri (IX-X)da ular hukmronlik qilgan katta hududda bir qancha o'troq, yarim o'troq va yarim ko'chmanchi etnik guruhlari yashar edi.

Bu etnoslar ustida yozma manbalar hamda dala tadqiqotlari orqali taqqiqlot olib borilishi nafaqat turg'un aholi moddiy va mahaviy madaniyati, balki kirib kelgan xalqlarning xo'jalik yuritish shakli, oilaviy munosabatlari, moddiy madaniyati, e'tiqodiy qarashlari, mahalliy aholi bilan munosabating turti ko'rinishlari (savdo-sotiq, madaniy)ni yorituvchi jihatlarni yoritishiga olib keldi.

Xallas, hozirgi O'zbekiston va uning tovarak-atrofidagi hududlarda uzoq vaqt davom etgan etnogenetik jarayonlar natijasida, ya'ni sug'diylar, somoniylar, boharliylar va saklarning shu zaminida bronza davridan boshlab, ular bilan yonma-yon yashab kelayotgan turkiyzabon urug' hamda qavmlari bilan aralashuvi natijasida o'zbek xalqi XI-XII asrlarda uzil-kesil shakllandi. Mazkur etnogenetik jarayonlar o'zbek xalqining moddiy va mahaviy madaniyati hamda hozirgi kundagi antropologiyasida ham o'z aksini topgan.

O'zbek xalqi shakllanish jarayoni kelib chiqishiga ko'ra, qarluq, qirg'iz va o'g'uz komponentlari turkiy etnik hamda etnografik guruhlarining faol assimilyatsiyasi va konsolidatsiyasi natijasidir. Kelib chiqishi turkiy bo'lgan turkmanlar, ozarbayjonlar va anatoliya turklarining etnogenezi o'g'uz etnik komponenti, qozoq, qorag'alpoq, qirg'iz hamda bozqirning shakllanishida esa qirg'iz va qozoq komponenti, uyg'urlarning shakllanish tarixida esa qarluq komponentini ta'siri yaqqol seziladi.

O'zbek xalqining shakllanishida esa yuqorida ko'rsatilgan barcha uch etnolingvistik komponentlarning ta'sirini ko'rish mumkin. Mazkur holat esa o'zbek xalqining etnik jihatdan ko'p komponentli etnik, lingvistik, antropologik, madaniy jihatdan xilma-xil va rang-barang bo'lishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, o'zbek xalqi madaniyatining boy va qat'iyat ekanligi, o'troq shahar madaniyatiga dasht chorvador madaniyati elementlarning qorishib ketganligi mana shu assimilyatsiya jarayonlarining natijasi ekanligidan dalolat beradi.

III.2. O'zbek xalqining shakllanish tarixi

O'zbek xalqi o'zining ko'p asrlik va boy tarixiga ega. Xalqimiz juda katta davr ichida bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlardan o'tib, murakkab jarayonlar davomida elat va so'ngira millat bo'lib shakllangan. Mazkur jarayonlarni o'rganish etnografiya fanining bugungi kundagi eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Sirdaryo bilan Amudaryo oralig'ida Markaziy Osiyoning aholisi jihatidan eng yirik davlat – O'zbekiston Respublikasi yastanib yetadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, davlatimiz tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat va Toshkent shahri kiradi. Viloyatlar ichida maydoni jihatidan eng yiriklar Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryodir. Respublika tarkibida 172 ta tuman (11 ta Toshkent shahri tumanlari bilan birga), 150 ta, shu jumladan, Respublika va viloyatga bo'yisuvchi 31 ta shaharlar mavjud. Bundan tashqari, 110 ta shaharcha, 2620 ta qishloq fuqarolar yig'ini va 10997 ta qishloq aholi punktlari mavjud. O'zbekistonda 34 million nafardan ziyod aholi yashaydi (2020-yil 1 iyul), shundan 27 mln nafardan ortig'i (81,7 foiz)ni o'zbeklar tashkil etadi. Mamlakatimizda 130 dan ziyod millatlar va xalqlar yashaydi.

Respublikada o'zbeklarni barcha viloyat, tuman va qishloqlarda uchratish mumkin. Surxondaryo va Xorazm viloyatlari aholisining aksariyat qismini o'zbeklar tashkil etadi. Boshqa joylarda o'zbeklar turli millat vakillari bilan birga yashaydi. Lekin, hamma yerda ular ko'pchilikni tashkil etadi. Qoraqalpog'istonda o'zbeklar – To'rtko'l, Bertuy, Amudaryo va Ellikqal'a kabi janubiy tumanlarda yashaydi.

O'zbeklar Respublika aholisining asosiy qismini tashkil etib, so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, ularning soni 30,9 mln (2020-yil). Shuningdek, o'zbeklar Markaziy Osiyodagi eng ko'p sonli xalq bo'lib, qo'shni Tojikistonda 3 milliondan ziyod (2020-yil), Qirg'izistonda 2 million (2020-yil), Qozog'istonda 1 million (2020-yil), Turkmanistonda 900 mingdan ko'proq, Afg'onistonda 4 milliondan 8 milliongacha, Rossiyada 700 ming kishi (2020-yil), mehnat muhojirlari soni 2188000 (2017–2019-yillar), Saudiya Arabistonda 550–600 ming nafar, AQShda 50–80 ming, Xitoy Xalq Respublikasining Shingon-Lyng'ur avononm rayoni, qolaversa, Turkiya, Germaniya, Latviya, Ukraina va Belarus kabi uzor, xorij mamlakatlarda ham yashaydi.

O'zbeklarning qadimgi ajdodlari tarixi. So'nggi yillarda Vatanimiz va unga tutash bo'lgan hududlarda keng ko'lamda olib borilgan

arxeologik va antropologik tadqiqotlar hamda qadimgi yozma manbalarining tarixiy tahliliga ko'ra, o'zbek xalqining kelib chiqish tarixi qadimiy xronologik bosqichlar (bronza va ilk temir, antik, ilk o'rta asrlar va o'zbek ajdodlarining alohida etnik birlik (elat) bo'lib shakllangan davrlar)dan iborat. Uning birinchi xronologik bosqichi so'nggi bronza va ilk temir davrlariga tegishli bo'lib, aynan ushbu davrdan boshlab o'zbek xalqi ikki etnik ildiz asosida rivojlangan. Uning birinchi ildizi o'troq dehqonchilik madaniyati etnik komponentlaridan iborat bo'lsa, ikkinchisi esa bronza va ilk temir davrining chorvador qabilalari etnik komponentlaridan tarkib topgan.

Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida so'nggi bronza davridan yuqorida nomlangan qayd qilingan turli qabila va elatning etnik jihatdan dastlabki aralashuv jarayoni sodir bo'lgan. Aynan mazkur davrda mintaqada yuz bergan asimulyatsiya jarayonlari natijasida antik davrga kelib, o'troq hayotga moslashgan turkiy hududiy maydon tarkib topgan edi.

Ma'lumki, mil.av. III asrda Sirdaryoning o'rta oqimida turkiy va so'g'diyalar ittifoqi asosida Qang' davlati tashkil topgan. Qang' davlati davrida Movarounnahr va unga tutash mintaqalardagi xalqlarning iqtisodiy, etnik va madaniy aloqalarning tobora rivojlanishi natijasida turkiy tili etnoslar ustuvorlik qilib, yangi turkiy etnoslar – qang'ar elati paydo bo'ldi va o'ziga xos uyg'unlashgan madaniyat shakllandi.

Tarixiy va arxeologik tadqiqotlarda ushbu madaniyat "Qovunchi madaniyati" nomini olgan. Antropolog olimlarning ta'kidlashlaricha, aynan shu davrlarga kelib, Markaziy Osiyoning vodiylar va vodiylarida yashovchi so'g'diyalar hamda qang'arlarning tashqi qiyofalarida hozirgi o'zbek va vola tojiklarga xos O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i antropologik tipi to'liq shakllangan.

Akademik K. Shoniyozovning ta'kidlashicha, turkiy tili bo'yicha Markaziy Osiyoda keng tarqalishida qadimgi xun va usun hamda ularning tojiklari barcha turkiy-zabon qabilalarning hissa-juda katta bo'lgan. Mazkur qabilalar ta'sirida miloddan avvalgi I – milodiy I asrlar davomida o'rtalikka sharqiy eron til turkumidagi turg'un xalqlar (saklar, massagetlar, so'g'diyalar, xorazmliklar va boshqalar) hamda qabilalarning ma'lum bir qismi til jihatidan batamom turkiylashgan edi.

Xun, usun va boshqa turkiy qabilalarning salmoqli qismi Yetitissur, Movarounnahr va Xorazm yerlarida yashovchi aholi, jumladan, qang'arlar bilan aloqada bo'lib kelgan. Ana shu etnik, iqtisodiy va madaniy yaqinlashish jarayonida, tub yerli etnos asosida turkiy tilda so'zlashuvchi yangi etnos – qang'arlar vujudga keladi. Aynan miloddan avvalgi I –

milodiy I asrlarda Sirdaryoning o'rtasi oqimlarida yashovchi xalqlarning alohida etnos bo'lib shakllanishi uchun asosiy omillar mavjud edi: siyosiy tuzum, iqtisodiy va madaniy hayot birligi, umumiy hudud hamda etnik nom (qang'ar) vujudga kelgan edi. Ammo, ushbu elat antik bosqichda vujudga kelgan va o'z davriga xos siyosiy hamda etnik birlik edi. Qang'ar davlatining yemirilishi bilan (milodiy V asr o'rtalari) uning tarkibidagi elat va qabilalar tarqalib ketadi, yangi siyosiy hamda etnik birliklar vujudga keladi.

VI asrning ikkinchi yarmida O'rtasi Osiyo etnosiyosiy maydonida G'arbiy Turk xoqonligining paydo bo'lishi mintaqada xalqlar, shu jumladan, o'zbek xalqi etnogenezi va davlatchilik tarixida muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, bu o'rinda G'arbiy Turk xoqonligining o'zbeklar etnogenezida sezilarli o'rni bo'lib, mazkur davlat 568-740-yillar oralig'ida hukmronlik qilgan. G'arbiy Turk xoqonligi haqida qadimgi turk bitiklari (VII-VIII asrlar)da, Xitoy yilnomalari (VI-X asrlar)da va VII-VIII asrlarga tegishli sug'diy tilidagi bitiktosh hamda numizmatik materiallarda ma'lumotlar qayd qilingan.

Turk xoqonligi mafkurasi ga ko'ra, "el" deb atalib, qadimgi tarixda u bilan bog'liq "mangu el", "Tangri (ilohiy) el" va "turk el" kabi iboralar paydo bo'lgan. El va xoqon hokimiyatining Tangri tomonidan Ashina xonadoniga "turk budun (xalqi)" ga in'om qilinganiga ishonilgan.

Xoqonlikning davlat mafkurasini negizida "turk" etnosi, ya'ni "mangu el"ning mustaqilligini saqlab turish bilan birga, uning boshqa etnoslar ustidan hukmronlik qilishi yoki do'stona munosabatlar o'rnatishini ta'minlash yotgan. Ushbu mafkura birtiktoshlarda xoqonlar tomonidan xalqqa qilgan murojaatlari "Turk buduni (xalqi)", "Turk beklari va buduni", "Turk, O'g'uz beklari, buduni" va "Turk Sir budun" kabi iboralar bilan boshlanishi, uning mustaqil yashashi va egallagan hududlarda hokim tabaqaga aylanishini ta'minlagan. Xitoy yilnomalarida Turk xoqonlari umvonlarining tarkibiy qismi sifatida "da tuyue ("buyuk turk")" iborasi uchraydi. Bu esa qadimgi turklar o'z davlatini "Buyuk Turk qag'anlig'i" shaklida ulug'lashini ifodalaydi.

Xoqonlik katta bir imperiya miqyosidagi davlat edi. Uning tarkibiga Sharqiy Turkiston (Kumul, Turfon, Qorashahar, Kucha, Qoshg'ar va Xo'tan), Movarounnahr va unga tutash hududlar - Choch, O'tror, Isfijob, Farg'ona, Ustushona va Sug'd (Samarqand, Maymurg', Kushoniy, Paranch, Kesh hamda Naxshab), Buxoro, Tohariston, Xorazm, Shirdhiy Hindiston va Afg'oniston (Kashmir, Qobuliston va Zobuliston), shimoliy-sharqiy Eron - Janubiy Turkmaniston (Dehiston, Gurgon va Marv) hududlari kirgan.

Shunday qilib, VI asrning ikkinchi yarmida Turk xoqonligi birinchi navbatda, Sirdaryoning o'rtasi havzalari, umuman, butun O'rtasi Osiyo hududlarini egallab olgan edi. Ammo, buning oqibati o'laroq, ilk o'rtasi asrlarga kelganda Sirdaryoning o'rtasi havzalari turk-sug'd etnomadaniy, etno-psixologik va etno-siyosiy maydon tarkib topdi. "Qovunchi madaniyati" asosida qang'ar elati, uning bazasida hozirgi zamon o'zbek xalqiga xos antropologik tip - "O'rtasi Osiyo ikki daryo oralig'i tipi" uzliksiz shakllandi.

VIII-X asrlar davomida va undan keyin ham turkiyzabon xalqlar hamda qabilalarning kattagina qismi o'z etnik nomlari bilan bir vaqtda, Turk xoqonligi davrida turk ekanliklarini esdan chiqarmay kelganlar. Turk xoqonligi hududida "Turk" atamasi bilan nomlanib kelgan qabilalar qarda yashomansalar, bir-birlarini qardosh hisoblaganlar.

"Turk" atamasi ko'pchilik qabilalar uchun etnik nom emas, til umumiyligini anglatuvchi so'z bo'lib ham kelgan.

Mahmud Koshg'ariy Xitoydan to Rum chegaralarigacha bo'lgan katta hududda yashovchi turkiy qabilalarni tilga olib, ularni ko'pchiligini "turklar" deb atagan edi.

Hular quyidagilar: pecheneg (biyanak), qipchoq, o'g'uz, chigil, yamak (itmak), boshqird, basmil, qay, yabaku, totor, qirg'iz, tuxsi, yag'mo, ig'roq, yorub, yamul, (jumul) uy'g'urlar.

Mahmud Koshg'ariy birinchi navbatda "turk" deb ko'rsatilgan qavmlarning til birligini nazarda tutgan edi.

VIII asrdan arab va Ajam (arab bo'lmagan Yaqin va O'rtasi Sharq) xalqlarining Markaziy Osiyoga kirib kelishi mintaqadagi etnik jarayonlarga katta ta'sir etmagan. Ushbu davrda aholining etnik tarkibida ma'lum bir o'zgarishlar yuz bergan bo'lsa-da, Movarounnahrda o'rtasi va yorinchoq turkiyzabon aholi, so'g'diyalar hamda Xorazmning tub yelli aholisi o'z hududlarida qolib, arablar (VII-VIII asrlar), keyinchalik nomadlar (IX asr) hukmronligi ostida yashagan. Akademik Karim Akhmedovning qayd etishicha, IX-X asrlarda etnogenetik jarayonlar natijasida ko'plab turkiy qabila va elatlarning o'rtasi hayotiga o'tishi jadal davom etgan. Mazkur davrda Sirdaryoning shimoliy qismi, Movarounnahr

va Xorazmda yashovchi turkiy etrik qadrlarning aksariyatini o'troqlashgan turg'un etnik asoslar tashkil etgan edi.

"O'zbek" etnomini tarixi. Tarix fanida o'zbeklarning kelib chiqishi haqidagi ilmiy farazlarni bir nechta guruhlariga bo'lish mumkin. Chunonchi, ayrim mualliflar (X. Vamberi, G. Xovors va M. P. Pelo) Dashti Qipchoqda ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalarining bir qismi o'zlarini erkin tutganliklari sababi o'zbek, ya'ni "o'z-o'ziga bek" deb atagan desalar, ayrim g'arb olimlari (D. Allen, J. Frank va Peter B. Golden) esa "o'zbek" atamasi Turkiston kengliklarida Oltin O'rda xoni O'zbekxon (1312-1342 yy.)dan anchagina oldin paydo bo'lgan, deb ta'kidlaganlar.

Shuningdek, boshqa bir guruh mutaxassislar (P. P. Ivanov, A. Yu. Yakubovskiy va Xilda Xuken) "o'zbek" etnomini O'zbekxon nomi bilan bog'laydi, yana bir guruh olimlar (V. V. Grigoryev, A. A. Semenov va B. A. Ahmedov) esa "o'zbek" nomi Oq O'rda (Dashti Qipchoqning sharqiy qismi)da ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalariga taalluqli bo'lgan, degan fikrni bildirgan. Shuningdek, ayrim o'zbek ziyolilari tomonidan "o'zbek" nomining kelib chiqish tarixi uzlar (M. M. Ermatov) yoki "O'g'uzxon" va "o'g'uzlar" bilan bog'liq (Asqad Muxtor, Po'lat Zohidov, Xurshid Davron va Tohir Malik) degan qarashlarni ilgari surganlar. Takidlash joizki, zamonaviy o'zbek xalqining tarixi ko'proq O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i o'troq aholisi bilan bog'liq, "o'zbek" etnonimining dastlabki sohiblari esa yarim ko'chmanchi urug'lari hisoblanadi va ular zamonaviy o'zbeklarning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan.

"O'zbek" so'zining tarixiy manbalarda birinchi marta qayd qilinishi XII asrlarga oid bo'lib, Usama ibn Munkiz (1188-yilda vafot etgan)ning arab tilida yozilgan "Ara6 kuro6i" da kishining ismi sifatida qayd etiladi. Saljuqiylar davrida Eronda ro'y bergan voqea'larni tasvirlar ekan muallif, 1115-1116-yillarda Mosul hukmdori bo'lgan O'zbekning "qo'shin amiri" bo'lganligi haqida ham ma'lumot beradi.

Mashhur muarrix Rashiddin Fazlulloh al-Hamadoni ham o'zining "Jame ar-rasopux" asarida Ildegizidlar sulolasining so'nggi vakili, Tabriz hukmdori O'zbek Muzaffar (1210-1225-yy.) deb atalganligi haqida ma'lumot bergan. Nasafyning ma'lumotlariga ko'ra, 1221-yilda Xorazmshoh Jaloldiddin Manguberdning qo'shin boshliqlaridan biri, shahar Pahlavon O'zbek Toy bo'lgan. Demak, ushbu ma'lumotlar "o'zbek" nomi antroponim sifatida O'rta Osiyo va Eron aholisi orasida Oltin O'rda hukmdori O'zbekxon hukmronligidan 200 yil oldin ham ma'lum bo'lganligini ko'rsatadi.

"O'zbek" so'zi xalq nomi sifatida hiroitlik shoir Lutfiy (1366-1400)ning "Gul va Navro'z" dostonida ham uchraydi. Shoir va mutafakkir Akhbar Navoiy o'zining asarlarida "o'zbek" etnomini O'rta Osiyodagi nomli qabilalardan birining nomi sifatida qayd qilgan. Uning "Cayn al-hamdu" dostonida o'zbeklar mang'itlar bilan birgalikda tilga olinadi. Xorazmdagi o'zbeklarni yodga olib, quyidagi baytni yozgan edi:

"Shoh to'g'u xil'atkin,

Men tumancho qilg'ali O'zbagim,

hushda qalpoq, egnida shirdog'i bas".

Kulias, XV asrda "o'zbek" atamasi tor va keng mahodda qo'llanilgan. Tor mahoda, o'zbeklar deb, shimoliy Oro'bo'yi va Sirdaryo bo'yidagi viloyatlar hamda ayrim shimoliy hududlarda ko'chib yuruvchi nomli turkmanlar, Keng mahoda esa manbalarda Abulxayrxon (1428-1484 yy.) nomli hududida yashovchi barcha aholini anglatgan. Abulxayrxon hukmronligi davrida "o'zbek" atamasi urug'lari tarkibidagi umumiy nom sifatida Sharqiy Dashti Qipchoqda kengroq qo'llanilgan bo'lishi mumkin.

XV-XVI asrlarning oxiriga kelib O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i hududlariga ko'chmanchi turkiy tili urug'larining so'nggi, katta oqimi kirib kelgan. Tadqiqotchilar ularga nisbatan "Dashti Qipchoq o'zbeklari" atamasini qo'llaydi. Qolaversa, ushbu guruhni umumiy jamoa sifatida talqin etish keraklari ham kuzatiladi.

XVI asrda o'zbek urug'lari ro'yxatining tahlili shuni ko'rsatadi, shahar o'zbeklarning Movarounnahrda kirib kelishidan so'ng ularning nomlari hammancha o'zgaragan. Masalan, ularning tarkibiga Movarounnahr hududiga elayboniylar kirib kelishidan oldingi davrlardan buyon yashab kelgan jalo'ylar, qang'li va turkman kabi ayrim urug'larining nomi ham kiritilgan.

Hammacha keyingi davrga oid ro'yxatlar yangicha etnik nomlarning paydo bo'lishi jihatidan oldingilardan farq qilgan. Jumladan, XVI asrning ikkinchi yarmiga oid o'zbek qabilalari ro'yxatida turklar, arablar, mo'g'ullar, barloslar, qarluqlar, hardunlar, abdallar va boshqalarni ko'rsatish mumkin. XIX asrda "Dashti Qipchoq o'zbek urug'lari" qabilaviy tarkibining turli tumanligi va uning bir xil nomdagi Dashti Qipchoq nomining ma'lum sonidan farqi etnografik tadqiqotlarda ham o'z ishtiroki topilgan. XIX asrga oid ma'lumotlar bo'yicha "o'zbek" atamasi "o'z-o'ziga ko'layin, mustaqil va erkin inson" degan ma'noni anglatgan.

III.3. O'zbeklarning an'anaviy xo'jaligi

O'zbekiston zaminini Markaziy Osiyoning eng qadimiy, osontirilgalariga boy va moddiy-madaniy turmush tarzi kishilik jamiyatining eng ko'ina davrlariga borib taqaladigan o'lkadir. Dehqonchilik, chorvachilik va xo'jalikning barcha sohaları necha asrlardan buyon rivojlanib kelmoqda. O'zbeklarning ajdodlari asli dehqon, chorvador va hunarmand xalq hisoblanadi.

Dehqonchilik. O'zbeklar ajdodlari qariyb eng qadimgi zamonlardan buyon yerga ishlov berish bilan tirikchilik qilib ketadi va don-dun, meva-cheva, polizlarda rezavorlar ekish bilan shug'ullanadi. Markaziy Osiyoning barcha voha va vodiylarida yirik hamda mayda daryo irmoqlari, ko'l va buloqlari atrofiga sug'orma dehqonchilik qiliadigan talim, yaylov, qir, adir hamda tepaliklari deyarli dehqonchilik maydonlariga aylanib ketgan. Ekinlarni sug'orish uchun daryo, ko'l, irmoq va buloqlardan foydalanilgan hamda arq va zovurlar qazilgan.

Sug'orma dehqonchilik qilinadigan yerlarda qishloq jamoalari mavjud edi. Jamoa bir qancha oila urug'laridan tashkil topgan bo'lib, ayrim jamoalar 4-5 ta qishloq aholisini o'ziga birlashtirgan. Bunday jamoalar birgalikda muayyan ishlarni bajarar edi. Jamoaning alohida arq-kanallari bo'lar, kim nima ish qilishi, qachon, qaysi navbada sug'orishi va nima qo'ygani ekishi bilan bog'liq masalalar oldindan kelishib olingan.

Jamoalar g'allakor, shoikor va paxtakor tumanlarda tuzilar edi. Jamoa a'zolari - dehqonlarning mehnati bir nechta uslubda tashkil etilgan bo'lib, o'z mehnat qurollari bilan ishlaydigan oilalar mustaqil faoliyat olib borar edi. Ish kuchi yoki asbob-jihozlari yetishmagan bir nechta dehqonlar birlashtirib, jamoaviy mehnat qilar edi. Oila a'zolari bilan haqbay ishchilar birgalikda mehnat qilishlari ham mumkin bo'lgan.

Arq, zovur va kanallarni tozalash hamda ta'mirlash uchun jamoadagi har bir oila har yili albatta bir yoki ikki marta birgalikda ishga chiqqan. Jamoalar orasida "algov" va "hashar" kabi birgalikdagi ish shakllari qo'llanilgan. "Algov"da jamoa a'zolari ot-ulovni bir-biriga qarzga berib turgan yoki dalada, bog'da va tomorqada birga ishlab bergan bo'lsa, hasharda esa hamma bir-biriga tekinga yordam bergan.

Dehqonchilikda "qo'sh" (Zarafshon vodiysi), "chek", "chik", "chak" (Toshkent vohasi va Chirchik atroflari), "paykal", "chek" (Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari), "otliq" (askarga ajratib berilgan yer), "bir otliq", "jabdi" ("yob" va "yop") shakllari (Amudaryoning quyi oqimi) mavjud edi.

XIX asrning oxirgi choragiga qadar dehqonchilikda asosan, donli ekinlar yetishtirilgan bo'lib, bug'doy bilan arpa ko'p ekilgan. Kuzgi bug'doy yoki arpa ekilgan maydonlarga kelgusi yili tariq sepiqlan. yerning hosildorligi kamayib ketmasligi uchun mahalliy o'g'itlar, jumladan, go'ng, eski devor tuprog'i, kesak va guvalalar maydalab sochilgan.

O'z alla ekinlari bilan kuzda shudgor qilingan, yer omoch bilan et yoki qo'sh ho'kiz yordamida haydalgan, omochning o'zini yonboshlatib, qalin taxta mo'la yoki bo'lmasa shohmo'la bilan tekislangan. Siro'xk yerlar alohida yuvish uchun qishda yaxob berilgan yoki yiliga bir-iki marta sug'orib chiqqan zahoti va don tugish boshlagan vaqtda ham sug'orilgan. O'zbekiston iqlimi va tabiiy sharoitidan kelib chiqib, hosil may o'ynash oxiri - iyun boshida o'troq bilan o'rib olingan. G'alla-don buloqlari shimonda yoyilib, ustidan ot, ho'kiz yoki eshak yurgizilgan. Vag'ituvchi bilan somoni maydalayotganiga qarab yangi bug'doy yoki arpa bog'lanlari tashlab turilgan. Avvaliga yog'och panshaxa, keyin esa yog'och kurak bilan sovurilgan.

Sug'orma dehqonchilik orqali yetishtirilgan bug'doy bilan arpadan talim bug'doy hamda arpagaga qaraganda uch-to'rt baravar ko'p hosil olingan. G'alla-don hosili suv va qo'l tegimlari ("yorg'uchog")da olingan. Shuningdek, O'zbekistonning aksariyat hududlarida donli ekinlardan jo'xori, makkajo'xori, dukkakli ekinlardan esa mosh, loviya va sholi yetishtirilgan. Sug'orma dehqonchilikka asoslangan hududlarda beti va yotug'iqcha ham ekilgan.

Qishloq va shahar hovlilarining deyarli hammasida tokzorlar mavjud bo'lib, mevali daraxtlar o'tqazilgan. Toklardan mo'l hosil olingan. Mevalarida chilik, qora kishmish (shivilg'oni), husayni, charos, kirmiski, to'q, pakkal, oq kishmish, ninnang, daroyi, kattago'rg'on (maska), oq va qora so'dli, toshbuaki, soyaki, obaki, notbuali, yumnaloq, baxtyori hamda boshqa mevali keng tarqalgan edi. Ayrim yerlarda kurjut, zig'ir va ko'kuz yetishtirilgan.

Dehqonchilikning eng yirik sohasi paxtachilik hisoblangan. Avvaliga, Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olganidan keyin paxta maydonlari yamada kengaygan, natijada keyinchalik Turkiston sovt iqtisodining asosiy paxta-xom-ashyo bazasiga aylangan. Jeydari g'o'za o'rtiga shubhan tepishlar, serhosil va to'lasiz uzun "Amerika" navi ekinlari ko'p.

Turkistonda ilk bor pomidor, kartoshka, qand lavlagi, karanj, bulg'or qalampir, baqlajon va boshqalar ekinlar ekila boshlangan.

Polizchilik va rezavorchilik keng tarqalgan, xilma-xil ko'katlarning tortib, piyoz, sabzi, qizilcha, turp, sholg'om, rediska va qalampirgacha yetishtirilgan. Poliz ekinlaridan qovog, qovun, tarvuz, handalak, bodring va tarrak ko'p ekilgan.

Qishloqlar va shahar hovli joylarida bog'-rog'lar ko'p bo'lgan. Olma, o'rik, anor, shaftoli, nok, olxo'ri, gilos, olcha, behi, bodom, pista, yong'og va tut daraxtlaridan mo'l hosil olingan. Shuningdek, O'zbekiston qovuni va uzumlarining o'nlab ajoyib navlari hamda ularning shirin ta'mi bilan dong chiqargan. Qolaversa, o'lkada quruq mevalarni yetishtirish ham keng tarqalgan edi.

Chorvachilik. O'zbeklar xo'jaligining muhim tarmoqlaridan yana biri chorvachilik bo'lgan. Markaziy Osiyoda Dashi Qipchoqdan ko'chmanchi o'zbeklar ko'chib kelmasdan oldin yashagan ko'chmanchi turkiy qabilalarning ko'pchiligi chorvachilik bilan shug'ullangan edi. O'zbek qabilalari orasida turk o'zbeklar, lagaylar, qatliqlar va qo'ng'iroqlar asl chorvador qabilalar hisoblangan. Qo'ychivonlarning piri Cho'pon ota bo'lib, mazkur tarmoq chorvachilikning asosiy sohasiga aylangan. Ushbu sohada qorako'lchilik yuqori o'rinda turgan. Qo'y-qo'zilar erda bahordan to kech kuzgacha yaylovlarda boqilgan.

Qo'y zotlari ichida qorako'l qo'ylaridan keyin Hisor qo'ylari nihoyatda qimmatbaho hisoblangan. Ular O'zbekistonning janubiy tumanlarida boqib ko'paytirilgan. Jaydari qo'ylar O'zbekistonning deyarli barcha tumanlarida boqilgan. Ayrim hollarda qo'y-qo'zisi va qoramoli ko'p aholi o'z chorvalarining bir qismini muayyan shart bilan tog'li qirg'iz cho'ponlariga bergan. Hudduda qo'y-qo'zidan tashqari, echki, uloq, buzog va ho'kiz ham boqilgan.

Chorvachilikda yilgichilik ham katta ahamiyatga ega edi. Ammo, yilgini asosan, lagay hamda marga chorvador o'zbeklar boqqan. Qorabayir va lagay zot odari ko'plab yetishtirilgan.

O'zbekistonning cho'l-sahro va dasht-biyobonlarda yashagan aholisi tuyachilik bilan ham shug'ullangan. Asosan, Buxoro volasi va Qashqadaryo viloyatida ushbu soha juda rivojlangan. Janubiy tumanlarda bir o'rkaqli, shimoliy tumanlarda esa qo'sh o'rkaqli tuyalar boqilgan.

Pillachilik. O'zbeklar xo'jaligining yana bir azaliy tarmog'i bu pillachilikdir. Markaziy Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston hududlarida ipak qurti milodning IV asrida Xitoydan keltirilgan.

Ipak qurtini boqish va uning pillasidan sifati xom-ashyo tayyorlash juda ko'p mehnat talab qiladigan murakkab va og'ir jarayon bo'lganligi uchun pillachilik bilan nisbatan kam aholi shug'ullangan. Mayda

hunarmandlar ipakdan ro'mol, darparda, har xil uy jihozlari va popuklar tayyorlagan. Pillachilik Buxoro, Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilonida keng rivojlangan. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Namangan, Marg'ilon va Andijon okruglarida yashagan aholining ko'pchiligi ipakchilik bilan mashg'ul bo'lgan. Farg'ona vodiysidagi Marg'ilon va Namangan shaharlari ipakchilik sohasidagi qadimiy o'choqlari sanalgan. Ayniqsa, ipakchilikning asosiy markazlari sifatida Qo'qon va Marg'ilon e'tirof etilgan. Shuningdek, Chust shahri ham ipakchilik sohasida o'z o'rniga ega bo'lgan. XX asr boshlarida Turkiston viloyatlari ichida Sirdaryo viloyatida 34 ta, Samarqand viloyatida - 157 ta, Farg'ona viloyatida esa 304 ta ipak yetishtirish punktlari mavjud edi.

XIX asrning 60-yillarida Turkistondagi dehqon xo'jaliklarining asl foydasi (mavsumda) ipakchilik bilan bandligi o'sha davr iqtisodiy hayotida ushbu xo'jalik tarmog'i muhim o'rin tutganidan dalolat beradi. Ushbu davrdagi ipakchilik tarixini maxsus o'rganagan Nargiza Alimovaning qayd etishicha, mahalliy tadbirkorlar ipak qurti urug'i sifatini yaxshilash ishlari bilan ixtirokorlik etgan. Ular xorijdan ipak qurti urug'larini olib kelib, o'lkada makur sohani rivojlantirishga harakat qilgan. Jumladan, mahalliy tadbirkor A. Yunusov birinchi bo'lib Yaponiyadan O'rta Osiyoga sifati ipak qurti urug'larini olib kelib ko'paytirgan.

Hunarmandchilik. O'zbek xalqi qadindan kosib-hunarmand bo'lgan. "Yigit kishiga qirg' hamar ham oz" degan ajoyib maqolga amol qilib, o'zbek yigit va qizlari bolalik hamda o'smirlik davrlaridan oq birovlar hammani egallashga harakat qilgan. Qishloq va shaharlarda har bir mahallaning o'z novvoyi, tegirmonchisi, qassobi, duradgori, sartaroshi, to'qichisi, temirchisi, yamogchisi, ip yigiruvchisi, to'quvchisi, ko'ndirgisi hamda tikuvchisi mavjud edi. O'lis qishloqlarda bir yo'lga bir nechta hunarga ega bo'lgan hunarmandlar faoliyat olib borar edi.

Ip yigiruvchi va to'quvchi hunarmandlar nihoyatda ko'p bo'lib, qirg'izlar ham bir xonadonda xotin-qizlar, ayniqsa, keksa onaxonlar kunni o'tkazish uchun ip yigirish bilan o'tkazgan. Qishloq va shaharlarda charxi hamda ushbu yo'lga birov-bir xonadon bo'lmagan. Paxta yoki jundan tola olish va ip yigirishdan tortib, yigirilgan ipdan xonadon ehtiyojlariga qarab har xil kiyim-kechaklar hamda uy-ro'zg'or buyumlarini tayyorlashgacha bo'lgan ishning har bir bosqichini xonadon ayollari bajarar: biri urchugda tola olish, ikkinchisi charxda ip yigirgan va ipni kerakli rangga bo'yagan. Ba'zan bir ayolning o'zi ayol vaqtda ip yigirish, bo'yovchilik, bichuvchilik, to'quvchilik va tikuvchilik vazifalarini ham ado etgan. Kiyim-kechak va ip to'lag'or buyumlariga talab hamda ehtiyoji ortga borgani sayin ushbu

marsh'ulotlarda ixtisoslashish jarayoni kuchaygan, mehnat taqsimoti kengaygan, charxchi, bo'yochchi, bichuvchi, tikuvchi, to'quvchi kabi ixtisosliklar ko'paygan.

To'quvchilik chitchi va ipakchi mutaxassisliklarga bo'lingan. Bir faqat chit va bo'z, ikkinchisi esa ipak gazlamalar to'qish bilan kun kechirgan. Ular bilan o'zaro hankorlikda chitgar (gazlamalarga gul bosib beradigan mutaxassis)lar ishlagan.

Shoyi ipak gazlamalari o'simlik moylari bilan har xil rangga bo'yalgan. Tikuvchilik sohasida mehnat taqsimoti mavjud bo'lgan: to'nchi, tikuvchi, mashinachi, telpakchi, maxsido'z, po'stindo'z, do'ppido'z va h.k. Qadimdan keng tarqalgan hunarmandchilik sohalardan yana bir to'nchilikdir. Ushbu soha Rossiya imperiyasi hukmronligi davriga kelib ancha susayib ketgan. Ko'pchilik xom charrn va oshlangan teri bilan ishlab kelgan. Mazkur marsh'ulot turi bilan charrngar, ko'nchi, saxlangar va meshgar nomlari bilan malum bo'lgan ustalar shug'ullangan. Xom teri ishlovchi usta *charrngar*, maxsi va meshkob tikuvchilar *saxlangar*, qo'y va echki terisidan charrn tayyorlovchi ustalar esa *meshgar* deb atalgan. Shuningdek, poyafzalchi ustalar *etkchi*, *maxsido'z* va *kovushdo'z* deb atalgan. Kulolchilik ustaxonalarida tandirchi, xumdonchi, badiyachi va koshinchi kabilar mehnat qilgan.

Degrezlik o'zbeklarning eng qadimiy hunarlaridan hisoblanadi. Misgar, rextigar, zangulasoz va zarigar ustalar tayyorlagan mahsulotlarga talab hamda ehtiyoj katta bo'lgan. Cho'yandan qozon quyish ishlari Markaziy Osiyo hududlarida III-V asrlardayoq yaxshi rivojlangani mal'um. Quyina cho'yan, bronza va mis buyumlar bilan ishlashda o'zbek ustalariga teng keladigan bo'lmagan.

Qo'li gul ustalar ishlagan qadimiy metall buyumlarining xilma-xil respublikamizning ko'pgina muzeylarida namoyish qilinayotigani bo'iz emas. Quyina qozon, shandon, chiroqdori, malkaldori (uyini istatdigan cho'yan ko'mirdori), o'smadori, gulf, zanjir va turli badiiy buyumlarini bugungi kunda hamma qiziqib tomoshla qilmogda. Misgarlar yasagan qumg'on, offoha va turli-tuman uy-ro'zg'or buyumlariga talab katta bo'lgan. Hunarmandlar orasida beshikchi, kigizchi, argonchi, sovunchi, shanchi, shirapaz, nisholdachi, va nosvoychilar ham mavjud bo'lgan.

Transport. O'zbekiston qadimiy karvon yo'llariga boy o'lkadir. hisoblanib, Buyuk Ipak yo'li orqali butun dunyoga mashhur bo'lgan. Ushbu yo'ldan ot va tuyalardan iborat karvonlar ketma-ket o'tib turgan. Karvon yo'llari ko'hna Xorazmdan shimolda - Kazalinsk, Perovsk va Irtyz shaharlari tomon, g'arbda Astraxan hamda Kaspiy dengizi qirg'oqlari sari,

sharqda Hizzax va Toshkentga, janubda esa Ashxobod, Mari va Buxoroga olib borilgan.

Buxoro karvon yo'llarining ayini chorrahasi hisoblanar edi. Shuningdan, yarmi Kazalinskdan, sharq bilan g'arbdan Qorako'l, Karmana va Samarqand, janubdan esa Qarshidan karvonlar qatnar edi. Toshkentda bir tomondan Orenburg, ikkinchi tomondan esa Verniy (Olmata)dan keladigan yo'llar tutashtan edi.

Ko'pincha tuyal karvonlari bilan yo'l yuritilgan. Odatda, har bir karvonda 20-30 ta, ba'zan esa hatto 60-70 ta tuyal bo'lgan. Karvonboshiga har tuyal qo'yilgan. Boy savdogar yoki karvon egalari ushbu tuyaga yuk o'tkazadilar, uni chiroyli yasatgan. Egarrning chetlariga popukli qizil jilvapo'sh solinib, bo'yiniga charrn tasma bilan katta "do'm-do'm" qo'ng'iroq, pastrog'iiga undan kichikroq "tuqur" qo'ng'iroq, oldingi ikki oyog'ining ostiga beshadan dumaloq shiqildiq-qo'ng'iroqchalar osilgan. Ushbu qo'ng'iroqchalar "tizgiri" deb atalgan.

Karvonning oxiriga luk tuyal qo'yilgan. Uning bo'yiniga "tusay qo'ng'iroq", quloqlari tagiga va karvon orasidagi tuyalarga esa bitradan "shakka qo'ng'iroqlar" osilgan. Tuyalardan biron yerga borib kelish uchun harrn foydalanilgan. Xotin-qizlarni tuyaga o'tkazish uchun kajava (soyabor) o'rnatilgan. Kelinni olib ketayotganda bezak parda tutilgan kajavadan foydalanilgan.

Yuk tashishda tuyadan tashiqari ot va eshakdan foydalanilgan. O'tga odatda, 120 kg gacha, eshakka 300 kg gacha yuk o'rtilgan. Cho'ponlar, dahqonlar va tuyachi-karvonchilar ko'pincha eshak mingan.

Cho'lga chiqish kerak bo'lgan hollarda aravadan harrn foydalanilgan. Aravalar asosan, ikki nom bilan atalgan: Qo'qon arava va Karvon arava. Shuningdek, o'lkada qorag'alpog' arava. ham mavjud bo'lgan. Arxeologik qazilmalardan topilgan yodgorliklarga qaraganda, Karvon arava. ancha qadimiy bo'lib, u Qo'qon aravasiga qaraganda ancha yanvar va g'ildiraklari kattaroq ko'rinishga ega edi. Xorazmlik aravakash aravasi. qo'ng'iroqlari o'rinda o'tirib, Qo'qon aravasida esa otga o'tirilgan hadda arava boshqarilgan. Qorag'alpog' aravasida harrn aravakash uchun maxsus o'rindiq yasalgan.

Daryo, ko'l va dengizlarda suzish uchun qayiq hamda kema ishlatilgan, shuningdek, qamish bog'lamalardan yasalgan soldan harrn foydalanilgan.

Kulolchilik. O'zbekistonning turli hududlarida uzog' yillar davomida olib borilgan va davom ettirilayotgan arxeologik qazilmalar yopilida kulolchilik namunalari topilgan. Xorazm, Qashqadaryo va

Surxondaryo viloyatlari, Toshkentdagi Shoshitepa hamda Oqtepadun topilgan sopol buyumlar kulolchilik O'zbekiston hududidagi eng qadimiy amaliy san'at turlaridan biri ekanligiga yorqin dalil bo'la oladi. Asrlar davomida rivojlanib kelgan ushbu amaliy san'at turining o'z milliy xususiyatlari bilan ajralib turgan va mashhur bir qancha maktablari hamda markazlari, shuningdek, zangori kulolchilik deb atalgan sohalar mavjud edi.

Xorazm zangori kulolchilikning asosiy markazlaridan biri hisoblangan. Ko'hna Xorazmda uchta qadimiy zangori kulolchilik maktabi mavjud bo'lgan: Madir, Kattabog' va Ko'hna Urganch kulolchilik maktablari. Garchi, hammasi ham zangori kulolchilik buyumlarini yasash bilan band bo'lsa-da, naqsh shakllari va uslubi jihatidan bir-biridan farq qilgan.

Urganch shahridan 16 km janubda joylashgan Madir qishlog'i qadimdan kulolchilik markazlaridan biri hisoblangan bo'lsa, Kattabog' qishlog'i ham qadimdan kulolchilik markazlaridan biriga aylangan. XX asr boshlarida bu yerda ham 26 ta kulolchilik ustaxonasi bo'lib, ularda 200 dan ortiq hunarmandlar ishlagan. Shahrisabzda maxsus kulolchilik mahallasi mavjud bo'lib, 1930-yillarda bu yerda 25 dan ortiq kulolchilik do'konlari bor edi. Shahrisabz kulollari Oqsaroy va Amir Temur sag'anasini qurishda ishtirok etgan.

Toshkent, Samarqand, Buxoro va Rishon kulolchiligi mahsulotlari ham azaldan juda e'zozlanib kelingan. Masalan, Toshkent, Samarqand va Rishonda laganlar mashhur bo'lsa, Xorazmda badiya deb ataladigan chuqur sopol tovoq juda qadimdan ishlab kelinayotgan sopol buyumlardan hisoblanadi. Qo'ti gul o'zbek kulollari ishlagan sopol buyumlari xilma-xilligi, nafisligi va jozibaligi bilan haligacha barchaning diqqat-etiborini o'ziga jalb etib kelmogda.

Kandakorlik. Metall buyumlarga bo'rtna usulda ishlov berish hunari ajdodlarimizning qadimiy amaliy san'at turlariga kiradi. Qadimgi va ilk o'rta asrlarda asosan, xallangan kumush buyumlarga bo'rtna naqsh solingan. Milodiy III-VIII asrlarda kandakorlik chinakamiga rivojlanib boshlaydi. Qizil misdan ko'za, degacha, idish, sariq mis hamda jezdan oyna, shandon, oq mis birinchidan piyola, ko'za va kir tog'oralar tayyorlangan.

XI asr o'rtalariga kelib mis va uning qotishmasidan turtla buyumlar – to'g'ri to'rt burchakli barkashlar, qorni yunalog, bo'yin naqshdor ko'zalar, yarim doira paymonlar, xovondalar, siyohdonlar va boshqa ko'zalar tayyorlangan. Shuningdek, yozuvi naqshlar keng miqyosda qo'llana boshlangan.

Zeb-zeynat buyumlari baddavlat xonadonlar, xon, amir, sulton, bek va hokimlarning saroylari hamda uy-ularining ichida o'zining tanholigi va mo'ljalligi bilan hamisha kishilarni hayratga solib kelgan. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixonning Samarqanddagi Amir Temur saroyidagi sayohat kundaligi (1404-yil)da Sohbiqiron saroyining ichida ko'rganlarini quyidagicha tasvirlaydi: "Darvozaning ro'parasida chodir o'rtasida javonga o'rnatib kichik bir sandiq qo'yilgan, unda kumush hamda boshqa idishlar saqlanardi. Sandiq oltundan yasalgan bo'lib, sirkor va boshqa bo'yovlar bilan nayqallangan. Balandligi odam ko'krigidan keladigan sandiqning ush silliq, g'andishi mayda tishli kunguralar bilan bezalgan. Kunguralari moyiv va oq sirti ranglar bilan bo'yilib, marvarid va qimmatbaho toshlar qadalgan. Sirtining bir joyiga marvarid va toshlar oralig'iga xiraroq tusd, mayda yong'oq hajmida dum-dumaloq bir don o'rnatilgan. Sandiqning kichik eshikchasi bor, ichida chinni piyolalar saqlanadi. Ustida zumrad va marvaridlar qadalgan oltin tilla kuvacha turibdi. Shuningdek, duri noyob tosh donalari bilan bezatilgan oltin dumaloq oltin piyola ham qo'yilgan.

Ushbu sandiq yonida balandligi bir qarich keladigan kichik oltin xontaxta turardi. Xontaxta ham (qimmatbaho) toshlar va yirik marvaridlar bilan bezatilgan. Uning ust tarafga jozibali rangda, taxtaday silliq zumrad o'yib o'rnatilgan. Zumradning uzunligi qarib to'rt qarich, eni bir yarim qarich bo'lib, butun xotaxta sirtini kesib o'tgan. Ushbu xontaxta qarshisida emon daraxti shaklidagi "oltin daraxt" turibdi."

O'zbeklar hunarmandchiligi va amaliy san'atining qadimiyligi, rang-barangligi hamda rivojlanish bosqichlari jihatidan unga teng keladigan hech bo'lmasa kerak. O'zbek amaliy san'ati Sharq mamlakatlari tarixida dunyodagi, oldingi saffarining birida turadi. U nihoyatda chuqur ildiz otgan va bir necha ming yilliklarga borib taqaladi. Farg'ona, Buxoro va Samarqand kandakorligida me'morchilik obidalarining tasvirlari aks etgan bo'lsa, Qo'qon ustalari afsonaviy parrandalar obrazini kandakorlik san'atiga olib kiradi.

Mingarlik ham kandakorlik san'ati an'analarga yaqin turadi. Misdan ishlangan buyumlar qadimdan o'zbek xonadonlarida o'ziga xos o'rinda bo'lib, bunday san'at namunalari Buxoro, Qashq, Shahrisabz, Qo'qon va Toshkent singari yirik hunarmandchilik markazlarida keng miqyosda, har biri o'z milliy an'analarga mos uslubda tayyorlangan.

Buxoroda asosan, choy idish, ofloba, chilindon, dastiso'y, tufdon va turli shakldagi oziq-ovqat saqlash buyumlari yasalgan. Ushbu buyumlar "qadimiy" hamda "chashmi bulbul" naqshlar bilan bezatilgan.

Qarshi va Shahrisabz misqarlik buyumlari Buxoronikiga qaraganda oddiyroq va bir xilligi bilan ajralib tursa, Toshkentda esa kashkul, barkash, obdasta, satil, suv tashiydigan hamda ovqat saqlanadigan idishlar, shuningdek, Qo'qonda ham choy idish, choyrak, ko'za, ofroba, lag'an va dastisho'ylar yasalgan.

Qurol-aslahalar ishlash san'ati ham juda qadimiy bo'lib, o'z milliy uslubini saqlab qolgan hunarlardan biridir. O'zbek ustalari tomonidan tayyorlagan qinli hanjar va qilichlar, sovut, qalqon, dubulg'a, yugan, bo'yin bog'ich hamda oybolalar naqsh bezaklariga boy na'fis buyumlar sirasiga kiradi.

O'ymakorlik. Yog'och va ganchni o'yib, naqsh solish san'ati boshqa san'at turlari gatorini o'zbeklarda o'zining qadimiy ildizlariga ega O'zbekistonda Qo'qon hamda Xiva o'ymakorlik maktablari butun Markaziy Osiyo hududida ma'lum va mashhur bo'lgan. Buxoro va Samarqand o'ymakor ustalari tomonidan ishlangan san'at namunalari o'zining rang-barangligi, ganchning nimirang, ko'ksh, to'q sarg'ish hamda qizil lojivard ranglariga hamohangligi bilan ajralib turadi. Qo'qon va Xiva ustalari yong'oq, chinor hamda qayrag'ochga o'yib solgan naqshlari kishining diqqatini o'ziga tortmasdan qolmaydi. Shuningdek, Toshkent naqqoshlari tomonidan yasalgan bir va qo'sh tavaqali eshiklar hamda darvozalaridagi naqshlar o'ymakorlik san'atining kelajagidan dalolat beradi.

Respublikada xizmat ko'rsatgan san'at arbobi buxorolik usta Shirin Murodov qo'li bilan yaratilgan ajoyib o'ymakorlik namunalarini xalqimizning o'ymakorlik san'ati tarixida o'chmas iz qoldirdi. Istidodli ustalar T. Arslonqulov, Sh. G'ofurov va K. Jalilov hamda ularning qobiliyati shogirdlarining nomlari xalqimiz tarixida doimo hammat bilan tilga olinadi.

Kashtado'zlik. O'zbek xalqi an'anaviy san'atining eng na'fis va jozibali turlaridan biri kashtado'zlik bo'lib, kundalik hayotimiz hamda ro'zg'orimizni kashtado'zlik buyumlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mehmonxonaga osiladigan palaklar, taxmon, dokcha, ko'pcha-yostiqlar, krovat ustiga yopiladigan va devorga osiladigan rang-barang, bejirim hamda serjilo kashmalar xonadonimizda o'zgacha tus va ko'rlik bag'ishlaydi. Turi gazlama ayollar sarpolariga tikilgan gul va bezaklar ularning yanada yorqin hamda go'zal bo'lib ko'rinishiga olib keladi. Kashtado'zlik kashmalar o'simliklar tasviri, y'ani isliniy naqshlar hisobiga boyidi, ayniqsa, shoyi iplar bilan gul chizish uslubi kashtado'zlikda muhim o'rin egallaydi.

Kashtado'zlik nafaqat respublikamiz, shu bilan birga butun Markaziy Osiyo hududiga keng tarqalgan an'anaviy san'at turidir. U bilan

deyarli har bir xonadonda shug'ullanadi. O'zbek chevarlari kashtado'zlikda xilma-xil choklarni qo'llaydi: bosma chok, qanda-xayol, iroqi yo'rma, Kashka, gul tikib bezatilgan buyumlarining turi ko'p: shohi so'zama, darpech, palak va boshqalar.

O'zbek xalqining necha asrlar davomida tarqiqiy etib kelgan an'anaviy san'ati tarixi an'analarga nihoyatda boy va bimas tuganmas noyob xazinadir.

III.4. An'anaviy moddiy madaniyat

Uy-joylar. O'zbeklarning an'anaviy turar-joylari qadimdan o'ziga xos bo'lib, ular yashagan mintaqaning tabiiy-geografik sharoiti bilan bog'liq bo'lgan. Turar-joylar barpo etishda qurilish konstruksiyasi va uslubi, loyihasi hamda bezaklari bilan ajralib turgan, mustaqil va o'ziga xos Farg'ona, Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent hamda Shahrisabz me'morchilik yo'nalishlari mashhur bo'lib kelgan. Uy-joy qurilishida o'zbeklarda ba'zi bir o'ziga xoslik saqlansa-da, umumiy yagona me'morchilik shakli keng tarqalgan bo'lib, qadimiy uylar odatda, ko'cha va me'morchilik shakli keng tarqalgan bo'lib, qadimiy uylar odatda, ko'cha va qo'shni tomoni derazasiz devor bilan o'ralgan hovilardan iborat bo'lgan. Barcha turar-joy va xo'jalik xonalarining oynalari ichkari tomonga qaratilgan. Hovli ikki qismga: bolalar va ayollar uchun ichkari hamda nomahram erkaklar va begonalar uchun mehmonxona shaklidagi hushamatli xonalar dan iborat tashqari hovliga bo'lingan.

Hunarmandlarning uylarida do'kon va shogirdlar yashaydigan xonalar ham tashqarida joylashgan. Eng ko'p tarqalgan variantlardan biri dahliz va katta xonadan iborat bo'lgan uylarni ko'rsatish mumkin. Bunday uy-joylar odatda, oldi ham ayvonli va ayvonsiz qilib qurilgan. O'rtacha oilalarda esa mehmonxona sifatida uyning bir hujrasi ajratilgan. Abdi o'rtaida an'anaviy paxsa uylar qurish bilan birga naqshinkor ganchli binolar qurish ham bo'lgan.

O'zbeklarda doimiy uy-joylar qurilishida mahalliy tuproqdan tayyorlangan loy asosiy qurilish materiali hisoblanib, ayrim o'ziga to'q xonadonlarda pishgan g'ishtdan ham uylar qurilgan. Buxoro va Xivada hovli eshiklariga jez yoki temirdan yasalgan bolg'a yoki xalqasimon boidoq osilgan. Eski tipdagi uylarning xonalari va oynalari ayvonga chiqqan, dachalar yer sathi bilan teng bo'lgan. Eshiklar ichkariga, dachalar esa tashqariga ochilgan. Deraza yoki eshikning yuqori qismiga yorug'lik tushadigan piramon (tobazon) qo'yilgan, unga yog'och yoki ganchdan yasalgan panjara o'rnatilgan. Uyg'a kiradigan joyda eshik oldida to'g'ri burchakli peshiq (poygak) bo'lib, unga poyafzal yechilgan. Eshik

oldidagi burchakda suv tashlanadigan maxsus joy (obrez, adan, toshmov) joylashgan bo'lib, unga Buxoro va Samarqandda marmar tosh, Xivada esa maxsus sopol buyum o'rnatilgan.

Odatda, uylarning tashqi o'ldi a'zolarining soniga qarab bir nechta xona, dahliz va ayvon, shuningdek, xo'jalik binolari hisoblangan omborxona, hojatxona va mo'xonada iborat bo'lgan. Shaharlar yoki aholi zich joylashgan qishloqlarda mehmonxona odatda, ikkinchi qavat – bolaxonada joylashgan. Ayniqsa, Toshkent, Buxoro, Samarqand va Urgut shaharlarida juda shinam mehmonxonalar qurilgan. Shu kabi mehmonxonalar to'y hashamlar va motam marosimlarida ham keng foydalanilgan. Bundan tashqari, qish paytlari mehmonxonalarda mahalla etraklari to'planib, gap-gashtlar o'tkazgan. Hozirgi kunga kelib zamonaviy uylarning qurilishi ancha takomillashgan bo'lib, ularda milliy an'analari zamonaviy ko'rinishlar bilan o'zaro uyg'unlashgan. Bugungi uylar muayyan reja asosida turli qulayliklar bilan qurilmoqda.

Shahar va yirik qishloqlar yana bir qancha mahallaga bo'lingan. Bazi joylar (Toshkent va Farg'ona vodiysi shaharlari)da mahalla, ayrim hududlar (Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi va boshqa shaharlar)da guzar deb atalgan. Barcha hududlarda aholining uy-joylari mahalla (guzar), ko'cha va orga tomoni bilan qo'shni (guzar)ga qarab qurilgan. Shu tariqa, har bir mahalla (guzar) bir-biridan uy devorlari bilan ajralib turgan. Ilgari har mahallaning o'z darvozasi bo'lib, ko'chalari darvoza ichkarisidan qulflab qo'yilgan.

30–80 ta xonadon odatda, bir mahallaga uyushgan va har bir mahalla o'z maktabiga ega bo'lgan. Shaharlarning kengayishi bilan mahallalarning soni ham o'rtib borgan. XIX asrda Toshkentda 47 ta, Andijonda 43 ta, Buxoroda 220 ta, Qarshida 20 ta, Shahrisabzda 52 ta mahalla (guzar), Xivada esa 20 ta yirik ilqoq bo'lgan.

Ko'p shaharlar mavzelar va shahar atrofidagi qishloqlar bilan bir-biriga ulanib ketgan edi. Mavze va qishloq odamlari ham muayyan bir mashg'ulot bilan shug'ullangan. Shaharlarga yaqin qishloqlarning aholisi ko'proq hunarmandchilik bilan mashg'ul bo'lsa, sug'orma dehqonchilikka asoslangan hududlardagi qishloqlarda esa bog'dorchilik va dehqonchilik yaxshi rivojlangan. Qir-adirlar va tog' etaklarida joylashgan qishloqlarda lalini dehqonchilik hamda chorvachilik xo'jalikning muhim tarmog'iga hisoblangan. Shu sababli mahalla, guzar va qishloqlar aholisi ko'proq nima bilan shug'ullanishiga qarab nomlangan. Egachilar, ko'nehlar, madkorlar, aravakashlar, kulollar va etikdo'zlar mahallalari, shoikor qishloq, g'allakor qishloq, temirchi-taqachi qishlog'i va hokazo.

Shuningdek, yirik qishloqlar ham shaharlardagidek mahalla va guzarlariga bo'lingan. Har-bir fuqaro masjidda qatnaganligi uchun ushbu mahalla yoki qishloqlar aholisi "masjit-qavm" deb atalgan.

Kiyim-kechaklar. O'zbeklarning an'anaviy kiyimlari asrlar davomida ko'p marta o'zgarib, yangilanib va takomillashib kelmog'ida. Har-bir davrning o'ziga xos, milliy va an'anaviy kiyim-kechaklari mavjud bo'lgan.

O'zbekiston hududida yashagan eng qadimgi ajdodlarimizning kiyim-kechaklari ham dunyoning boshqa mintaqalaridagi xalqlarning kiyimlari kabi tabiiy iqlim, turmush sharoiti va urug'-qabila an'analari asosida shakllangan.

O'rmonlarda kiyim-kechaklar, ularning shakllari, mahalliy xususiyatlari va ishlatilgan matolari Respublika hududidagi arxeologik yodgorliklar (Afrosiyob, Varaxsha, Boliqtepa, Xolchayon, Ayritom va b.)dan topilgan devorli rasmlar, haykalchalar, mayda naqshlar, torevtika (metallga ishlangan relef), yozma manbalar hamda qo'lyozma kitoblarga ishlangan mo'jaz tasvir (miniaturalar)da aks etgan. Kiyim-kechaklarning dastlabki ko'rinishlari to'qimachilikning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo hududida to'qimachilikning vujudga kelishi neolit davriga borib taqaladi. Masalan, ushbu davrga oid to'qov dastgohlarning qoldiqlari Kopetdag' etraklari (Turkmanistondagi joydan madaniyat)dan aniqlangan. Mil. avv. VI asrda kiyim-kechak tayyorlashda jun matolar teri matolarini siqib chiqargan. Shuningdek, mil. avv. II asrga oid kiyim-kechak qoldiqlari Surxondaryo viloyatida joylashgan Sopoliqtepa manzilgohidan ham topilgan.

Munchoqtepa (Farg'ona vodiysi)dan ilk o'rta asrlarga oid etrak, ayol va bolalar kiyim-kechaklari topilgan. Ushbu manzilgohdan topilgan ayollar ko'ylagi uzun bo'lib, ipakdan tayyorlangan va etagi to'pig'igacha tashlangan, etagining eng quyi qismidan ikki yon tomondan 10–15 sm qiralgan, bellariga esa kamar (belbog') bog'lab zeb berilgan. Bolalar kiyimlari ham ipakdan kalta qilib tikilgan bo'lib, belidan sel pastga tushib turgan. Ko'ylak etagi, ya'ni beli atrofidan ikki tomondan 10–15 sm qirib qo'yilgan. Yogallari to'g'ri va belida maxsus belbog'i bo'lgan. Tashqi etraklari esa ensiz lenta bilan mustahkamlangan. Qiz bolalar ko'ylagining ko'krak qismi, yengining uchi va etagi maxsus qadama gullar bilan bezatilgan hamda o'ng qo'l tomonidan esa o'yma cho'ntak tikilgan. Kiyimga munchoqor tikilib, zeb berilgan, yengi va ko'krak qismiga mayda marjonlardan naqshlar ishlangan.

Tohariston va Sug'd aholisining kiyim-kechaklarini qiyosiy o'rganish shundan dalolat beradiki, Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy taraqqiyot bosqichlari mustarak bo'lgan, madaniyatlari esa bir-biriga ta'sir ko'rsatib kelgan. V-VIII asrlarda Toharistonda yelkasi yopishib turadigan va etagi trapetsiyasimon ko'rinishdagi kiyimlar keng tarqalgan. Topilgan yodgorliklarda jamiyatning yuqori tabaqasi hamda xizmatkor va san'at namoyondalarining hayot tarzi aks etgan. Ayniqsa, Afrosiyob va Bolalikepa devorlariga ishlangan tasviriylar sarat namunalarda kiyim-kechaklarning ijtimoiy va jinsiy tafovutlarini ko'rish mumkin. O'zbekiston hududida yashagan xalqlarning kiyim-kechaklari uzluksiz ravishda o'zgarishi va rivojlanishi faqatgina ushbu hududning ijtimoiy-siyosiy hamda etnik tarixi bilan bog'liq bo'lmay, balki butun Markaziy Osiyo tarixi va ijtimoiy hayoti bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Devoriy suratlardan ma'lum bo'ladiki, ilk o'rta asrlarda mahalliy aholining kiyim-kechaklari bichimini asosan, bir xil ko'rinishga ega bo'lgan. Yengisiz, uzun, ba'zi hollarda esa yengil keng qilib bichilgan. Kiyimlarning yon tomonida, odarda, yirmoch-qiyiq joyi, yonlama yoqasi bo'lganki, ushbu holatni o'zbek xalqining bugungi kundagi kiyim-kechaklarida ham kuzatish mumkin. Mahmud Koshg'ariyning "Девонь дьютити тьпк" asarida 30 ga yaqin qadimgi kiyimlar va gazlamalarning nomi qayd qilingan.

O'rta asrda yaratilgan miniatyuralarda ham o'zbek xalqining o'sha davrdagi kiyim-kechaklari aks etgan. XII asr miniatyuralarida tasvirlangan erkak va ayol kiyimlari etagi birmuncha keng, o'ziga xos bichimda dumaloq shakldagi ko'ylaklardan iborat bo'lganligini ko'rish mumkin. Kiyimlarning old qismi qisqaroq, orqasi uzunroq, astari esa ko'pincha yo'l-yo'l matodan tikilgan. Erkak va ayollarning ko'ylaklari tashqi jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularda ko'pincha farqli jihatlar mavjud bo'lgan: ayollar kiyimining yengil pastga qarab kengayib borgan, erkaklarikida esa bilagiga yopishib turgan. Erkaklar cho'lvoining poychasini uzun qo'ng'irli etikka tiqib, boshiga salla o'rigan. Askarlar esa kiyim ustidan sovut kiygan. Mintaqada asosan, turli rangdagi silliq matolardan tikilgan kiyimlar urf bo'lgan.

Mo'g'ul bosqinchilarining o'lkamizga kirib kelishi natijasida zo'rlik bilan singdirilgan mo'g'ul-xitoy analari o'zbek xalqi kiyim-kechaklariga ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

XV asrda Temuriylar hukmronligi davrida erkak va ayollarning turli rangdagi ichki hamda tashqi qavatlari, ya'ni turli rangdagi avra-astarlari ikki uzun libos kiyishi odatga aylangan. O'z navbatida, ushbu davrda Samarqand, Hirot va Sheroz kabi shaharlarda boshang, rang-barang, sodd

va jozibali mahalliy bichimdagi kiyimlar tikilgan. Shuningdek, turli mintaqalar kiyimish uslublari, ranglari va ayrim bezaklari bilan farqlanib turgan.

XVII-XVIII asrlarda an'anaviy bichimdagi kiyimlar taraqqiy etgan holda Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Andijon va Toshkent kabi shaharlarga xos kiyim-kechak turlari ham shaklland. Mazkur holat kiyimlarda o'ziga xos qismlarning vujudga kelishi, yangicha poyafzal va bosh kiyimlarning tarqalganligi hamda turli matolardan foydalanilganini aniq ko'rsatib turadi.

XIX-XX asrning boshlarida o'zbek milliy kiyimlari majmii shakllanib ulgurgan edi. Ushbu davrda O'rta Osiyoda ishlab chiqarish munosabatlarning rivojlanishi, savdo aloqalarining kengayishi va o'lkani Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida mintaqaga fabrika gazlamalarining keng miqdorda kirib kelishi va o'z navbatida, yangi insonlik kiyim-kechak nusxalarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, tikuv mashinasining kirib kelishi kiyim tayyorlash jarayonida o'ziga xos "ingiloby" hodisa bo'ldi.

O'zbeklarning an'anaviy kiyimlari orasida erkaklarning milliy liboslari alohida o'rinda ega. Kiyimlar (to'n, ko'ylak, yaktak, ishon va b) yasalt bichimini, to'g'iri, keng va uzun bo'lib, eni buzilmagan bir bo'lak matodan yarmidan bir-biriga ulab uzunasiga tikilgan, yon qismi esa etagiga qarab kengayib borgan. Dastlab erkaklarning ko'ylagi uzun, tizzadan pastga, keyinroq esa belning yarmigacha tushadigan qilib tikilgan. Uzunmum olganda, O'zbekiston hududida erkaklar orasida bir nusxadagi to'n, ko'ylak-yaktak, ishon, do'ppi, salla, telpak, kavush-maxsi, etik, elchotiq va turli yordamchi kiyimlar kiyilgan. Erkaklarning ko'ylagi faqatgina vodiyasida uzun, tik yirmoch-qiyiq joyi uzunroq matodan tikilgan bo'lib, burchak-burchak qilib, ikkita qiyiq kesilgan hamda uchlarlari keng holatda tikilgan. Boshqa xil bichimdagi ko'ylaklarda yirmoch yotiq, u yalladan bu yelkagacha olingan. Bunday ko'ylaklar "mullavachda ko'ylak" deb atalgan.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida mamlakatning turli mintaqalarida turli, tik yotiq "no'g'oy yoda ko'ylak" va "bo'g'ma yoda" ko'ylaklar kiyish ommalasib, uni dastlab shahar aholisi, ayniqsa, savdo ahli kiygan. O'zbeklar orasida bo'z, ipak va ip gazlamalardan tikilgan oldi ochiq yaktak ko'ylaklarni yoshlar va qanilar birdek yopqirib kiygan. Erkaklar ishonning yuqori qismi keng, poychalari torroq tikilib, to'pdaqacha tushib turad, yuqori qismiga ishonbog' o'tkazish uchun milkgacha gir aylana bayachak

qilingan. Sovuq paytlarda ishton ustidan astari yoxud astarsiz shim kiyilgan, u asosan, ip-gazlama va jun gazmollardan tikilgan.

Chavandozlar va ovchilar namat, jun, mo'yna va oshlangan teridan tikilgan cho'ltvor kiygan. Chopon (to'n), jomakor, kanzul, jelak va chakmon erkaklarning mavsumiy kiyimlari sirasiga kirgan. To'n (chopon)lar avtastari holda paxta solib qayilib, oldi ochiq va uzun holatda tikilgan. Yurganda, otga munganda va yerda chodona qurib o'tirganda qulay hamda ixcham bo'lishi uchun yon tomonlariga kesik-yirmoch qo'yilgan va belbog' bog'langan. To'nlarining avrasi beqasam, kimxob, baxmal, shoyi, satin, chit va boshqa matolardan tikilgan.

To'nlar mahalliy xususiyatlarga ko'ra ham farqlangan. Farg'onaviy, Toshkent va Xorazmda gavdaga yopishib turadigan sirma-qavrima choponlar keng tarqalgan bo'lsa, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarda qimmatbaho matolardan zardo'zi to'nlar tikilib, yoqasi, etagi va yeng uchlariga turli rangdagi zar iplar hamda atrofiga gavar toshlar qadab bezatilgan. Bunday to'nlar odatda, xon va amaldorlarga sovg'a qilingan. Umuman, xalqimiz orasida hurmati kishilar, ustozlar, quda-andalar, kuyovlar, aziz mehmonlar va boshqalarga to'n kiydirish an'anasi saqlanib qolgan.

Erkaklarning keng tarqalgan kiyimlaridan biri chakmon bo'lib, uning bosma chakmon, bogoti chakmon, qoqma va tivit chakmon kabi turlari mavjud bo'lgan. Ular rangiga qarab ko'k chakmon, malla chakmon va oq chakmon deb atalgan. Chakmon bichimiga ko'ra, to'nga o'xshash bo'lib, asosan, qo'y va tuya terisidan faqat avradan tikilgan hamda chopon ustidan kiyilgan. Qishda cho'ponlar kebanak kiygan. Chopon ustidan bog'lanadigan belbog' bo'z, chit, satin va beqasam kabi matolardan tikilgan.

Erkaklarning etik, kavush-maxsi, chorig, takaki etik, mo'kki, toshovon va choriq-poypush kabi oyog' kiyimlari mavsumiy xarakterga ega bo'lgan. Qo'nji tizzagacha bo'lgan poshnali etiklar no'g'oy etik va qora etik deb yuritilgan.

XX asrning birinchi choragida ayollar kiyimlarining yoqalari asosan, vertikal va gorizontal ko'rinishga ega bo'lgan. Ko'ylaklarning yoqalari etnogenetik emas, balki funksional mahno kasb etgan: vertikal yoqali ko'ylaklar chaqaloqlarni emizishda qulay bo'lgani uchun asosan yosh bolali ayollar kiygan. Bunday ko'ylaklar "onalik ko'ylagi" yoki "ayol ko'ylak" deb atalgan. XX asrning 20-30-yillarga kelib "ko'krak burma" ko'ylaklar ommaviy urfga aylangan. Bunday ko'ylaklar dastlab Toshkentda paydo bo'lgan. 50-yillarda ayollar va qizlar ko'ylagi orasidagi farq

yo'qolib, vertikal ko'rinishdagi ko'ylaklar keng tarqalgan bo'lsa, 80-yillarga kelganda esa, "ko'krak burma", yoqali hamda yengi kalta atlas ko'ylaklarni kiyish rasm bo'ldi.

XX asrning 50-70-yillarida sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar natijasida an'anaviy milliy kiyimlar tarkibiga yevropacha rusumdagi kiyimlar kirib kelgan. Buni milliy ko'ylaklar bilan bir qatorda yevropacha shim bilan kiyiladigan kiyimlarda ham ko'rish mumkin. Ayniqsa, yevropacha bichimdagi poyafzallar keng rasm bo'lishiga qaramay, maxi va etik kabi milliy oyog' kiyimlari o'zining an'anaviy ko'rinishini saqlab qolgan va asosan, leksalar orasida ko'proq tarqalgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur davrda erkaklarning maxsus ish kiyimlari paydo bo'ldi, o'g'il bolalarning kiyimlarida ham evolusion jarayonlar sodir bo'lib, milliy kiyimlar Yevropa kiyimlari bilan uyg'unlashgan holda kiyila boshlandi. XX asrning 60-70-yillarida poyafzal fabrikalarida ishlab chiqarilgan turli shakldagi ayol va erkaklarning yozgi tufflari hamda qishki etiklar keng tarqaldi.

Ayollarning an'anaviy kiyim-boshlari ko'ylak, lozim, chopor, murakk, peshmat, kanzul, nimcha, parangi-chachvonlar hamda xilma-xil to'mollar va rang-barang do'pplardan iborat bo'lgan. Maxi, kavush va bohmoch kabi poyafzallar charmidan tikilgan, kalishlar esa rezinadan quyilgan. O'z o'rnida shuni alohida ta'kidlash kerakki, ayollar kiyimlarining naftis va xilma-xil go'zal bo'lishiga mohir o'zbek zargarlari tayyorlangan taqinchoq va zeb-zinmalar yamada ko'rk bag'ishlagan.

Ko'ylaklarning yirmochi ko'ndalang yoki "yelka yog'a", "qozoqi yog'a", "vaqvaqa yog'a" va "qaytarma yog'a" kabi turlarini ko'proq qariyalir va kelimlar kiygan. Yelka yog'a ko'ylaklar yirmochining chekkalarga tuti solib jiyak, chiroz, tasma yoki turli rangdagi ipak iplardan yo'mma usulda kashba tikib chiqilgan. Kiyim shakllari milliy yo'l-yo'l, sidig'a va gulli matolar bilan moslashgan, old etagi, yeng uchi, yoqasi gulli jiyak bilan hosilvayilgan.

Ayollar kiyimlarining ikkinchi asosiy bo'lagi lozim bo'lib, poyechasi toraytirilib, yuqori qismi esa qayrilgan hamda orasidan ishtonbog' o'tkazilgan. Odatda, lozimning ko'ylak ostidan ko'rinadigan qismi qimmat va chiroyliroq matodan, ko'rinnaydigan tepa qismi esa arzonroq matodan tikilishi bilan erkaklar ishtonidan ajralib turgan. Uydagi kiyiladigan lozimlar oddiy va arzon matodan, ko'chaga kiyiladigan esa shoyi, atlas, parcha ipakli hamda qimmatbaho matolardan tikilgan.

Ayollarning ustki kiyimlari paxta solib qavilgan to'n va paxtasiz, ayra-astardan iborat yengil xalat ko'rinishida bo'lib, hududlarga ko'ra turlicha nomlangan: Toshkentda *peshvo* va *mursak*, Xorazmda *misak*, Samarqandda *mulisak* hamda *kaliacha*, Farg'ona vodiysida *munisak* va *munsak*, Buxoro hamda Shahrisabzda esa *kaliacha*. Mursak uch qismdan, ya'ni bo'y, yon va yengdan iborat bo'lib, yon qismini to'g'ri, uzun, qo'lliq, ostiga to'plangan. Ushbu to'plangan qism "cho'chcha" deb atalgan.

XIX asr oxiridan o'zbeklar orasida kamzul va nimcha kiyish odat tusiga kirgan. Kamzulning yoqalari tik, bo'g'i, badanga yopishib turadigan uzun, belburna ayurtukni eslatib, ortida qiyiq joyi, ya'ni yirmochi va qaytarma yoqasi bo'lmagan. Qora rang mat, asosan, satin yoki kostyumtop qalin ip gazlamalardan tikilgan va ular ko'ylak ustidan kiyilgan.

Samarqandda kamzulning runcha turi keng tarqalgan. Ushbu turdagi kamzullar Toshkent atrofidagi qishloqlarda ham tarqalganligi ma'lum. Odatdagi kamzullarda kesma cho'ntaklari bo'lmagan va tugmalanmagan bo'lsa, runcha kamzul esa bichilishi va tikilishi jihatidan butunlay boshqacha ko'rinishga, ya'ni bukrama yoqaga ega bo'lgan. Yoqasi ko'krak oldigacha buklab tushirilgan bo'lsa, yelkasi esa kesma ko'rinishda bo'lib, yeng tomoni sal qiyshaytirib tikilgan. Shuningdek, qulfi-kaliti, qaytarma va qaychi yoqali kamzullar keng tarqalgan edi.

Kamzullar avvallari kosiqlar to'qigan matolardan tikilgan bo'lsa, XIX asr oxiridan boshlab Turkistonda Rossiya fabrikalarida ishlab chiqarilgan baxmal va duxobalardan tikila boshlandi. XX asr boshlaridan nimcha va kamzulcha kiyish sekin-asta odat tusiga kirdi. Kamzulcha kiyish odati tez orada yo'qoldi, lekin nimcha asosiy uski kiyimlardan biriga aylanib qoldi, xususan, xotin-qizlar orasida keng tarqaladi. O'z o'rnida shuni qayd etish kerakki, nimcha bichish va tikilishi jihatidan har xil ko'rinishga ega bo'lgan. Dastlabki yillarda belidan pastroqqa tushib turadigan uzunlikda va bo'yini yopib turadigan tik yoqali ko'rinishda, keyinchalik qaddi qomatiga yopishib turadigan qilib, kaltaroq tikilgan.

Bosh kiyimlar. Erkaklarning yilning to'rt faslida ham kiyiladigan asosiy bosh kiyimi do'ppi bo'lgan. Do'ppi qachon va qacda paydo bo'lganligi haqida hozircha aniq malumotlar mavjud emas, lekin do'ppiga o'xshagan uchli, cho'qqi bosh kiyimi juda qadimdan ishlatilib kelinaётgani ma'lum. Chorsi hamda yunalog do'ppilar nisbatan ancha kech qo'llanila boshlangan va taxminan XIX asrning 20-yillarida keng tarqala boshlagan, degan fikrlar mavjud.

Erkaklarning asosiy bosh kiyimi Farg'ona vodiysida *do'ppi*, O'zbekistonning boshqa hududlarida esa *to'ppi* deb yuritilgan. Do'ppilar shakllari uch xil: cho'qqisimon (konussimon) shaklda (quloq), yunalog, sharsimon (araqchin) va yassi, uski tekis (tus do'ppi) ko'rinishga ega bo'lgan.

Erkaklarning eng qadimiy bosh kiyimi *quloh* deb ataladi. Quloh darvishlar bosh kiyimi uchburchak parchalardan bichilib, yonlamasiga tikiladi. Quloh gerdishi unchalik sezilmay turadi. Shahrisabz, Nurota va Buxoro hududlarida uchraydigan quloqsimon bosh kiyimlari rang-barangligi va xoch (salib) ko'rinishi bilan ajralib turadi. Yunalog do'ppilar orasida Urgut do'ppisi jozibali ko'rinishga ega bo'lib, u o'zining buyramonaligi va yorqinligi bilan kishi diqqatini jalb qiladi.

O'zbekistonning har bir viloyat va tumanlarida shu yerning o'ziga xos milliy urf-odatlariga monand do'ppilar tikiladi. Masalan, Surxon vodiysidagi qishloqlarda piltado'zi uslubida tikilgan do'ppi kiyiladi. Ushbu turdagi do'ppilar qozoqlarning chiyiga o'xshab ketadi. Toshkentda yunalog do'ppi bosma, iroqi, kanda xayol va chakmatir deb ataladigan ebok usullari tomonidan tayyorlanadi. Farg'ona vodiysi do'ppilari va qadimiy bosh kiyim nusxalari bilan Xorazm hamda mo'g'ul yassi chorsi va eho' qilib qalpoqlarga o'xshatib tikiladi.

Chust do'ppisi yassi va tekis do'ppilarning eng ko'p tarqalgan turidir. U sakiz xil chok uslubida tikiladi: to'g'richok, zanjira, chit, kungura, yetalama, ova, taroq, galandar va pildirtoq. Erkaklar ilgari rangli do'ppilar, keyinchalik esa oq-qora tusdagi Chust do'ppilarni kiyadigan bo'ldi. Ushbu do'ppilar, asosan, bodom yoki qalampir nusxa ko'rinishida bo'lib, aslida qush tasvining bir bo'lakidir. Ilgari do'ppining to'rt tomonida ham qush tasviri aks etgan bo'lsa, keyinchalik uni ixchamlashtirib, qushning boshi va oyog'larini tikmay qovrilgan. Do'ppilar orasida Qo'qon va Marg'ilon do'ppilari odmiyligi va rasolig'i bilan ajralib turadi. Muzkur bosh kiyimlarda choklari nisbatan ancha kam. XX asrning 30-yillaridan boshlab do'ppilarda miti qushlar, jumladan, bulbul va tovuqlar tasvirlash odat tusiga kirdi, lekin ushbu xil do'ppilarga talab unchalik yuqori bo'lmadi.

Qish kunlari erkaklar mo'yna telpak kiygan. Ushbu kiyim qulohga o'xshab tikiladi. Mo'yna telpaklarning turi ko'p bo'lib, ular bir-biridan birligini va tikilishi jihatidan farq qilgan. Samarqand va Buxoro atrofidagi qishloqlarda katta mo'ynali telpak kiyilgan. Samarqand telpagining astari yunalog, arzon, ko'pincha qo'y, ba'zan esa tulki mo'ynalaridan tikilgan.

XX asrning 20-yillari oxiridan qizlar va yosh juvonnar ham do'ppi kiyib boshladi. Qashqadaryo va Surxondaryoda o'rta yoshdagi ayollar kulla kiygan va uni "do'gshi" deb ataganlar. Do'ppilar naqshlari va matosining turiga qarab turlicha nomlangan. Turli rangdagi do'ppilar "chaman-dagul", baxmal va parcha matodan tikilgan, yo'l-yo'l naqsh tushirilgan do'ppi esa iroqi do'ppi deb atalgan. Shahrisabz do'ppichilik maktabining iroqi cho'klar sanama va chizma usullariga bo'lingan. Iroqi uslubda, xomdozi bezak bilan tikilgan xotin-qizlarning bosh kiyimi do'ppido'zlik sarafining yorqin namunasi bo'lib, ko'kragida tasvirlangan keim bilan kuyov surati do'ppiga tantanavor tus berib turadi.

Salla. Markaziy Osiyoda salla o'rash odati qachon paydo bo'lganligi va qaysi davlatdan kiritib kelganligi ham noma'lum. Yunon muallifi Strabonning yozishicha, salla o'rash qadimiy midiyaliklar orasida ham keng tarqalgan va Mifridyan Eronga o'tgan. Aftidan, Somoniylar davridan boshlab salla o'rash odati qadimgi Markaziy Osiyo hududlariga ham tarqalgan bo'lsa kerak, lekin xorazmliklar orasida ushbu odat deyarli uchramagan. Ushbu bosh kiyimi asosan, hozirgi O'zbekistonning g'arbiy-janubiy hududlarida keng tarqalgan bo'lishi mumkin.

Manbalarda keltirilishicha, salla butun Movarounahr xalqlari (xorazmliklardan tashqari)ning asosiy bosh kiyimi hisoblangan. XIII asrda ushbu hududga, shu jumladan, Samarqandga kelgan sayyohlarning yozishicha, nafqat ulamolalar, shu bilan birga oddiy xalq hamma har doim salla o'rash yurgan.

"Salla" so'zining ma'nosi xususida turli xil fikrlar mavjud. Ayrim olimlarning fikricha, "salla" asosan, Toshkent shevasiga xos atama bo'lib, "solmoq" so'zidan olingan. Bal'zi manbalar, chunki, o'rta asrlarga oid yozma yodgorliklarda esa "salla" so'zi "savat", "tuguncha" ma'nosini anglatadi, deb qayd etilgan. "Salla" so'zi turkiycha bo'lib, hozirgi tojik tilida ham ushbu so'zning ma'nosi aynan shunday izohlanadi. Binobarin, o'rta asrlarda salla hali asosiy bosh kiyimi sifatida odat tusiga kirmagan edi.

"Salla" atamasining "savat" va "tuguncha" so'zlariga nima aloqasi bor, degan savol tug'iladi. XVIII asr o'rtalarida buxorolik ayollar boshlariga to'qilgan savat kiyib yurgan. Mazkur shaharda bayram va sayillar paytida xaloyiq oldida tomosha ko'rsayotgan mas'haraboz katta sallali qozi obrazini gavdalantirish uchun boshiga atrofi oq mato bilan o'ralgan katta savat qo'yib chiqqan. Ehtimol, shu tufayli "salla" deb atalgan bo'lishi mumkin.

"Salla" atamasi sug'diycha "sallata" so'zidan olingan, degan fikr ham mavjud. Yag'nob shevasida "sallata" "ayollar ro'moli" degan ma'noli anglatadi. Agar ushbu fikr to'g'ri bo'lsa, u holda salla avvallari ayollarning bosh kiyimi bo'lgan, keyinchalik turli o'zgarishlar ta'sirida erkaklar bosh kiyimiga aylangan.

Markaziy Osiyoda sallaning ikki turi keng qo'llanilgan: katta salla va kichik salla. Kichik sallani bal'zi joylar, masalan, Samarqandda "futa" deb atalgan (keimlar nikoh kuni boshiga kiyib chiqadigan "fata" atamasi ushbu so'zdan olingan). "Futa" arabcha so'z bo'lib, Hindistonan kiritib kelgan (bosh yo'belni o'rashga ishlatilgan, shuningdek, bosh yopiladigan bir bo'lak ma'oni hindlar "fo'ta" deb atagan) va asosan, turmushga chiqqan ayollar o'rashdagi bosh kiyimi anglatgan. Kelinga nikoh kuni otasining uyida salla kiydirilgan. Kuyovnikida salla o'rash odati ham bo'lgan. Sallani ayollar 45-50 yoshlarga qacha o'rash yurgan.

Ayollar sallasi kiygich yoki do'ppi hamda o'rashdan iborat bo'lgan. O'z navbatida o'ranning ham har xil shakllari mavjud bo'lib, boy ayollar 14 metr mato ("Boy bosh")dan, kambag'allar esa 6 metr mato ("Kambag'il bosh")dan salla o'ragan. Kambag'allar yaxlit mato topolmasalar, kalta lata va paxta, salla uchun esa ko'k yoki qizil rang ishlatilgan. Salla o'rani ustidan to'rtadan yettita gacha, kambag'allar esa bitta qizil ro'mol o'ragan. Shuningdek, ma'rakalarda katta yoshdagi ayollar 10 metr o'rashdan salla o'rash, ustidan oq ro'mol bog'lagan bo'lsa, o'rta va kichik yoshdagi juvonnar esa 10 metrdan iborat havo rang satin salla o'ragan.

Salladan tashqari qiz bolalar uzog' yillar davomida qalpoq kiyib yurgan (do'ppi ayrim joylarda qalpoq deb ham ataladi). Samarqand, Urgat va uning atrofidagi qishloqlarda keng tarqalgan qalpoqlar tog'lik tojik va Markaziy Osiyo yahudiylari qalpog'iga o'xshagan yumaloq ko'rinishda bo'lib, hozirda butunlay yo'qolib ketgan. Bosh kiyimlar bilan bog'liq bir qancha urf-odatlar mavjud bo'lgan. Masalan, to'y o'tigandan keyin qalpoqcha ustidan peshona durra, shuningdek, birinchi farzand tug'ilgandan so'ng esa qalpoq o'miga ro'mol o'ralgan. Ko'pincha qo'shaloq ro'mol tikilgan: birinchisi boshlariga shundog' tashlab, uchlarini orqaga yig'ib qo'yilgan bo'lsa, ikkinchi ro'mol esa uning ustidan peshonani bilan bog'langan.

Ko'p joylar, xususan, qishloqlarda bosh kiyim yoshiga qarab farqlangan. Qiz bolalar popuk to'ppi (do'ppi) kiygan bo'lsa, turmushga chiqqan kelin esa birinchi farzand tug'ilganiga qadar to'ppi ustidan durra o'ragan (uni Samarqand va Qashqadaryoda peshonaband deb ataladi). Peshonaband turli ko'rinishda bog'lanib, durraning ikkinchi uchi 3-4 marta

taxlog'liq va bosh ustidan yonboshga osilgan holda o'ralgan yoki orqaga tashlangan. Ba'zi hududlarda boshga saramdoz ham solib yuritilgan. Qadimda chetlariga kashta tikilgan yakkaband ishlatilgan bo'lib, yakkabandning uchlariga shoh (popuk), o'rtasiga moh tikilgan.

Birinchi farzandi dunyoga kelgach, yosh juvonlar sochlarini qo'sh kokil qilib o'tib, boshiga kulut deb atalgan kashtali qalpog' kiygan bo'lsa, qani onaxonlar esa oq qalpog'da yurgan.

XX asr boshlaridan ayollar ham erkaklarga o'xshagan aslarning ichiga pila qo'yib tikilgan do'ppi kiyib yuradigan bo'ldi. Ayollarning do'ppisi erkaklarikiga qaraganda ancha yassi, kashtasi mayda, rang-barang va jozibali ko'rinishga ega bo'lgan. Ayollar do'ppisining araqchi turi ham o'lkada keng tarqalgan edi.

Ayollarning an'anaviy bosh kiyimlari kiyim egasining oiladagi mavqeyini aniq ifodalagan. Chunonchi, bosh kiyim va soch turmagiga qarab qiz bolani turmushga chiqqan kelindan, yosh onani farzandsiz ayoldan, o'ra yoshi ayolni keksa momdan ajratish mumkin bo'lgan. Bosh kiyimlar odatda, ikki guruhga bo'lingan: boshga kiyiladigan kiyimlar (qalpog', do'ppi, yani taqva va kallapo'sh), quloqchin, bo'yrak hamda telpak) hamda boshga o'raladigan yoki yopinadigan ro'mol, peshonaband lochak, durra, durracha, lokki, yovilik va h.k.

Ayollarning yoshiga qarab mavsumiy tarzda o'raladigan ro'mollar *dudog' ro'mol*, *ip ro'mol*, *shol ro'mol*, *jun ro'mol*, *to'r ro'mol*, *ipak ro'mol*, *doka ro'mol*, *misqali doka ro'mol*, *g'ijim ro'mol*, *qalayski ro'mol*, *qirokati ro'mol*, *besh gulli ro'mol*, *baki ro'mol*, *gardi ro'mol* kabi nomlar bilan atalgan. Yosh qiz va kelinchaklar oq va yorqin rangli, keksalar esa oq nimrang hamda kichik hajmli ro'mollar o'ragan.

Farg'ona vodiysida ro'molning alohida turi keng tarqalgan bo'lib, u chorsi shaklida, uchlari burchakma-burchak qilib taxlanib, boshga o'ralib, ustidan qora yoki qoramir tusdagi durracha tashlangan. Durracha peshonaga tang'ilib, uchlari gardanda kesishirilgan va peshona ustiga o'tkazilib bog'langan qora ro'mol orasiga qistirib qo'yilgan, so'ngra ustidan bir parcha mato, yani doka bog'langan. Buxoroda doka o'miga uzun shasha doka ishlatilgan. Hozirgi kunda ham ro'mol ustidan bog'langan durrachani Toshkent viloyatining ayrim tumanlarida yashovchi ayollarning boshida uchratish mumkin. Aksariyat hollarda kichikroq ro'mol, yani durra o'raladi.

Paranji XX asrning birinchi choragigacha o'zbek ayollari ko'chaga chiqayotganda kiyilishi majburiy bo'lgan ust-bosh hisoblangan. Har bir ayol va qizning albatta, paranji va chachvoni bo'lgan. Ayollar va qizlar

paranjini ustiga yopib, yuz-ko'zini chachvon bilan berkitgan. Samarqandda chachvon "chashmand" deb atalgan.

Paranji va chachvon xonadan olib chiqilgandan keyin hovli'da avvalo, ayollar boshiga paranji tashlab, darvozadan chiqayotganda, ostonada yuziga chachvon tutilgan. Boy xonadonning ayollari qimmatbaho motodan rang-barang bezaklar berib tikilgan paranji-chachvon yopingan bo'lsa, kambag'al ayollar esa eski paranji-chachvon tutgan.

O'shloq joylarda paranji-chachvon kandan-kam ishlatilgan, o'zbeklarda ham asosan, olis safarga chiqilganda va turli marosimlar paytida ishlatilgan. Paranji yopinish odati mavjud bo'lmagan hududlarda ayollar boshlariga turli xil yopinchiqdar va ko'pincha bolalarning to'ni tashlab yuritilgan. Samarqand va Shahrisabzda yo'l-yo'l matodan tayyorlangan yopinchiq, Xorazm va uning atroflarida esa jesda yopib yuritilgan. Jeydning uchlari ayolning beligacha tushib turadigan darajada uzun bo'lib, belvan yengiga o'xshab chabib qo'yilgan. Ish bilan band bo'lganda jeydning uchlari bo'yinlariga o'rab olingan. Lo'ililar chachvoni it yoldan tayyorlagan. Boylarga mo'ljallangan chachvonlar havorang yoki pushti munchloqlar bilan bezatilgan va uning hamma tomoniga mag'iz tikilgan.

Belbog'. Belni bog'lab yurish qadimdan qolgan odat bo'lib, Markaziy Osiyo, shu jumladan, O'zbekistonning turli hududlarida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar vaqtida topilgan xilma-xil yodgorliklar uchun fikrimizning yorqin dalili bo'la oladi. Ular orasida devorga solingan rasmlarda belini bog'lagan erkaklar tasviri ko'p uchraydi. Ajdodlarimiz joda qadim zamonlardan boshlab o'zlarining ishga va xizmatga tayyor aholiqlarini shu tarzga izhor qilgan bo'lsalar kerak. Hozirda ham biron-bir to'y yoki marosim o'tkazilayotgan bo'lsa, qarindosh-urug'lar, yor-burolar va qo'ni-qo'shnilar: "E to'y bo'lsin, belimizni mahkam bog'lab sizni oqlamiz", deydi. Ustoz shogirdiga mustaqil ish boshlashga fohila tayyorgarlikda ham uning beliga belbog' bog'lagan, saroy ahilari esa xizmatida yurganida kamar taqqan. Xon, amir, sulton va hokimlar to'ni ustidan kamar bog'lamaganlar, ammo ularning xizmatida bo'lgan saroy amol-dorlarining hammasi kamar taqishi shart bo'lgan.

Belbog' vaziyatga qarab turlicha bog'langan. Odamlar asosan, to'n yoki chopon ish qilyotganda xalqaqt bermasligi uchun belbog' bilan mahkam bog'langan. Agarda chopon ustidan to'n kiyilgan bo'lsa, belbog' ustidan, chopon ustidan, to'n yoki chopon o'zi kiyilganida esa yaklak ustidan belbog' bog'langan. Belbog'ning turi va nomi ham har xil bo'lgan: choral, qilyeqcha, mayonband, qo'sha-ars, futa va hokazo. Bulardan eng

ko'p tarqalgan chorsi belbog' bo'lib, u kvadrat shaklida guldor va naqshdori qilib tikilgan. Futa juda uzun bo'lib, belga bir necha marta o'rta bog'langan. Ayrim hollarda futa ustidan chorsi ham bog'lab yurilgan. Hatto bir yo'la bir necha belbog' bog'lash hollari ham ko'p uchraydi.

Belbog' bog'lash bilan urf-odatlar ham ko'p. Masalan, nikoh kuni kuyovning beliga chorsi belbog' bog'langan, ertasi kuni, ya'ni "kelin saloni" vaqtida u yechilgan, yaqin kishi qazo qilganda ham to'n ustidan belbog' bog'langan.

Belbog' faqat chopon yoki to'n, shuningdek, yaktak ochilib ketmasligi uchunгина bog'lanmagan. U juda ko'p va xilma-xil maqsadlarda ishlatilgan. Belbog' o'ramlariga pul, nosqovov va turi mayda-chuyda kerakli narsalar solib yurilgan. Belbog' yo'lda sochiq, joynamoz va dasturxon o'mida ishlatilgan, sovuq kezlarda esa boshga o'ralgan.

Bora-bora soddagina bichimdagi liboslar o'mini murakkab bichimli liboslar egallay boshlagan va kiyimlardagi avvalgi uyg'unlik yo'qolgan. Mazkur yangiliklar tarixan hayot tarzining o'zgarishi va ommaviy san'at ishlab chiqarishning hunarmandchilikdan ustunligi tufayli kelib chiqqan. Shu bilan birga, qadimdan iqlim va ijtimoiy hayot sharoitlarini o'zida aks ettirgan milliy kiyimlarning shakllari ham o'zgarib bordi. Milliy bichimdagi kiyimlar qomaning nisbatlariga yaqinlashdi, ayollarning ko'ylaklari torayib va kattalashib bordi, koketkali va qaytarma yoqali ko'ylaklar keng tarqaldi. Yosh yigitlar va o'rta yoshli erkaklarga Yevropa bichimida tikilgan kiyimlarni kiyish rasm bo'ldi va faqatgina keksalar orasidagina milliy kiyimlar saqlanib qoldi yoki marosimiy kiyimlarga aylandi. Eng muhimi, milliy kiyimlar tarkibiga ko'ra soddaroq va chiroyliroq bo'lib bordi.

XX asrning 20-30-yillarida kiyimlarga Yevropa bichimlarining kirib kelishi milliy ko'ylakni shim bilan, ayollar ko'ylagini esa nimcha bilan kiyilishiga olib kelgan bo'lsa, 40-50-yillarga kelganda esa, erkaklar kiyimini to'g'ri yelkali qomatga moslangan pidjak va keng shimlar tashkil etdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin rahbarlar, ziyolilar va xizmatchilar orasida harbiy kiyimlar: french yoki gimnastyorka, qora yoki ko'k rangdagi movurdan tikilgan galife shimlarni qora yoki jigarrang etik bilan kiyish boshlandi. Yozda yengil kitel va qattiq marodan tikilgan shim etik ichiga tiqib kiyiladigan bo'ldi.

60-yillardan O'zbekistonda ilk bor kiyim andozalarini rejalashtirish boshlandi, natijada fabrikada tikilgan yangi bichimdagi kostyum-shimlar kirib keldi. Ushbu davrda mintaqada erkaklar kostyum-shimlarni milliy bichimda, oldi va yopqasi kashali ko'ylaklar bilan kiyilgan bo'lsa,

70-yillarda esa yoshlar orasida pastki qismi keng qilib tikilgan kiyosh shimlarni yopqalari keng, havo o'tkazmaydigan neylon ko'ylaklar bilan kiyish keng tus oldi va bunga qo'shimcha ravishda qo'lga soat taqish urfga aylandi.

80-yillarga kelib tanaga yopishib turuvchi jun va jinsi shimlar hamda yopqasi birmuncha kichkina bo'lgan paxtalari va trikotaj ko'ylaklar kiyish boshlandi. Yoshlar, ayniqsa, o'quvchilar orasida oq ko'ylak va qora shim kiyish ommalashdi. Qishda esa erkaklar fabrikalarda tayyorlangan palto va plashchlar, boshga telpak kiyib, bo'yiga sharf o'rash keng tarqaldi. Oyog' kiyimlarida yangiliklar ko'zga tashlanib, fabrikada ishlab chiqarilgan poypog' va poyafzallar kiyish boshlandi.

90-yillarning boshlarida yoshlar o'rtasida G'arb mamlakatlarida ishlab chiqarilgan krossovkalarni kiyish ommalashdi va mahalliy poyafzal fabrikalarida ham ushbu turdagi oyog' kiyimlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bolalar kiyimlari ham kattalarnikidey davrga qarab o'zgarib bordi. Astr-sekin kiyimlarning vazirasi ham o'zgardi va ayrim kasb egalari (shohbalar, shifokorlar, sotuvchilar, sataroshlar, o'qituvchilar kiyimlari va boshqalar) bilan bog'liq holda maxsus kiyimlar shakllandi.

Mustaqillikdan so'ng milliy an'ana va rasm-rusumlar hamda milliy liboslariga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, ayollar milliy matolar ishlab chiqarish shoyi, atlas, adras va baxmallardan tikilgan kiyimlarni kiyish boshladilar. O'zbek modelerlarining ishlarida etnik xususiyatlar o'z uyg'unligini topmoqda va Respublika miqyosida o'tkaziladigan tuiif hamona va sayillar, bayramlar hamda oilaviy marosimlarda milliy rusumda kiyinish ommalashmoqda.

XX asrning oxiriga kelib o'zbeklar orasida davr talabi va kishilarning didiga mos keladigan kiyimlarni kiyish ommalashib, milliy kiyimlarda quyidagi o'zgarishlarni kuzatish mumkin bo'ldi: shaharlarda deyarli barcha yoshlardagi erkaklar asosan, yevropacha kiyimishga o'tdi. Faqatgina erkaklar do'ppisi va keksalarning chopon, yaktak va sallalar bilan milliy xususiyatlar saqlanib qoldi, xolos.

Hozirgi zamon kiyimlarida yevropacha uslubda bo'lsa-da, milliy an'analarning davomiyligi saqlanib qolmoqda. Masalan, shahar va qishloqdagi ayollar zamonaviy ko'ylaklarni an'anaviy xonatlardan tikib kiyimoqda, erkaklarning do'ppisi va choponi esa an'anaviy uski kiyimga aylandi.

Taqinchochilar. An'anaviy taqinchochilar majmui ham xuddi kiyimlar shogirdi munayyan xalq, etnos va etnografik guruhning o'ziga xos etnik xususiyatlarini ma'lum mahroda aks ettiradi. Taqinchog' va bezaklar qayerda

hamda qachon paydo bo'lganini aniqlash qiyin, lekin miloddan avvalgi VI ming yillikning oxiri – III ming yillikda, ya'ni neolit davrida xilma-xil tosh va chig'anoqlardan munchoq hamda shoklalar tayyorlash keng tarqalgani ma'lum. Taqinchoqlar shaklan turli-tuman: kungurador doira, astvona (silind), yassi tuxumsimon, romb, suyri, uch burchak, dumaloq, uchi va hokazo ko'rinishlarda ishlangan. Masalan, miloddan avvalgi III–I asrlarga oid Amudaryo xazinasi ham qadimiy bezak-taqinchoqlar haqida fikr yuritishimizga asos bo'la oladi.

Ajdodlarimiz qadimdan feruza va marmar nusxa talldan dumaloq hamda uchi munchoqlar yasaganlar. Ular asosan, hosildorlik va ma'murchilik ramzi sifatida, in-sjinslardan saqlanuvchi tumoqlar tartiqasida ishlatib kelingan.

Eneolit davrida lojuvard, ohak va haqiq singari qimmatbaho toshlardan ko'plab hamda xilma-xil munchoqlar yasash yo'liga qo'yilgan. Mis bilaguzuk va uzuklardan uchi yupqa xalqa tilla sing'alar yasalgan. Naqshsiz, silliq va to'g'ri chiziq, xalqalar hamda naqshlar bilan bezatilgan, bosma naqshlar bilan zeb berilgan to'qima kamarlar, rangli shisha, feruza, haqiq, lojuvard munchoq va shoklalar miloddan avvalgi I ming yillikda keng miqyosida qo'llanib kelingan bezak buyumlardan hisoblanadi.

Hayvon tasvirlari tushirilgan feruza ko'zlar qadalgan tilla bilaguzuklar, qo'lliga gul va qush turtib turgan Anahita tasvirlangan dumaloq ko'zli quyma oltin uzuklar, turunj (medalon) va shoklalar tilla xalqalar hanuzgacha barchani lol qoldirmoqda. Miloddan avvalgi I ming yillik oxiri va miloddan dastlabki asrlarga oid qush ilonbosh bronz va bo'yli taqinchoqlar hamda ko'krak va qo'l-oyoq taqinchoqlari va hokazo.

Ayollar libosini yanada nazokatli, jozibali va chiroyli qilib ko'rsatadigan bezak bu – taqinchoqlardir. Nodir va qimmatbaho bezak buyumlar taqish odati juda qadim zamonlardan davom etib keladi. Respublikaning turli hududlarida o'tkazilgan va hozirda ham olib borilayotgan arxeologik qazishmalar vaqtida topilgan xilma-xil bezak hamda taqinchoqlar fikrimizning yorqin dalili bo'la oladi.

Muzejlarda saqlanayotgan topilmalar Respublika hududlarida (Yunon-Baqiriya podsholigi mil. avv. III–II asrlar, qadimgi Xorazm mil. avv. I asr o'rtalaridan mil. VIII asrlargacha) zargarlik rivojlanganligini ko'rsatadi. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Qo'qon, Shahrisabz, Qarshi, Marg'ilon, Andijon, Namangan va boshqa shaharlarda zargarlik keng rivojlangan sohalaridan biri edi.

Taqinchoqlar bosh (tillagosh, tillabargak, gajak, bodomoy, tillabak, qo'shduo va b.), bo'yin-ko'krak (turi marjon va marvaridar, saharqon, nozigardon, jevak, talgajevak, bo'yintumor, ko'kraktumor, qo'shaktumor, bozuband va b.), soch (sochpopuk, tuf), quloq-burun (buloq, tilg'a va b.), qo'llar (uzuk, bilaguzuklar)ga taqilgan. Arxeologlar muammasidan topilgan qadimgi toshmunchoq va to'g'nog'ichlar, bronza davriga oid bilaguzuk, to'g'nog'ich hamda tugmalar ilk ajdodlarning dastlabki bezaklaridan xabar beradi. Keyingi davrda yaratilganlari esa o'ta asrlarga oid devoriy rasmlar va qo'lyozma asarlarga ishlangan miniatyuralarda ham o'z aksini topgan. Ushbu taqinchoqlar asta-sekin, vaqtlar o'tishi bilan bir-birini to'ldirib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yanali majmuaning vujudga keltirdi.

Taqinchoqlar ishlab chiqarish xom-ashyo sifatida qimmatbaho va rangli metall qotishmalari (qalay, oltin, kumush va b.), qimmatbaho hamda yotim qimmatbaho toshlar (feruza, fionit, olmos, aqiq, zumrad va yopqit kabi), plastmassa, tabiiy toshlar, suyak, emal, shisha va boshqa ishlatiladi. Taqinchoqlar jimjimador qilib, rakxori va kumushni qoraytirib, savodkoi hamda rangdori shabaka va boshqa usullarda o'yima hamda bo'yima naqshi qilib turlicha shoklalar bilan bezatilgan.

Hosilga kiyiladigan (taqiladigan) zeb-ziyat buyumlari. Bunday buyumlarga toj, chambar, takyado'zi (takyatuzi), xilma-xil jig'a va to'g'nog'ichlar kiradi. Ayollarning boshga doir taqinchoqlari zeb-ziyatlarini bilan bezatilgan va to'y libosi sifatida kiyiladigan buyumlari orasida eng asosiy hisoblanadi.

Toj va chambar podshoh hokimiyatining ramzi bo'lgan. Har bir podshoh, sulton, amir va bekning toji betakror hamda nihoyatda serbezak, qimmatbaho ko'rinishda bo'lgan. Bir qator yozma manbalarda miloddan avvalgi IV–III asrlardagi Xorazm dubulg'alari, milodiy III asrga oid tojlar haqida qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Temuriylar davrida asosiy bosh kiyim, ya'ni qalpoq nodir zeb-ziyat buyumi hisoblangani to'g'risida mojar sayyohi X. Yamberning asarida shunday hikoya qilinadi: "Qizil movuidan dubulg'aga o'xshash tojli qalpoq kiyilgan. Qalpoq ushi qizil yoqut, zabardad va durlar bilan bezatilgan, atrofida tishli qosh bo'yli, undan go'yo oq patlar tikilib turgan. Ushbu podshohing baxzlari to ko'zlarigacha tushib, yurgan vaqtidagi harakati bilan yurgan o'zgacha go'zalik berar edi".

Zeb-ziyatlangan bosh kiyimi takyaduzning Xorazm namunalari saqlanib qolgan. "Tak'yaduzi" "sirtiga tikilgan" yoki "qadab chiqilgan",

degan ma'nomi anglatrsa kerak. Takyaduzi ush ochiq yoki yopiq ko'rinishda ishlangan bo'lib, turli rangdagi toshlar va shishalar bilan bezatilgan.

Boshqa taqildigan zeb-zinyatlardan jig'a va har xil to'g'nog'ichlar, ayniqsa, ko'p ishlatilgan. Jig'ani nafakat ayollar, shu bilan birga erkaklar ham taqdan, hatto, amir, sulton va beklarning otiga ham jig'a tikilgan.

Buxoro jig'asi qiyg'os ochilgan gul butog'iga aylanib qolgan qush yoli shaklidagi uzun to'g'nog'ich ko'rinishida bo'lib, o'rta qismiga har xil tosh va shishalar qadalgan, islamiy hamda "tole zanjiri" naqshlari hosil bo'lgan yuqqa tilla rang plastinkadan yasalgan. Ustida pat qadadigan naychasi bor. Jig'a singari ishlangan to'g'nog'ichlardan yana sanchoq, sarisuzak, shuningdek, bibishoh yoki ot tuyog'i va mohitilo deb atalgan ziynat buyumlarni ham eslash o'rini bo'ladi. Sanchoq bilan sarisuzak to'g'nog'ichlar ro'mol, do'ppi va qalpoqqa qadash uchun mo'ljallangan bo'lib, Xorazmda uning naycha ko'rinishdagi "parxona" deb ataladigan turi saqlanib qolgan.

Bibishoh ikki shoxli oyga o'xshaydi. Bazilar uni ot tuyog'iga o'xshatib, boshqalar esa darveshlarning muqaddas boltasi va qurbonlik jonivorlarini so'yish uchun mo'ljallangan oyboltaga o'xshatadi. Ushbu taqinchok juda ajoyib ko'rinishda ishlangan. Yarim oy ko'rinishdagi bibishohning ikkala uchidan bittadan qushbosh mayjud bo'lib, qoq o'rta qismida romb yoki g'uncha gul qo'ndirilgan.

Peshonaga taqildigan taqinchoklar. Peshonaga taqildigan ziyinat buyumlarining turi nihoyatda ko'p bo'lib, ularning hammasi umumiy nom bilan "manglaydo'zi" deb atalgan. Bibishoh ham ba'zi joylarda peshonaga taqilgan. Ayrim hollarda peshonaga taqish uchun tilla yoki zulfizar ishlatilgan. Ushbu bezak o'rta bosma naqshlari ustiga rangli tosh va shishalardan donachalar qadab bezatilgan tillakori turindan iborat bo'lib, atrofiga ko'pdan-ko'p tilla qubbacha, popukcha va oynachalar bilan bezatilgan ikitia ilg'ak ip ham taqib qo'yilgan. Turunj manglay yo boshning orqasiga taqilgan, uchlarida katta-katta popuklari bo'lgan ipni esa boshga ikki-uch o'rta, chakkalaridan yelkaga tegar qilib osilirib qo'ygan. Yurganda ziynatlarning hammasi silkillab, yoqimni jirimglagan ovoz bergan, tilla va ochiq feruza ranglarda tovlanib turgan.

O'zbekistonning bir qator muzeylarida ana shunga o'xshash manglaydo'zilarining bir qancha turi saqlanmoqda. Bular orasida Xorazmda XIX asrda yasalgan manglaydo'zilarini ko'rsatish mumkin. Ularning biri kumush, asl majon, feruza va shishadan yasalgan bo'lib, zahal berilgan, nozik sim to'qimasi bor (Xivadagi "Ichan qal'a" davlat muzey qo'riqxonasida saqlanmoqda). Ikkinchisi esa XIX asr o'rta qismida

kumush, titillaposh, tillabargak, silsila, qush ini va qano'i osma buyumlardan iborat. Ayniqsa, tilla-osh deb ataluvchi bezak nihoyatda qadrlanib, uni odatda, kelimining nikoh libosi yoki raqosalarda uchratish mumkin edi. U turli joylarda har xil nomlangan. Masalan, Buxoroda "kuchuk" deb atalib, uning shokilalar osilgan ostki qismi qoshga o'xshaydi. Xivada qo'llanilgan xili esa "osmado'zi" deb atalgan. Titillaposhga o'xshagan bezaklardan boshqa bir xil bargak yoki taxtacha bargak deb yuritilgan.

Toshkent tillabargagi bir-biri bilan oshiq-moshiq yordamida birlashtirilgan o'n beshta to'riburchak yuqqa tangachalaridan iborat bo'lgan. Har bir naqshli tangachaning o'rta qismida tevaragi feruza toshchalar bilan o'rnatilgan qizil shisha gul bor. Ba'zi tangachalarning tepa qismida ham suvli shunday gul bo'lib, orqa tomonda urg'ochi va erkak o'rdaklarning "tuna" pullarini qistirib qo'yish uchun kichkina-kichkina bog'ichlar qilingan. Pastda esa manglayni qoshgacha berkitib turadigan ikki qat qatlabdug shokila birlashtirilgan. Xorazmda "oshiq-moshiglar" deb nom olgan kumush taqinchonning dastlabki nusxasi odam qiyofasini eslatuvchi yuqqa tangachalaridan iborat bo'lgan.

Chakkaga taqildigan taqinchoklar har xil gajak va taqinchoklardan iborat. Masalan, Buxoroning "qushduo" deb atalgan gajagi ikki gajak shakli bilan bezatilgan to'g'riburchakli tumorlardan iborat bo'lib, unga turli zulfilar qistirilgan.

Gajak taqinchoklar ichida "butun timoq", "yarim timoq" va "maycha" degan taqinchoklar yirikligi hamda murakkab ishlangani bilan ajralib turadi. "Butun timoq" gajagi "zalvorli" besh burchak g'itofdan iborat. Burchaklarida feruza ko'zi qublari bor "olma guli" naqshlari ko'zga yozqin tashlanib turadi.

Quloqqa taqildigan taqinchoklar. Quloqqa sirg'a taqish juda qadimdan davom etib kelayotgan odat bo'lib, sirg'alar katta-kichikligi va kuzagi jihatidan nihoyatda rang-barang hamda xilma-xildir. Mititlaridan kuzagi yallagachla osilib tushgan va xalqa sirg'alar keng tarqalgan. Farq'ora toshqat shokili qashqarbaldoq sirg'ani yaxshi ko'rgan. Sirg'alar kumush, asl majon, dur shisha va qimmatbaho tosh parchalaridan nozik sim to'qimasi bilan zarxal berib ishlangan.

Noshga taqildigan taqinchoklar. O'rigan sochga "sochpopuk", "sochkoq", "nuqta do'mburoq" va "yumaloq" nomlari bilan ma'lum bo'lgan bezaklar taqilgan. Ushbu taqinchoklarga xilma-xil shokilalar osilgan bo'lib, ular qubba, yaproq, uchli va tomoninuxa ko'rinishlarida yasalgan. Sochpopuklar orasida "zar'koki" yoki "chulpa"lar kumush yoki

tilla tangachalar tizmasidan qilingan. Katta soch o'ramlarini tutib turish uchun "tufak" deb ataladigan taqinchog' ishtatilgan.

Burunga taqiladigan taqinchog'lar orasida eng ko'p tarqalgan arabak deb ataladigan sirg'adir. Arabak taqish juda sharafti ish hisoblanib, ushbu odat Arabiston yo Hindistondan kirib kelgan bo'lsa ajab emas. Arabak taqish uchun burun katagi teshilgan. Samarqanddagi davlat tarix-arxeologik muzey-qo'riqxonasida XIX asr - XX asr boshlarida ishlangan arabak (buloqi) sirg'a saqlanmoqda. U kumush, dur, shisha va qimmatbaho tosh parchalaridan ishlangan.

Bo'yunga taqiladigan taqinchog'lar. Bo'yunga turli-tuman marjon, munchog, dur va tumorlar taqilgan. *Jevak* deb atalgan taqinchog' ham ishlatilgan bo'lib, u arpa donlariga o'xshagan mayda shokialardan yasalgan. Shokialarga bosma gul tushirilib, tilla suvi yugurtirilgan. U bir yoki bir nechta marjon shodasi va tizimidan tuzilgan bo'lib, o'rtaqa turli shakldagi turunj joylashtirilgan. Jevaklar kumush, asl marjon, feruza va latdan ishlangan hamda bosma usulda, zarhal berib yasalgan.

Ko'krakka taqiladigan taqinchog'lar. Zebizardon, tapishe dil, tavk, kalitbog'i, tumor va nozigardon nomli taqinchog'lar ko'krakka taqib yurilgan. Bulardan tashqari, ko'yilakka taqiladigan zeb-ziyinat buyumlari ham xilma-xil bo'lgan.

Ko'yilak umuziga "peshvoz" taqilgan. Peshvoz kichkinagina bejirim ishlangan xaltacha bo'lib, unda pardoz buyumlari (kumush, mo'ychnuk, hilol (tish tozalagich), quloq va tirnoq tozalagich, surmadon, atirdon hamda boshqalar) saqlangan.

"Tapishe dil" ko'krak taqinchog'ining nomi "yurak urushi" degan ma'noni anglatib, ba'zi hollarda esa qo'lliqqa ham taqib yurilgan. "Tapishe dil" zanjiriga osig'lik turujdan iborat bo'lib, unga zumrad va latdan shokialar o'rnatilgan.

Ko'krakka taqib yurilgan taqinchog'lar orasida turli-tuman tumorlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular ins-jinslardan saqlashga xizmat qilgan. "Tumor" so'zi arabchada "bir parcha qog'oza yozilgan duo" ma'nosini anglatadi. Tumorlarning turli ko'p bo'lgan: bo'yin tumor, ko'krak tumor, qo'lliq tumor. Hammasining turli geometrik shakldagi g'illoflari bo'lib, ular kumushdan qopqoqchali qilib yasalgan.

Qo'l-yoq taqinchog'lar. Uzun va bilguzuk qo'lga taqiladigan yuriladigan asosiy zeb-ziyinat buyumlari hisoblangan. Bilakuzuklar odatda, juft taqilgan. Uning sirtiga nozik naqshlar tushirilib, tosh va shishalar o'rnatilgan bo'lib, qadimiy bilakuzuklarda ko'zi ilon yoki qutbaga boshli tasvirlangan.

Yongil, nozik va sildirg'arang bilakuzuklarga talab doimo katta bo'lgan. Bunday bilakuzuklar ko'pincha kumush to'lardan iborat naqshlar bilan bezatilgan. Birmunchi qatori tillarang, ikkinchi qatori esa kumush, sariq, don, bodom, bosma gulli uchburchak "puncha" bilaguzuklar ham ko'plab miqdorda yasalgan. Qimmatbaho uzuklar hamma vaqt rangli tosh va shishalardan ko'z qadab ishlangan. Har bir viloyat zargarlari o'ziga xos usulda, boshqa zargarlarikidan ajralib turadigan uzuklar yasag'ar. Masalan, Xorazmda deyarli hamisha cho'zinehoq shakldagi haqiq va shishalardan ko'z qadalgan, ayrim hollardagina to'g'ri burchak shaklida bo'lgan.

Uzuklar orasida muhiy-uzuklar ham ko'p bo'lgan. Xon, amir, sulton va boshlar ularni hokimiyat ranzi sifatida taqqanlar. Ayollar tomonidan tayyorlangan taomlari makruh va yuvgan kirlari nopok bo'lmasiligi uchun shifacha, biron-bir uzuk taqib yurgan.

Uzuklar tumor sifatida ham ishlatilgan. Oyog'ga taqiladigan zeb-ziyinatlardan oyog' bilaguzuklarini eslatib o'tish kerak. Raqosalar oyog'lariga qo'ng'iroqchali bilaguzuklar taqqan.

Taomlar. O'zbekistonning xilma-xil taomlari asrlar davomida shakllanib kelgan. Milliy taomlar ko'p asitlik tarixiga ega bo'lib, ularni tayyorlashda azaldan turli xil go'sht va o'simlik mahsulotlaridan keng foydalanilgan.

O'zbeklar kundalik ovqat sifatida bug'doy, arpa, guruh, no'xat, mochi zig'ir va kunjut kabi don, sabzi, piyoz, sholg'om singari sabzavotlar, kash (sohgovoq), qovun va tarvuz kabi poliz mahsulotlarini ko'p iste'mol qilganlar. Azaldan milliy taomlarni tayyorlash uchun chorva - qo'y, qoramol va echki yog'lar, kunjut, zig'ir, sariyog' hamda paxta yog'i ishlatilib kelinadi. XIX asr oxiridan boshlab paxta yog'idan foydalanadigan ko'p edi.

Shaharlarning asosiy taomlari sut mahsulotlari tarkibiga kiruvchi qatq, suzma, tvorog yoki chakki (zardobi olingan qatq yoki kefir hisoblanib), quyuoq va boshqalardan iborat bo'ladi. Samarqand va Toshkent viloyatlari hamda Farg'ona vodiysida taomga juda ko'p zira va sariq ishlatiladi, ular taomga nozik ta'm va hid beradi. Go'shli, sabzavot va yemali quyuoq taomlarga za'faron hamda kashnich qo'shib tayyorlangan. Kuchman olganda, o'zbek milliy taomlari o'zining lazzatligi, quvvatligi va sovlatimligi bilan ajrab turadi. Ayniqsa, palov, sho'rva, mastava, shavla, moxcho'rda, moshkichiri, shilpildoq va boshqa taomlar mahalliy sado' taomlardan ayvib iste'mol qilinadi. Ba'zi quyuoq taomlar (palov) tayyorlashning o'ralab usullari mavjud.

Non tayyorlash ham o'zbek pazandachiligida alohida o'rin tutadi. Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlari aholisi non yopishda kunjut, arbabodiyon va sedanadan unumli foydalanadi. Non o'zbeklarda tandirli yopiladi va mintaqalarning tabiiy sharoitiga qarab turlicha quriladi. Xorazm vohasining janubiy tumanlari aholisi tandirning og'zini oldinga sal qiyshaytirib o'rnatadi. Turkmanlarga qo'shni yerlarda yashayotgan aholi tandirni turkmanchasiga, ya'ni yerga tikkasiga og'zini osmonga qaratib qursa, Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasida esa tandir ko'pincha yerdan odam bo'yli baravari ko'tarilib, og'zi ro'para qilib quriladi.

Arpa va bug'doy unidan xilma-xil taomlar tayyorlangan: yorma, talqon, non, qallama, chalpak, atala, bo'g'irsog, keskan osh, chuchvara va boshqalar.

Talqon. Qadimdan talqon dondan tayyorlangan. Uning uchun arpani qozonda bir sidra qovurib olgach, tozalangan va havonchaga solib tuyilgan, uni ozgina yog' quyib, qozonda qovurilgan. Ba'zan bir oz qovun qoqi yoki shakar, yo qand qo'shilgan. Talqon qotgan nondan ham tayyorlangan.

Sumalak. Ushbu taom erta ko'klam kezari Navro'zi olam boshlangan vaqtdan butun o'zbeklarda, shu jumladan, qo'shni xalqlar tomonidan ham keng tayyorlangan. Sumalak tayyorlash uchun kerakli miqdorda toza va sifati bug'doy olinib, yaxshilab yuvilgan, so'ngira qorong'i joyda tekis joyga yoyib, ustiga doka yopilgan va har kuni dokaga namini qochirmay suv purkab turilgan. Namiqqan bug'doy una boshlaydi. 10-15 kunda undan mayin maysa unib chiqadi. Barmog bo'yli o'sganidan keyin osh pichogga ildizi va mayyasi bilan birga mayda-mayda bo'laklarga kesiladi. Qo'lda ezib shartabti siqib chiqariladi. Shartabti tog'oraga solib, keragicha suv quyiladi, dokadan o'tkazib suziladi. Shundan keyin bug'doy turpi ustiga yana suv quyiladi, aralashiriladi, dokadan suzib, shartabti boshqa idishga quyib olinadi. Bu ish uch bor takrorlanadi, har gal shartabti alohida idishlarga quyiladi. Oxiri bug'doy turpi tashlab yuboriladi.

Sumalak pishirish uchun biror xonadon hovlisida o'choq qazilib, katta qozon o'rnatiladi. Qozonda yog' qizdirilib sovugach, unga un solib aralashiriladi, keyin birinchi suzib olingan shartabti quyiladi, maxsus yog'och kurakcha yoki yog'och cho'mich bilan yaxshilab aralashiriladi. Qozonga o'ti yoqib qaynatiladi. Qozon ivigach, bir-ikki kosa mayda to'satib solinadi. Miltillab qaynay boshlaganidan keyin ikkinchi idishdagi shartabti quyiladi, qaynaganidan keyin uchinchi idishdagi suv quyiladi, qozon to'xtovsiz kovlab turiladi. Kechasi bilan kovlanib, ertasi kuni esa sumalak kosalariga suzib tarqatiladi. Sumalak pishirish uchun har bir xonadon bahoqli

quldar narsa olib keladi: kimdir bug'doy, kimdir yog' yoki ikki-uch kosa un olib keladi.

Yorma. Ushbu taom ham bug'doydan tayyorlangan. Bug'doy qo'ltirib olinib, qozonda qaynatilgan. Keragicha miqdorda yog', sut yoki qalq aralashirilgan.

Atala aksariyat ilk bahor oylarida, "ilk uzildi" paytlarida tayyorlangan va farzand ko'rgan ayollarga alata ichirilgan.

Atala tayyorlash uchun avvaliga piyozdog' qilinib, so'ngira tekis qilinib, yoyilib pishgan piyozdog'ga suv quyib, jizza solib qaynatilgan. Tog'oraga kerakli miqdorda un solinib, unga suv qo'shib aralashiriladi. Atala holligga kelganidan so'ng qozonda qaynab turgan piyozdog'ga qo'yilgan, ma'lum miqdorda tuz solinib, kapkir bilan tez-tez kovlab turilgan. Ba'zan atalaga go'shtli qiyma va tuxum qo'shilgan. Atala nihoyatda to'yunli, yuqori quvvatli va damonli taom hisoblanadi. Lekin, ushbu taomni ko'pchilik unutib, hatto ayollarning ko'pchiligi atalani qanday tayyorlashni ham bilmaydi.

Qishloqlarda biron-bir marosim munosabati bilan tayyorlanadigan taomlardan qallama, cho'zma, yupqa, lochira va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Chalpak (cho'zma) odatda, mo'tam marosimlari paytida pishiriladi. Chalpak pishirish uchun bo'g'irsog'ga qanday xamir tayyorlansa, xuddi shunday usulda xamir qoriladi. Tayyor xamirdan kichik-kichik sovalachalar uzib olinib, har biri yupqa ko'rinishida yoyilib, keyin 10-15 daqiqa davomida tindiriladi. Tindirgan chalpaklar dog' qilingan piyozda har ikkala tomonini qizartirib qovuriladi.

Lochira. Ushbu taom ham chalpak va bo'g'irsog' singari xamirdan tayyorlanib, unga iliq sut hamda xamirturush qo'shib, yumshoqroq xamir qilinadi va 2-3 soat iliq joyda saqlanadi. Zuvalalar uzib olinib, o'rtacha qalindlikda yoyiladi, so'ngira zich qilib chakich uriladi, keyin esa tandirli yopiladi va uzilganidan so'ng sovutiladi.

Yupqa. Mazkur taomni tayyorlash uchun xamir qoriladi. Go'shtli qiymaga ziravor va tuz aralashirilib, piyoz bilan ozgina qovuriladi, so'ngira qovuriladi. Tindirgan xamirdan zuvalachalar tayyorlanib, qog'oz yopqachida yoyiladi. Zuvalachalarning hammasini yoyib bo'linganidan so'ng qozon qizdiriladi, moylanadi va yupqalar birin-ketin qozonga yopib qizdiriladi. Pishgan yupqalar ustma-ust taxlanib, ush yopib qo'yiladi. Shundan keyin har yupqaning o'rta qismiga qiyma solib buklanadi va laganga solinadi. Shuningdek, xamirdan keskan osh va cho'zma osh kabi bir nechta boshqa taomlar ham tayyorlangan.

Xalqimiz taomlari orasida ko'p iste'mol qilinadigan va o'zboch dasturxonining ko'rkamida milliy g'ururi palov bo'lib, uning qovurilgan palov, chumchuq tilli palov, mayiz va no'xatli palov, xalta palov, xorazmcha (tovuq) palov, qavatoq palov, bedana palov, tustovuq palov, tuxum palov, devzira palov, ugra palov va loviya palov kabi turlari mavjud.

Guruchdan tayyorlanadigan taomlardan yana shovla, qovurma shovla, moshkichiri, shiguruch va mastavani alohida ta'kidlash mumkin. Shuningdek, don mahsulotlaridan guruch va moshdan tashqari no'xat, loviya, makkajo'xori, oq jo'xori hamda so'k arpa ishlatiladi. No'xatdan tayyorlanadigan no'xatsho'rak, oq jo'xoridan tayyorlanadigan jo'xori osh juda ham mazali taomlari sirasiga kiradi.

No'xatsho'rak. Ushbu taomni hozirgi sharoitda tayyorlash uchun tozalangan no'xat sovuq suvda 8-10 soat ivitib qo'yiladi. So'ngra yaxshilab yuvilib, keyin no'xatga nisbatan uch baravar ko'p suv quyilib, idishning usti yopiladi va no'xat bilan suv mittirab quyiladi. Suv bog'it ta'sirida no'xat bo'rtib yiriklashadi, qisman pishib yoriyadi. Kerakli miqdorda tuz solinadi. Yupqa oq piyozdan to'g'rab, tarelkaga solingan no'xat ustiga qo'yilib, muruch yoki achchiq qalampir sepiyadi. Fanga oq vodiysining ayrim hududlarida no'xatsho'rakka po'stumbda qo'yib iste'mol qilinadi.

Milliy taomlar orasida pantiyezi ovgatlar ham oz emas. Ma'man, yovg'on xo'rda, tovuq sho'rva, atala va oqshoq talqon.

Yong'on xo'rda. Mazkur taomni tayyorlash uchun tozalangan guruch olovga qo'yilgan qozonda bir oz qovuriladi. Ushga guruchni ko'madigan miqdorda suv quyib, past olovda qaynatiladi. Guruch pishgach, ta'miga yarasha tuz solinadi.

Oqshoq talqoni. Tozalangan oqshoq yaxshilab yuviladi va quritiladi. Yaxshi qurigach, o'rta olovga qo'yilgan qozonda qovuriladi, so'ngra alohida idishga qo'tarib olinadi. Shakar va yong'on mag'zi qo'yilib, havonchada tuyiladi hamda mayiz qo'shildi.

Holvaytar. Olovga qo'yilgan qozonga yog' solib, dog' qilinadi va olovdan chetga olib qo'yiladi. Yog' sovigach, qozonga oz-ozdan un solib, aralashiriladi. Yana olovga qo'yiladi va beto'xov kovlab turiladi. Qozondagi masalliqlik bir oz qaynagach, quyila boshlaydi. Shundan so'ng olovni o'chirib, holvaytar idishlarga suzilib, dasturxonga tortiladi.

Go'sht, ayniqsa, ot go'shtidan qazi-qarta tayyorlangan. Qazi tayyorlash uchun ot go'shti, ichagi, zira, murch va tuz ishlatilgan. Yana go'yilgan seniz ot go'shti olingan. seniz qazi, seniz bigin go'shti, to'ltir go'shti, soning yumshoq joyi 3-4 sm qalinlikda, 20-25 sm uzunlikda

kesiladi. Zira, murch va tuz sepi, obdon aralashiriladi va 5-6 soatga qo'yiladi. Brita oting ichagi yuvib tozalanadi, keyin 40-50 sm uzunlikda kesiladi. Bir uchiga cho'p suqib, yo'g'on ip yoki kanop bilan mahkam bog'lanadi. Ikkinchi uchidan galma-galidan yog' va go'sht tiqib turiladi. Oshingacha go'sht va yog' solinib, ikkinchi uchidan mahkam bog'lanadi. Tayyor qazi odatda, un yoki yog' ichiga solinib, ikki-uch yil saqlanadi.

Qarta. Ot qartasining sirti va ichi ag'darib yuviladi. 25-30 sm uzunlikda kesilib, 2-2,5 soat qatigda ivitiladi. Tuz, zira va sirkaga sepi, yaxshilab aralashiriladi hamda 4-5 soat salqin joyda saqlanadi. Qarta bo'laklarining ikkala uchi ham bog'lanib, qozonga solib, suv quyiladi va past olovda qaynatiladi.

Xullas, o'zbek xalqining an'anaviy milliy taomlari moddiy madaniyatining asosiy uzvlaridan birini tashkil etishi bilan birga unda xalqning o'limishi, etnoslararo aloqalar, ijtimoiy tuzum va iqtisodiyotning milliy madaniyat, kundalik turmush tarziga ta'siri hamda xalqona urf-odatlar o'z ifodasini topgan.

Bundan tashqari, har qanday etnosda bo'lgani singari o'zbek milliy taomlarida ham xalqning xo'jalik mashg'ulotlari, milliy va diniy qarashlari aks etgan bo'lib, ularning ayrimlari mahalliy tabiiy shart-sharoitga bog'liq tarzda o'zgarib, rivojlanib borgan. Qolaversa, milliy taomlar moddiy madaniyatning boshqa elementlariga nisbatan ancha konservativ bo'lib, ular o'zida barqaror diniy-etnik xususiyatlarni saqlab qolgan.

Nazorat topshiriqlari:

1. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni to'g'risida ma'lumot bering?
2. Ilk o'rta asrlarda mintaqadagi etno-madaniy jarayonlarda o'zbeklar ajdodlarining o'rni va roli haqida so'zlab bering?
3. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o'zida aks ettiruvchi omillarni sanab bering?
4. O'zbek xalqining shakllanishida ishtirok etgan etnik komponentlar to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. Xalqning an'anaviy xo'jaligi deganda nimalarga e'tibor qaratish kerak, ularni ta'riflab bering?
6. O'zbek xalqining urf-odat, an'ana va qadriyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini atroflicha yoritib bering?

IV BOB. QORAQALPOQ XALQI ETNOLOGIYASI

*

Mavzuga oid tayanch soʻz va iboralar: qoragʻalpogʻ bronza, (h)rol dengizi, lingvistik, pecheneglar, oʻgʻuzlar, Noʻgʻoy xonligi, sak-massagetlar, Kemontepa, qoʻngʻir, qoʻldiroq, qandakli, jangʻir, qoʻq qiz, shulugʻ, yershi, shurek, kimishok, soʻkoshi, burek, baxizur.

IV.1. Qoragʻalpogʻlar etnogenezi va etnik tarixi

Qoragʻalpogʻiston Respublikasi (1992-yil 20-martda Qoragʻalpogʻiston ASSR, 1992-yil 9-yanvarda Qoragʻalpogʻiston Respublikasi qayta tashkil etilgan) Maydoni 166,600 kv.km.

Qoragʻalpogʻlar – Markaziy Osiyodagi xalq boʻlib, ularning asosiy qismi Oʻzbekiston Respublikasining shimoliy-gʻarbida joylashgan Qoragʻalpogʻiston Respublikasida yashaydi (1.875.400 kishi, 2019-yil, 1-aprel). Respublika aholisining tarkibi: qoragʻalpogʻlar 35,7%; oʻzbeklar 38,1%; qozoqlar 18,2%; turkmanlar 5,1%; ruslar 0,7%; koreyslar 0,4%; tatarlar 0,3%; boshqa millatlar 1,5% ni tashkil qiladi. Shuningdek, qoragʻalpogʻlar Fargʻona vodiysi, Xorazm, Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlarida hamda qoʻshni Turkmaniston va Qozoqiston Respublikalarida, shuningdek, Rossiya, Afgʻoniston va Eronda yashaydi. Ularning islom dinining sunniy mazhabiga eʼtiqod qiladi.

Qoragʻalpogʻlar asosan, qoragʻalpogʻ tilida soʻzlashadi. Ushbu til turkiy tillarning qipchoq guruhiga mansub boʻlib, qozoq va noʻgʻoy tillari bilan birgalikda qipchoq tillarining qipchoq-noʻgʻoy guruhchasini tashkil etadi.

Tarixdan maʼlumki, qoragʻalpogʻlar dastlab bir nechta qabilalar uyushmasidan tarkib topgan. Ularning eng qadimgi ajdodlari qadimda Orol dengizining janubiy sohillarida yashagan massaget qabilalari xisoblanadi. Ular orasida apasiak qabilasi qoragʻalpogʻlarning xalq sifatida shakllanishida muhim rol oʻynagan. Ushbu qabila dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shugʻullangan.

Professor T. A. Jdankoning fikricha, massagetlar hayotiga singib ketgan matnlarat davriga oid anʼanalar mashhur qoragʻalpogʻ dostoni “Qirgʻ qiz”da aks etgan. Ushbu doston hozirgi qoragʻalpogʻlarni ularning oʻtmish tarixi va qadimiy ajdodlari bilan bevosita bogʻlaydi.

XII–XIV asrlarda qoragʻalpogʻlar Orol dengizining janubiy sohillari va Amudaryoning etaklaridagi qarorgohlarini tark etib, boshqa oʻlkalarga koʻchib ketishga majbur boʻlgan. Ularning koʻpchiligi Xorazmning

shimoliy-gʻarbiy hududlari, Ustyurt, Sarigʻamish va Oʻzboy sohillariga koʻchib oʻtishgan boʻlsa, ayrimlari Volga daryosi qirgʻoqlari tomon koʻchib, Gʻarbiy Xorazm, Ustyurt va Volga sohillarida yashagan qoragʻalpogʻlar Olin Oʻrda xonligi hukmronligi ostida edi.

Noʻgʻoy ulusida joylashgan qoragʻalpogʻlar ham XIV asrning boshlarida Volga sohillariga koʻchib oʻtgan edi. Shunday qilib, qoragʻalpogʻlar Xorazm va Volga oʻrtasidagi kengliklarda yaxlit xalq sifatida shakllangan edi.

XV asrning ikkinchi yarmidan to XVI asrning ikkinchi yarmigacha boʻlgan davrda qoragʻalpogʻlar Noʻgʻoy xonligi tarkibida boʻlgan. 1556-yilga kelib Rossiya Astraxan xonligini bosib oladi, shundan soʻng Noʻgʻoy murz (knyazlari) oʻrtasida oʻzaro nifoq va janjallar boshlanadi. Ularning ustiga xonlikda ikki yil (1557–1558) davomida ekinlar bitmay qoladi, oqibatda, ocharchilik boshlandi. Ushbu ofatlar tufayli xonlik hududida istiqomat qilayotgan xalqlarning koʻp qismi boshqa oʻlkalarga koʻchib ketishga majbur boʻlgan edi.

Qoragʻalpogʻlar ham Noʻgʻoy xonligini tark etib, Amudaryo boʻylaridagi avvalgi yerlariga qaytish imkoniyati boʻlmaganligidan birlayo sohillariga kelib joylashgan. Oʻsha paytlarda Amudaryo sohillari savadlikdan hanon qiyinalar edi. Faqatgina XVII asrning boshlariga kelib Amudaryo oʻzining eski oʻzaniga qaytadi va Orol dengizida quyih boshlaydi. Oʻsha davrdan boshlab qoragʻalpogʻlar Amudaryoning ikki sohil boʻylab yastangan qadimiy joylariga qaytib, yerlarni qaytadan oʻzlashtirishga kirishdi.

XVII asrda qoragʻalpogʻlar Xorazmga koʻchib oʻtgan koʻchmanchi oʻzbeklar bilan birga Xiva xonligining shimolida Orol (Atran) davlatini kurso ota boshladi. Orol qoragʻalpogʻlari va oʻzbeklar XIX asrning boshlarida Xiva xonligi hududida ham yashar edi.

Qoragʻalpogʻlarning etnogenezida muhim rol oʻynagan Dasthi Qipchoq qabilalari qoragʻalpogʻ tiliga oʻz taʼsirini oʻtkazgan. Ularning shakllanish jarayoni va nomining paydo boʻlishi XVI–XVIII asrlarga toʻgʻri keladi. XVIII asrlarda qoragʻalpogʻlarning bir qismi Fargʻona vodiysiga koʻchib oʻtgan boʻlsa, aksariyati esa XIX asr boshlarida birlayonning quyi oqimidan qozoqlarning siquvi va Xiva xonlarining zulmi natijasida Amudaryoning quyi qismlariga koʻchib ketishga majbur boʻladi.

Qoragalpoqlarning ajdodlari sak-massaget uyushmasiga kirgan apasiaklar va augasiylar miloddan avvalgi I asr oxirlarida Orol dengizi janubiy sohillarida yashagan.

Miloddan avvalgi II – milodiy IV asrlarda sharqdan Orol dengizi atroflariga bostirib kelgan xunlar, VI–VIII asrlarda kelgan turklar sak-massaget qabilalari bilan qisman qo'shib ketishi natijasida vujudga kelgan qurama xalqlar: pecheneglar va sharqiy (turkiy) o'g'uzlar qoragalpoq xalqining shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Qoragalpoqlar qadimiy Eron tilidagi Orolbo'yi sak-massaget qabilalari (miloddan avvalgi VII–II asrlar) xunlar (milodiy II–IV asrlar) bilan turkiy tilidagi elalar (VIII–X asrlarning) aralashuvi natijasida paydo bo'lgan.

Orol dengizi bo'ylarida pecheneg va o'g'uz qabilaviy guruhlarini paydo bo'ldi hamda qalning etnosiga asosiy komponent bo'lib kiradi.

Olimlar fikriga ko'ra, "qoragalpoq" so'zi qipchoq tiliga mansub bo'lib, o'g'uz-pecheneg qabilalarining boshlariga kiyib yurgan qalpog'ining shakli va rangiga qarab berilgan nomdir. Qoragalpoq xalqining shakllanishida ishtirok etgan barcha urug' va qabilalari ikki asosiy tarmog' aris (shot)ga bo'linadi: o'n to'rt urug' arisi va qo'ng'iroq arisi. O'n to'rt urug' arisiga xitoy, qipchoq, kenegas va mang'it kabi qabilalar kiradi. Xitoy urug'lari guruhiga esa bessar, beksiyik, qazayochi, qaysili, anna, quyin, ayteke, sherushi, mango'li, qirq kabilar kiradi.

Shuningdek, qipchoq (qipshoq) urug'lariga orolboy urug'lari, kenegas urug'lari guruhiga aranshi, oqtoq'in, o'nir, taroqli, dobal, oymoul, dambazak, no'kis, mang'it urug'lari guruhiga qoramang'it, qorasiroq, oqmanq'it, mamigsin, qosar, qilqali (bularning hammasi qoratoq guruhini tashkil etadi), arshan, janliq, toqmanq'it, arsar, tazjalig, shuyit, jamansha, yesibi, tang'ali, tongmo'yin, temirxo'ja (bularning hammasi sariq guruhiga kiradi), buztoy (buztoy guruhini) va yesibug'a (gentimoy guruhini) urug'lari kiradi.

Shulluq sakiz qabiladan iborat: ashamayli, qo'ldavli, qo'shtang'ali, bo'g'ali, qandag'li, qoramuyin, qiyot va mo'yin. Janug'it

ona qabilalar birlashmasi emas, balki urug'lar uyushmasi bo'lib, uning tarkibi yetti urug'dan iboratdir.

Shulluq qabilalar birlashmasini tashkil etuvchi:

Qiyot qabilasi uch tang'ali, taroqli, bo'g'ali qiyot urug'laridan;

Achamayli qabilasi sako'n, qoraxo'ja, jalaqayog, ayili, qabasot, tukman qora, janar, sariabiz, oqay, nagqara, uch boshi, qurama urug'laridan;

Qo'ldavli qabilasi beskampir, mayshishali, qalganot, il'oyibqarag'on, sariton, kulqo'qojak, jarimbet, jamango'ng'iroq, xo'ja qalqoyog, qorasiroq, jelqarag'on, ulkan bo'rik, shuliyut, qalmoq, jamonovul, sho'mishli, to'qimbet, tazbolg'ali, qo'sh tang'ali bo'g'ali, qoraboli, ason, arziqul urug'laridan;

Qandaki qabilasi samat, teli, abiz, kengtanov urug'laridan tashkil topgan.

Janug'it teristang'ali, baqarili, sheyjenli, tyoqli, ing'aqli, baymoqli, qazayochi va uyg'ur urug'lariga bo'linadi.

Qoragalpoqlar antropologik jihatdan qozoqlar, xorazm mang'itlari va quramalarga yaqin. Qoragalpoq tili qipchoq tili guruhining qipchoq bo'lg'oy shaxobchasiga kiradi.

Qoragalpoq xalqi necha asrlar davomida turli xalqlar va davlatlar hukmronligi ostida yashab kelgan. Takidlaganidek, X–XI asrlarda qoragalpoqlar yashagan hududlar O'g'uz davlatiga, keyinchalik qudrati Korazm davlatiga bo'ysungan. XIII–XIV asrlarda mo'g'ullar hukmronligi ostida, XIX asrning ikkinchi yarmida esa Rossiya davlati tarkibiga kirgan.

Xullas, Amudaryo va Orol dengizi sohillari qoragalpoq xalqining aslidan o'ta-bobolari yashab, mehnat qilib kelgan ona yurti hisoblanadi.

IV.2. An'anaviy xo'jaligi

Qoragalpoqlar qadimda Sirdaryoning o'ta va quyi oqimida joylashgan hududlarda dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik bilan shug'ullanib kelgan. Ular azaldan chorvador xalq bo'lib, keyinchalik dehqonchilik bilan ham shug'ullana boshlagan, degan munozarali fikrlar mavjud. Ushbu xalqqa xos jihatlardan biri ham shundaki, ular boshqa ko'pchilik etnoslar singari ko'chmanchi hayot kechirishdan o'trog' hayotga o'tgan emas, balki qadimdan o'trog' hayot kechirib kelgan. Qoragalpoqlar aslidan sug'orma dehqonchilik shug'ullangan bo'lib, shu maqsadda ilqayoq va uning irmoqlari Quvondaryo hamda Jonidaryodan suv chiqari, irrigatsiya tarmoqlari orqali ekin maydonlarini sug'oragan.

Dehqonchilikda asosan, g'allachilik rivojlangan. Daryo va ko'llar atrofidagi yerlarga bug'doy, arpa, tariq, sholi, jo'xori, zig'ir, kunjut, bovla va poliz ekinlari ekilgan. Ekinlarni sug'orish uchun suv qorag'alpoqlari uchun butun hayot-mamot masalasi bo'lgan. Suv yetishmasligi oqibatida juda ko'p kelishmovchilik va o'zaro nizolar kelib chiqar, ular esa o'z navbatida katta qonli to'qnashuvlarga sabab bo'lar edi. Bir qabila yo urug' boshqa qo'shni qabila yo urug' bilan ko'pincha ixtilofda yashar edi. O'sha zamondagi og'ir shart-sharoitlari, mahalliy boy va zodagonlarning zo'ravonligi, ular tomonidan o'malgan og'ir tartib-qoidalar juda ko'p qon to'kilishiga sabab bo'lar edi.

Har bir qorag'alpoq ovullari o'zlariga birkirilgan merosiy kanal (jap)lar atrofidagi joylashgan bo'lib, har qaysining suv ichadigan salmasi (irmog'i) mavjud edi. Kimga, qancha miqdorda suv berish, daryodan suv olib kelish uchun kanal (ama) qazishda qaysi ovuldan qancha odam qatnashishi, bahorda armani tozalash uchun suvga nechta odam ajratilishi mirob tomonidan hal qilinar edi. Suv muayyan mazgil (vaq)gacha, masalan, erta tongdan tush paytigacha odatda, ikki tanob (taxminan 17 soat) yerni sug'orishga yetadigan miqdorda berilar edi. Suv tanqis bo'lgan paytda ikki xo'jalikka bir mazgil suv berilar edi.

Ko'p joylarda yerni qo'l serpe yordamida sug'orishga to'g'ri kelar edi. Ushbu moslamalar bilan suv bir ariqdan ikkinchi ariqqa chiqarilar edi. Ayni vaqtda, oyog' yordamida suv chiqariladigan moslama ham ishlatilar edi. Bunday usul kichik maydondagi ekinlarni sug'orishda qo'llanilgan, katta ekin maydonlariga esa suv chig'ir yordamida chiqarilgan. yer go'ng va eski devor tuprog'i bilan oziqlantirilgan. Haydashdan oldin yerlarning sho'rini yuvish uchun bir necha bor sug'orilgan, keyin omoch bilan avvalo, uzunasiga, so'ngra ko'ndalangiga ikki marta dan haydalgan. Keyin haydalgan yerlar mola yoki dandene bilan kesaklari maydalanib, tekislab chiqilgan.

Qorag'alpoqlar asosan, yirik qoramol va yilqi boqqan. Yozda yaylovlarda, qish kunlarida esa qo'lda boqqilgan. Yirik qoramollarni podachi (podashi), yilqilarni (yilqishi), mayda uy hayvonlarini esa qo'ychi (qo'yshi) yoki cho'pon (shopon)lar boqqan. Qishda chorva odatda, shox, butoq va qamishlardan tiklangan qo'ralar yoki bostirmalar, molxona va sayisxonada, yilqilar esa yerto'lalarda saqlangan.

Qorag'alpoq'istonning shimoliy tumanlarida muytin va qo'ldovlar urug'larini yashaydigan hududlarda aholi asosan, baliqchilik bilan shug'ullanadi. Baliq ovlash uchun qamishlardan qaza deb ataladigan moslama tayyorlangan va sol hamda qayriqlarda baliq ovlangan.

Qorag'alpoqlarda mo'ynachilik ham yaxshi rivojlangan. Chunki, qorag'alpoqlar yashaydigan hududlar, ayniqsa, Amudaryo sohillarida xilma-xil yovvoyi qush, parranda va hayvonlar juda ko'p edi. Shuning uchun qorag'alpoqlar boshqa mashg'ulotlardan tashqari vaqti-vaqti bilan ov han qilib, o'rdek, g'oz, qirg'ovul, quyon, sayroq va jayron ovlaganlar.

Hunarmandchilik. Qorag'alpoqlar yashaydigan ovul va qishloqlar o'zining duradgori, taqachisi, aravasozi, egarchisi, etikdo'zi va zargariga ega bo'lgan. Qorag'alpoqlar orasida yog'ochsozlar, chig'ir, qayiq va o'tov yasaydigan ustalar ham ko'p bo'lgan. Ular to'quvchilik, gilamdo'zlik, mamot, yarmi kiyiz tayyorlash bilan ham shug'ullangan. Bo'yirchilik mahsulotlari ham bozorga olib chiqib sotilgan. Qorag'alpoq kulollari yasalgan tandir va sopol idishlarga talab katta bo'lgan.

Qorag'alpoqlar o'z mehnatlari evaziga g'alla olgan, yerni haydash uchun ho'kiz yoki uskuna moslamalari bo'lgan. Egarchi (yershi) ustalar, jumladan, ot – orqa deb ataladigan qolipda egar yasalgan. Egarning sakkiz bo'lagi ana shu qolipda yig'ib, yelimgan.

Ip yigirish uchun urshik va sharik ishlatilgan. Jun gazlama, sholcha hamda gilam to'qish uchun o'mak deb atalgan oddiy bir moslamadan foydalanilgan. Kenagas va mang'it ayollari nihoyatda mohir to'quvchi bo'lgan.

Transport vositalari. Har qanday yukni qorag'alpoqlar qayiq va aravada tashilgan. Aravaga odatda, ho'kiz qo'shilgan. Arava ikki xil usulda yasalgan: tai arava va telegan arava. Qaysi hayvon qo'shlanganiga qarab ot arava, ho'kiz arava va eshak arava deb atalgan. Ish hayvonlaridan ko'proq ho'kiz va eshak ishlatilgan, ayrim hollarda esa otdan foydalanilgan.

IV.3. Moddiy madaniyat

Uy-joylar. Turar-joylar qorag'alpoqlar yashaydigan joyning geografik holati, tabiiy va iqlim sharoitlariga qarab har xil qurilgan. Ularining har qanday sharoitga mos keladigan va eng yaxshi ko'rgan uyi o'tov bo'lib, mahalliy aholi uni "qora uy" deb atagan. Bundan tashqari, qora nomli bilan ma'lum bo'lgan loysuvuq uylari ham bo'lgan, ayrim hollarda yerto'lalarda ham yashalgan. Yirik boylarning katta hovillari bo'lib, bunday hovillar paxsadan qurilgan bo'lib, chor atrofi devor bilan o'ralgan.

Qorag'alpoqlarning ko'pchiligi hozirda ham qishloqlarda chiroqi, maslakam, qishda issiq, yozda salqin, ichi keng va kundalik turmush uchun qulay o'tovlarda yashaydi. Ayni vaqtda chiy va qamish devorli simdi devorli uylar ham qurilgan.

Milliy kiyim-kechaklar. Kiyim-kechaklar uchun zarur gazlama va matolarni to'quvchi ustalar yetkazib bergan. Bo'z to'n tikish uchun yo'l alasha, ayollar ko'ylaklari uchun ishlatiladigan katak-katak shattonal, ingichka tuya junidan movut (sho), qop va har xil xalta tikishda foydalanadigan jun gazlama tayyorlangan. Po'stin, qalpoq va poyafzalhoq teri (asosan, qo'y terisi) shularda jumlasidandir.

Qoraqalpog' avvallarining an'anaviy kiyimlari xorazmliklarnikiga o'xshab ketadi. Erkaklar ko'ylak, ishton va dambal kiyganlar. Ishonning poychalari etik ichiga tiqib kelingan. Sovuq kunlarda yurqa ishton ustidan qalin chit yoki jun gazlamadan tikilgan issiq sim (ishon) kiyib yuritilgan. Keyinchalik no'g'oy yuqori ko'ylak kiyish urfga aylangan.

Qoraqalpog'larda chopon keng tarqalgan. Chopon turli usullarda tikilgan, qavilgan chopon ham ishlatilgan. Jun, gazlama va movutdan shekpen (chakman) tayyorlangan. Bayram kunlari yaltiroq gazlamadan tikilgan chopon kiyilib, uning ustidan belbog', ba'zan esa kayis (kamur) bog'lab yuritilgan. Qishda qoraqalpog'lar po'stin va qalpoq kiyishni yoqtirgan. Qalpoqni takiya deb ham ataganlar. Qalpoq katta va keng qilib tikilgan. Deyarli salla o'talmagan, faqatgina din peshvolariga bundan mustasno edi.

Oyoqqa chاتم poyafzal, maxsi, kalish, etik, qishda esa jun paypoq kiyilgan. Yoshlar bilan katta yoshdagi erkaklarning kiyimlari deyarli farq qilmagan, faqatgina katta yoshdagilarning kiyimlari sal kengroq va uzunroq ko'rinishda tikilgan.

Qoraqalpog' avollarining kiyimlari ko'ylak, ishton (lozim) ish kiyim, kamzul va yengsiz chopondan iborat bo'lgan. Ayollar boshlariga do'ppi kiyib, to'mol o'tagan, yana jegde yopib yurgan. Bayram ko'ylaklari Buxorodan olib kelingan ola shoyidan tikilgan. Ko'ylakning tugma qadaladigan ikki tomonida yogasidan beligacha, yenglari va etagiga xilma-xil rangli ipdan chitlak shaklida keng kashta tikilgan. Bunday ko'ylaklar *halqali ko'ylak* deb atalgan. Azador ayollar gulsiz ko'k ko'ylak kiygan.

Qoraqalpog' avollarining bosh kiyimlari boshqa xalqlaridan yaqqol ajralib turadi. Ayniqsa, kimishkek va savkali deb ataladigan bosh kiyimlari juda ham mashhur. Qiz yashaydigan uyning hammasida albatta, kimishkek tikilgan. Uni qizning o'zi tikkan va ovulga kuyov kelgan kun kiygan. Kimishkekni kuyov ovulidan kelgan ayollardan biri qizning boshiga solib qo'yadi. Chunki, kimishkekda boshda kiyish uchun maxsus teshigi bo'lgan. Kimishkekning old taraflari qizil movutdan uch burchak shaklida, orqa kuyrulkashasi esa Buxoro shoyisidan popukdor qilib, har xil rangdagi jun ipdan to'qiladi. Yonlarida quloqchilari bo'lib, old taraflarida

pishirmaga tushib turadigan jiga (peshona) bo'lib, orqasidan uzun guldor "kaki" oqib turadi. Ayollar boshlariga "jegde" deb ataladigan chopon yopib yuradi. Qoraqalpog' kiyimlarining yana bir o'ziga xos jihatlardan biri – jengsechdir. Bunday yenglar ko'pincha qizil guldor matodan alohida maxsus tayyorlanadi, so'ngira to'n yoki choponga tikiladi.

Taomlar. Qoraqalpog'larda nomning har xil turlari tayyorlangan: bug'doy non (shurek), jo'xori (zog'ora) non, qotima non, gulshe (kumesh), yul' qo't non (qo'rda pishirilgan). Qoraqalpog'lar nomi qo'rda, qozonda va landida pishirgan. Tandining og'zi yuqoriga qaratib qurilgan.

Sovuq taomlarning turli xilari tayyorlangan. Masalan, tuyilgan erpa, bug'doy va jo'xori donidan jatta pishirilgan. Shuningdek, jo'xori erpa, so'k oshi (so'kni avvalo, suvda pishirib olib, so'ngira yog'da qovuriladi). Tansiq taomlaridan shingutuch, shavla va palov tayyorlash keng tarqalgan. Sut va sut mahsulotlarini ko'p iste'mol qilinadi: qatig, moyog', ayvon, qurut, yozda esa chalor tayyorlanadi. Ular qo'y, qoramol va pishanda go'shini tamovul qiladi. Qovurdoq, kabob, burek (vataqaga o'rindirilgan), buyrak va yurakdan jarkor, qovovoqdan esa turli taomlar tayyorlanadi, qovundan esa qoqi qilinadi.

Elshinos U. Shalekenov ("Уш ай сәуыным, уш ай қауыным, уш ай шәкәрым"), "Уш ой сут, уш ой довуш, уш ой ошдоғовоқ, уш ой балық" деган qoraqalpog' xalq matalini keltirish asnosida to'ldirilganidek, ushbu matalda o'ziga to'q olalar uchun go'sht shunchaki kundanlik ovqat hisoblangan bo'lsa, bir vaqtda go'sht torib yeyish imkonini to'ldirgan mehnatkash oilalarning ovqatlanish tartibi yaqqol aks etgan. Bunday oilalar kuniga uch-to't marta go'shti taomlarni iste'mol qilgan bo'lsa, kambag'allar esa kuniga nari borsa, bir mahol issiq ovqat bilan chetlangan, shirg' yoki echkisi yo'qligidan sutli ovqat yeya olmay, asosan, jo'son, tariq va yovvoyi "shirin" o'simligidan tayyorlangan bo'tqa iste'mol qilishga majbur bo'lgan.

Nazorat savollari:

1. Qoraqalpog' xalqining etnik tarixiga oid manbalar to'g'risida viflumot bering?
2. Qoraqalpog' xalqining shakllanishida ishtirok etgan etnik kumponentlarni gapirib bering?
3. Xalqning an'anaviy xo'jaligi deganda nimalar e'tiborga olinadi? Bu haqda gapirib bering?
4. Qoraqalpog' xalqining milliy kiyimlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. Qoraqalpog' xalqi milliy taomlari to'g'risida so'zlab bering?

V BOB. TOJIK XALQI ETNOLOGIYASI

*

Matnuga oid tayanch soʻz va iboralar: Tojikiston Respublikasi, Salavkiylar davlati, eroniy tillar, tojik tili, Obimozor, yagʻnoblilar, pomirliklar, uy-joylari, transporti, Badaxshon madaniyati.

V.1. Tojik xalqining etnogenezi va etnik tarixi

Tojiklar – Markaziy Osiyodagi qadimgi xalqlardan biri boʻlib, Tojikiston Respublikasining asosiy aholisi (7,8 milliondan ortiq, 2020) hisoblanadi. Oʻzbekistonda (1 mln. 500 ming nafardan ortiq, asosan, Buxoro va Samarqand shaharlari hamda Urgut atroflari, Surxondaryo, Sherobodaryo, Katta va Kichik Oʻradyo boʻylari, Qashqadaryoning yuqori oqimi, Qarshi vohasi, Nurota togʻlari, Jizzax vohasi, Fargʻona vodiysining Soʻx daryosi boʻylari, Fargʻona va Qoʻqon shaharlarining janubiy qismlari, Nantangan viloyatining shimoliy va qisman gʻarbiy hududlari), Qirgʻizistonning Tojikiston bilan chegaradosh hududlarida ham tojik qishloqlarini uchratish mumkin, Afgʻonistonda (13,5 mln. nafar), Xitoyning gʻarbiy qismi, Eron Xurosoni, Rossiya, Qozogʻiston va Turkmanistonda, shuningdek Pokistonda yashaydi.

Asosiy qismi tojik-dariy tilida soʻzlashadi. Davlat tili – tojik tili, Togʻli Badaxshon muxtor viloyati hamda Yagʻnobl aholisining asosiy qismi sharqiy eron tillari guruhiga kiruvchi maxsus shevalarda soʻzlashadi.

Adabiy tojik tilida qadimgi fors-tojik tili (IX–XV asrlarga – fors, tojik va dariy tillarida soʻzlashuvchilar uchun umumiy manbaga boʻlib taqaladi. XX asrda adabiy tilning soʻzlashuv tili bilan yaqinlashuvi natijasida uning leksikasida jiddiy oʻzgarishlar roʻy berdi.

Tojiklar asosan, islom dinining sunniy mazhabiga, Badaxshon vohasi aholisining aksariyati esa shia mazhabining ismoliya oqimiga eʼtiqod qiladi.

Yirik shaharlari – Dushanba, Xoʻjand, Qoʻrgʻontepa, Koʻlob (Amudaryoning oʻng sohilida joylashgan viloyat, qadimda Xutalon (Xatlon), XVI asrdan Koʻlob nomi bilan maʼlum, XVI–XVIII asrlarda Balx xonligi tarkibiga kirgan. Gʻarbda Vaxsh va Qabodiyon, sharqda qirgʻizlar yerlari bilan tutash), Ustrushona, Xorugʻ va boshqalar.

1925-yilda Tojikistoni hamda undan tashqarida yashayotgan eroniy xalqlarni oʻrganish jamiyati tuzildi. Uning tarkibiga rus olimlari A. A. Semenov, M. S. Andreyev va boshqalar kiritildi. Jamiyat tomonidan qator ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etilib, tojik xalqining tarixi,

etnogenezi, etnografiyasi va antropologiyasiga doir bir qator asarlar yaratildi.

Tojiklar tarixini oʻrganishda rus olimlari V. V. Bartold va A. Yu. Yakubovskiyning hissasi katta boʻldi.

1925-yilda V. V. Bartold “Таджикки” deb nomlangan ocherki hamda Oʻrta Osiyo xalqlari tarixiga oid qator asarlarni eʼlon qildi.

D. G. Gʻofurov 1917-yilgacha boʻlgan davlatni qamrab olgan “История таджикского народа в кратком изложении” nomli bittinchi umumlashma taʼlimni baytari sh asosida 1972-yilda “Таджикки” deb nomlangan asrni, 1989-yilda esa kitob 2-jildida qaytadan nashr etildi.

Tojiklarning etnik shakllanishiga Markaziy Osiyoda yashovchi bir qator etnik guruh va qabilalar, chunkonchi, sugʻdiyalar, baqriyaliklar, toharlar hamda koʻchmanchi saklar katta taʼsir koʻrsatdi.

Mamlakatdagi tojiklar shimoliy va janubiy tojiklarga boʻlinib, har bir guruh geohududiy kelib chiqishiga qarab yana bir qancha guruhlariga ajratiladi. Chunkonchi, xoʻjandlik, koʻloblik, garmlik, pomirlik, darvozlik, nomirlik, vaxonlik, gazimaliklik, yovonlik va hokazolar). Tojikistonda oʻzbek, rus, qirgʻiz, turkman va boshqa xalqlar ham yashaydi.

Tojiklarning kelib chiqishi miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri – I ming yillikning boshlariga toʻgʻri keladi. Ushbu davrda Markaziy Osiyoga yevroosiyoadan eroniy tillarda soʻzlashuvchi qabilalar kirib kelib, ular mahalliy aholi bilan aralashib ketgan.

Sugʻdiyalar, parkanliklar va qisman toharlar tojik xalqining shakllanishida faol ishtirok etgan. Yamon-makedonlar, yuechiylar, skitlar, kidoziylar, efiatylar, “oq xumlar”, soʻngra turkiy qabilalarning har qaysi mahalliy aholi bilan aralashib ketgan. Arablar hukmronligi davrida va Somoniylar davlati tashkil topgan vaqtga kelib (IX–X asrlar) tojik adabiy shakllangan. Hozirgi tojik tili Somoniylar hukmronligi davrida qadimgi sugʻd va baqriy tili asosida vujudga kelgan. Oʻsha davrda tojiklarning adabiy tili (doriy) paydo boʻldi.

Sugʻdiy aholi oʻz tili oʻrniga tojik tilida gaplashadigan boʻldi. Tojiklar yashayotgan hududlarda tojik tili boshqa sharqiy eroniy tillarni

siqib chiqara boshlaydi va IX asr oxiri – X asr boshlarida tojik xalqi etnik tarkibiga kirgan barcha guruhlarining umumiy va yagona tili bo'lib qoladi.

So'ngi davrlargacha tojiklar orasida turli etnografik guruhlar mavjud bo'lgan. Hozir ham tog'lar va vodiylarda yashovchi tojiklar o'rtasida etnik tafovutlar saqlanib qolgan.

Tojiklar o'zlarini yashaydigan joylariga qarab bir qancha guruhlarga bo'linadi. Yaxsus va Qizilsuv daryolari atrofidagi tog' etaklari va tog'larda qadimdan yashab kelayotgan tojiklar o'zlarini "Ko'lob tojiklari" deb ataydi. Yaxsus daryosining yuqori qismidagi yerlarda joylashgan tojiklar *yaxsusliklar* nomi bilan ataladi.

Obimozor daryosi sohillaridagi tojiklar *xorvazinglar*, Sho'rob daryo atrofidagi tojiklar *sho'rob daryovchilar*, Baljuvon hududida yashovchilar *baljuvonchilar*, Baljuvonning shimoliy-sharqiy qismidagi daralarda yashayotgan tojiklar *darchilar*, Qizilsuv daryosining o'ng irmog'i atrofidagi joylashgan tojiklar *dashliklar* deb ataladi.

Shuningdek, Gazimalak tog' tizmasida joylashgan tojiklar gazimalaklilar, Varzob havzasidagi varzobilar, Qashqadaryo havzasining janubiy-sharqiy qismidagi tojiklar, hardun tojiklari O'zbekistonning janubiy mintaqalarida yashovchi lokal etnologik guruh hisoblanadi.

Hardunlar mintaqaning qadimiy mahalliy etnologik guruhlaridan biri bo'lib, ular asosan, tojik va o'zbek tillarida so'zlashadi. Ushbu etnologik guruh asosan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining tog'li hududlarida istiqomat qiladi. Ular Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod va G'uzor tumanlari hamda Qarshi cho'llarida yashab, asosan, tojik va qisman o'zbek tilining qarluq lahjasida so'zlashadi. Ilmiy adabiyotlar va mahalliy aholining bergan ma'lumotlariga ko'ra, hardun – har joydan kelib qolgan, yig'ilib qolgan aholi, deb qaraladi, ya'ni boshqacha ifodalaganda, "qurama" so'zining ma'nosiga deyari mos keladi, lekin, ushbu guruhning quramalar bilan hyech qanday aloqadorligi yo'q.

V.2. An'anaviy xo'jaligi va moddiy madaniyati

Tojik xalqining xo'jalik mashg'uloti qadimdan dehqonchilik va bog'dorchilik hisoblanib, chorvachilik ham xo'jalikda muhim rol o'ynagan. Shuningdek, hunarmandchilikning yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik hamda kashtachilik turlari keng rivojlangan.

Tojiklarda yerni haydash uchun sipor va omoch ishlatilgan, shuningdek, qo'shbo'kiz bilan ham haydalgan. Haydalgan yerni mola bilan tekislab, go'ng, kul, to'kilgan barg va loyqa bilan o'g'itilgan. Ayrim

hududlarda eski devor tuprog'i, guvalla va paxsa o'g'itilgan ishlatilgan. Eski yerlarga asosan, arpa ekilgan. G'andum (bug'doy), arzan (tariq), jo'hor, loviya, no'xat, mosh, zig'ir, lavlagi, piyoz, sabzi, qovoq, qalampir va boshqa ekinlar ekilgan.

Mol asosan, o'roq bilan o'rtilgan. G'alla turli usullarda yanchilgan bo'lib, galagov usuli ko'p qo'llanilgan (bir nechta ho'kizni bir-biriga bog'lab, g'alla ustida aylantirib yuritilgan). Yanchilgan don paxsaxa bilan chopirilgan.

G'alla g'arami va xirmon oldiga xotin-qizlar, ayniqsa, yoshi juyonlar yaqin yo'llanilgan, it va boshqa hayvonlar yaqinlashtirilgan. Xirmon oldiga suv olib kelish taqilgan. Chunki, suv g'allani yanchish vaqtda yong'ir yog'ishini so'rash bilan baravar hisoblangan. Yanchilgan don ushbu sakrab o'tishga ham ruxsat berilmagan.

Hozirgi Tojikiston qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i – dehqonchilik bo'lib, jami qishloq xo'jalik mahsulotlarining 65% ni beradi. Bunda paxtachilik, ayniqsa, ingichka tolali paxta yetishtirish yetakchi o'rinni egallaydi. Bog'dorchilik, uzumchilik va pillaichilik rivojlangan. Kengir, sabzavot-poliz va yem-xashak ekinlari, zig'ir, kartoshka, g'alla va sholi ham yetishtiriladi. Tog'oldi va tog' mintaqalarining sug'oriladigan yerlarida tamaki, Hisor va Vaxsh vodiylarida yorungul ekiladi. Sitrus mevalari yetishtirish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Tojiklar chorvachilik bilan ham shug'ullangan. Tojikiston Respublikasining barcha hududlari, ayniqsa, tog' yon bag'irlarida chorvachilik yaxshi rivojlangan: qoramol, qo'y, echki, paranda va yilqi boqiladi. O'to'lan ko'karishi bilan chorva mollari yaylov va o'tloqlarga olib chiqib ketilgan. Chorvador tojiklarning xotin-qizlari birgalashib, o'tlovlarini-mavbat sigir boqib, kuvi pishirgan. Kuvidan yog' va qurt tayyorlangan. Kuvi tojiklarda har xil ko'rinishda bo'lgan: guppi, tugl, kal (choqab).

Aholi o'rtasida keng tarqalgan hunarlardan eng qadimiyi yanchuvchilik va to'quvchilik hisoblangan. Paxta tolasi va qo'y junidan paxta, gazlama to'qilgan. To'qish uchun urchug va charx ishlatilgan. Bo'z naqshlarni asosan, erkaklar to'qgan. Har bir xonadonning ayoli o'z oila a'zolari uchun zarur kiyim-kechaklar va do'ppi o'zi tikkan.

Kashtachilik bilan shug'ullanuvchi hunarmandlarni deyari har bir qishloqda uchratish mumkin bo'lgan. Ular qishloq aholisi uchun zarur asbabi idish-tovoqlar yasagan. Ayniqsa, Xo'jand, G'ijduvon va Farg'ona vodiylarining boshqa shahar hamda yirik qishloqlarida yashayotgan kashtachilik mahsulotlariga talab doimio yuqori bo'lgan.

Gazlama to'qish bilan dong chiqargan shahar va qishloqlar ham bo'ledi. Masalan, Qoratog'ning shoyi va alachasi, Xo'jandning ipak gazlamasi, O'rtaqonning ragoza movuti anchagina mashhur edi.

Madan qazib olish, olini izlash va metall quyish bilan shug'ullanuvchi koshbilar ham kam emas edi. Temirchi, tagachi, ko'uchi, bo'yog'chi, yanoqchi va boshqa hunar egalarning soni ko'pchilikni tashkil qilardi.

Tojiklar tomonidan qadimdan ardoqlanib kelinayotgan naftsi hunar turlaridan biri naqqoshlik va zarqarlik hisoblanadi. Naqqoshlik san'atining xilma-xil turlari rivojlanib kelgan. Ganch va yog'och o'yinchoqlari, torrakot (kuydirilgan sarg'ish-qizil loy) ishlash, xalq kashachiligi keng tarqalgan amaliy san'at turlari edi. O'z o'rnida shuni qayd etish kerakki, tojik ayollari kashta tikish hunarini mukammal egallagan edi. Xususan, Samarqand va Buxoroda tojik kashachilarning mahoratiga teng keladigan bo'lmagan Buxoro amiri saroyida baxmalga zar tikish bilan mashhur bo'lgan bir guruh zarqarlar ishlagan. Zarbof to'n va do'ppi tikishning xilma-xil usullari qo'llanilgan.

So'zina, atlas va duxoba ko'rpa, har xil xalta, ko'yalak, belbog', salla hamda boshqa uy-ro'zg'or va marosim kiyimlari chiroyli, rang-barang gul hamda kashtalar bilan bezatilgan. Kelinchaklar yuziga tutiladigan naftsi parda – ro'yiband, shuningdek, uchburchak shakldagi guldor tumorchilik o'zining nafisligi va go'zalligi bilan ajralib turadi.

Turtli bino va imoratlarining ustuni, shipi hamda peshloqlardagi islamiy va g'irix naqshlar har qanday insonning e'tiborini o'ziga tortadi.

Uy-joylar. Tojiklar nafqat keng va obod vodiylar, shu bilan birga tog'lar va tog' tegralarida ham yashaydi. Shuning uchun ham ularning uy-joylari ham turlicha ko'rinishda bo'lishi tabiiy hol. Mamlakatning shimoliy tekisliklarida yashaydigan tojiklar bilan Ko'lob va Hisor atrofidagi yalang'lik hamda tog' etaklarida yashayotgan aholining uy-joylari bir-biridan ancha farq qiladi.

Farg'ona vodiysiga qo'shni hududlarda yashaydigan tojiklarning turar-joylari bir nechta imoratdan iborat edi. Har bir xonadonda ichkari (darun) va tashqari (berun) mayjud bo'lgan, lekin berun bilan darunni bir-biridan ajratib turuvchi devorlar hozirda saqlanib qolmagan. Xonadonlarda asosiy xonalardan tashqari albatta, mehmonxona bo'lishi shart edi. Hovining boshqa tarafidan qator turtli xil xo'jalik binolari qurilgan. Xonaning shirga yaqin joyidan bitta yo' ikkita daracha ochiq panjara bilan to'silgan yoki eshikli bo'lgan. Xonaga yorug' ana shu darachadan tushib turgan. Xonaga kiraverishda dahliz bo'lib, u yerga obrez ham qurilgan.

Hovining og'zi taxta bilan to'silgan bo'lib, taxtalar orasidan o'zina tirqish qilingan, chunki suv ana shu tirqishdan pastga oqib tushib ketgan.

Har qaysi xonada bir nechta katta va kichik taxmon hamda ichki devorlar mavjud bo'lgan. Katta taxmonga sandiq o'rnatiladi, ustiga ko'rpa va yostiqlar taxtalanib qo'yiladi. Tokchalarga turtli-tuman idish-tovog' va ro'zg'or buyumlari joylashtiriladi.

Imorat poydevorlari oralarga bo'yra to'shalgan, uy-joylar bir nechta qator katta-kichik tog' toshlaridan quriladi. Bino poydevoriga qalin qo'ltir yog'ochlar o'rnatib chiqiladi. Uyning devorlari har xil bo'lishi mumkin, lekin baland tog'li yerlarda odatda, sirch devorlar o'rnatiladi. Barcha devorlar g'uvalla va somon suvov bilan suvab chiqiladi. Uyning devorlari har xil bo'lganligi uchun ayrim hollarda paxsa devorli uylar ham quriladi. Uyning oldiga ayvon qurilib, ba'zan ayvonning o'rtasi qismi ichki devor bilan ko'rinishda bo'ladi.

Ko'p uylarda mo'ri va sandal bo'lib, ayniqsa, Ko'lob va Hisor atrofiga sandal ixcham qilib quriladi. Aksariyat tojik oilalari – ayvon devorli ikki xonali uy solishni yoqtiradi. Hovining uyga tutash yerida suvab qurilib, uyning devorlari paxsa bilan tiklanadi. Bu yerda uylarning toini qo'ltir mahallali ko'rinishda qurilgan bo'lib, barcha uylarning poli tuproqdan devor bo'ladi. Oyog' kiyimlarni yechish uchun eshik oldi nisbatan chuqurroq qilinadi.

Tog'lik tojiklar uylarini butunlay boshqacha usulda quradilar. Tog'li joydagi uylarning hovilari bo'lmaydi. Uyning devorlari qalin va issiq ham ancha baqarvva, og'ir qilib quriladi. Aks holda, qor ko'chkilari va qatqil shamol uchirib ketishi mumkin bo'lgan. Uyning poydevori baland bo'lib, og'ir toshlar terib chiqiladi, so'ngira tosh yoki paxsadan devor tashlab, Devorlarning osti keng, qalin va ust tarafga qarab torayib boradi. Uyning usti shox-butalar bilan yopilib, qalin tuproq solinadi, so'ngira somon suvov bilan suvab chiqiladi.

Barcha hududlarda uyning bitta xonasi ikkiga bo'linadi. Birinchi xona ichki mahall bo'lib oz baland qilib quriladi, ushbu bo'lakni ro'yi bola deb atashadi. Markaz bo'lak o'rtib ovqatlanadigan, dam oladigan va yotadigan joy hisoblanadi. Ikkinchi past bo'lakiga o'choq mo'rasi bilan omborxona va boshqa xo'jalik xonalari joylashadi. Shuningdek, Zarafshon vodiysining yozgi qal'asi, Yag'nob daryosi atroflari va Qoratag'ida yashovchi tojiklarning uy-joylari ham bir-biridan ancha farq qiladi.

Kiyim-kechaklar. Tojik erkaklarining yozgi kiyimi ko'yalak, belbog', choppon, belbog' va do'ppidan iborat. Erkaklarning ko'ylagi kengroq kiyim deb atalib, ayollarnikiga qaraganda yengilari tor va kaltarq

bo'lad. Ko'krak oldi yumaloq kesiladi, ushbu ko'ylak turi *kurtagi yuvani* deb ataladi. Erkaklarning ishtonlari ayollarniki singari bog'ichi bo'lad. Uning ust tarafi keng, osti tor, ayollarnikiga nisbatan kalataroq qilib tikiladi. Ushbu ko'ylak ishtoning ustidan tushirib kiyilib, ustidan belbog', yuhiloki yoki chorsu bog'lanadi. Yozgi chopon uzun, tizzadan tushib turadigan, yenglari qo'llarini yopadigan, satranji deb ataladigan, ko'pincha yo'l-yo'l matodan tikiladi.

Qish kunlari qavilgan paxtali to'n, chakmon va *norigza* nomi keng cholvor kiyiladi. Erkaklar oyloqlariga teridan tikilgan chorq yoki oshlangan charmidan tayyorlangan mo'kki kiyadi. Shuningdek, ularning bosh kiyimlari turlicha bo'lib, ko'pincha cho'qqaygan uzun do'ppi kiyib yuriladi. Qadimda Kirob do'ppilari, hozirda esa Chust do'ppi kiyishi an'anaga aylangan. Sovuq kunlarda do'ppi ustidan jun salla o'ralladi yoki tepak kiyiladi.

Tojik ayollarining kiyim-kechaklari ham turlicha bo'lib, yashash joyiga qarab har xil matodan tikiladi. Ayollar ko'ylak, cholvor va qavilgan chopon kiyib, boshlariga ro'mol o'raydi. Ularning lozimlari *ozor* yoki *poyjimo* deb ham ataladi. Chopon, janno, ro'mol va sobadaga deb yuritilgan.

Ko'ylak ustidan kamzul kiyish odat tusiga kirgan. Ko'ylaklarning yoqasi qay tarzda tikilganiga qarab bir necha xilga bo'linadi: peshchokak, par-pari, qozoqi, o'zbaki. Qiz bolalar bilan yosh juvonlar yoqasi va yengilarning uchi hamda etagiga har xil kashta tikilgan ko'ylak kiyib, boshiga ro'mol o'raydi. Keyingi vaqtlarda ko'proq toqi do'ppi kiyadigan bo'lib qoldi. Tojik ayollari kiyadigan do'ppilar orasida Toshkent, Kirob, Samarqand, O'rtepa, Xo'jand va Darvoz do'ppilari uchraydi. Ushbu do'ppilar turli-tuman, ko'proq qizil, zangori, sarig, ko'k pushti va oq iplardan tikilib, bir-biridan guli hamda bezagi bilan farqlanadi. Qorategin va Darvoz tojik ayollarining an'anaviy kiyimlari kurta-ko'ylak, ezor, yoki poychama-iston, choma-to'n, bosh kiyimlaridan ro'mol (numol), soba va dokadan iborat bo'lgan.

Ayollarning bezak-taqinchoqlari asosan, zirak va uzukdan iborat. Sochlari oddiy yoki qora ipldan yasalgan chura, yani kokil taqadi. Kokil uchiga xilma-xil rangli ipldan popuk va munchoq osiladi.

V.3. Pomir xalqlari

Pomir tojiklari o'zlarini *pomiri* deb ateydi. Tojikiston Respublikasi tarkibidagi G'arbiy Pomirning baland tog' vodiysidagi Tog'li Badaxshon viloyatida yashagan kichik xalqlar-yozg'ulom (o'z nomi – zgamuk)lar,

to'shan (o'z nomi – rixen, ruhni)lar, mahaliy guruh xuf (o'z nomi – xuf)lar bilan birga, bartang (o'z nomi bartan)lar mahaliy guruh aholisi bilan birga, shug'non (o'z nomi – xugni yoki xumni)lar mahaliy aholi bago'yilar bilan birga, ishkashim (o'z nomi – ishkoshuni, ishkashini)lar, vohani (o'z nomi – hik, vaxi va vani)lar guruhlaridan iborat. Shuningdek, Pomir xalqlari Afg'oniston Badaxshoni (ro'shonlar, shug'nonlar, ishkashimlar, vohani, zebaklar, munjonlar)da, Pokistonning (barcha mavzosi (munjon va yidgalar)da va Xunza daryosi vodiylari (vohani)da, Xitoyning Shinjon-Uyg'ur viloyatida (shug'nonlar va vohani)ga qarindosh sariko'llar) yashaydi. Zamonaviy o'zligi anglatishi pomiri deb hisoblovchi aholining umumiy nufusi 300 ming kishini tashkil etadi.

Pomir xalqlari katta yevropeoid irqiga mansub bo'lib, hind-yevropa tillar oilasining sharqiy eron tili kichik guruhiga mansub tili va lahjalarda so'zlashadi. Ular G'arbiy va Janubiy Pomir vodiylari (Tojikistonning Tog'li Badaxshon muxtor viloyati va Afg'oniston, Pokiston hamda shuning Hindistonning unga tutash hududlari) va Sariko'l tog' tizmalari (Shinjonning Shinjon-Uyg'ur muxtor tumanlari)da yashaydi. Pomir tillariga asosan, labkashim va yozg'ulom tillari hamda shug'non, rushon, xuf, bartang, o'ro'tur, sariko'l singari qarindosh tili va lahjalar kiradi. Hozirgi o'lkada hisoblangan qadimiy vanj va sarg'ulom tillari ham ushbu guruhga mansub. Aytim belgilariga ko'ra, munjon va unga yaqin bo'lgan iydog' tillari pomir tillariga qo'shilsa-da, ushbu masala munozarali bo'lib qolmoqda.

Pomir xalqlarining tarixiy-genetik tavsifi ularni boshqa sharqiy eroniy tillardan farqlanuvchi oila sifatida o'rganish imkonini bermaydi. Bir qator lingvistik belgilar turli pomir tillarini boshqa sharqiy eroniy tillar bilan alohida-alohida yaqinlashtiradi. Barcha Pomir tillarining strukturaviy o'xshashligi va katta umumiy lug'aviy fondi, ularning muayyan til jamoasida o'zaro yaqin va o'xshash rivojlanganligini ko'rsatadi. Pomir xalqlari o'zaro tojik tilida mulqot qiladi va talim oladi. Shuningdek, o'zaro mulqot tili sifatida shug'non va ma'lum jihatdan Voxan tili qo'llaniladi. Ayniqsa, shug'non tili pomirida yashovchi turli etnik guruhlar o'zaro mulqot tiliga aylangan. Zamonaviy jamiyada tojik tili keng qo'llanilmog'ida va maktablarda va hatto oilalarda ham asosan, tojik tili keng qo'llanilmog'ida.

Voxan tili asosan, ushbu hududda asosiy mulqot tili hisoblanad. Barcha voxanlar va uning tojik tili aholisi, shuningdek, voxanlar hamda tojiklar o'rtasida mulqot voxan tilida olib boriladi. Og'axon fonti

mablag'i XXI asr boshlaridan boshlab Tog'li Pomir avtonom tumani pullik maktablar tashkil qilingan bo'lib, ushbu ta'lim dargohlarida talab asosida arab, yevropa va rus tillari o'qitiladi.

Xitoyda yashovchi pomirliklar o'zaro muloqot uchun uyg'ur yoki xitoy tillaridan foydalanadi. Afg'onistonda esa pomirliklarning muloqot tili vazifasini dariy va kam miqdorda pushtun tillari bajaradi. Afg'onistonda pomirliklar kompakt yashaydigan hududlarda pomir tillari rasmiy til hisoblanadi, shuningdek, Tojikiston qonunchiligiga ko'ra, pomir tillarida erkin so'zlashishga ruxsat berilgan.

Pomir tilida so'zlashuvchilarning ko'pchiligi uchun yozuv va ta'lim tili tojik, sariko'l tilida so'zlashuvchilar uchun esa uyg'ur tili hisoblanadi.

Pomirliklar asosan, islom dinining shia, qisman esa sunniylik mazhablariga e'tiqod qiladi. Xususan, ularning asosiy qismini shialarning ismoliy oqimidagi musulmonlar hisoblanadi.

Pomir tojiklari yashaydigan hududlarda qadimda Rushan, Shug'on va Voxan kabi davlatlar bo'lgan. Uzoq asrlar mobaynida ushbu joylarni qanchadan-qancha chet el istilochilari bosib olib, Pomir xalqlari ustidan hukmronlik qilib kelgan. VII asrning oxiridan boshlab Pomir va Pomirbo'yi hududlari ikki asrdan ko'proq vaqt mobaynida tibetliklar qo'l ostida bo'lgan. X asrdan Pomir bo'yidagi qadimiy davlatlar yana mustaqil bo'lib oladi va keyinchalik ushbu yerlar bir qancha podshohlarga bo'linib kelgan edi. Qariyb 30 yilga yaqin vaqt mobaynida Badaxshon afg'onlarga bo'yusub kelgan, 1878-yildan boshlab ushbu xalqlar Buxoro amirligi qo'l ostiga o'tadi, so'ngra Rossiya imperiyasi tomonidan bo'yusundiriladi.

1925-yil 2-yanvarda Tojikiston muxtor Respublikasi tarkibida Tog'li Badaxshon muxtor viloyati tashkil etildi. XX asrning ikkinchi yarmida – XXI asrning boshlarida davomida jamiyatlarda sodir bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar natijasida Pomir xalqlari etno-madaniy jihatdan asla-sekinlik bilan tojiklarga o'zaro yaqinlashib, tobora singib bormoqda.

Pomir xalqlarining asosiy an'anaviy mashg'ulotlari chorvachilik, humarnadchilik va qisman dehqonchilikdan iborat. Tojikistonning boshqa tog'li hududlaridagidek, Pomirbo'yi aholisi ham asosan, chorvachilik va qisman dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Juda qiyin geografik va iqlimiy sharoitlar tufayli va yaroqli yerlar juda kamligi sababli ushbu hududlarda dehqonchilikni keng rivojlantirishning iloji bo'lmagan. yer o'nog'i yordamida bo'kiz bilan haydalgan va ekin ekishdan oldin yerga o'g'it solingan. Haydalgan yerlarda arpa, bug'doy, no'xat, dukkakli ekinlar, zig'it, makkajo'xori, ayrim joylarda esa paxta yetishtirilgan.

Tog' yonbag'irlariga mevali daraxtlar o'tqazilib, bog'lar yaratilgan. Vohalar va Shohdardaning yuqori qismlarida chorva mollari ko'p boqilgan va shuningdek, baland tog'li hududlarda, chumonchi, Huf vodiysi atroflarida chorva kumroq saqlangan.

Uy-joylar. Pomirliklar asosan, daryolar atrofi, yalangliklar va tog'liklariga uy qurgan. Ularning uy-joylari voha tojiklariga o'xshab tosh va yog'ochdan qurilgan. Yoz kunlari butun aholi ochiq havoda yashab, tunash uchun uch tарафи devor bilan o'ralgan tomsiz joy batop qilingan. Ko'p joylarda chivin ko'pligi sababli yog'och ustunlariga o'rnatilgan baland ayvonlar va daryo bo'yilarida uxlaganlar.

Pomirliklarning turar-joylarini me'moriy tuzilishiga ular yashagan hudud reliefning o'ziga xosligi, tabiiy sharoiti, xususan, quruq iqlimi ham ta'sir qilgan. Xususan, yilning issiq davri asosan, yog'ingarchiliksiz bo'lib, kun davomida ob-havo tez-tez o'zgarib turgan. Yilning sovuq davri mayning boshlaridan to aprelgacha davom etgan. Qishdagi eng sovuq kuzda – 30 bo'lsa, yozda esa +35 darajani tashkil etgan. Havo harorati tog'li va yuqori mintaqalarda ham sezilarli ravishda o'zgarib turadi. Sensus say havalarning mayjudligi sababli sug'orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan. Shuningdek, 3000 metrdan yuqorida bo'lgan hududlarda chorvachilik asosiy xo'jalik tarmog'i hisoblanadi.

Turar-joylarni qurishda hududning tabiiy-geografik o'rni, jumladan, tosh va qor ko'chishi xavfi hamda suv toshqinlaridan xoli joy tanlanadi. An'anaviy pomirliklarning uylari asosan, qishloqlarda joylashgan bo'lib, har bir uyda oz bo'lsa-da, o'zining hovlisi va yer maydoniga ega edi. Ma'nada, uylar asosan, bir qavatli qilib qurilgan, lekin agar uyning hovlini qora jarkida bo'lsa, unda uyni ikki qavatli uyning birinchi qavatini maxsus og'itilgan sharda hayvonlarga ajratilgan. Uy qurish uchun asosan, tosh va tuproqdan foydalanilgan.

Pomirliklarning uylari boshqa xalqlar uylariga o'xshamagan. Ularning uylari asrlar davomida o'zgarasdan ajdodlardan avlodlarga o'tib kelganida, An'anaviy uylardagi har bir me'moriy belgi o'ziga xos ma'noga ega bo'lib, ularda islomgacha va islomiy qarashlar mujassamlashgan. Ularning har bir belgisi odamlar hayotida ma'lum bir ma'noni bildirgan. Pomirliklar uyniing asosi beshta ustundan iborat bo'lib, bu islom olamidagi 5 katta shaxslar: Muhammad s.a.v., Hazrat Ali, Fotima, Hasan va Husayn anglatgan. Muhammad s.a.v. ustuni – uydagi asosiy ustun bo'lib, ushbu e'tiqod erkakning hukmronligi, dunyoning abadiyligi va uyniing mustahkamligi ramzi hisoblangan. Mazkur ustun oldiga doimo boka yotirilgan bo'shlik qo'yilgan. Fotima ustuni – poklik ramzi va uy

o'choq'ining homiyini bildirgan. Nikoh to'yi paytida ushbu ustun oltin kelmini kiyintirib, taqinchoqlar taqilgan va Fotimadek chiroyli bo'lib, deb niyatlar qilingan.

Shuningdek, Hazrat Alining ustuni – sevgi, vafu va do'stlik ramzi bo'lgan. Kuyov birinchi marta kelinni uyiga olib kirayotgan vaqtda ulam aylan ushbu ustun oldiga o'tirg'izilgan va birgalikdagi oilaviy hayoti baxtli bo'lib, ulardan sog'lom zurriyodlar dunyoga kelsin, deb niyat qilingan. Hasanning ustuni esa yerga bog'liq bo'lib, u serhosli bo'lishi uchun xizmat qilgan. Husanning ustuni yorug'lik va olov ramzi bo'lganligi bois uning oldida diniy mahlar bilan birga namoz o'qilgan. Shuningdek, u yerda maxsus chiroq yodqish marosimi ("chiroqshahar") o'tkazilgan. Uning to't tomoni "chorxona" to'ti unsur, yer, suv, shamol va olov ramzi hisoblangan.

Kiyim-kechaklar. Pomir erkaklari yaxtak, tambun, ya'ni ishton, usidan jun chopon "gilm", boshlariga toqi do'ppi, oyogqqa esa yunshoq etik va pex, ayollari esa uzun yengli ko'yak va cho'vor kiyib, boshlariga duracha ro'mol o'taydi, keksa ayollar esa qalpog' kiyadi. Taqinchoqlar xalqa, mis bilakuzuk, xilma-xil munchog, muguz va soch popuklaridan iborat.

Hunarmandchilik. Pomir tojiklari turli iplardan paypoq to'qiydi. Ushbu odat Pomirbo'yi ayollarining juda qadimiy va ajoyib hunarlaridan biridir. Voxan, Shug'non va Rushonda do'ppichilik taraqqiy etgan. Yog'ochdan sandiq, shandon, turli idish-tovoq tayyorlash yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Taomlar. Pomir tojiklari yashayotgan joyi, uning tabiiy va iqlimiy shart-sharoitlari hamda mayjud imkoniyatlariga qarab taomlari turlicha bo'lgan. Chorva mollari ko'p va g'allachilikka asoslangan yerlarda non bilan sut ko'p iste'mol qilinadi. Sholikor hududlar va yalangliklarda yashaydigan aholi asosan, g'umuchdan tayyorlangan taomlar sevib tanovul qilinsa, tog' va tog' etaklarida joylashgan tojiklar esa go'shtni kam iste'mol qiladi.

Qishloqlar va ko'pchilik shahardagi hovilalarda yashayotgan tojiklar tandir non, tog'li hududlarda esa yuypqa, chappoi non, patir, katta girilacha non, kulcha yopib, qatama iste'mol qilinadi.

Suyuq ovqatlardan oshi burida, oshi ord (uvra oshi) va tushpoch (chuchvara) sevimli taomlar hisoblanadi. Go'sht, sabzi va qovoq somsalar, shuningdek, mantilar ko'p iste'mol qilinadi.

Sut va sut mahsulotlari (qatiq, maska yog'i, kurd, suzma, pishloq patir) kundalik asosiy taomlar hisoblanadi.

Pomirlik tojiklarning eng yaxshi ko'radigan taomi palovdir. Shuningdek, qovurdog, lag'mon, sho'rva va atala ham sevib iste'mol qilinadi. Ko'pchilik no'xat sho'rva, arpa yoki tariq non, ba'zi hollarda esa atala bilan qanoatlanishga majbur bo'ladi. Sut va sut mahsulotlari, bug'doz, meva kam bo'lgani uchun faqat bayram kunlari hamda to'ylarda iste'mol qilinadi. Tuz Badaxshondan olib kelinadi. Choy ham kam bo'lganligi uchun ko'pincha suti choy ichiladi.

Marosimiy taom sifatida holvaytar va atala tayyorlanadi. Maxsus ayollar marosimlarida pishirilgan atalani faqat xotin-qizlar ichgan, uni erkaklar ichishi taqiqlangan.

Transport. Tojikistonda tog'li joylar, dara, jar va toshqin daryolar ko'p shu sababli, yo'llarning sifati yaxshi emas. Faqat vodiylar, katta qishloqlar va shaharlarda tekis yo'llar qurilgan. Tog'lardagi ko'p qishloqlarga so'qmoq yo'llar va osma ko'priklar orqali borish mumkin. Shuning uchun asosiy transport vositasi ot bilan eshak hisoblanadi.

Tog'larda nisbatan qadimgi katta patirxal shakli saqlanib qolgan. Barchadon va Voxanda aholi bir nechta oilalarga bo'lib, bir uyda yashagan. Qorategin va Darvozda esa qishlash uchun bir nechta oila yashaydigan binolar bo'lgan. Tog'li tojiklar oilani bo'limi ketishiga yo'l qo'yimlilikka harakat qiladi, yerlari bo'limasligi uchun esa yangi oila o'rnatish qaramog'ida yashaydi. Agar oila juda yiriklashib kessa, yoniga yangi hano qurilgan, ammo ovqatlanish uchun barcha oila azolari bir joyga yig'ilgan.

To'y marosimlari va urf-odatlar. Hozirgi kunda urf-odatlarining juda ko'p qismi o'z mazmuni va ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Qadimda qishloqda asoslangan nikoh o'z ahamiyatini yo'qotib, uning o'rniga erkin tanlash va shaxsiy istak asosida turmush qurishga asoslangan nikoh kirib keldi.

Bovechilik va u bilan bog'liq urf-odatlar tuman va qishloqlarda barcha tojiklar faqat jihatlariga ega. Sovchilik instituti tojiklarda gapzani – sut mo'rovchilar, bitim tuzuvchilar yoki asakoli – oqsoqollar deb nomlanadi, ularning sababi, sovechilikka odatda, asosan, qariyalar borgan. Kein to'larada kuyovning ota-onasi va qarindosh-urug'lari bo'lajak kelinni har tomonlama surishtirgan, qizning husni, yashash sharoiti hamda uy qurilmalarini qay darajada uddalay olishi hisobga olingan va shunga ko'ra, baholangan. Kein tanlanganidan so'ng sovechilarni jo'natishga qaror qilingan. Bovechilik uchun xosiyatli kunlar tanlangan – payshanba, shanba yoki yalshanba. Xuf vodiysida esa chorshanba, payshanba, juma va shanba kuni tabiatni bovlash uchun ulug' kunlar sanaladi. Sovchilar o'zlarini bilan

kichikroq patir non – karnol, tut, un va mevalardan iborat tugun olib borgan. Mehmnlarni siylash uchun mezbom tomonidan bir xil taomni mirnagan tortilgan.

To'y marosimini keyingi bosqichida unashtrish "fothia to'y" (in fothia) bo'lgan. Unashtruvda kuyovni ota-onalari va qarindosh urug'lari kelin tomoniga boshdan oyoq sovg'a tayyorlagan. Ushbu sovg'alar *savqo* deb atalgan.

Kelini uyiga kuyovning otasi tomonidan un, yog' va qo'y to'shi yuborilgan. Fothia to'yida mehmondorchilikdan so'ng ikki yoshni baxtni so'rab duo qilingan.

Pomir tojiklarda unashtrish marosimi *dzaklay to'y*, ya'ni "kichik bayram" deb ataladi. Fothidan to to'ygacha kuyov va kelin bir-birlariga ko'rinnasliklari shart hisoblangan. "Fothia to'y" dan keyin kelin va bo'lg'usi kuyovning yangi qarindoshlaridan qochib yurishni boshlaydi. Tojiklarda ushbu odat megurizan, ya'ni "qochish" deb ataladi. "Fothia to'y" bo'lib o'tganidan so'ng ikkala tomon ham asosiy to'yga tayyorgarlik ko'ra boshlagan.

Kuyov tomon kelishilgan qalin va ikki yoshga atalgan uy-joyni tayyorlashga harakat qilgan bo'lsa, qiz tomon esa kuyov tomon yuborgan sovg'alarga munosib sovg'a tayyorlagan. Shundan keyin qalining miqdorini belgilash uchun ikki tomon oldi-berdisi boshlangan, ushbu odat "peshkashburi", ya'ni "qalin miqdorini belgilash" deb ataladi.

Bundan tashqari, yana shunday urf-odatlar ham bo'lganki, ular "osol" yoki "osol to'y" deb atalgan. Mazkur odaga ko'ra, to'y yaqinlashgan sari kuyov tomon kelin tarafga belgilangan qalin o'rinni bosuvchi buyum bergan. Qalin tayyor bo'lganidan so'ng qizning otasi to'y kunini belgilagan.

Tojiklarning to'y marosimini odatda, "to'y" yoki "to'y arusi" deb atalgan. To'y asosan, kuz yoki qishning ilk kunlari, ya'ni aholi dala ishlariidan bo'shagan paytiga qarab o'tkazilgan.

To'y marosimining boshidan oxirigacha asosiy rolni "yasaul" bajaradi. To'y kuni kechqurun ikkita xonadonda ham bayram shodiyonasi boshlangan, kuyov o'z uyida do'stlari bilan o'yin-kulgi qilsa, kelin esa o'z uyida dugonalari bilan xursandchilik qilgan. Ushbu shodiyona "shau to'y" "tungi bayram" yoki "bazm" deb atalgan. Bazm paytida kuyovni "shau", "podshoh", "shoh", ("knyaz", "sar") nomini olib, bazmda hazil shoh rolini o'ynayotgan kuyovga yaqinlari va do'stlari sodiqlik bilan xizmat ko'rsatgan.

To'yning ertasi kuni yana mehmonlar kuyovning uyiga yig'iladi. Ular ertalab yoki chosh, ya'ni kunning yarmida keladi. Kuyovning otasi kelganlarni turli xil taomlar bilan mehmon qiladi, ushbu odat "yakdeg'a", ya'ni "bir qozondan ovqat yeyish" deb ataladi. Shundan so'ng kuyov mehmon olish udumi bajariladi, ya'ni kuyovning sochi olinib, yuviladi. Soch olish udumi so'ngida kuyovga yangi ko'yлак, ishton, ikki juft paypoq (gornok), ikkita xalat, do'ppi va "chalma" kiydiriladi.

Nikoh to'y o'tganidan so'ng qishloq masjiddan mulla taklif qilinib, nikoh o'qiladi. Mulla yoniga bitta kosada suv ("nikoh suvi" – "oti nikoh"), uning ustiga bir yoki ikkita non qo'yiladi.

Kelin nikoh o'qish marosimida qatnashmaydi, uning yoniga ikkita g'arovch yuboriladi va roziligi olinib, mullaga ma'lum qilinadi.

Nikoh o'qishi marosimidan keyin kelin yangi uyiga ketishga hazirlanadi. Karvon bilan birga kelinning seplari ham jo'natiladi, karvoni esa mahallalar bilan kuzatadilar.

Nazorat savollari:

1. Tojik xalqining etnogenezi to'g'risida nimalarni bilasiz? Manbalar asosida ma'lumot bering?
2. Tojiklarning mintaqaning boshqa xalqlari bilan etno-madaniy aloqalarini izohlang?
3. Tojiklarning antropologik tipi va uni o'ziga xos xususiyatlari haqida so'zlab bering?
4. Tojiklarni Markaziy Osiyo mintaqasining boshqa xalqlari bilan solishtirib o'z xalqshaharida o'ziga xos jihatlarni bayon eting?
5. Pomir xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi to'g'risida so'zlab bering?
6. Pomir xalqlari antropologik tipini manbalar asosida izohlang?
7. Pomir xalqlari an'anaviy xo'jaligining o'ziga xos jihatlari to'g'risida ma'lumot bering?

VI BOB. TURKMAN XALQI ETNOLOGIYASI

*

Matnuzga oid tayanch soʻz va iboralar: Turkmaniston Respublikasi, dax-massagellar, saljuqiylar, turkmanlar antropologiyasi, teke, yovimchi, ersari, go'klan, Kaspiyorti tipi, chumur, o'tov, cho'qay.

VI.1. Turkman xalqining etnogenezi va etnik tarixi

Turkmanlar asosan, hozirgi Turkmaniston hududida yashovchi Turkmaniston – Markaziy Osiyoning janubiy-g'arbida joylashgan davlat bo'lib, maydoni 491, 2 ming km² dan iborat. Turkmaniston Respublikasida 6,2 million kishi yashaydi. Poytaxti – Ashxobod shahri.

Turkmaniston shimolda Qozog'iston, shimoliy-sharqda O'zbekiston, janubda Afg'oniston va Eron bilan chegaradosh. Kaspiy dengizining sharqiy qismi Turkmanistonning g'arbiy qirg'oqlari bo'lib o'tadi. Turkmaniston hududi 5 ta viloyatga bo'linadi. Birinchi viloyat Amudaryoning o'rta havzasida joylashgan bo'lib, bu yerda ersari, solni, boyati, sakari mukt, xotab va olam turkmanlari istiqomat qiladi. Ikkinchi viloyat Murg'ob va Tejen vohalaridan iborat.

Uchinchi viloyat Kopetdog'ning tog'oldi va tekislik qismlari, Ateka, Sumbar va Chandir daryolari vodiysini o'z ichiga olgan. Ushbu hududda go'klan, murchali, nuxurti, qardoshi, anauli va tekintlar hayot yashaydi. To'rtinchi viloyat Turkmanistonning janubiy-g'arbiy va Kaspiy dengizining sharqiy qirg'oqlarini egallagan. Bu yerlarga XIX–XX asrlarda yovimchi, ogunjali va evlyad turkmanlari ko'chib kelgan. Beshinchi viloyat Markaziy va Janubiy Qoraqum hududlaridan iborat bo'lib, Turkmanistonning shimoliy-g'arbiy hududlarini Balxan deb ham atalgan Turkmanistonning janubida Kopetdog' tog'lari (eng baland joyi 2942 m – Rizo cho'qqisi), undan shimoliy-g'arbda Kichik Bolxon (777 m gacha) va Katta Bolxon (1881 m gacha) tog'lari joylashgan.

Turkmaniston hududi qadimda Ahamoniylar, Salavkiylar va Partiya davrlari, Yunon-Baqtriya podshohligi, Effaliylar, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Tohiriyalar, Somoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar hamda Mo'g'ullar imperiyasi tarkibida bo'lgan. XIV asrning 70–80-yillarida Turkmaniston hududi Temuriylar tasarrufiga o'tgan bo'lsa, XVI asrning oxiri – XVII asrda Xiva va Buxoro xonliklariga bo'yungan, bir qismi 1680-yilda tarkibiga o'tgan edi. 1869–1885-yillarda Turkmaniston hududini Rossiya bosib oldi. 1917-yil noyabr-dekabr oylarida hududda sovet hokimiyati o'rnatildi. 1918-yilda TASSR (Turkiston muxtor sovet sotsialistik

respublikasi tashkil etilgach, Turkmanistonning asosiy qismi (Zakaspiy viloyati, 1921-yil avgustdan Turkmaniston viloyati) uning tarkibiga kirdi. 1924-yil 27-oktyabrda Turkmaniston SSR tashkil topdi va SSSR tarkibiga kirdi. 1991-yil 27-oktyabr kuni mamlakatda "Mustaqillik kuni" deb e'lon qilindi.

Turkmaniston Respublikasining asosiy aholisi turkmanlar hisoblanadi. Shuningdek, bugungi kunda turkmanlar O'zbekiston, Shimoliy Kavkaz va Rossiyaning Astraxan viloyati hamda boshqa shaharlarda (50 ming nafar), Afg'onistonda (932 ming nafar), Eronda (1 mln 328 ming nafar) va Turkiyada (500 ming nafar) yashaydi. Turkmanlarning butun dunyo bo'yicha nufusi 8 mln nafar kishini tashkil qiladi.

Rasmiy til – turkman tili. Dindorlari asosan, sunniy musulmonlar. Yirik shaharlari: Ashxobod, Turkmanobod, Toshhovuz, Mari va Turkmanboshi.

Turkmanistonda rasmiy bayramlar bilan birga milliy bayramlar sifatida "Axaltekin oilari kuni", "Suv kuni", "Qovun kuni" va "Gilan kuni" ham nishonlanadi.

Hozirgi vaqtda turkman xalqining etnogenezi muammolari to'liq o'rganilgan, deb bo'linmaydi. Chunki, etnik tarix va turkman etnogenezining ko'plab savollari javobsiz qolmoqda. Turkmanlarning o'ziga xos antropologiyasi va lingvistik tuzilishining tarixiy bosqichlari kan o'rganilgan. Turkman xalqining shakllanish davriga taalluqli savollar, ayiqcha, bahsi bo'lib qolmoqda. Ushbu muammolarning tarixiy va etnologik yechimi bir necha bor turkman olimlari hamda xorijlik ilmunovchilar e'tiborida bo'lib keldi. Ushbu savollarga javob topish o'rta asrlardanoq boshlangan.

Birinchi bo'lib turkmanlar haqida Abu Rayhon Beruniy o'zining qimmatli toshlarni o'rganishga bag'ishlangan "Mineralogiya" kitobida muallot bergan va "turkman" nomining etimologiyasiga doir fikr-muhakamalarni bildirgan. Keyinchalik ushbu muammo Mahmud Koshg'ariyning "Devony yufotir-turk" asarida ham o'z ifodasini topgan. Ahamia turkmanlarning o'g'uz va qarlug' qabilalari tarkibiga kirishi hamda o'g'uzlarning forsiyazon o'troq aholi bilan yaqinlashishi natijasida o'zgarishi haqida tarixiy faktlarni yozib qoldirgan.

XIV asrda tarixchisi Rashiddin turkmanlarning Movarounnahr va Erondan kelgan o'g'uzlardan kelib chiqqan hamda tashqi sharoitlar ta'sirida ularlarga o'xshab borgan, deb yozgan edi. XVII asrda yashagan Xiva xon Abdulqayy Bahodirxonning "Шакарпайи турк" asarida turkmanlarning

kelib chiqishi va tarixi haqidagi o'rtta asr olimlarning ma'lumotlari hamda xalq afsonalarini keltirgan.

G'arb davlatlarida ushbu mavzuga birinchi bo'lib fransuzlik tarixchi De Erbelo qo'lgan edi. U o'g'uzlarning Amudaryoning o'rtqa tomoni va Movarounnahrning chegara qismlariga joylashishi, ularning mahalliy aholi bilan qo'shilib ketishi, o'z tillarida avlodlarga nasldag'allikni saqlab qolganliklari hamda buning natijasida xurosonliklari ularni "turkman", ya'ni "turklarga o'xshashi", deb atagan, deb yozgan edi.

J. Deginning asarida turkmanlarning kelib chiqishiga boshqa tomondan yondashiladi. U o'g'uzlar boshqa turk qabilalari kabi qadimiy xunlarning avlodi, deb hisoblagan edi. Olim o'rtta asrlarda o'g'uzlarning ikki: g'arbiy va sharqiy qismga bo'linganini ko'rsatib bergan. G'arbiy o'g'uzlar XI asrda Greisiya va Makedoniyaga, ularning sharqiy qismi esa Eronning chegara hududlaridagi viloyatlarga kirib borgan hamda ular turkmanlar deb atala boshlagan.

Rossiyada turkman etnogenezi yoritish bo'yicha dastlabki tadqiqotlar XVIII asrda boshlandi. Chumonchi, M. N. Karanzin o'g'uzlarning qadimgi rus yilnomalarida turklar bilan bir, deb hisoblagan edi. O'z navbatida, ushbu fikrlar M. I. Pogosdin va D. I. Illovitskiyning izlanishlari uchun asos bo'lib xizmat qildi.

1836-yilda S. G. Karelin o'z ekspeditsiyasi bilan Kaspiy dengizining sharqiy qirg'oqlarida bo'ldi. U turkmanlarning kelib chiqishi va vatani to'g'risida afsonalarni yozib oldi hamda bu borada ko'plab ma'lumotlar to'pladi. S. G. Karelin esa turkmanlarni qadimgi massagetlar bo'lsa kerak, deb yozgan edi. XIX asrning 60-yillarida venger sayyohi X. Vamberi turkmanlarning hayoti va turmushi ustida qimmatli etnologik kuzatishlar o'tkazdi. Shuningdek, M. T. Xautsning "Yyryz kabiunnapri" asarini alohida ko'rsatish kerak. Ushbu asarda muallif turkmanlarning u yoki bu darajada eronlashgan turklar, degan g'oyani ilgari surgan edi.


XIX asrning oxirlarida Urxun yozuvlarini o'rganishning boshlanishi bilan o'g'uz va turkmanlarning etnogenezi muammolari yanada dolzarblashdi. Mo'g'ulistonidagi qadimgi turk yozuvlarining deshtirovka qilinishi o'g'uzlarning Markaziy Osiyodan kelib chiqqanligi haqidagi fikrlarni yanada jonlantirdi.

Turkman etnogenezi o'rganish borasida V. V. Radlov, V. V. Bartoldlar ham shug'ullandi. Tadqiqotchilar "turkman" nomi X asrdan arab adabiyotida eslatilgani, ushbu atama "to-ku-mong" nomi bilan xitoylarning VII asr "Tun-Dyan" ensiklopediyasida keltirilganligini qayd etgan edi. Ular qadimgi Urxun yozuvlarini o'rganishi natijasida o'rtta

asrlarning boshlarida O'rtta Osiyoga ko'chib kelgan Markaziy Osiyolik qabilalarni o'g'uzlar deb atagan, degan xulosaga kelgan.

O'g'uz va turkman etnogenezi muammolari bilan A. Yu. Yakubovskiy ham shug'ullangan edi. U turkmanlar etnogenezi uchinchi qismdan, ya'ni qadimgi forsiyazon aholi, efitaliy-turk qabilalari va o'g'uz qabilalaridan iborat, deb hisoblagan edi. Mazkur mavzuga B. P. Tolstov "Yyryt Ochr'e va Kozoficton xalqlari" to'plamida alohida to'xtalib, o'g'uzlarni O'rtta Osiyo tab'iahohisi, deb hisoblagan edi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turkmanlar etnografiyasi bilan mahalliy olimlar ham shug'ullana boshladi. Chumonchi, bu borada V. I. Karov, A. A. Roslyakov va S. G. Og'ajonovlarning ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi.



Turkmanlar etnogenezi mahalliy dax-massaget, shuningdek, sarmat va alan qabilalari, qisman qadimgi Marg'iyo, Parfiya va Xorazm qabilalari aholisi qatnashgan. I ming yillik o'rtalarida Kaspiybo'yida turkiy qabilalar va IX asrlardagi o'g'uzlar turkmanlarning etnogenezida muhim rol o'ynagan. O'g'uzlarning asosiy guruhini XI asrdan shimoliy-sharqdan kelib, mahalliy aholi bilan aralashib ketgan.

XI asrda saljuqiy qabilalari turkmanlar yashaydigan hududlarga kelib boshlaydi. O'g'uz, alan va qipchoq qabilalarining qisman xorazmliklar bilan qo'shilishi natijasida yangi g'avmlar paydo bo'ladi. Demak, "turkman" nomi dastlab X asr oxirlarida paydo bo'lgan.

XIV–XV asrlarda Kaspiy dengizi atroflari, Mang'ishloq yamini oroli, Sarqanish ko'li, Qoraqum, Xorazmning g'arbiy va shimoliy chegaralarigacha bo'lgan hududlarda turkmanlar joylashgan edi. Ular asosan, yetti qavmdan iborat bo'lgan: *teke, yomut (yovut), ersari, sarig, chovdur, go'kian, salir* va boshqalar. Ko'pincha ushbu urug' qabilalar birlariga qo'shilib ketib, qadimgi o'z nomlarini unutgan, natijada yangi urug' qabilalari paydo bo'lgan.

Turkman xalqining shakllanish jarayoni mo'g'ullar istilosidan keyingi davr (XV asr)da tugaydi. XV asrga kelib turkman xalqining shakllanish davri nihoyasiga yetgan. Ushbu davrda turkmanlarga ayrim o'g'uz bo'lmagan turkiy qabilalar, shu jumladan, qisman qipchoqlar ham kelib qo'shilgan. Turkmanlarda qabila-urug'larga ajratish saqlanib qolgan. Ulardan eng yiriklari *tekelar, yomut (yovut)lar, ersari, salirlar, sariglar, go'kian* va *chavdirilar* hisoblanadi.

Teke – turkman urug'laridan biri bo'lib, XVII–XVIII asrlarning birinchi yarmida Bolxon tog'i vodiysi, Xorazm va Amudaryo bo'ylarida yashagan va ularning katta bir qismi Tajik vohasini egallagan edi. Tekelarning asosiy qismi XVIII asr oxiri – XIX asrning boshlarida Axaltaka va Murg'ob vodiylariga ko'chib o'tgan edi.

Tekelar ikki guruh otamish (beg, anouli va vekil) nomli yirik urug'larga) va to'xtamishga bo'lingan. 1897-yilda tekelerdan Murg'ob vohasida 20000 ta, Tajik va Qashqad 7000 ta, Axalda esa 9000 ta xo'jalik mavjud bo'lgan. Tekelar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. XIX asrning boshlarida tekelar boshqa turkman qabilalari bilan aralashib, turkman xalqi tarkibiga singib ketgan.

XVIII – XIX asrlargacha turkmanlar yuqorida ta'kidlanganidek, yetti yirik qavmga bo'linishni saqlab qolgan edi. Ushbu toifa o'z navbatida to'rt elga bo'lingan: *gara, bekovul, ulug'depe* va *gunesli*.

Gara qavmi chekich, quraysh, islom, boy, uga, tagan, mamish, yabanlar.

Bekovul qavmi lambe, sarli yerli ushaqom, tog'a'chi, kulak;

Ulug'depe qavmi garama, surxi, surx, chatroq, oqteri, aji esenmengli, giziloyoq, etbosh, denaji, chakir, gabasogol, sulaymon, omur, gizlija.

Gunesli qavmi gurama gunesh ellaridan iborat.

Teke elini ikki nasl – nasab avlodlari tashkil etgan: otamish to'xtamish.

Otamish avlodi sichmaz handa bag'shi avlodlaridan iborat. Sichmaz avlodi sichmazning o'zi bilan uch urug' qavmlaridan, bag'shi avlodi esa bag'shi, dashayog, bo'rkun, sultoniz qavmlaridan tashkil topgan. To'xtamish nasl – nasabini beg va beki avlodlari tuzgan bo'lib, beg avlodi, gongur, omonsha – gulkche qavmlariga, beki avlodi esa ganjiyusur, yasi – yusuif, gagsual, arig – garaj, gofa va b. sh. qavmlariga ajraladi.

Teke eliga muvovur avlodi ham kiradi.

Yovmut (yovmut) eli: ham ikki nasl – nasabga bo'linadi.

Bayramali nasabi sayak, o'kuz, ursugchi, ushak urug'lariga bo'linadi.

Sarig qabilasi suqti, bayrach, alasha, xerzeki, gazmilmirad, bedeng, gol – bosh urug'laridan.

Chovdur qabilasi igdir, chovdur (gara - chodur), yabdal, bo'zaj, bironchi qavmlaridan tashkil topgan.

Turkmanlarning yana boshqa bir qancha kichik qabila va urug'-qavmlari mavjud bo'lganligi bizga ma'lum: afg'on, arab, gurd, qipchoq, ayvooq, gurey, gazak, galmik, garamugol, tut, gullar va h. k.

XV–XVI asrlarda Turkmanistonning shimoliy tumanlarida chovdur va ularning qarindoshlari bo'lgan abdal va arabli qabilalari yashagan. Ushbu qabilalarning hammasi birga qo'shilib, esen-xoni, ya'ni Hasan di deb yuritilgan. Qolgan urug'-qabilalar san-xoni deb atalgan.

Sarqanish qo'li atroflari va katta Balkanda turkmanlarning teke, salir hamda yovmut qabilalariga qarashli urug'-qavmlar yashagan. Mazkur qabilalar orasida eng nufuzlisi salir qabilasi hisoblangan. Salirlar ichki salir deb ham atalgan bo'lsa, teke, yovmut, sarig urug'larini esa tashqi salirlar nomi bilan yuritilgan.

Yasir (qoradoshli), emreli, nuxurti va qisman bayat urug'larini turkmanistonning janubiy qismida yashagan.

XIX asrning 80-yillarida Turkmaniston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, ular (turkman qabilalarining etnik birlash jarayoni to'xtashgan, ammo qabilaviy bo'linish saqlanib qolgan. Yirik qabilalaridan teke turkmanlari Murg'ob havzasi va Tajik, yovmutlar Kaspiy bo'yleri hamda Xiva xonligida, ersari Amudaryo vodiysida, salirlar, sariglar, go'kian va chovdurlar Xiva xonligida yashagan. Xo'jalik ma'muriy jihatidan turkmanlar ko'chmanchi (chovdur) va o'troq dehqon (teke)larga bo'lingan.

Kulak, turkmanlar Markaziy Osiyoda yashovchi boshqa xalqlarlan uch jihat, yoki milliy kiyimish madaniyati, g'ilamlari va mashhur axaltekni o'zlar bilan boshqalardan farqlangan. Mahalliy aholining fikriga ko'ra,

aynan kiyim-kechaklar, gilamlar va otlar turkman xalqining milliy o'zligining ramzi hisoblangan.

VI.2. An'anaviy xo'jaligi

Turkmaniston aholisi o'ziga xos xo'jalik mashg'ulotlariga ko'ra, oltita tarixiy-madaniy hududga bo'linadi.

Birinchisi – O'ra Amudaryo havzasi. Ushbu hududdagi suv bilan bog'liq vaziyat Turkmanistonning boshqa yerlariga qaraganda nisbatan yaxshiroq. Dastlabki yillardanoq turkmanlar dehqonchilikdan tashqari chorvachilik bilan ham shug'ullana boshlagan. Barcha turkman qabilalari (ersari, solir, bukri, saqar va boyat)ning dehqonchilik bilan shug'ullanganlarining dalili sifatida qadimgi sug'orma dehqonchilik tizimini ta'kidlash mumkin. Dehqonchilik va chorvachilik bilan birga Amudaryo bo'y i turkmanlari pillachilik, tikuvchilik hamda teri oshlarchi bilan shug'ullangan. Turkman dalalarida paxta, kungut, arpa, bug'doy va dukkakli o'simliklar yetishtirishgan.

Ikkinchisi – Xorazm atrofidagi Turkman viloyatini o'z ichiga oladi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, XVII asrdan boshlab turkmanlar yarin o'troq hayot tarziga o'tgan. Xiva xonligi turkmanlari xo'jalikning kompleks turiga ega bo'lgan dehqonchilik-chorvachilik-balig'chilikni o'zida mujassam etgan. Shimoliy Xorazm turkmanlari paxta, bug'doy, arpa, guruh, mosh, qovun, tarvuz hamda tamaki yetishtirgan, ularni xo'jaligining muhim eng muhim tarmog'i pillachilik edi.

Uchinchisi – Murg'ob va Tajan viloyatlari. XIX asrgacha ushbu hududdagi turkmanlarning asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan. XIX asrning oxirida esa asosiy mashg'ulotning turi sug'orma dehqonchilikka aylandi. Murg'ob turkmanlarning hayotida hayvon boqish katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ular qorako'l qo'ylarini boqqan, shuningdek, bu yerda pillachilik ham rivojlangan. Savsan, begrez va serinde kabi shoyi gazlamalariga talab katta bo'lgan.

To'rtinchisi – Tog'oldi Kopetdog' tekisligi, Sumbar va Chandir vohalari kirgan.

Beshinchisi – Janubiy-g'arbiy Turkmaniston va Kaspiy dengizining sharqiy qirg'oqlarini o'z ichiga oladi. Ushbu viloyat dengiz yaqinidagi tufayli aholi asosan, chorvachilikdan ko'ra dehqonchilik va balig'chilik bilan shug'ullangan. Shuningdek, mazkur viloyatning ba'zi hududlarida neft ham qazib olingan. Turkmanlarning bir qismi Kaspiy dengizining sharqiy sohillaridagi neft va tuz konlarida mehnat qilgan. Ularda savdo-sotiq yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ayniqsa, Eron, Buxoro va Xiva xonligi

bilan savdo aloqalari nihoyatda rivojlangan edi. Mari va Turkmanistonning ayrim shahar (qal'a) hamda qishloq (ovu)larida katta bozorlar bo'lgan.

Zamonaviy Turkmaniston sanoatining yetakchi tarmoqlari – neft va gaz qazib chiqarish, energetika, kimyo, mashinasozlik, yengil, oziq-ovqat (yog'moy, vinochilik) va binokorlik materiallari sanoati tashkil qiladi. Hozirgi GRES, Turkmanboshi, Nebitdog', Turkmanobod, Mari va Gurgutdog' da issiqlik elektr stansiyalari barpo etilgan.

Neft qazib chiqarish va uni qayta ishlash Turkmanistonning g'arbiy hududlarida olib boriladi. Cheleken g'arbida dengiz tubidan neft qazib olinadi. Asosiy gaz konlarini Gazo'choq, Naip, Shatlik, Gurgutdog' va boshqalar tashkil etadi. Neftni qayta ishlash tarmog'ida benzin, kerosin, diesel yomilg'isi, mazut, bitum, elektrodi koks, kir yuvish vositalari, kimyo sanoatida natriy sulfat, yod, brom, olingugurt, mineral o'g'it, olingugurt kislotasi, superfosfat va florli alyuminiy ishlash chiqariadi. yengil sanoat paxta, jun, pillani dastlabki qayta ishlash, ip gazlama, jun va ipak gazlama, ularning mahsulotlarini ishlab chiqarish, qorako'l oshlarchi, pillakashlik, tikuvchilik, ko'nehilik hamda poyabzal korxonalardan iborat. Yog'ochsozlik, poligrafiya va shisha sanoati ham muhim tarmoqlar stratisiga kiradi. Asosiy sanoat markazlari Ashxobod, Toshhovuz, Turkmanobod, Aktau, Turkmanboshi, Nebitdog' va Bayramali shaharlari hisoblanadi.

Chinchi – Qoragumning markaziy va janubiy qismlarini o'z ichiga oladi. Bu yerda asosiy mashg'ulot turi chorvachilik bo'lib, asosar, qo'y, echki va tuya boqilgan. Sug'orma dehqonchilikning asosiy turlari paxta va bug'doy yetishtirish hisoblangan.

Chorvachilik. Turkmanlarning aksariyat urug'lari orasida chorvachilik muhim o'rin egallaydi. Chunki, turkman qabilalarining ko'pchiligi chorvador urug'-qavmlar bo'lgani uchun mazkur soha asosiy mashg'ulot vazifasini bajargan. Turkmanlar qisman dehqonchilik bilan shug'ullangan. Chorvachilikda asosan, quyruqli qo'y-qo'zilar boqilgan. Chorvador urug' qabilalari ham aslida ikkiga bo'lingan: chorva va channii (channu).

Chorvachilar uy hayvonlarini yaqin uzoq yaylovlarga olib chiqib, bir yerdan ikkinchi yerga ko'chib yurgan. Channii xalqi esa bir yerda o'tov qurib, o'troq hayot kechirgan. Chorvani qo'lda boqib, ekin ekish bilan kun kechirgan.

Amudaryo qirg'oqlarida yashovchi no'xurl, anauli, murchali va boshqa qabilalari qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. XVI-XVIII asr boshlarida turkmanlarning shimoliy hududlarga ko'chib o'tishi ularning xo'jalik hayotida dehqonchilikning rolini oshirgan, bu esa

turkmanlarni o'troq hayotga o'tishiga olib kelgan. XVIII asrda dehqonchilik chorvachilik bilan birga turkmanlarning asosiy mashg'ulotiga aylangan. Ushbu sohalarining xususiyatlarini tabiiy sharoit, urf-odat va an'analarga chambarchas bog'liq bo'lgan.

Turkmanlar dunyoga o'z otlari bilan, aynigisa, axalteken otlari juda mashhur. Zordor otga "Axaltekin" nomining qo'yilishida ikki so'z asos bo'lgan: Axal (Turkmanistondagi tarixiy viloyat) va teke (turkman qabilasi, Axal hududida yashovchilar). Mutaxassislar ushbu zotning qadimiyligi besh ming yilni tashkil etishini ta'kidlaydi. Turkmanistondagi Axaltekin otlarining soni uch mingdan ortadi va ushbu ot o'zining zordorligi va go'zalligi bilan ajralib turadi. Axaltekin otlari Turkmanistonda o'ziga xos iftixor timsoliga aylangan, davlat ramzlarining markazidan o'tin olgan va qator xorijiy mamlakat rahbarlariga eng oliy hadya sifatida tortiq qilinadi.

Turkmanlar chorvachilik bilan bir qatorda mazkur xo'jalik tarmog'iga bog'liq bo'lgan boshqa kasblar ham rivojlangan. Bularga teri oshlash va jun mahsulotlari, gilamdo'zlik, palos tayyorlash hamda tikuvchilik kirgan.

Har bir urug' chorvani o'ziga tegishli hududda boqgan. Yirik chorvadorlarning qo'lida minglab qo'y-qo'zi va yuzlab tuyalar mavjud bo'lib, ular yana juda ko'p yaylovlar va suv manbalariga egalik qilgan. Kambag'al chorvadorlarga ancha qiyin edi, chunki, ular o'z qudug'i bo'lmaganligi uchun quduq suvidan foydalangan. Buning evaziga ular boyning chorvasini boqib, quduqni tozalab berishi kerak edi. O'zgina chorvaga ega bo'lganlari esa o'z mollarini boyning hayvonlariga qo'shib, o'zi esa uning yerida ishlab berishi kerak edi. Yollama mehnatning gullukchi va xizmatkor shakllari mavjud bo'lgan. Turkmanlarning dengizga yaqin hududlarida yashovchi urug'lari baliqchilik bilan ham shug'ullangan.

Dehqonchilik. Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i dehqonchilik bo'lib, unda paxtachilik asosiy o'rin egallaydi. Vohalar va tog' yon bag'irlarida asosan, ingichka tolali paxta yetishtiriladi. Donli ekinlardan bug'doy, arpa, sholi, oq jo'xori va makkajo'xori, yem-xashak ekinlari, poliz ekinlaridan qovun va tarvuz yetishtiriladi. Bog' va tokzorlar ko'p bo'lib, Atrek daryosi va uning irmoqlari bo'yilarida subtropik ekinzorlar (anor, zaytun, anjir, bodonzorlar) ekilgan.

Azal-azaldan turkmanlar sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan. Bug'doy, jo'xori, arpa, paxta, kunjut, sholi, beda, qovun, tarvuz va qovoq yetishtirilgan, shuningdek, kuzgi bug'doy — g'uyzluk ekilgan. Sabzavotlarni asosan, qadimdan o'troq hayot kechirib kelayotgan

omali, maxinli, murchali, maxtumi va go'kian urug'lari ekan. Uzun yetishtirish va bog'-roglar o'stirish bilan kam shug'ullanilgan. Mehnatining deyarli barcha hududlarida piroz ekilgan.

Yer yog'och omoch va temir uchli azal kunda bilan haydalgan. Hoqil o'troq bilan o'rib olinib, don xirimonda chorva mollari yordamida yemchilgan. Tegirmon, kash-kash va juvozlar qurilgan. Ekinlarni sug'orish uchun hovuzlar qazilgan. Yer go'ng, kul va eski tuproq bilan o'g'itilgan.

Humarmandchilik. Temirchilik, qurolsozlik, zargarlik, ko'nechilik va daradgorlik hunarlari Turkmanistonning hamma joylarida keng tarqalgan. Kosiblar o'z uyi va ovullarda mehnat qilgan.

Ayrim hunar turlari bilan ma'lum ovullar, alohida urug' yoki qabilalar shug'ullanib kelgan. Chunonchi, kulolchilik asosan, Chorjo'y aholidagi humarmandlar orasida keng tarqalgan. No'xurilar, ayrim marvik iskelelar, shuningdek, Hasan ko'li va Kumushtepa humarmandlari o'tovlar uchun zarur qismlar yasash bilan mashhur bo'lgan. Yaz urug'i a'zolari ogir-jabduq, yari-gukchalalar, yog'ochdan idish-tovoq, burkuz urug'i vakillari esa qanchi tayyorlash bilan shug'ullangan.

Xonadonlarda gilamdo'zlik va shoyi to'qish bilan shug'ullanilgan. Humarmandlar orasida zargar va kumushchilar qariyb har bir ovulda bo'lgan.

Gilamdo'zlik. Turkmanlar qadimdan o'z gilamlari bilan dorg tashlagan. Turkman gilamlari Markaziy Osiyodan tashqari bo'lgan hududlarda ko'chmanchi madaniyatining mashhur namunasi hisoblanadi. Turkman xalqining badiiy ijod namunasi gilamlarda aks etganligi uning mehnatligini ta'minlagan.


Gilam ko'chmanchilarning bayramlarida, urushlarda va tinch kunlarda doimiy hamrohi bo'lgan. Sharqda gilamlar qanchalik qimmat bo'lmagan, faqatgina turkman gilami etnik ramz darajasiga ko'tarilgan. Ushbu ranglar va faqat turkmanlarga xos shakllar kishining hayratini uchtiradi. Chunki, aynan turkman gilamlarida qadimiy an'ana, shakl va ranglar asl holida saqlanib qolgan. Xullas, sejjilo va bejirim turkman gilamlaridagi ranglar o'z mazmun-mohiyati ega. Masalan, gilamlardagi qizil rang yo'llarning oq bo'lishiga ishora bo'lsa, yashil rang hayot mazmunini ifoda etadi. Qizil rang esa tomiralarda oqib turgan qon — tiriklik belgidir.

Turkman gilamlari asrlar davomida shakllangan uslubda, hych bir zamonaviy uskunalarisiz to'qilgan, bitta gilam uchun oylab, baxrida esa yillab mehnat qilingan.

Gilam to'qish san'ati turkman ayollarining eng muhim mashg'ulotlaridan biri bo'lgan. Eng yaxshi gilamchilar haqidagi hikoyalarni xalq xotirasida saqlanib qolgan. Gilam to'qish san'ati avlodlardan-avlodlarga, onadan qizga o'tgan. Qizlar gilam to'qishga 5-6 yoshdan o'rgatilgan. Bora bora qizlar ushbu hunarni puxta egallab borgan. Ammo, gilam to'qish hunarmanddan katta jismoniy kuch va sabr hamda tajribani talab qilgan. Shuning uchun qizlar mahorati gilamchi darajasiga faqatgina 25 yoshga to'lgandagina erishgan.

Turkman gilamlariga xos bo'lgan belgilardan yana biri shuki, unda samoviy, mifologik va emik timsollar joy oladi. Ba'zida esa to'shaladigan gilamlarda nishonlar tizimi yoki o'ziga xos qablaviy emblemlar aks etadi. Eng ko'p tarqalgan nishonli kompozitsiya gelifiy bo'lsa, eng qiyim esa darvoza kompozitsiyasidir. Darvoza kompozitsiyasi ko'p komponentli naqshlar va bir qancha arkalaridan iborat. Turkman gilamlari kompozitsiyalarida dekorativ "Ansi" tasvirlarida dunyoning yaratilish tasvirlari o'z ifodasini topgan.

Turkmanlar 30 dan ortiq gilamdo'zlik mahsulotlaridan foydalangan. Ularni 3 guruhga bo'lish mumkin:



Turkmanlar to'qigan tukli gilamlar o'zining tugunlari, ya'ni sochoqlari bilan farq qiladi. Ba'zi tugunlar yakka va uch tomonlana to'qiladi. Turkman gilamdo'zligida har xil to'qish usullari mavjud: solirlarda o'ng tomonlana assimetrik va kuchli depressiyali;

chovidarlarda kuchsiz depressiyali; teknilarda chap tomonlana assimetrik; sarig'larda - simmetrik va boshqalar.

Bu shundan dalolat beradiki, turli qabila-urug'larda to'qish usullari har xil vaqt va joyda paydo bo'lgan (assimetrik to'qimi Eron an'analarini o'zida aks ettirsa, simmetrik esa Kavkaz an'anasini namoyon qiladi).

Gilamlarning har birida ikki mingdan tortib besh mingga, ba'zilarida esa hatto o'n mingtagacha to'qima bo'lishi mumkin. Turkman gilamlari qo'y, tuya va echki junlari, paxta va ipakdan to'qilgan. Odatdagi gilamlar och qizil yoki maymunjon rangiga bo'yalgan.

Transport. Qatnovda asosan, otlardan foydalanilgan, axlatekin va yovmot otlarida yurilgan. Yuklar tuyalarda tashilgan. Turkmanlarda uch xil tuya boqilgan: yakka o'rikachli (arvana), qo'sh o'rikachli (bugra) hamda ulaning chatishtiganlari. Yo'li yaxshi, bir muncha tekis joylarda Xivaning ikki g'ildirakli aravasidan foydalanilgan. Eshak arava, ba'zan esa tuya aravalari ko'p ishlatilgan.

Dengiz yaqinida yashagan turkmanlar kema va novlarda yuk tashilganlar. Uzun va ingichka qayiq (taymun, yek merdem)lar ham ko'p bo'lgan.

VI.3. Moddiy madaniyat

An'anaviy turar-joylar. Turkmanlar qadimda butun umrini deyafti yovlov va o'tovlarda o'tkazgan. O'tov ularning asosiy va eng ko'p tarqalgan yoti hisoblangan.

Turkman o'tovlari ko'rinishidan hamma joyda deyarli bir xil bo'lgan bilan bir-biridan farq qilgan. O'tovni usi va atroftida bog'langan yop - to'qima lenta mintaqaga qarab turli rang va ko'rinishda bo'lgan. Ayrim o'tovlarning usi yotiq, yassiroq, ba'zilar esa cho'qqi ko'rinishda ishlangan. Chunonchi, yovmutilarda o'tovning tepasi va gumbazi boshqa ushbu lamellaga qaraganda pastroq bo'lsa, chovidarlarniki esa baland va uchli qilib ishlangan. O'tovning tashqarisi bilan ichkarisiga damniq, ya'ni bezakdor naqsha bog'lab qo'yilgan.

Turkmanlarda kichik o'tovlar ham bo'lib, ushbu o'tovlarni ular orasida yoki gushdikme (kichkina o'tov) deb ataganlar. Orosalarning panglari - torini bo'lmagan, namat usidan esa palos va gilamlar to'shalgan. Ko'pchilikda kerak bo'ladigan jamiki buyumlarining o'z o'imi va joylashtirish tamoyili bo'lgan. O'tovga kirgan kishi turli joylarga osilgan non, tuz, idish va boshqa so'linadigan xalalar hamda boshqa har xil jun xalitalarni ko'rishi mumkin edi. Kiraverishda o'ng tarafda mis, yog'och va sopol idishlar

hamda sanovlar joylashgan. Ro'parada ko'rpa-yostiqlar, namat, kiyimlar, yon-atrofida bug'doy va un solingan qoplar hamda egar-jaldinlar joylashgan. O'rovning to'rida sandiq va belanchak (sallanchak) turgan.

XIX asrda ayrim urug' vakillari o'zlarini uchun alohida qal'a qura boshlagan. Bunday qal'alar ko'proq teke qavmiga tegishli bo'lgan. Tekelovullari uch-to'rt xalifadan iborat bo'lib, dastur cho'l yerlarda qudduslik atrofida joylashgan.

Hovli qal'a yonida xilma-xil xo'jalik binolari qurilgan: otxona, sevisxona, dueetiqlar (tuyaxona), molxona (qo'yxona), somonxona, ombor va h.k.

Har bir hovli albat, ayvon qurilgan. Ayrim qabulxonalar, chunonchi, Xorazm turkmanlarida quyoshga qaragan-qarshi qilib tirsayvon solingan. O'ziga to'q turkmanlarning hovlilari ichkari va tashqariga bo'lingan. Yovmullar bilan yemeli qavmlariga qarashi hovlilarda xo'jalik va turar-joy binolari hovlining ikki chekkadagi devorlari bo'ylab qurilgan va hovlining o'rasi ochiq holatda bo'lgan. Turkmanlarda chayla – chitum ham qurilib, uning devorlari shoxbuvoq, qamish yoki yog'ochlardan iborat bo'lgan, to'niga es shox-shabba to'shalgan va ustidan loy bilan suvalgan. Keyingi vaqtda xom yoki pishiq g'ishtdan tomi yassi va tekis qilib uy solish odati keng tarqalgan.

Milliy kiyimlar. Turkman erkaklarining kiyimlarida qadimiy urf-odat va an'analar ta'siri deyarli sezilmaydi, ammo xotin-qizlarning milliy kiyimlarida farqlar mavjud. Bundan tashqari, qaysi xalq bilan uzoq vaqt qo'ni-qo'shichilik qilib kelganiga qarab turli turkman qavmlarining kiyimlarida ichki va tashqi ta'sir yaqqol sezilib turadi. Ayniqsa, Kavkaz xalqlari va eroniyalar kuchi ta'sir ko'rsatdi. Xiva turkmanlari kiyim-kechaklarida o'zbek bilan qozoqlarning kiyimish an'analari o'z ifodasini topgan. Sariq turkmanlari Buxoro vohasi aholisi kiyim-kechaklariga o'xshab kiyinadi.

Turkman erkaklarining kiyimlari baloq (ishton), yengil uzun ko'yalak, qavilgan chopon (don)dan iborat bo'lib, boshiga kerim yoki kubanka (tepasi, va eni ensiz) telpak, oyog'iga chorik, cho'ponlar esa yelken kiyadi. Ayollari baloq (uzun ishton), ko'yalak, yengisiz kemzor (kamzul), oldi guldor qavilgan to'n (chabit), boshiga bo'riq, bog'mach, o'ramak xasaba va topon kabi bosh kiyimlari, oyog'iga esa kovush yoki poshnali poyafzal kiyadi.

Erkaklarning ko'yilagi oldin yopasiz tikilgan bo'lsa, endilikda tik yopali ko'yalak kiyish odatiga aylangan. Lekin, turli qavm erkaklari bilan ayollarning kiyim-kechaklari bir-biridan ma'lum darajada yo'q bo'lib, barchasi bir-biridan farqlanadi.

tilidagi yoki tashqi bezagi bilan ajralib turadi. Masalan, erkaklar kiyadigan don, chopon va chakmonlar, garchi tikilish jihatidan hamma yerda bir xil bo'lsa ham, matoning rangi, ko'rinishi hamda nomi bilan farqlanadi. Qadimda to'ning uzun yengilari qo'lni yopib turadigan qilib tikilgan bo'lib, yon tomonlarini kesib, unga cho'ntak o'rnatilgan. To'ning etagi, yopali va cho'ntaklarining chetiga tasma hamda uga tikilgan. To'ning etagi, shivli don, girmizi don va asaroma chopon, ya'ni oqtoy xillari keng tarqalgan edi. Turkmanlarning chakmoni tuya jundan tikilgan bo'lib, mavq kunlari chopon bilan to'n yoki po'stin – ichmek kiyilgan. Dengiz bo'yida yashaydigan yovmullar, ilgari kurt bichim to'n kiyishni yoqtirar edi (dardacha bichimda bo'lgani uchun shunday deb atalgan).

Oyoqlariga chorikdan tashqari cho'qay va chapak (shippak) han kiyib yurganlar. Cho'qay – buzov terisidan uchi qayrilgan va gajakdor qilib tayyorlangan poyafzal bo'lsa, chorik esa yaxlit teridan tikilgan va oq poyava o'rab kiyiladigan oyoq kiyimi hisoblangan.

Taqinchochlar. Turkman ayollari bezak-taqinchochlarni juda yoqtiradi. Shu sababli, ularning quloq, qo'l, bosh va burunlariga xilma-xil taqinchochlarni taqib yurganligini ko'rish mumkin. Kim, qanday bezak taqinchochlarga qarab qat'iyat va qaysi tabaqaga mansub ekanini ajratib olish oson bo'lgan. Bolalarga kumush tanga va munchochlardan yasalgan turli-tarzi taqinchochlar taqib qo'yilgan. Qiz bolalarning bosh kiyimlari taqinchochlardan do'ppi, telpak va qalpoqlar, ayniqsa, chiroyli rangdor qilib bezatilgan bo'lsa, katta yoshdagi o'g'il bolalarning bosh kiyimida hyech qanday bezaklar uchramaydi. Qiz bolalar telpagining chetlariga turli xil shakllar berilib, tepasiga g'upba deb ataladigan bezak o'rnatilgan bo'lsa, ko'ylariga esa tanga, munchoch va nishon osilgan shoda taqilgan.

Turkman ayollari ko'yalak va choponlarining ko'krak qismiga qamsh osib yuradi. Appasini quloq (teshik)li tanga yoki tangasimon ko'ylakda kesilgan kumush parchalardan ipga tizib yasaydilar. Ayollar uchlariga yosiq osib, kokillarini turli xil tanga yoki medalon hamda kaddalar bilan bezatganlar. Qo'llarida bizelik deb ataladigan bilakuzuk, quloqlariga uzun – tulak xalqa, isirg'a, burunlariga esa irebek taqanganlar. Kuchlarda turkman ayollari taqinchochlarida burun xalqalarini kam uchratish mumkin.

Taymullar. Turkmanlar o'zbek va qorag'polchilarga o'xshab, asosan, sut va sut mahsulotlarini ko'p iste'mol qiladi. Ularning churek deb atalgan issiq, ayniqsa, mashhurdir. Shuningdek, jo'xori non, vaq' tig'iz paytlarda esa churek namundan patir non yopiladi.

Turkmanlarda go'shti taomlar ko'p bo'lib, bundaylar sirasiga go'shti churba (sho'rva), gaynatma, dograma sho'rva, govurma, govudoh, palov, shara yoki konab (kabob) kiradi. Turkmanlar go'sht qoqsimi juda yaxshi ko'radi, shuning uchun tuya va qoramol go'shtini ham shu turga tilim-tilim qilib tuzlab, shamolda quritadilar. Qo'y go'shtini ham shu turga tayyorlab, qoringa yoki chala qovurib, idishlarga solib qo'yadilar. Yangi go'sht tugagan vaqtda ana shu govurma go'shti ishlatiladi va gara cho'tha qaynatiladi.

Quyov, jayron, kiyik va kaklik hamda osyotr baliq go'shti ko'p isemol qilinadi.

Ko'k choy, ayrim joylarda esa qora choy ichiladi. Nonushta dasturxoniga qovun qoqi va jiyda albatta qo'yiladi.

Ohaviy marosimlar. Turkmanlarning to'yi avvalo, kelin va quyovning qarindoshlari tomonidan kelishuvidan boshlanadi. Kelishuvdan so'ng kelin va quyovning qarindoshlari tomonidan to'ygacha bo'lgan urf-odatlar bajarilgan. Kelin va quyov qarindoshlari tomonidan to'yga ancha oldin tayyorlangan. Yig'ilish, ya'ni (genesht to'y)da yaqin qarindoshlar, do'stlar va qo'ni-qo'shnilar marosim uchun kerakli buyumlarni kelishib olgan.

Hamqishloqlar to'yga maxsus taklif qilinmagan, jarchi ertalabdan butun o'vul bo'ylab to'yga jar solgan. Qarindoshlar va qo'shni ovulda yashaydiganlarga bir necha kun oldin chopar orqali xabar berilgan. To'y marosimini o'tkazish uchun "onadi kun" ("sexeti gun") belgilanadi. Amudaryoning o'rta ogimida yashaydigan turkmanlarda ushbu kun dushanba hisoblanadi. Xosiyatli oylar sirasiga qurban, barot (murei) va ramazon oylari kirgan. Qayd etish kerakki, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan tumanlarda to'y va boshqa marosimlar (taqvim bilan bog'lanmasdan) kuzda, qishloq ho'jalik ishlari tugagandan keyin o'tkazilgan. Turkmanistonning sharqiy qismida to'yga 9 kun qolganda, quyovning uyiga kelimi ko'chirish (gez geedurnek)ga tayyorgarlik ko'rilgan ("dokuz"), qizning sepi tayyorlangan: kiyimlari, gilam, gilam qop va uy anjomlari.

Marosimning asosiy qismi quyovning xonadonida bo'lib o'tigan. Faqatgina ersarin qabilasida to'y marosimi ham kelin, ham quyovning uyida bir vaqtning o'zida o'tkazilgan, lekin barcha xarajatlar kelin tomonidan qoplangan.

To'y kelining uyida, hamqishloqlari davrasida boshlangan. Quyovning uyida nechta qo'y so'yilsa, kelining uyida ham shuncha qo'y so'yilgan (10 ta qo'y har birida).

Ertalabdan kelining uyiga o'rtloqlari-tengdoshlari kelini kutib qolish uchun to'y qo'shiqlari kuylab ("olenler"), o'yin-kulgi qilingan. Kelining yangalari mazkur qo'shiqlarda quyovning ijobiy va salbiy xarakterini hazil tariqasida kuylaganlar va bunga javoban, quyovning ham jangalari tomonidan javob tariqasida aytishuvlar aytirilgan.

Avvalmarga muvofiq, to'y karvoni kelishida kelinga yangalari taftirlarda kelin opa, tekinlar, yovmutlarda esa yedje deb atalgan) parang tashlaganlar, kelining dugonalari esa ushbu jaryonga xalqni berishga intilganlar. Yangi 3-4 nafar ayolni yordamga chaqirgan, ular kelining o'rtloqlarini chetga chiqarib, kelinga ro'mol va "nakidka" tashlagan. O'zaro tanishtirib, kuzatib bu bilan tugamagan, to'y karvoni kelguncha davom etgan. Kelin va quyovning yangalari to'yning tantanali qismida qatnashishdan iborat, ularning o'zaro bittichi mulogirida ham muhim rol o'ynagan.

To'y karvoni ("temalyak") tekinlarda juda ham joni ko'rinishda bo'lgan tuyalar va ularning ustiga o'tatilgan kelin uchun bezatilgan masofa taqdiravonda bayramona kiyingan ayollar oldinda, yon tomon va ortida oltin qo'riqchilardan iborat bo'lgan. Har bir tuyada ikki yorli taqdiravon ("yan kejebe"), kelin uchun alohida kejebe bo'lib ("dk kejebe"), yonlari turli xil rangdagi duxobalar bilan bezatilgan va taqdiravon bo'yiga esa qo'ng'iroqcha osib qo'yilgan. Kelining qarindoshlari va qishloqdoshlari tuyalarni oldindan tayyorlab qo'yilgan non bilan aytirganlar.

Yo'laron sarqlarida to'y kuni quyovning otasi to'y karvonini kuzatib marosimini uyushtirgan, ushbu marosimda tuya va oti bor edigan kishi qatnashishi mumkin bo'lgan. Bazzan ularning sori to'g'acha yotgan. Sarqlar to'yining alohida xususiyati shundaki, to'y karvonini kuzatib ayollar qatnashmagan. Kelining ovuliga 500 met qolganida qadim kuzatuv davom etgan. Karvoni kelganligi haqida yangalar xabar bergan va ushbu xabarni eshitgan kelining yaqinlari karvoni kutib olish uchun tayyorgarlik ko'rgan. Qizning onasi kelini bezatish uchun ayollar va qo'shni qizlarni chorlagan.

Ertasi qabulalarda esa to'y karvoni kuzatib marosimida erkaklar ham, ayollar ham qatnashgan. Kelin uchun kurashda faqat ayollar qatnashgan, ushbu kurash hazilomuz ko'rinishda bo'lib, kelini egallab olish uchun harakat qilingan. Tekinlarda mazkur kurashda kelining ommasiga boqilib kirib, qo'lidan ushlab, tortishgan. Bunda kelining harakatlari soliqit berishga uringan. Eshikka kirishda gilam solingan, bu yerdan erkaklar kutib turgan, ayollarning uzoq tortishuvidan so'ng kelin olib

chiqilib, g'ilamga o'tqazilgan. Mazkur urf-odatlar janubiy turkmanlarning azaldan mavjud bo'lgan.

Nazorat savollari:

1. Turkman xalqining etnogenezi to'g'risida so'zlab bering?
2. Turkman xalqining shakllanish jarayonida ishtirok etgan etnik komponentlar to'g'risida ma'lumot bering?
3. Turkmanlarning hunarmandchiligi va an'anaviy turar-joylari haqida so'zlab bering?
4. Turkmanlarning chorvachilik xo'jaligi to'g'risida so'zlab bering?
5. Turkmanlarning dehqonchiligi va uni rivojlanish bosqichlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
6. Turkman milliy kiyimlari va taqinchoqlarining o'ziga xos jihatlari nima?
7. Turkmanlarning qo'shini xalqlar bilan o'zaro o'xshash va farqlar jihatlari ko'rsating?

VII BOB. QOZOQ XALQI ETNOLOGIYASI

*

Quyidagi so'z va iboralar: Qozog'iston Respublikasi, qozoqlar, turkmanlar, belgilar, irqiy tip, janubiy Sibir irqi, etnografiya, etnogenezi, sinantrop, katta, o'rta va kichik jizlar, qozoq qartuqlari, qozoq jizligi, ulan, to'ralar, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, turkmanlar, o'rov, sarakel, qimz, taomlar.

VII.1. Qozoq xalqining etnogenezi va etnik tarixi

Qozog'iston Respublikasi (Qazaqstan Respublikasi) – Yevrosiyo mintaqasining markaziy qismida joylashgan davlat bo'lib, g'arbda Kaspiy dengizi bilan tutashgan. yer maydoni 2 mln 724,9 ming. km², kattaligi bo'yicha dunyoda 9-o'ringda turadi. 2020-yil 1-fevraldagi ma'lumotga ko'ra, aholisi 18653500 kishini tashkil qiladi. Shuningdek, qozoqlar asosan, 14 xalqlardan, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston, XXR, Mongoliya va boshqa mamlakatlarda yashaydi. Qozoqlarning umumiy soni 22 mln. dan ortiq. Rasmiy tili – qozoq tili. Aholining asosiy qismi islom dinining sunniylik mazhabiga e'tiqod qiladi.

Quyidagi – Nursulton (Ostona) shahri. Ma'muriy jihatdan 14 viloyat, 17 ta tumen va 87 ta shahardan iborat. Nursulton, Olma-ota va Chimkent Respublikada ma'muriy shaharlar hisoblanadi.

Qozog'istonda 130 dan ziyod millat va elatlar istiqomat qiladi. Turkmanlar, Respublikada rus, ukrain, nemis, o'zbek, tatar, uyg'ur va boshqa xalqlar yashaydi.

Qadim zamonlardan buyon Markaziy Osiyoda o'zbeklar, qirg'izlar, turkmanlar, tojiklar va boshqa xalqlar bilan qo'ni-qo'shni bo'lib yashab kelgan qozoqlar 1920-yillarning o'rtalarigacha ular noto'g'ri talqin qilinib, qirg'iz-qozog' yoki qirg'iz deb atab kelingan.

Aholidan avvalgi I ming yillikda hozirgi Qozog'iston hududida yashagan etnik, urush, alan va qang'uy qabilalari ittifoqlari hamda boshqalar etnogenezi dastlabki qadim hisoblangan. Olimlarning fikricha, turkmanlar avvalgi VIII-IV asrlarda ushbu hududda qadimgi shakl qabilalari bo'lib yurgan. Ular massaget, sarmat, alan, apasiak, angasi, dax va xum qabilalari tarkibida etnik tarkibini ancha boyitgan.

Qozoqlarning qadimgi
ajdodlariga sak, usun va boshqa
qabilalar kirgan.

Milodning boshlarida Orol
dengizidan g'arbda qozoqlar
etnogenezga ta'sir
ko'rsatgan alanlar yashagan.

**Qozoqlarning etnogenezi turli ko'chmanchi qabilalarning uzoq
muddat davomida aralashuvi sharoitida kechgan.**

VI-VII asrlarda mazkur hududda turgash, qarlug-chig'il, yag'mo
va boshqa qabilalar bilan ko'p asrlar davomida yonma-yon yashashi
natijasida qozoqlarning turkiylashishi hamda mahalliy qabilalarning
ko'chmanchilar bilan aralashuv jarayoni sodir bo'lgan.

VI-VII asrlarda Qozog'istonning janubiy-sharqiy qismida yashagan
qabilalar G'arbiy Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan. Ushbu davrda sharqdan
turgash, tele, qarlug va boshqa qabilalar kelib o'rashgan. IX-X asrlarga
kelganda esa hozirgi Qozog'iston yerlariga qarlug, o'g'uz, pecheneg,
qipchoq, kimak va boshqa qabilalar ham joylashgan hamda XI-XII asrlarda
ushbu hududda yashaydigan barcha qabilalarning birlashishiga turki
bo'lgan. XII asrda Qozog'iston hududiga qoraxitoy (kidan)lar bostirib
kirib, ular mahalliy turkiy aholi bilan aralashib ketgan.

XI-XV asrlarda Itishdan Dunaygacha bo'lgan Buyuk yevrosiyo
tekisligi va Qrimdan to Volga bo'yidagi Buyuk Bulg'oriyagacha arab
hamda fors manbalarida "Poloverslar (Qipchoqlar) dalasi" deb atalgan
qipchoqlar ko'chib yurar edi. XVI-XVIII asrlarda turk supretnosi bir
nechta mustaqil etnoslarga bo'linib ketgandan so'ng qudrati qipchoq
urug'ining katta qismi qozoq xalqi tarkibiga kirgan va "Qipchoq cho'li"
yoki "Cho'l" deb hozirgi Qozog'iston hududi tushunila boshlangan
"Cho'l-Qozog'iston" tushunchasi va o'zining ichki mazmun-mohiyatiga
ko'ra "erkin" mahosini beruvchi "qozoq" etnonimi – "qozoq xalqi milliy
g'oyasi" ning asosini tashkil etdi.

XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Qozoq xonligi tashkil topgan va
qozoq xalqining shakllanish jarayoni nihoyasiga yetgan. XVI asr boshlarida
g'arbga qaytib kelgan mahalliy qabilalar Qozoq xonligiga birlashgan
(Shayboniyxon boshchiligidagi ayrim Dashi Qipchoq urug'lari esa

Shayboniyxon boshchiligidagi ayrim Dashi Qipchoq urug'lari esa
jarayoni to'liq yakunlangan).

XV-XVI asrlarda qozoq xalqining tashkil topishi va markazlashgan
hukumatning mustakamlanishi natijasida bevostita qozoq-rus aloqalari
shakllanib ketgan. Rus hukumati o'sha davrdagiqozoq xalqi bilan qiziqib, u
haqida turli ma'lumotlar to'plagan, qaysiki ular Moskva buyruqlarida aks
etgan va podsho devonxonasida saqlanar edi. Masalan, Rus shoh arxivining
1574-1584-yillardagi ro'yxatida "Косим подшо даврларги казак
(qozoqlar) haqida" kitobi va ro'yxati 38-jildida saqlanganligi qayd etilgan.

Yugorlida ta'kidlanganidek, juzlar to'g'risida IX-XVIII asrlar
mudallari umumiy ma'lumotlar uchramaydi. Hatto XIII-XIV va
XV-XVI asrlarning yetuk tarixchilari Rashididdin va Fayzulloh Ibn
bat-tutonlar ham juzlar haqida hech qanday ma'lumot bermaganlar.

Qozoqlarning juzlarga bo'linishi to'g'risidagi dastlabki haqoniy va
sahib ma'lumotlarni 1931-yilda Kichik o'rdaga borgan tarjimon
M. Fokel'ev bergan edi. Uning yozishicha, "Qirg'iz-qaysoq" o'rdasi udi
qasabdan Ulug'uz, Oretayuz va Kichiyuzdan iborat bo'lgan. Aynan shu kabi
shaklani P. I. Richkov va V. Tarshyevlar ham bergan edi. I. Georgi esa
"qirg'izlarni" qachon va qaysi sabab bilan uchta o'rdaga bo'linganligi va
umumiy uchun katta, o'rta va kichik deyilganligini hech kim bilmaydi, – deb
yozgan edi. Uning jiddiy xatosi Katta o'rdani burut (qirg'izlar)lar bilan
mudallatib yuborganligida edi.

Cho'qon Valixonov birinchilardan bo'lib qozoq xalqining ayritiluv
va aloqalariga asoslanib, mazkur masalaga oydinlik kiritishga harakat
qildi. U mo'g'ul ulusi namunasi bo'yicha qozoq juzlarini XV-XVI
asrlarda paydo bo'lgan, degan xulosaga keladi va qozoqlarni burutlar
(qirg'izlar) bilan aralashib yuborgan Ritter hamda Georgilarni qat'iy
tanqid qiladi. Ularining fikrini inkor qilib, "Katta, O'rta va Kichik" –
qirg'iz-qaysoq o'rdalari bitta – "qozoq" xalqi ekanligini takidlaydi.
V. V. Velyaminov-Zernov esa XVI asrda Haqnazarxon o'z davlatini uchta
o'rdaga bo'linganligini qayd etgan edi.

Akademik V. V. Bartold juzlarning bo'linish sababini
qozoq xalqining ba'zi bir hududlarida chorvachilik uchun shart-
sharoitlarning turlicha bo'lganligida deb biladi. U shunday hududlardan
tushuntirib, Semireche (Yetisay) va Sirdaryoning o'rta oqimini, Sarasi
va Sirdaryoning quyi oqimi bo'yilarini ikkinchisi deb, Uralbo'yidan
Aktyubinskacha, ya'ni zamonaviy G'arbiy Qozog'iston yerlarini uchinchi
hudud deb hisoblagan edi.

Qozoq tarixchisi X. Adilgireyevning Mas'udiy va V. V. Radlovning fikriga ko'ra, qozoq juzlarini XII asrdayoq paydo bo'lgan, deb qayd etgan.

"История Казахской ССР" kitobining mualliflari juzlarning paydo bo'lishini XVI asr bilan belgilab, ularni "xo'jalik va geografik jihatdan o'ziga xos hudud sifatida Qozoq xonligi va xalqi paydo bo'lgunga qadar mahalliy etnografik guruhlar yashaydigan qabilaviy ittifoq hudud bo'lganligini ta'kidlaydilar. "Juz" so'zi "qism" yoki "bo'lak" va "tomon" ma'nolarini anglatadi.

Professor S. Omanjov jamoaviy o'zini himoya qilish, qabila ittifoqiga kiruvchi qabilalarning til umumiyligi, juzlarning o'ziga xosligi paydo bo'lgan ma'lum bir tabiiy-geografik sharoitda tug'ilgan etnovoij juzlarning tashkil topishiga sabab bo'lgan, deb hisoblagan edi.

Cho'qon Valixonov birinchilardan bo'lib adabiy manbalarni tahlil qilish asnosida XV-XVI asrlarda juzlarning vujudga kelish davri va sabablarini tushuntirib bergan edi. "Juz" atamasi o'zi "yuzlik" yoki "yuz qabilasi" emas, balki "qism", "bo'lak", "shaxobcha" ma'nolarini anglatadi. "Juzlar"ning ushbu davrda yagona xalqning bir bo'laki sifatida faoliyat yuritishi siyosiy, iqtisodiy, til va madaniy jihatdan umumiylikning ko'p elementlari bilan bog'liq edi, deb ta'kidlaydi.

XIII asrda mo'g'ullar bosqini atafasida qozoqlarning yagona xalq va davlat sifatida shakllanishi uchun qulay sharoit vujudga kelgan edi, ammo bunday bo'lmadi. V. Vostrov o'zining "Родоименной состав и расселение казахов" kitobida mo'g'ul bosqini Qozog'istonning janubida ko'pgina shahar va o'toq aholini vayron qilib, o'lkaning ishlab chiqarish kuchlariga putur yetkazdi, ko'p sonli mahalliy qabilalarni aralashuvi va bir-biridan ajratishga, ularni etnik, iqtisodiy va madaniy aloqalarini yo'qotishga olib keldi, deb ta'kidlagan edi.

XVIII asrning boshlarida Qozoq xonligiga har tomondan ko'p sonli dushmanlar va ular ichidan eng asosiy si, jung'orlar bosqini boshlandi. Gap hamma qabilalarni siqib chiqarish haqida borar edi. 1726-yilda barcha qabila vakillari tomondan Abulxayrxon qozoq xonining bosh qo'mondoni etib, tantanali ravishda e'lon qilindi. 1729-yilda Amikay ostonasidagi hui qiluvchi jangda Abulxayrxonning jung'orlarni tor-nor qilishi natijasida dushmanlar tomondan bosib olingan hududlarni ozod qilish boshlandi. Bunday qiyin g'alabadan keyin juzlar birlashishi kerak edi, lekin qozoq qabilalari o'tirasidagi o'zaro janglar Abulxayrxonning oddiy bo'lmagan va 1731-yil oktyabrdan asta-sekin boshlangan Rossiyaga qo'shib olinishi

to'g'risida taqdimning belgilovchi qat'ori qabul qilingan sharoitda ham davom etdi.

Katta juzning ko'pgina urug'lari qadimdan mavjud bo'lib, kan o'zgarib qabul bo'lgan ko'p asrlar va murakkab tarixga ega edi. Katta juzlarning urug' qabilaviy tarkibi to'g'risidagi haqiqatga yaqin ma'lumotlar rus manbalarida uchraydi. M. Tekelyev qozoqlarning urug'-qabilaviy tarkibi 1748-yilda tuzgan tavsifida shunday deb yozgan edi: "Katta o'rtada 10 ta urug', hammasi o'uy'syun asosiga ega. Botbay o'uy'syun, Kham o'uy'syun, Djanas o'uy'syun, Sikam o'uy'syun, Abdansuvan o'uy'syun, Kham o'uy'syun, Shi o'uy'syun, Chanechli o'uy'syun, Karli o'uy'syun, Chalaer". Katta juz hozirgi sharqiy Qozog'iston hududini egallagan, shimolda janubiy Oltoy, sharqda Jung'oriya bilan chegaradosh bo'lgan.

O'rtta juz zamonaviy Qozog'istonning markaziy qismida joylashgan. U g'arbda Orol dengizi - Iriz y o'nalishi bo'yicha Kichik juz, To'rtg'ay daryosi yo'nalishi bilan Itish daryosining sharqiy basseyni, Oltoy va Tobagatuy tizmalari bilan, janubda esa Sirdaryo va Chuy daryolari, sharqda ko'li vodiylari, shimolda Omsk va Tomsk guberniyalari bilan chegaradosh. O'rtta juz haqidagi to'liq ma'lumotlarni "Сибирские исследования" da uchratish mumkin. Uning hududida qirchoq, ag'in, nayman, kerey va uzoq qabilalari yashagan. Juzlarning janubi - Qoratau, Bograet, shagan va Aytis daryolari vodiylarida O'rtta juz qabilalari bilan ittifoqda qo'ng'iroqlar ham yashar edi. Lekin, XIX asrda Valixon vafotidan keyin qo'ng'iroqlar O'rtta juzdan ajraldilar. O'rtta juzlarning eng katta qabilaviy qatlamini kereyliklarning avlodlari bo'lgan kereylar edi".

Kichik juzlar to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni ham 1748-yilda tayinlangan M. Tekelyev bergan edi. Ushbu juz kuchli alchin urug'idan iborat, o'z mavzida, qorasuyak va bayo'g'liga bo'lmadi. Kichik juz hozirgi g'arbiy Qozog'iston hududini egallab, sharqda O'rtta juz, janubda kerey dengizi, shimolda esa Ural tizmasi bilan chegaradosh bo'lgan.


Qozog'istonning hududi g'arbda Volga daryosi quyi oqimidan sharqda Oltoygacha va shimolda G'arbiy Sibir tekisligidan janubda Tobagatuy tog'lari gacha cho'zilgan. G'arbda Kaspiybo'yi pasttekisligi va kerey istiqbol yotim oroli mavjud; bu yerda dengiz sathidan past botiqqlar mavjud. Qorng'iy o - 132 m) uchraydi. Mang'ishloqdan sharqda Ustyurt platosi (dastlabdagi 340 m gacha) joylashgan. Kaspiybo'yi pasttekisligi shimoliy-sharqda Ural tog'larining janubiy tarmoqlari va Mug'ojar tog'i bilan chegaralangan. Mug'ojar tog'idan shimoliy-sharqda To'rtg'ay platosi ham U janubda Turon pasttekisligi (Qizilqum cho'li)ga tutashib ketadi. Hozir dengizdan shimolda Katta va Kichik Bo'rtsiq qumli cho'llari va

Orolbo'yi Qoraqumi joylashgan. Qozog'istonning markaziy qismini Qozog'iston past tog'lari (Sarioqda) egallagan. Bu yerda Qiziltau (1565 m), Qarqarai (1366 m), Ulug'tov (1133 m) kabi alohida tog' massivlari bor. Qozog'iston past tog'laridan janubda Betpaqdale cho'li, undan janubda Mo'ynun cho'li joylashgan. Betpaqdaladan sharqda katta maydonni egallagan Yetisay hududi mavjud. Qozog'istonning sharqiy va janubiy tarmoqlari, shuningdek, Saura, Tarbag'ay, Jung'oriya Olatovi tizmalari, shimoliy va g'arbiy Tangriog'ning ayrim tizmalari joylashgan.

Qozoqlar, asosan, "Janubiy Sibir" tipiga kiradi (ushbu tip o'ziga ham mongoloid, ham yevropeoid belgilarini oladi). Janubiy Sibir tipi mo'g'ul irqiga mansub, ko'zlar qisq, yuzlari yumaloq, tanasi oq sarq-malla, puchuk burun, panjalari katta, jussalari mayda, bosh chanoq'i braxikefal (dumaloq). Bepoyon dashtliklar, ot-uloq, tuya ularning jonu-dili, erkin, ozod, hayot turmush tarzi bilan suyagi qotgan.

Oltay oilasini turkiy tili guruhining shimoliy-g'arbiy tili (qipchoq) tillari shoxobchasiga qoraqalpog', qirg'iz, tatar, boshqird, qorachoy, baltiq, qo'mik, no'g'oy va qarayim tillari bilan birga qozoq tili ham kiradi.

Qozoq tili bir qancha qadimiy qabilalar hamda boshqa tillar asosida tashkil topgan bo'lib, uchta asosiy shevaga bo'linadi: g'arbiy, shimoliy-sharqiy va janubiy. G'arbiy sheva alshin qabilalar itifoqi tilidan paydo bo'lgan. Shimoliy-sharqiy sheva arg'in, nayman, qiray, qipchoq, qo'ng'ir qabilalarining umumiy tilidan kelib chiqqan. Hozirgi qozoq adabiy tili ana shu shevaga asoslangan. Nihoyat, janubiy sheva uysin, jaloyir, qang'li, dulat va boshqa qabilalar tilidan vujudga kelgan.



Katta (uli) juz qang'li, sara uysun, shanshiqi, asti, oshaqi, dult, jaloyir, sirgeli, shaprashni, abdan (alban), suan, bes, tangbali urug'laridan tashkil topgan bo'lib, dulat bilan jaloyir urug'larini o'z navbatida yana bir qancha kichik urug'larini tashkil etadi. Masalan, jaloyirlar shu-manaq hamda sir – manaq urug' guruhlariga bo'linadi.

– shu-manaqlar andas, mirza, qora kaplan, o'raqti, oq bo'yim, kalpa, sayg'at;

– sir – manaqlar, ariq inim, boyshig'ir, sayrishi, bolg'ali, qayishi urug'laridan iborat.

O'rta juz besh yirik urug'larga bo'linadi: arg'inlar, naymanlar, qipchaqlar, qangratlar va kereylar.

– Qipchaqlar to'ri ayg'ir, to'yigshi, qitaboq, bulung, qora baliq, kule men, tabubuga, ko'p murin, uzun urug'larini birlashtirgan.

– Qo'ng'irto'larga beylar – jandar, orazgeldi, kuljigash bushmar, moqdal, jamanboy, qora kesek jetimaer, qush sansiz urug'lariga bo'lingan

– Kereylar uaq, qora kerey, hamda abai ashamayli kerey urug'lar birlashmasidan tashkil topgan. Qora kereylar murun, boyjigit va to'rt il urug'laridan tuzilgan. Ashamayli kereylari jas taban, merkit, jadiq, jantekoy, teli, shorushi, qasag'as, malqi, sarbas, shubar ayg'ir, kong, sadaq, shuning urug'lariga bo'linadi.

Nihoyat, kichik (kish) juz alim uli, boy uli hamda jeteru urug' guruhlaridan tuzilgan.

– Alim uli guruhiga qora soqqol, qora kesen, kete, to'rt qora, shantekoy, shokir;

– boy uli guruhiga aday, jappas, alasha, boy baqti, masqara berish tashar, yistentemir serkesh, tana, qizil, kurd, shayqlar kerey urug'larini kiradi.

Ushbu juzlarga kiruvchi qabila va urug'larining har qaysisi Qozog'istonning muayyan hududida qadimdan o'rnatilgan bo'lgan.

Ulkam hududga yoyilgan kichik juzga kiruvchi qabila va urug'larining yeri Qozog'istonning g'arbiy qismida joylashgan. Qozoq (ruslar) Rossiya imperiyasi hukmronligi vaqtida ham ana shunday bo'lingan hudud o'z avlod-ajdodlari yerlarida yashab kelgan.

Qozoqlarning qabila va urug'-aymoq bo'lib yashash odati uzoq tarixda davom etgan. Qozoqlar orasida to'ralar alohida o'rin tutgan. Ular o'z ajdodlari Chingizxon shajarasiga borib taqaladi, deb hisoblanadi, shuning uchun ular o'zlarini oq suyak (oq suyak)lar deb ataydilar.

Bo'larlarning avlod-ajdodlari harbiy sarkarda va lashkarboshi sifatidagi bo'linishidan tashkil topadi.

Urug' oqsoqol boshliqlaridan biy (yoki bek)lar o'sib chiqadi. Bazi biylar o'z urug' chegarasida mutlaqo mustaqil bo'lgan, hatto xon va xonlarga ham bo'yunmagan. Oq suyaklar qatoriga hoji, xo'jalar ham kiradi.

Har bir ko'chmanchi qozoq ma'lum urug' yoki urug' to'rtburcha bo'yusishdan tashqari, ma'lum bir jamoa a'zosi ham hisoblangan. Ana shu jamoadan ajralgan holda mustaqil ko'chib yura olmag'an.

Ko'chmanchi dehqonlar o'ra hoi - dautletti sharna, kam qovvat o'ra xo'jaliklar kungenshti sharna hamda kanbag'al kedey sharna guruhlariga bo'lingan. Shuningdek, qozoqlar orasida qullar ham yashagan.

Qozoq qartuqlar. Qartuq bodun ("Qartuqar xalqi") yoki "uch qartuq" ("qartuqlarning uch qabilasi") – qadimiy turk yozma manbalarida, janubda Mo'g'ul Oltoyidan Baxash ko'ligacha va shimolda Tarbagatay tizmasigacha bo'lgan hududni egallagan ko'chmanchi qabilalarning kuchli uyushmasi shunday atalgan. Qartuq birlashmasi tarkibiga uchta yirik qabila: bo'lak, chigil va toshliq kirgan, ammo qartuq ittifoqining ilk bosqichidayoq hududiy va siyosiy tarqoqlik ko'zga tashlangan. Qartuqlarning VI asr ikkinchi yarmi – VII asr boshlarida Toxariston hududidagi qismining boshlig'i jabg'u unvoniga sazovor bo'lib, avval G'arbiy turk, so'ngra Turgash xoqonlariga qaram edi. Ushbu qartuq guruhlar arab bosqinchilariga qarshi kurashda muhim rol o'ynagan. Qartuqlarning boshqa qismi Uzoq Sharqda, ya'ni Mo'g'ul dasturlarida istiqomat qilarg' edi.

XV asr oxirida Yetisuvda Qozoq xonligi tashkil topgan bo'lsa, XVI asr boshlarida esa qozoq elatining uzoq davom etgan shakllanish jarayoni nihoyasiga yetdi. Qosimxon davri (1511–1523)da Qozoq xonligi mustaklanib, chegaralari kengaydi, aholi soni esa ortib bordi.

XVI asr o'rtalarida No'g'oy O'rdasi, keyinroq Mo'g'uliston va Sibir xonliklari parchalanib ketdi. Qozoq xonligi juzlarga bo'linib, Katta juz (Yetisuv), O'ra juz (Markaziy Qozog'iston) va Kichik juz (G'arbiy Qozog'iston) deb atala boshladi. XVII asrda juzlar hududlarida mustaqil xonliklar vujudga keldi. XVIII asr boshlarida qozoq juzlariga Jung'oriyga xonligi xavf solib turdi (1729-yilda Jung'orlar Katta juzning talaygina yerlarini bosib oldi). 1726-yilda Abulxayrxon Kichik juz oqsog'ollar nomidan Rossiya podshosiga fuqarolikka olishni iltimos qilib, murojaat qildi. 1731-yilda Kichik juz Rossiya tarkibiga kirdi. 1731–1740-yillarda kelganda esa O'ra juzning ayrim xon va sultonlari Rossiya fuqaroligini qabul qildi.

XVIII asr o'rtalarida qozoq sultonlari orasida nizo kuchayib, pirovardida Abulxayrxon o'ldirildi (1748). Uning o'g'li Nurali Kichik juz xoni bo'lib, podsho mamluriyatiga tayandi va o'z hokimiyatini O'ra juzning bir qismi, shuningdek, Xiva xonligi hududiga yoyishga urindi, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Jung'orlarning Xitoydan

ming'ubiyatga uchrashi (1758) natijasida hududning katta qismi Jung'orlar hokimiyati ostida bo'lgan Katta juzda manchiurlar hukmronligi o'rnatilishi saffi paydo bo'ldi. Qozog'istonning janubiy hududlari, jumladan, Chirchik Qo'qon xonligi tomonidan bosib olindi.

XIX asr boshlarida O'ra Juz xonlari Buke (1815) va Vali (1819) valofidan so'ng podsho hukumati xon hokimiyatini tugatib, 1822-yildan yanqicha boshqarish tizimini joriy etdi. 1824-yilda Kichik juzda ham xon hokimiyati tugatildi; urug' oqsog'ollari hokimiyatini cheklaydigan hududiy boshqaruvga o'tildi. Dastl yerlarning janubiy hududlari Qo'qon va Xiva xonliklari tarkibida qoldi. 1853-yilda Orenburg va Samara general-gubernatori V. A. Perovski Qo'qon xonligiga qarashli Oqmasjid qal'asini ichg'ol qilib, uni tayanch punktiga aylantirdi. 1854-yilda Verniy istehkoni (hozirgi Olmaota shahri) qurildi.

Rossiya imperiyasining tashiri kuchayib borayotganligidan xavflangan Qo'qon xoni Xudoyorxon 1860-yilning kuzida ruslarning Verniy istehkoni bosib olish uchun yuborgan 20 ming nafar askar ming'ubiyatga uchraydi. Natijada Yetisuvning barcha qismi Rossiyaga qo'shib olindi va XIX asrning 60-yillarida qozoq yerlarning Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olinishi nihoyasiga yetdi.

1917-noyabr – 1918-yil fevralda Qozog'istonda sovet hokimiyati o'rnatildi va 1918-yil aprelda Turkiston ASSR tarkibiga kiritildi. 1926-yil 16 avgustda RSFSR tarkibida Qirg'iziston (Qozog'iston) ASSR tuzildi. 1920-yil 4–12-oktyabrda Orenburgda bo'lib o'tgan Qozog'iston sovetlarining tashis sezida RSFSR tarkibida Qozog'iston ASSR tuzilganini e'lon qilindi. 1936-yilda Qozog'iston ASSR SSSR tarkibida ittifoqdosh respublikaga aylantirildi. 1991-yil 16-dekabrda Respublika Oliy Kengashi davlat mustaqilligi to'g'risida qonun qabul qildi.

VII.2. An'anaviy xo'jalik

Qozoq xalqining asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan, faqat janub (Sirdaryo bo'yari)da ba'zi vohalar aholisi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan. Asrlar mobaynida qozoqlarda asosan, qoramol, yilq, qo'y va tuya boqilgan. Cho'ponlar doimiy ravishda qo'y-qo'zilarini ko'paytirish va naslini yaxshilash bilan shug'ullangan. Qo'yning jumi va terisi ikki hamda tashqi savdoda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Xo'jalikning ikkinchi muhim tarmog'i yilqichilik edi. Ot, bir vaqti o'zida ham tengi yo'q dasyor, transport vositasi, ham qimiz manba, qo'choq, qazi-qartasi esa sevimli taom hisoblangan.

Qozog'istonning janubiy, markaziy va g'arbiy cho'l hamda chuda cho'l hududlarida, ayniqsa, tuyachilik keng rivojlangan. Asosan, bu o'rkachi (nor tuyalar bilan qo'sh o'rkachi (ayir urkest) tuyalar boqilgan. Nor tuyalar nisbatan baquvvat va chidamli bo'lganligi sababli ularni boqishga nisbatan ko'proq e'tibor berilgan. Tuya yaxshi yuk tashish vositasi bo'lishi bilan birga, uning jumi juda qimmat turgan, tuya sutidan shubat deb ataladigan to'yimli ichimlik tayyorlangan.

Qozoqlar xo'jaligida qoramol juda kam bo'lgan, faqat keyinchalik qoramol saqlash va boqishga katta e'tibor berilgan.

Dehqonchilik. Dehqonchilik qozoqlar uchun ikkinchi darajali ish, deb hisoblanib kelingan. Lekin, Qozog'istonning ayrim hududlari, chunonchi, Yettisay, Qora tovon bag'irlari, Chuy, Talas va Sirdaryo sohillari bo'ylab Irish daryosining yuqori ogirni atrofi, Markaziy Qozog'istonning ayrim yerlari, jumladan, Qarg'ali tumanida yashaydigan aholi qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan.

Dehqonchilik bilan asosan, mol-holidan ayrilgan, kambag'al bo'lgan qozoqlar shug'ullangan. Ular sug'orma dehqonchilikni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan keyingina asta-sekin o'zlashtirib boshlagan.

yetshtirilgan hosil pichiq va o'roqlar bilan, ba'zan esa g'alla boshloqlari qo'lda supurib, yig'ishtirib olingan. Kirman (xirmon) ot yoki ho'kizlar yordamida yanchilgan. Donni kuraklar bilan sovurib, qoplariga yuklangan.

Qozoqlar ovchilik va baliqchilik bilan ham qisman shug'ullangan. Ko'proq tulki ovlashgan, chunki tulki terisidan bosh kiyim tikilgan. Savdo-so'iq olib borilgan. Juda qadim zamonlardan Qozog'iston hududida sayib ovlangan. Buning uchun qator qilib, qopqon ichiga qanab, ba'zan esa ot bilan quvib, charchagan hayvoni so'yil bilan unib ovlaganlar.

Baliqchilik bilan asosan, daryo va ko'llar atrofidan yashaydigan aholi shug'ullangan.

VII.3. Moddiy va ma'naviy-madaniy hayot

Qozoqlar kundalik hayotidagi juda ko'p buyumlarni o'z xonadonlarida tayyorlagan. Chorvador xonadonlar azolari asosan, qo'y va tuya jumidan turli xil materiallar, xususan, namat va kigiz tayyorlash bilan butun bir oila shug'ullangan.

Uy hayvonlarining terisidan ko'n tayyorlash juda qadimdan keng tarqalgan. Qoramol, echki, ot va tuya terisidan poyafzal, har xil chamm idish va kiyim-kechaklar tikilgan.

Yog'ochsozlik hunarini deyarli har bir xonadon yaxshi bilgan. Ushbu hunar ko'proq o'rmonlarga boy shimoliy va sharqiy tumanlarda keng tarqalgan. Maxsus uyshi, ya'ni uy o'tovlari va egarchilar han ko'pchilikni tashkil etgan. Shuningdek, temirchilik ham rivojlangan.

Turur-joylar. Qozoq oilalari asosan, o'tov (kigiz uy)larda yashagan. Ularning o'tovi Markaziy Osiyodagi boshqa chorvador etnoslar, ya'ni qirg'iz, turkman va qoraqalpog' o'tovlaridan deyarli farq qilmagan. O'tovlar Qozog'istonning turli hududlarida bir-biridan uski bezagi bilan farqlangan. Qozog'istonning janubiy hududlarida ilgari Katta Juz urug'lari yashaydigan qismida o'tov balandroq, shimoliy cho'l yerlarida esa pastroq va kengroq ko'rinishda qurilgan.

Hoylarning o'tovi keng va balandligi, ustiga qimmatbaho namat - kigiz yopilganligi bezagi bilan ajralib turgan. O'tovlardan tashqari omont uyalar ham bo'lgan: ko'rk (chayla), jappa va qo's. Kambag'al ahdi qanachidan o'tovsimon qilib qurilgan yerto'la (kazba) va chim uylarda yashagan.

XVIII asr oxiri - XIX asr boshlariga kelib qozoqlarning bir qismi o'tov hayot tarziga o'ta boshlagan, natijada doimiy va muqim yashaydigan uyalar paydo bo'la boshlagan. Zamonaviy qozoqlar asosan, katta aholilarda, o'ziga zos me'morchilik uslubida qurilgan uylarda yashaydi.

Kiyim-kechaklar. Qadimda qozoq oilalari o'zlar uchun zarur kiyimlarni xonadonning o'zida qo'lda tikkanlar. Yupqa namat - kigiz, teri va chamm kiyim tikish uchun zarur materiallar hisoblangan, lekin Markaziy Osiyoning qo'shni etnoslaridan olib kelinadigan chit va shoyi materiallardan ham foydalanilgan.

Kiyim-kechaklar ko'chmanchi hayot tarziga moslab tikilgan. Kechaklarning kiyimi ko'ylak, ishton, beshmet, chopon, temak (jun qalpog'i, do'ppi, kumus, belidik, kamar, etik va paypoqdan, ayollarning kiyimi esa to'rt oq (qizlar kiyadigan bosh kiyim), saukel (yosh juvonlarning bosh kiyimi), kemshok (ayollar bosh kiyimi), ko'ylak, shapan, yengsiz kamzol va boshlaridan iborat bo'lgan. Qish kunlari qo'y terisi, ba'zan tulki va bo'y mo'yasidan tikilgan uzun po'stin, shuningdek, chaknon (shekpen) han tikilgan.

Qizlar sochlarini mayda qilib o'rib, kokil uchlarini ikkita qilib tashlagan. Ayrim ovullarda qozoq ayollari shop kiyib, ya'ni sochlarini maxsus sochiqqa solib yurgan.

Tug'unchoqlar. Qozoq ayollari asosan, boshlariga xilma-xil bezak va tug'unchoqlar taqishni ko'rgan. Qizlar kokillarga tanga va kumush bezaklar tikilgan lentalar o'ragan bo'lsa, ayrim joylarda, masalan,

G'arbiy Qozog'iston hududlarida bosh kiyimga biron-bir bezak qo'llash odat bo'lgan. Quloqlariga turli xil ziraklar, bo'yinlariga esa bilakuzuk va turli taqinchuqlar taqish keng tarqalgan.

Taomlar. Ko'chmanchi qozoqlar o'lalari sigir va qo'y sutini soqib olingandan so'ng ichishni yoqtirgan. Darhol sudan qatq iytilib, ayron tayyorlangan. Qozoq xalqining eng sevimli ichimligi qimiz hisoblangan. Ular tuyachilik bilan ham shug'ullangan. Bug'doy unidan bo'g'imoq, qiyiqsha, tandir va jug'a nomlar tayyorlangan.

Qozoqlar, ayniqsa, pishirilgan go'sht (yet) va kulshetay hamisha beshbarmog taomlarini sevizib tanovul qiladi. XIX asr o'rtalaridan boshlab choy ichish keng targala boshlandi. Bo'za ichish qozoqlar ichida azalidan ma'lum bo'lib, uni bug'doy, sul'i va gurchdan tayyorlaganlar. Batiq va parranda go'shti kam ishlatilgan, shuningdek, sabzavot va mevalar ham tanovul qilingan.

Oilaviy munosabatlilar. XIX asrda qozoqlar uchun kichik oila xos bo'lib, u ota-ona va voyaga yetmagan bolalardan tashkil topgan. Mazkur oilada patriarxal munosabatlari qator topgan bo'lib, xotin ustidan eri, kichiklar ustidan kattalar hukmonlik qilardi. Oila boshlig'i – erkak kishi atrofida oilaning barcha a'zolari shariat va odat qoidalariga amal qilib, jipslashib yashar edi. Ushbu qoidalar qozoqlarning oilaviy munosabatlarini tartibga solib turardi. Oilada ayolning o'rni, uning yoshidan qat'iy nazar oila a'zolari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlaridan kelib chiqib, katta farqlangan.

Qizlar oilada erkin yashagan va boy-badavlat oilalarda uy yumushlaridan butunlay ozod qilingan. Oilada farzand tug'ilgunga qadar yosh kelining haq-huquqlari o'ta chegaralangan bo'lib, yangi kelimga pul nazarda qaratilgan. Yosh kelin oiladagi barcha kattalarni buyrug'iga bo'yusinishi shart bo'lib, unga eng og'ir ishlar yuklangan. Yosh kelimga erining oila a'zolari bilan mulogot va munosabatlar, urf-odatlari, taqibni hamda cheklovlar uqtirilib borilgan. Masalan, kuyovning otasiga ro'puva kelib qolishdan qochish, qaynola, er hamda qayin ukalarni nomi bilan atamaslik. Kelin farzad ko'rganidan keyin bir qancha huquqlarga ega bo'lgan, yoshi katta ayollar esa oilaga ancha ta'sir o'tkaza olgan.

VII.4. Qozoq milliy o'yinlari

Bayge (poyga) – 10-100 chaqirim (bir chaqirim – 1000 metr atrofida. Odatda, bir odam ikkinchi kishining chaqiruvini eshitadigan uzunlik olingan) masofada orda bahslashish musobaqasi; alaman-bayge uzoq masofa yugurish bo'yicha tashkillashtiriladigan musobaqa bo'lib,

taxminan 40 kilometr atrofida o'tkazilgan. Kuman-bayge – ikki yoshli otlar poygasi; jorga-jaris – ot poygasi; Kiz kuu (qiz quvlash) – otda qiz quvlash musobaqasi. Bunda yigit qizni quvadi. Agar yigit qizga yetib ololmasa, unda qiz yigitni quvadi va agar yigit yetib ololmasa, unda yigitni qiz uni quvadi qanchi bilan quvadi.

Kokpar – otda, yigitlar o'rtasidagi musobaqa bo'lib, o'yin shartiga ko'ra, chavandoz o'ljani belgilangan masofaga olib borishi shart bo'lgan. Tengri alu – chavandoz tangani otda turgan holda boshqa chavandozlar ichirokida yerdan ko'tarib olish musobaqasi. Sayis – otda tik turib, o'zaro kuch sinashish musobaqasi. Kazaksha kures – qozoq milliy kurashi. Togiz-kumalak – to'qiz to'p musobaqasi. Asiki – ochiq maydonda qo'y oshig'ini o'yash bilan o'zaro bog'liq musobaqa.

Burkut-salu – lochin va burgut bilan ov qilish, tartispak esa otda o'zaro ikki jamoa bo'lib, argon tortish musobaqasi hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Qozoq xalqining shakllanish jarayoni haqida ma'lumot bering?
2. Qozoq xalqining mintaqadagi boshqa etnoslar bilan o'zaro munosabatlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Qozoq xalqining urug'-qabilachilik an'analari va ularga xos xususiyatlarini izohlang?
4. Qozoq xalqining an'anaviy xo'jaligi to'g'risida ma'lumot bering?
5. Bugungi kunda qozoqlarning kundalik turmush tarzi va an'analari haqida qanday o'zgarishlar sodir bo'lmoqda?
6. Qozoq xalqining moddiy madaniyati haqida nimalarni bilasiz?

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar: Qirg'iziston Respublikasi, qirg'izlar, qorag'irg'iz, Tangritog', Issiqko'l, o'tiz o'g'ul, qirchog', qizman, teyt, keseko, kiyim-kechaklar, chorvachilik, humamandchilik, diniy qarashlar, turar-joylar.

VIII.1. Qirg'iz xalqining etnogenezi va etnik tarixi


Markaziy Osiyoning eng qadimgi etnoslaridan biri bo'lgan qirg'izlar Tangritog', Pomir-Oloy, qisman Hindqush tog' tizmalari oralig'ida joylashgan hududlarda yashaydi. Qirg'iziston Respublikasida Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda Respublikada aholisining umumiy soni 6389500 nafarni tashkil etib, shundan 4695640 nafar qirg'izlardir. Shuningdek, qirg'izlar O'zbekiston, Tojikiston, Rossiya Federatsiyasi, shuningdek, Xitoyda ham yashaydi. yer shari bo'yicha taxminan 6 mln. nafar qirg'izlar mavjud. Aksariyati o'z ona tili bo'lgan qirg'izchada so'zlashadi. Ular asosan, islom dinining sunniy mazhabiga e'tiqod qiladi. 1920-yilgacha qirg'izlar "qorag'irg'iz" deb atab kelingan.

Qirg'iziston – Markaziy Osiyoning shimoliy-sharqida joylashgan davlat bo'lib, sharqdan g'arbga tomon Tangritog' va Pomir-Oloy bo'yilab cho'zilgan. Shimolda Qozog'iston, janub va janubiy-sharqda Xitoy, janubiy-g'arbda Tojikiston, g'arbda esa O'zbekiston bilan chegaradosh. Chegaralarining umumiy uzunligi 4500 kmni tashkil etadi. Hududi 198500 ming kv. km bo'lib, uning katta qismini Tangritog' tog'li hududi (yuvqori cho'qqisi – G'alaba 7439 m.) va Xon-Tangri (6995 m) egallaydi. Mamlakatning qariyb 90% hududi dengiz sathidan 1500 m balandlikda joylashgan.

Poytaxti Bishkek shahri bo'lib, 1887-yilda tashkil topgan. Yirik shaharlari: O'sh, Jalolobod, No'in va Qorako'l.

Qirg'izlar tarixiga oid voqea'lar bir necha asrlardan beri Yevropa, Rossiya va Xitoy olimlari e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmog'da. Qirg'izlar tarixini o'rganishga N. F. Miller, V. Shott, V. V. Radlov, V. V. Bartold, S. V. Kiselev, A. N. Bernsham, S. M. Abramzon, R. A. Abdumamopov, A. Baytur va boshqa olimlar katta hissa qo'shgan.

**Qirg'iz xalqi etnogenezi masalasi
mildan avvalgi I asrdan boshlab
tarixchilarni qiziqitira boshlagan.**



XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qirg'izlar etnogenezi masalasiga qiziqish yana qayta tiklanadi. Qirg'izlarning kelib chiqishi haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar F. Miller va E. Fisherlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, ular qirg'izlar jung'orlar tomonidan XVII asrda Yeniseydan hozirgi Qirg'iziston hududiga ko'chirilgan, deb ta'kidlaydi. Ushbu fikrni A. I. Levshin ham qo'llab-quvvatlagan.

Qirg'izlar etnogenezi o'rganishda xitoyshunos olim V. V. Bichurin munosib hissa qo'shgan bo'lib, u o'z ishidagi qirg'izlarning Tangritog' va Sharqiy Turkistonda yashaganlar, deb qayd etgan bo'lsa, A. Artyukhin nazariyasiga ko'ra esa, qirg'izlar *Usun* nomi bilan tanilgan.

V. V. Radlov qirg'izlar mo'g'ul bosqini davrida dastlabki hududlardan siqib chiqarilgan deb yozgan edi va o'z navbatida ushbu fikrni Cho'qon Valixonov hamda O. Qorayev, M. Kojobekovlar ham qo'llagan edi.

Akademik V. V. Bartold qirg'izlarni Tangritog'ga ilk ko'chishlari to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas, deb ta'kidlaydi va u bunday xatolikka kelish uchun xitoy hamda arab manbalariga taylanadi. A. Bernsham esa qirg'izlarni Tangritog'ga ko'chishi sekin-asla sodir

bo'lgan deb qayd etgan bo'lsa, K. Petrov esa ushbu etnos (qirg'iz)ning Tangritog'da mo'g'ullar bosqinidan keyingi davrda uchta etnik komponenti asosida shakllanganligi borasidagi g'oyani ilgari suradi. S. M. Abramzon K. Petrovning fikriga qo'shilmasdan, ayni paytda Tangritog'ga qirg'izlar emas, turkiy qabilalar kelgan edi, degan edi. Yu. Xud'yakov o'zining "История енисейских кыргызов" (Abakan, 2000) asarida qirg'izlarning Tangritog'ga ko'chishi ikki bosqichda bo'lganligini tasdiqlaydi. Ushbu o'lganda, qirg'izlarning etnik tarixiga oid muammo fanda o'z yechimini to'la-to'kis to'rtgan, deb bo'lmaydi.

Qirg'izlarning Yenisey bo'ylarida yashaganliklari to'g'risida qadimgi va o'rta asrlar manbalarida ham ma'lumotlar uchraydi. Hozirgi qirg'iz xalqining etnomadaniy kelib chiqish jarayonini tushinishda ushbu manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Qirg'izlar turkiy tilda so'zlashuvchi qadimiy xalqlardan biri bo'lib, ular to'g'risida ilk bora miloddan oldingi III asr oxirlarida xitoy tilidagi Xan manbalarida eslatiladi. Qirg'izlarning etnik guruhlari ko'pgina turkiy va mo'g'ul tillarida so'zlashuvchi xalqlarning shakllanishiga olib kelgan jarayonlarda ishtirok etgan edi.

"Buyuk davlatchilik" davri qirg'izlarning Sharqiy Turkistonda paydo bo'lishiga olib keldi va ularning G'arbiy Tangritog' tomon siljishlarida muhim bosqich bo'ldi.

Qirg'iz xonliklari yettiso'ya XVIII asr boshlarigacha, ya'ni qirg'izlar jung'orlar tomonidan Jung'oriyaga olib kelingunga qadar mavjud bo'ldi. Jung'orlar xonligi manchurlar tomonidan tor-mor etilgach, qirg'izlarning bir qismi Manchuriyaga ko'chirilgan bo'lsa, bir qismi esa qalamlar bilan birga Volga bo'ylariga qochgan va hozirgi Ural xalqlari tarkibiga kirgan.

Qirg'izlar asosan, mongoloid irqiga mansub. Ma'lumki, mo'g'ul irqiga xos alomatlar: tana terisining sarg'ishligi, qattiq to'g'ri soch, badandagi sochning uncha ko'p bo'lmasiligi, iyagining bo'rtib chiqqanligi, burunning yassiligi (pachog'roqligi), me'yordagi qalinlikda lab hamda mo'g'ul qovoq (epikantus)dan iborat.

Odatda, qirg'izlarning sochi qattiq va to'g'ri, badandagi sochi uncha ko'p emas, yuzi yassi, burni bo'rtib chiqmagan, yuqori qovog'i epikantus (o'g'il va qiz bolalarda) ko'rinishda bo'ladi. Ammo, oltay, tuva va buryat xalqlari bilan solishtirganda, yuqoridagi hamma belgilar qirg'izlarda yanada yaqqolroq namoyon bo'lgan. Shuning uchun qirg'izlar sof mo'g'ul irqiga xos emas.

Yenisey-Itish darvo oralig'i (zamonaviy Tangritog' qirg'izlarning avlodlari yashagan hudud) aholisi yevropeoid irqiga mansub bo'lganligiga

qaratilgan qavatamiz. O'sha paytda mo'g'ul irqiga mansub odamlar ham ko'p bo'yi va Sharqiy Mo'g'ulistonda yashar edi, lekin II-IV asrlarda mo'g'ul irqiga mansub qabilalarning Yenisey va Oltoyga ko'chishi avvalon aholining qiyofasini o'zgarishiga olib keldi.

Mo'g'ul irqiga mansub qabilalarning asta-sekinlik bilan Tangritog'ga qarab siljishi, II ming yillikning birinchi yarmida Tangritog' aholisi qiyofasining o'zgarishiga sabab bo'ldi va pirovardida, zamonaviy qirg'izlarning o'xshab shakllandi. Ushbu o'zgarishlar qirg'izlarning hamdardlari Sibir to'rtiga mansub ekanligi so'z yuritishga asos bo'la oladi.

Qirg'iz tili Oltay tili oilasini turkiy tili guruhining shimoliy-g'arbiy tili qanchasiga mansub. Ushbu tili bilan bir qatorda xalq dialektikasining bitta guruh: shimoliy dialekt guruh va qirg'iz hamda o'zbek tilining o'zaro aloqasi natijasidagi aralash dialektlarning janubiy guruhini mavjud.

Tanqidiy tishunos B. Yunusaliyev til tarixidagi uch davrni ajratib ko'rsatadi: qadimgi davr, ya'ni VII-XII asrlar; o'rta davr - XII-XV asrlarning o'rtalari (Oltay davri deb ham ataladi). Ushbu davrda qirg'iz tilining qipchoq tili bilan o'zaro ta'siri natijasida asta-sekinlik bilan g'arbiy tili ko'rinishiga ega bo'ladi: yangi davr - XV asrning o'rtalari - XVI asr. Ushbu davrdan boshlab qirg'iz tili yagona xalq tili shakllana boshlaydi. Olim qirg'iz tilini zamonaviy Qirg'iziston hududida emas, balki undan shimoliy- sharqda, ya'ni Sharqiy Turkistonda paydo bo'lgan, deb hisoblaydi.

Zamonaviy qirg'iz tilining paydo bo'lishi so'nggi davrga taalluqli, hattoq, milodiy I asrda Yeniseyda yashagan qadimgi qirg'iz qabilalarning tili uning shakllanishida asos bo'lib xizmat qilgan. So'nggi davrlarda qirg'iz tili qipchoq tili bilan assimilyatsiyalashgan, shu bilan birga, boshqa tili va tili guruhlari, xususan, mo'g'ul tili ham uning shakllanishida muhim rol o'ynagan, degan qarashlar ham ilgari surilmoqda. Qirg'iz tili leksik va mo'g'ul elementlari bilan birga arab va eron tillaridan so'zlarning kan o'zlashtirilganligi bilan farqlanadi.

"Qirg'iz" nomi ilk bor geegun shaklida xitoycha "Xanshu" (Xan sulolasini ta'rif) yilnomasida mil. avv. 203-yildagi voygealar bayonida tilga olingan. Qirg'izlarning eng qadimgi ajdodlari gun, shak, usun va dinin qabilalari ittifoqiga boriq taqaladi.

"Qirg'iz" etnonimining kelib chiqishi to'g'risida bir qancha qarashlar mavjud. Jumladan, "qirg'iz" nomi haqida keng tarqalgan qarashlarning birida ushbu atama "qirg' urug'li xalq" degan ma'noni bildiradi, deyiladi. Boshqa bir taxminiga ko'ra, qirg'iz etnonimi "qirgis" - "yengilmas", "qo'rqmas" degan ma'nolarni bildiradi, deb qayd etils, tanqidiy tishunos olim K. Petrovning fikricha, "Qirg'iz" atamas

etimologiyasi qadimgi turk sifat soʻzi "qirigʻ" – "qizil"dan kelib chiqqan "Qirgʻiz" atamasi shu soʻzning koʻplikdagi maʼnosi boʻlib, makon soʻzi xalq yashagan hudud bilan bogʻliq, xalqning nomi esa shu soʻzdan olingan.

Yenisey boʻyidagi Qirgʻun mamlakati ("Qizil mamlakat") nufus avval ming yillikdoyoq mavjud edi. Oʻsha paytda "Qirgʻut" atamasi mavjud boʻlgan, keyinchalik esa "qirgʻiz" atamasiga oʻzgaragan.

Abulgʻoziy Bahoridixonning "Илхасапънъ typъ" asarida qirgʻizlarning kelib chiqishi haqida maʼlumot berilgan boʻlib, ushbu manbada qayd qilinishicha, Oʻgʻuzxonning Qirgʻiz degan nabirasi boʻlgan. Aynan mana shu nabirasidan qirgʻizlar tarqalgan ekan.

Xullas, qirgʻizlarning kelib chiqishi toʻgʻrisida turlicha qarashlar mavjud. Xususan, ularning Yenisey qirgʻizlaridan tarqalganligi biron-bir masala hisoblanadi. Qirgʻizlarning ilk etnik tarixi va qadimgi qabilalarning ittifoqlari (xunlar, dinlilar, saklar va usunlar) bilan bogʻliq. VI-X asrlarda Sayan-Altay va Tangritogʻ etaklarida yashovchi turkiy qabilalar qirgʻizlar yerlariga koʻchib kelib, mahalliy aholi bilan qoʻshilib, Qirgʻiz davlatini tuzadi. Turk xoqonligi va koʻchmanchi davlat uyushmalari davri (VI-X asrlar)da keyinchalik qirgʻizlar tarkibiga kirgan qabilalar Sayan-Altay, Irtishboʻyi va Sharqiy Tangritogʻning turkiy aholisi orasida shakllangan. Hozirgi hududga IX-X asrlarda koʻchib kelgan eroniy tilli, kichik turklashgan mahalliy elatlar hisoblangan qaturlar va oʻgʻuzlar bilan aralashib ketgan. XIII asrgacha Tangritogʻ aholisi irqiy jihatdan yevropeoidlarga mansub edi. Qirgʻizlarning bir qismi IX-XII asrlarda, katta qismi esa oʻrta asrlar davomida gʻarbga koʻchib, Issiqkoʻl atroflari, Yettisuv havzasi, Tangritogʻ yon bagʻirlari, Fargʻona vodiysining togʻoldi mintaqalari va Dashi Qipchoq hududlariga borib joylashgan.

Qirgʻizlarning asosiy qismi Tangritogʻ va Issiqkoʻl oraligʻini makon tutib, bu yerdagi bir nechta turkiy qabilalar bilan birgalikda hozirgi qirgʻiz xalqini tashkil qilgan. Qirgʻiz xalqi tarkibiga, shuningdek, Yettisuv va Movarounnahrning turkiy qabilalari, jumladan, qaturlar hamda uygʻurlar, keyinchalik moʻgʻul qabilalari qoʻshilgan. Ushbu davrda qirgʻizlarning tipi boʻyicha moʻgʻullashuvi va tili boʻyicha turkiylashish jarayonlari nihoyasiga yetgan. XV–XVII asrlarda esa, kelib chiqishi qozoq noʻgʻoylar bilan bogʻliq qabilalar kirib kelgan. Qozoqlarning bir qismi boshqa turkiy xalqlarning etnogenezi singib ketgan. XVI–XVII asrlarda qirgʻizlarga qozoq-noʻgʻoy qabilalari kelib qoʻshilgach, Tangritogʻ qirgʻizlarining etnik jihatdan shakllanish jarayoni nihoyasiga yetgan.

Keyingi ikki asr davomida Jungʻor xalqlari qirgʻizlarni talab keldi. Ular XIX asr boshlarida yarmigacha Qoʻqon xonligiga tobe boʻlgan.

XIX asrning 60–70-yillarga kelib qirgʻiz yerlarining aksariyat qismi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinadi.

QIRGʻIZLARNING ETNOGENEZI MASALASI

Tarixiy manbalarda "qirgʻiz" nomi bilan ikkita etnik jamoa:

Janubiy Sibirda – Yeniseyda

Markaziy Osiyoning sharqiy qismida – Tangritogʻ va Pomir-Oloy togʻlarida

yaʼni qirgʻiz xalqining shakllanishi ikkita hududda kechgan.

Qirgʻizlarning urugʻ-aymoqlari asosan, uchta yirik guruhga boʻlinadi: oʻltiz usul (oʻltiz oʻgʻil) ning oʻng va soʻng qanollari, ichkilik.

Oʻng qanot uch avlodidan iborat: togʻay, adigine va mungush. Eng yirik togʻay avlodi boʻlib, uning tarkibiga sari, bagʻish, bugʻu, solti, minniseyt, soyoq, chekir, cheriq, jedigir, aziq, bagʻish, munguldar, sui, murtin, baarir urugʻlari kiradi.

Boʻl qanot qoʻshchi (qutchu), saruu, mundaiz, jetigen, kitay, basiz, mbeq, choʻngbagʻish urugʻlaridan tashkil topgan.

Ichkilik guruhiga qipchoq, qayman, teyt, keseko, jos kesek, qumrti, baarir, moyga, avgat (avai), toʻylus (doʻylus) urugʻlari birlashgan.

Togʻay guruhini Tangritogʻning asosiy qismida, adigine bilan mungush guruhlari esa Janubiy Qirgʻiziston yerlarida joylashgan. Togʻay guruhining eng yirik qabilasi boʻlgan bugʻular Issiqkoʻlning shimoliy va sharqiy sohillari hamda butun janubiy chegaralaridagi hududlarda yashagan. Chu daryosining janubiy qirgʻoqlari boʻylab Qirgʻiz togʻi tizmasi davrlarida soʻroq qabilasining yerlari boʻlgan.

North daryosining oʻrta oqimi, Dungal va Susamir vodiylari chekir hamda soyoq qabilalariga qarashli yerlar hisoblangan. Fargʻona past tashligining sharqiy qismi, Oloy vodiysi va sharqiy Pomir, shuningdek, Fargʻona hamda Oloy togʻi tizmalari etaklarida adigine bilan mungush hamda ichkilik qabilalari yashagan.

K. Petrovning tabiriga ko'ra, mo'g'ul tili xalqlar orasida *ovun mo'g'ul, bargut, baarin, kereyt, markit, dug'lar, barlos, juloys* va boshqalar qirg'iz xalqining shakllanishida muhim rol o'ynaganlar. Mazkur olim qirg'izlarning shakllanishida mo'g'ullarning muhim o'ri bo'lgan, lekin ularning birlashuvi turkiy tili qabilalari va xalqlar orasida sodir bo'lgan, deb hisoblagan edi. Muallif tomondan qirg'iz xalqining etnik qiyofasi va ularning tarkibiga kirgan turkiy xalqlarning urug'-qabilaviy guruhlari aniqlandi. Qirg'izlarga mo'g'ullar bosqiniga qadar Tangritog'ni egallagan Yenisey-Itirish darvo oralig'i qabila va xalqlari – qipchoq, tokuz-o'g'uz, qarluq hamda og'uz-uyg'urlar eng ko'p ta'sir ko'rsatgan.

Mazkur muallifning fikricha, Tangritog' qirg'izlari xalq sifatida uchta katta mavze asosida shakllangan. Tangritog'ning mahalliy aholisi mo'g'ul bosqiniga qadar mil. avv. I ming yillikda Oltoy-Xangay qabilalarining Tangritog'ga siljishi natijasida shakllangan. Ilk bog ko'chmanchilar milodiy asr arafasida Tangritog'da mahalliy aholini o'ziga singdirib, ularni bo'lib yuborgan edi. Tangritog'da Ashina boshchiligidagi turlar yetakchi rolini egallagan bo'lsa, VII-XII asrlarda esa qarluq va o'g'uz-uyg'ur qabilalari yetakchi rol o'ynagan. Tangritog'ga ko'chib o'tgan barcha qabilalar (ham mo'g'ul, ham turk) qarluq-uyg'urlarning turkiziga singib ketgan edi, lekin xalq sifatida shakllanish jarayonida vaqt-vaqti bilan boshqa turli qabilalarning bostirib kirishi hisobiga uzilishlar sodir bo'ldi. Shunday qilib, XIII asr boshlarida ko'pgina o'g'uz-qarluq qabilalari mo'g'ullar tomondan G'arbiy Tangritog'ga siqib chiqarilgan edi.

Mo'g'ullar qirg'izlarning shakllanishida ikkinchi qatlum hisoblanadi. Ushbu holat qirg'izlarda bugungi kunda mo'g'ul tili, urug', qabilaviy nomlarning saqlanishi bilan tasdiqlanadi (mo'g'ul, baarin, kereit, markit va boshqalar).

Itirish-Yenisey daryolari oralig'ida qimoq-qirg'iz qabilalari hamda ularga yaqin qarindosh bo'lgan sharqiy qipchoq qabilalari uchirib, ya'ni asosiy guruh hisoblanadi. Mazkur guruhning harakatlari XIII asrda mo'g'ullar bosqiniga qadar mavjud mahalliy aholining qoldiqlari va kelgindi mo'g'ullarning siqib chiqarilishi yoki singib ketishiga sabab bo'ldi. Aynan qimoq-qipchoq qabilalari so'nggi ikki massiv asosida xalq sifatida Tangritog' qirg'izlarning qiyofasini belgilab berdi.

K. Petrovning ma'lumot berishicha, qirg'iz xalqining etnik qiyofasini qimoq-qirg'iz qabilalari belgilab bergan, qaysiki, ularni Yenisey qirg'izlarining chekka qabilalari deb, sharti ravishda atashi mumkin.

Chingizxon tomondan ushbu hududlarning bosib olinishi va uning o'g'illariga bo'lib berilishi hamda uluslarning tashkil topishi natijasida

Itirish-Yenisey daryolari oralig'ining sharqiy qismidagi qipchoq-qirg'iz qabilalari alohida mavzega ega bo'ldi. Ular "davlat qabilalari" mavzida bo'lib, hеч kim ularga egalikka davro qilmamas edi. Ushbu qabilalarning Ob daryosining yuqori qismidan Tangritog'ga qarab siljishi o'zida davrldiy oq boshlangan edi. Qirg'iz qabilalari buyuk xonga bo'yamur, uning o'g'illari esa ulus yo'lboshchilari bilan yaqin aloqada ed. Bu muddat o'tgach, Chingizxonning nabirasi Xaydu sharqiy Tangritog'dan Yeniseyga bo'lgan barcha turk-mo'g'ul qabilalari hamda tarkibida qirg'izlar kam bo'lganlarni ham qo'shib, o'zining boshqaruvi ostida birlashtirgan edi.

1340-yilda yangi davlat – Mo'g'uliston paydo bo'ldi, qaysiki, uning etnik tarkibi Tangritog'ning mo'g'ul bosqiniga qadar mahalliy aholi qoldiqlari, mo'g'ul va qipchoq-qirg'iz qabilalaridan iborat edi.

Qirg'izlarning G'arbiy Tangritog'ga barcha tarqalishi dastlab boshqa mo'g'ul-turk aholisi bilan birgalikda kichik guruhlarning ham ko'chishi natijasi bo'y berdi. Ushbu jarayon Amir Temurning siyosiy maydonga kirishi bilan yanada kuchaydi.

XV asrning ikkinchi yarmida Axmadxon boshchiligidagi Qirg'iz sultoni tashkil topdi. Uning tarkibiga Tangritog'da qolgan mo'g'ul-turk qabilalari ham kiradi. Mazkur davlat uzoq faoliyat ko'rsatmasda, muhim toqibalar qipchoq-qirg'iz qabilalarining birlashuvi va ularga mo'g'ul-turk qabilalarining qo'shilishi, ya'ni tarkibi unchalik o'zgarmagan qirg'iz xalqining birlashishiga sabab bo'ldi. Shu tariqa, Tangritog' bo'ylab qipchoq-qirg'iz qabilalarining tarqalishi jarayonida qirg'iz xalqining shakllanishi sodir bo'ldi.

Itirish-Yenisey daryolari oralig'ida juda ko'p qirg'iz, alachin, kubar, qipchoq hamda turkiy va mo'g'ul tili qabilalari yashar edi. Bularning hammasi ham xalq sifatida shakllanmagan bo'lib, ularni "Жеңне народы" ("O'limon xalqlari") deb atashar edi.

Diqqatga sazovor jihati shundaki, ba'zi qabilalar XIII asrda Tangritog'da boshqa qirg'iz qabilalari bilan birga o'z nomlarini saqlab qolgan. Shular qatorida bulgacha va keremuchi qabilalari ichki kichik guruhning yadrosini tashkil etadi. Ayni shu paytda Itirish-Yenisey daryolari oralig'ida qipchoq va oyrat qabilalari qirg'izlar bilan aralashgan holda yashar edi. Oltoy-Xangay tog'oldi aholisi uyg'ur va tokuz-o'g'uz qabilalari qirg'iz xalqi tarixida muhim rol o'ynagan.

Muallif nomalari "Xyryd yul-oram" asarida qimoqlarning yashash joyi to'g'risida XI asrga oid ma'lumotlar uchraydi, aynan undan sharqda qirg'iz qabilalaridan biri, janubda Itirish daryosi, g'arbda qipchoqlarning

bazi qismi, shimolda esa inson yashamaydigan hududlar borligi yoʻqligi Bungga koʻra, Qipchoq hududi qimogʻlar oʻlkasi, uning aholisi qimogʻlarga oʻxshaydi.

Oʻrta asrlarning mashhur tarixchisi Gardiziy qimogʻlarning asosiy qabilalari imi, imek, tatar, boyandar, qipchoq va boshqalar ekanligini taʼkidlagan edi. Qimogʻlar xalq sifatida shakllanmagan edi, ular oʻrta VII asrda tilga olingan qipchoqlar alohida ajralib turar edi. "Qimogʻ" nomi X asr oxiri – XI asr boshlarigacha mavjud boʻlib, shundan soʻng XI asrda qipchoqlar asosiy rol oʻynay boshlagan edi.

K. Petrov qirgʻiz xalq eposi – "Manas" va uning bosh qahramoni nomini qirgʻiz qabilalari yuqori Ob havzasidan olib kelgan. "Manas" eposi faqat oʻng va soʻl qanot qabilalarda keng tarqalgan. Bu faqat Obning yuqoridagi qimogʻ va qimogʻ-qirgʻiz qabilalari qirgʻiz xalqining oʻng hamda soʻl qanot qabilalarining avlodi ekanligi toʻgʻrisida fikrlashga asos boʻladigan Ichki guruh esa Yenisey qirgʻizlari tarkibining asosini tashkil etadi.

K. Petrov Ob daryosining yuqori qismida Oltoy va Yenisey qabilalari madaniyatining oʻzaro aralashuv jarayoni juda keng hududga sodir boʻlgan, deb hisoblaydi. Ethogenezda qimogʻ va Yeniseyboʻyi qirgʻizlari bevosita ishtirok etgan. Bular "chekka" qirgʻizlari, ularning oʻziga xosligi keyinchalik ayran "qirgʻiz" nomining kelib chiqishiga asos boʻlgan edi.

XII asrda Yenisey-Ob daryolari oraligʻida oʻyrat-moʻgʻul, ularning shimolda qirgʻiz-qirgu va "chekka" qirgʻiz-buruntlar yashar edi. K. Petrov Yenisey-Ob daryolari oraligʻi Tangritogʻ qirgʻizlari avlodlarining ilk etnogenez hududi, deb hisoblaydi. Qirgʻizlar etnogenezda qimogʻ va Yenisey qirgʻizlari tarkibidagi qabilalar ham qatnashgan.

Yenisey-Ob daryolari oraligʻidagi mahalliy aholi va kelgindi qabilalarining etnik birlashuv jarayoni I ming yillikning oʻrtalarida sodir boʻlgan edi.

Mazkur davrda qirgʻizlarda patriarxal-urugʻchilik tuzumining yemirilishi roʻy bergan. Qirgʻizlarning hududiy-davlat birlashuvining paydo boʻlishi VI–VII asrlarda qabilalararo jamoalar shakllanishining maʼlum bir darajasini oʻzida aks ettirar edi. Uygʻurlar 748-yilda qirgʻizlar ustidan hukmronligini oʻrnatgan edi. Ushbu jarayonda qirgʻizlar qimogʻ mudlat oʻzlarining davlat birlashmalarini eʼlon qildi, shu bilan birga yagona xalq sifatida namoyon boʻla olmadi. Oʻsha paytda qirgʻizlar birlashmasiga furri (xori, kori), qosim va boshqa qabilalar kirar edi.

XII asrda qimogʻ-qirgʻiz qabilalarining birlashuv jarayoni roʻy berdi. XI–XII-asrlarda ushbu qabilalar jamoalar tomonidan siqib chiqarildi.

Qirgʻizlarning asosiy qismini buxara va charabalar tashkil qilgan toʻlqin oʻgʻlari mol-holga ega boʻlgan kishilar ana shunday nom bilan atalgan. Aholiga biyalar bilan manaplar boshchilik qilgan. Manaplik juda qadimdan mavjud boʻlib, sarbagʻish qabilasidan boʻlgan barcha kishilar ham "manap" deb atalgan (Manap ismi qabila boshligʻi nomidan kelib chiqqan). Manaplar uch guruhga boʻlingan: ogʻa yoki choʻng manap, oʻrta manap hamda chala manap.

Mol-holdan ayrilgan kambagʻallar biy va manaplar xoʻjaligida ishlagan, choʻpon-qoʻychi, jilqichi, jalchi (kumbay ishlovchi mardikoj) atrofida jamlab, kun kechirishga majbur boʻlgan. Shuni taʼkidlash kerakki, bu oʻsha urugʻga oid shajeralarning barchasida "qirgʻiz" etnomini koʻrsatadi.

VIII.2. Qirgʻiz xalqining anʼanaviy xoʻjaligi

Koʻp asrlar davomida qirgʻizlarning asosiy mashgʻuloti chorvachilik boʻlgan. Mahalliy chorvadorlar koʻchmanchi va yarin koʻchmanchi hayot kechirgan. Qirgʻizlar juda qadimdan ardoqlab va eʼtibor bilan kelayotgan chorvachilik tarmogʻi mintaqaning janubida keng tarqalgan. Shuningdek, ular qoʻsh oʻrkaqli tuyra urchigan, ushbu kasbi oʻzlarining togʻli hududlarida rivojlangan edi.

Qirgʻizlar moʻgʻul zotli otlarni boqqan, eshak va xachir kabi uy hayvonlaridan ham keng foydalangan va Qirgʻizistonning barcha hududlarida tarqalgan. Har bir urugʻ-aymoq va qabila chorvadorlari mol-holdan oʻzlariga ajratilgan yerlarda boqqan. Qoʻy-qoʻzi va yilqilar oʻls yerlaridagi otlalarda parvarish qilingan.

Dehqonchilik. Qirgʻizlarda dehqonchilik Farqʻona pasttekisligi va uning atroflaridagi yerlarda olib borilgan. Issiqkoʻl, Chuy hamda Talas vodiylari, shuningdek, boshqa hududlarda ham dehqonchilik bilan shugʻullanib kelgan. Qolgan mintaqalarda dehqonchilik yaxshi rivojlanmagan, asosan, sugʻorma dehqonchilik qilingan. Arq, nov va toʻq soʻnlar quritib, suv keltirilgan, lalmikor yerlardan ham dehqonchilikda foydalanilgan.

yerlar burgun va isfar (omoch) bilan haydalgan. Urugʻ qoʻlida ishlagan va uni qalpogʻ (telpak), toʻnning etagi va chelak toʻrvaga solinganlar. Ular yurib urugʻ sepirish usulidan ham foydalanilgan va yemi shoxmoh bilan tekshirilgan. Hosilni oʻroq va mangal bilan oʻrni, yigʻib olingan

g'alla mola bilan yanchilgan. Avvalo, panshaxa, ya'ni beshlik, so'ngi kuraklar bilan sovurilgan.

Dehqonchilikda paxta, bug'doy, arpa, tariq, makkajo'xori, jo'xori, sholi, beda va poliz ekinlari yetishtirilgan. Mamlakatning shimoliy tumanlarida asosan, bug'doy, arpa va tariq, ayrim joylarda esa qisman moli ham ekilgan.

Shimoliy Qirg'izistondagi muqim yashash sharoitining vujudga kelishi va uning rivojida mahalliy handa ko'chmanchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar muhim rol o'ynagan. Farg'ona vodiysidagi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi joylashgan maydonlar yaxlit hisoblanib, yagona davlat boshqaruviga ega bo'lgan.

Arxeologik tadqiqotlar tufayli ilk o'rta asrlardagi hozirgi Shimoliy Qirg'iziston shahar va qishloqlarining tashkil topishi xususida bugungi kungacha saqlanib qolgan ma'lumotlar to'planagan. Yozma manbalar bilan birgalikda ular, o'timish to'g'risida muayyan ma'lumotga ega bo'lishni ta'minlaydi.

I-II asrlarda mintaqada dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullangan bir qator vohalar vujudga kelgan bo'lsa, VI-IX asrlarda esa qishloq xo'jaligidan hunarmandchilik, shahardan qishloqning ajralib chiqish jarayoni nihoyasiga yetmagan edi. Shimoliy Qirg'izistonda janubdagidek aholining qishloq joylarida muqim turib qolishi uchun sharoitlar yetarli bo'lmagan.

Yirik aholi manzilgohlari yaqinida himoya istehkomlari, turar-joylar oralig'ida esa karvonsaroylar mavjud bo'lgan. Eng katta istehkomlar hozirgi Qirg'izistonning O'latog' qoyalaridan boshlanadigan Chuy daryosining so'l qirg'og'idagi daralarga kirish qismida qurilgan edi. Mazkur himoya istehkomlari tog'dan keladigan dushman yo'liga g'ov bo'lishi bilan birga, daryo suvi bilan sug'oriladigan yerlarni muhofaza qilish vazifasini ham bajarar edi.

X-XII asrlarda Markaziy Osiyoda ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi kuzatilgan edi. Ushbu davrda mazkur hudud hayotida muhim o'rin tutgan yirik hunarmandchilik va savdo markazlari rivojlangan. Ammo, qishloq xo'jaligi, XIII asrgacha, ya'ni mo'g'ullar tomonidan hozirgi Shimoliy Qirg'izistonning muqim yashovchi qishloq aholisiga qashqarqch zarba berganga qadar, h'ye'ch qanday o'zgarishsiz qolib ketgan edi.

Ovchilik. Qirg'izlarda qadimdan ovchilik rivojlanib kelgan. Ov qushlari, miltiq yordamida, shuningdek, qopqon qo'yish orqali ov qilingan. Asosan, tog' echklari, bug'u, ayiq, bo'ri va tulki ovlangan.

Tog'-to'shlarda bemalol yurish uchun turli xil moslamalar: tog' miltiq, jappaq va temir chukalardan foydalanilgan. Qirg'iz ovchilari ov jarayonida to'q, burgut, lochin va qirg'yilardan keng foydalanagan.

XIX asrning oxiridan boshlab qirg'izlarning kundalik hayotida baliqchilik muhim rol o'ynay boshlagan. Suv havzalari yaqin yerlarda ovchilardan qirg'iz oilalari baliq ovlash bilan mashg'ul bo'lgan. Kengiyadigan asalarichilik va pillachilik vujudga kelgan.

Hunarmandchilik. Mintaqaning boshqa chorvador xalqlarida ko'pincha ilgari, qirg'izlarda ham ko'proq chorvachilik bilan bog'liq kasb-hunarlar tarqalgan ekan. Masalan, bahor va kuzda qirg'ilgan qo'y junidan to'rtburch, ya'ni iyiq yordamida ayollar uyda ip yig'irgan va oddiygina qop salla hamda taama tikish uchun zarur matolar to'qilgan.

Yog'ochsozlik va duradgorlik ham keng tarqalgan hunarlardan hisoblanadi. O'tov, egar va idish-tovoq yasalgan, ularni tayyorlovchi ustalar jihatdan ustalar deb atalgan. Bunday ustalar qirma va duko'n kabi joylarda ishlagan.

Qadimiy kasb-hunarlardan aksariyati hozirda ham butun o'lka bo'ylab keng qo'llanilib kelinmoqda. Shahar va qishloq hunarmandlari turlicha ish qurollari, uy jihozlari, shuningdek, hatbiy qurol-aslahalar tayyorlagan. Albarki, arxeologik qazishmalar tayyorlangan barcha temir asboblarning turli xususida to'liq ma'lumot bormaydi. Chunki temir yetarli yomon saqlanadi, shunga qaramay, ko'plab ma'lumotlar to'plangan.

Qishloq xo'jaligi uchun omo'ch uchiga kiydiriladigan tish, ketmoi, o'tov, bog'dorchilik va qo'y junini qirg'adigan qaychilar, nag'al, ishga yaraydigan hayvonlar abzali hamda aravaga zarur bo'ladigan jihozlar tayyorlangan. Shuningdek, temir idishlar, qozon, tarozi, tosh, qaychi, qo'choq qochoq, beshlik, gul-fkalit, zanjir va boshqa buyumlar yasalgan.

Badiiy quyima buyumlar orasida juda ko'plab bronzadan yasalgan asboblardan va zinapoyachalar muhim ahamiyatga ega. Ustunlar silindr shaklida ishlangan, balandligi 30 sm, diametri 15 sm. bo'lib, usti o'ymakor naqshlar bilan qoplangan. Yuqori badiiy saviyada bajarilgan ikki ustun asl, to'rt xil naqshlar (har xil o'simliklar, gajaklar, geometrik shakllar va shakllarda) ebo'lda borayotgan to'rt yo'lbars tasviri o'ta mohirlik bilan ishlangan.

Qopchilam (To'qimov shahri yaqinida) shaharchasidagi budda diniyatidan topilgan juda ko'plab tilla qoplangan nozik qirg'ma bronza naqshlar qadimdan oltinni eritib ishlash usuli rivojlanganligidan dalolat beradi.

Rangli va qimmatbaho metallardan ayollar uchun turli xil bezak va buyumlar yasalgan. Jumladan, bilakuzuk, isirg'a, uzuk, qo'ng'iroqchalar, hayvonlar shakli tushirilgan osma tumorlar va oynachalarni misol qilib keltirish mumkin. Shoshrepa manzilgohi va hozirgi Krasnoyarsk shaharchasidan topilgan kumush bilakuzuklar o'zining badiiy qiymati yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bilakuzuklar tayyorlash usuli bita bo'lgan uchta silliq kumush sim bir bog'lam qilingan, ikki yo'g'on sim o'rtasidan nozik kumush sim o'tkazilgan. Bilakuzuk uchi yuqalashirilib, shunga o'xshash maxsus jihoz bilan hayvon boshlari ulangan.

Kulolchilik hunari hammadan ko'proq o'rganilgan. Mahalliy kulollar idishlarga bo'lgan talabni qondirishga harakat qilgan, shu bilan bunday mahsulotlardan keng foydalanilgan. Kuydirilgan loydan yasalgan buyumlar qurilish, jamoat va madaniy binolarni me'moriy bezash hamda diniy marosimlarni o'tkazishda keng qo'llanilgan. Kulolchilik VI-XII asrlarda bir nechta bosqichda rivojlanib kelgan.

VI-VIII asrlarda kulolchilik mahsulotlarining asosiy qismi uyda, qo'lda bajarilgan. Idishlar va yoritqichlar uncha takomillashmagan, shakllari bilan ishlov berilgan holda, uning ustiga bo'yoq surtilgan, so'ngi parchoz qilingan. O'choq tirgaklari hayvonlar boshini eslatuvchi shaklda jihozlangan.

Shuningdek, kulolchilik buyumlaridan loy tobutlar sifatida foydalanilgan. Ular ko'pincha badiiy jihozlarda ishlatilgan, masalan, inson qiyofasi va hayvonlar shaklida yasalgan bezaklar davorlarga yopishirilgan. Shaharlik kulollar tomonidan bino peshloqlarini bezovchi g'ishtlar ham yasalgan.

Kulollar faqat tor doirada ish ko'rmagan, idish yasash bo'yicha kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ularni uy sharoitida tayyorlash keng yotilgan bo'yilgan. Xalqlarning bir yerda muqim yashashi, dehqonchilik bilan shug'ullanishi va ular bilan ko'chmanchi qabilalar o'rtasida aloqalarning rivojlanishi kuzatilgan. Maxsus uskunalarda tayyorlangan idishlar ko'paygan, ayrim joylarda ular o'z ustunligiga ega bo'lgan. Ushbu davrda kulollar yasagan buyumlar ko'plab uchrashini ta'kidlash o'rindir.

O'troq aholi hunarmandchiligi bo'yicha turli to'g'risida yozma manbalarda deyarli ma'lumot uchramaydi. Hunarmandlarning mehnat quroli va mahsulotlariga u yoki bu darajada tavsif berish uchun arxeologiya materiallari ham yetarli emas. Masalan, yog'ochga ishlov berishni buyumlar (so'g'aning namunasi va qurilish buyumlari (ustun qoldiqlari va kuygan to'sin yog'ochlari), duradgorlik asboblari (iskana, randa va bolta) orqali tasavvur qilish mumkin. Supralar, shuningdek, g'uzuml

qoldiqlarining topilganligi yigiruv va to'quv ishlari keng rivojlanganligidan dalolat beradi. Turi oshlash va hayvon suyaklaridan anjomlar yasash haqida deyarli hech qanday ma'lumotlar mavjud emas.

Ko'rinib turgandek, VI-XII asrlar mobaynida hozirgi Qirg'iziston hududida hunarmandchilik ishlab chiqarish va texnik taraqqiyoti yuksak darajaga yetgan. Bunda shubhasiz, hunarmandlarning yuqori kasbiy mahoratini kuzatish mumkin. Qirg'iziston hududida aholining doimiy yashab qolishida yana bir sababi, oldinlari Farg'ona va Oloydan o'tgan yo'lning VI-VII asrlarda Yetisuv hamda Tangri tog' orqali Uzoq Sharq O'rta yer dengizi bo'yidagi mamlakatlar hamda Yevropa bilan bog'lanishi muhim rol o'ynagan. G'arbiy turk xoqonligining Yetisuvda o'z hukmronligini o'rnatishi va qarorgohini bu yerga ko'chirishi ham muhim sabab bo'lgan yo'lning yo'nalishining o'zgarishiga sabab bo'lgan.

Mazkur yo'lidan foydalanган Sug'd savdogarlari o'z faoliyatlarini savdo rivojlatirgan. Yetisuv va Sug'dning aholisi muqim yashay boshlagan davrda iqtisodiy va jamiy rivojlanish taraqqiy etib boshlagan. Shu bilan qadimgi sohnolarda yozilishicha, Siyobdan to Amudaryogacha bo'lgan tokiylar yeri bita nom bilan atalib, odamlar bir xil yozuv va tilga ega bo'lgan, shuningdek, bir-biriga o'xshash holda kiyingan. Bu shundan dalolat beradiki, Sug'd va Shoshdan kelgan savdogarlar hozirgi Shimoliy Qirg'iziston vodiysi hayotida muhim rol o'ynagan. Ammo, keyingi davrlarda sug'dli turkiy tilda so'zlovchi mahalliy aholi tildan farq qilgan. Ushbu Yetisuv tarixidagi muhim voqeani Mahmud Koshg'ariy qoldirgan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi: "Sug'diylar – Bolasog'unga ko'chib kelgan odamlar guruh. Ular Buxoro va Samarqand o'rtasidagi Sug'ddan bo'lib, tokiylar ko'inishiga ega va ularning odatlarini qabul qilgan".

Muqim aholi yashovchi makamlarning vujudga kelishi va rivojlanishida mahalliy turkiy xalqlarning o'rta beqiyos bo'lganligini turar joylarining turkcha nomlanishida ham ko'rsatib beradi. Jumladan, VII-X asrlarda Farq, Jo'l, Xo'tran-Juvon, Bolasog'un va hokazo nomlar bunga misol bo'la oladi.

Arxeologik tadqiqotlarda shu narsa aniqlanganki, Shosh va Farq'dan kelgan savdogarlarning moddiy madaniyati mahalliy aholi ta'siri ostida o'zgarib borgan.

VIII.3. Moddiy va ma'naviy madaniyat

Tumardoylar. Qirg'izlar qadindan alohida, bir-biridan ancha farq etib o'z o'zida bo'lib yashagan. Chorva mollarni yaylovlariga olib borib, har bir xo'jalik ajralgan holda kun kechirgan. Sovuq tushib,

yog'ingarchilik boshlanadigan vaqtlarga kelib qishloq joylariga qaytilgan Qarindosh-urug'lar bir ovul bo'lib yashagan, ushbu ovullarning orasi bir chiqirimgacha bo'lgan.

Qirg'izlarning hammasi o'tovlarda yashashni ma'qul ko'rgan. O'tovni qirg'izlar bo'z uy, qora uy yoki qirg'iz uy deb atar edi. Biv va manaplarning o'tovlari bilan kambag'al aholining o'tovlari orasida juda katta farq bo'lgan. Biylar, manaplar va o'ziga to'q, badavlat qirg'izlar xonadonlarining o'tovlari ancha katta, baland hamda chiroyli bo'lib, ush va atrofi qalin hamda sifatli kigizlar bilan yopilgan, sinningdek, bezaklari ko'p bo'lgan.

Qirg'iziston hududidagi o'tovlar hamma joyda bir xil ko'rinishga ega bo'lmagan. Afidan, o'tovlar tabiiy, iqlim sharoitlari, urf-odat va an'analarga qarab xilma-xil ko'rinishda qurilgan. O'tovlar asosan, ush va gumbazi bilan farqlangan. Qirg'izistonning shimolida o'tovning gumbazi gonnussimon ko'rinishda bo'lsa, Talas hamda Chotqol vodiylarida nal yalpog'roq, bir muncha tekis qilib qurilgan.

O'tovlar, qanday va qancha qavat kigiz bilan yopilganligi bilan ham bir-biridan farqlangan. Ko'p hollarda o'tovning ustiga ikki qavat kigiz yopilgan. Birinchi qavat o'tovlarning atrofini yopsa, ikkinchi qavat uning ustiga yopilgan. Nihoyat, o'tovlar nafaqat tashqi, shu bilan birga ichki bezaklari bilan ham farqlangan. O'tovning ichi bir necha bo'laklarga bo'lingan. O'tovga o'choq joylashgan qismi (kolomta) maktazi hisoblangan. O'choq orti, eshikdan kiraverishda ro'paraga yog'och tosh yoki egalat ustiga sandiq, ko'rpa-yosiq, gilam, namat, kigiz kabi uy-ro'zg'or buyumlari, xaltalar, va kiyimlar joylangan. Bu yerda idish-tovoq, ro'zg'or anjomlari, oziq-ovqat mahsulotlari solingan qop va xaltalar turgan. Ertakda egar-jabduq, arqon, miltiq va boshqa buyumlar saqlangan.

Qirg'izlar o'tovdan tashqari chayla va alachiq uylarda ham yashagan. Chaylada yog'ochlarning uchlari yuqoridan bita qilib bog'lab qo'yilgan va xoda, ya'ni yog'ochlarning ustiga kigiz yopilgan. Sharqiy Pomir qirg'izlarida chayla xodalarni hayvon terlari bilan yopilgan. O'tovlarda qishlash uchun atrofta baland qor uyumi hosil qilinib, o'tovning ush poxol, ba'zan qamish bilan yopilgan.

Qirg'izlar keyinchalik sinch va paxsa devorli uylar qura boshlagan. Ko'pgina qirg'iz oilalari devorlari xom g'ishtdan ko'tarilgan, tomi tekis, bir necha xonali uylarda yashagan. Bunday uylarning hovlisida yonna-yon yordamchi xo'jalik binolari (molxona, otxona, qo'yxona, somonxona va boshqalar) joylashgan.

O'tta asrlarning rivojlangan davridagi qurilgan uylar tadqiqotchilar tomonidan batafsil o'rganilgan. X-XII asrlarga oid hunarmandning uyi Karamorchensk shaharchasidan topilgan. Bu yerdagi turar-joylar devor bilan o'ralgan, 15x17 metr hajmli to'g'ri burchakli hovlida barpo etilgan. Hovli xom g'ishtli devor bilan ikkiga bo'lingan: sharq tomonida xo'jalik inshootlari joylashgan, g'arb tomonida esa turar-joy imoratlari qurilgan. Turar-joy kompleksi oltita xonadan iborat bo'lgan. Barcha xonalardagi 10x20x10 sm. hajmli xom g'ishtdan, devorlarning qalinligi 25 sm. sonlarining hajmi katta enas - 4,5 dan 8,5 m² gacha bo'lgan. Ulardan birida Markaziy Osiyoga xos bo'lgan oddiy bir pech (tandir) bo'lgan. Boshqa uchta xonani sharob tayyorlash ustaxonasi egallagan: ikkitasida ishlab chiqarish moslamalari, uchinchisida esa omborxona joylashgan.

X-XII asrda shahar zodagonlari o'z uylarini eski arxitektura anjomlari bo'yicha qal'a ko'rinishida barpo etganlar. Shunday uylardan biri, Talas vodiysidagi Oqtapa shaharchasida qazilma paytida topilgan 10x60 metr hajmida to'g'ri burchakli qo'rg'onda joylashgan bo'lib, u 6 ta 2,4x10 metrli uzun xonalardan tashkil topgan. Devorlari xom g'isht va jansimon ishlangan va eshikning o'rni xom g'ishtdan ark shaklida qurilgan. Imoratdan qo'rg'on hovlisiga chiqilgan.

Tovning to'sini xom g'ishtdan gumbazli ko'rinishda bo'lgan (boshlab uyunning ko'pligidan qurilma bir qavatli bo'lganligini bilishi mumkin). Imorat boy manzarali jihozlar bilan bezatilgan va hovli tomondan tashqi devorning yuqori qismigacha xom suvoqqa naqshlilik bezaklari ishlatilgan firiz saqlanib qolgan. Uslubga solingan uzun novdalar va to'qima usulidagi geometrik naqshlar bilan to'ldirilgan to'g'ri kvadratlarning o'zaro bir-biriga tutashib ketgan bezaklar motivi bo'lgan. Ichki devorlarga afidan, suvoq paytida naqshlar ishlangan, buni vayronalar ichidan topilgan devor parchalari ham isbotlab turibdi. Ammo, X-XI asrlarda qal'a inshootlari o'rinda to'la jihozlangan shahar uylari vujudga kelgan. Ularning atrofta turli hajmda 8-9 ta xona joylashgan keng mochariy zal joylashgan edi. Bunday uylarning umumiy maydoni 200 m² katta bo'lgan bo'lgan. Binoning ichi yuksak mahorat bilan ishlangan ganchli to'yona naqshlar bilan bezatilgan. O'simlik nihollari, geometrik to'qimalar va hayvonlar tasviri ham uning mazmunini tashkil etgan. Devorlariga o'yona naqshlar ishlangan.

Jamohiy Qirg'izistonda kattaligi jihatidan ikkinchi o'rinda turadigan shahar O'zgan bo'lib, o'z vaqtida ushbu shahar joy Movarounnahr o'lkasining poytaxti bo'lgan. Unda ham qo'rg'on bo'lib, shahriston va bir qancha rahbarlar joylashgan to'rtta darvozaga ega edi. O'zgan katta savdo-

soʻtiq markazi hisoblanib, u yerdan chiqqan karvonlar Yassi dovoni orqali Markaziy Tangʻitrogʻ va undan keyin Yetitsuv hamda Gʻarbiy Turkistonga yoʻl olgan.

Qadimgi Oʻzgan shahrining qoldiqlarini bugungi kunda ham uchratish mumkin. Xarobalar Qoradaryoning oʻng qirgʻogʻida joylashgan boʻlib, har biri alohida mudofaa qudratiga ega, uch qismdan iborat xandaqlar mavjud. Darvo qirgʻoqlari va xandaqlar begiyos mohirlik bilan tarashlanganki, ushbu holat shaharni dushmandan himoya qilishda ayniqsa, qoʻl kelgan. Xarobaga aylangan shaharda uylarning qoldiqlari saqlanib qolgan. Shaharning oʻrtasida bir vaqtlar saroylar boʻlganligini anglatuvchi vayronalilar uchraydi va uning ayrim joylarida kulohlik qoldiqlarini koʻrish mumkin. Qator paxsa va katta gʻishtdan qurilgan devor va xalqa minoralar qoldiqlarini ham kuzatish mumkin. Bu yerda pishirilgan gʻishtdan qurilgan devorlar kam uchraydi. Bugungi zamonaviy Oʻzgan shahrining chekkasida oʻrta asrlarning ajoyib meʼmorchilik yodgorliklari boʻlgan, XI–XII asrlarga oid minora va uchra maqbara saqlanib qolgan.

Oʻshdan uncha uzoqda boʻlmagan Medva ham oʻz mavqeiga koʻra Janubiy Qirgʻizistondagi uchinchi shahar boʻlgan. Bugungi kunda u yerda shahar qalʼasining bir qancha mustaxkam himoya qoldiqlari saqlanib qolgan. Uning qolgan qismida zamonaviy uy-joylar qurilgan. Pomirga olib boradigan yoʻl boʻylab borilganda, bir kilometrcha masofada koʻhna shahar markazi xarobalari koʻzga tashlanadi. Xaroba qirralarining balandligi 12 metrgacha yetadi.

Qirgʻiz xalqining anʼanaviy turar-joylari deganda, avvalo, oʻtov tushuniladi. Oʻtov – qirgʻiz xalqi milliy madaniyatining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Qirgʻizlarda oʻtov oila, yurt, vatan va insonning tugʻilgandan tortib vafotigacha boʻlgan hayoti ramzi hisoblangan. Aynan oʻtov orqali qirgʻiz xalqining eng muhim anʼanaviy marosimlaridan tortib moddiy madaniyatigacha boʻlgan koʻrinishlari namoyon boʻladi. Shu bois Qirgʻizistonning davlat bayrogʻida ham oʻtov aks etgan.

Jumladan, oʻtov markazidagi tundak oila va koinot ramzi boʻlganligi bois ham milliy bayroqda aks etgan. Aynan oʻtov turkiy xalqlar orasida ham keng tarqalgan boʻlib, qurilishning qulayligi va mustahkamligi bilan ajralib turgan. Oʻtovdagi har bir ashyo oʻziga xosligi, naqshlari va qoʻllanishli bilan ajralib turgan. Anʼanaga koʻra, oʻtovning oʻng tomoni ayollar tomon “epchi-jak” deb atalib, u yerda idish-tavoqlardan iborat oshxona anjomlari, turli kiyimlar va oziq-ovqatlar solingan sandiq joylashgan. Chap tomon erkaklar bilan bogʻlanib, “er-jak” deb atalib, ushbu tomonda asosan, oltin egar va boshqa anjomlari bilan

birga ov uchun zarur boʻlgan qurollar hamda pichoq boʻlgan. Oʻtovning markazida oʻchoq boʻlgan. Mehmonlar uchun alohida joy ajratilgan boʻlib, oʻtovning ushbu qismi toʻri, oʻtovga kiraverishdagi eshik oldi esa boʻsagʻa deb yuritilgan.

Oldinlari badavlat qirgʻizlar katta va kichik boʻlgan bir qancha oʻtovlar sohiblari boʻlgan. Ularning kichiklari “ashkana-uy (oshxona va oshkor)”, “meyman-uyu (mehmonxona)”, “yerge (toʻy oʻtovi)” va uylangan oʻgʻillarning alohida oʻtovlari boʻlgan. Oʻtovning oldi belgisi boʻlganligi bois doimiy ravishda yangi oila qurilganda yangi oʻtov tiklangan. Oʻtroq kumush tarzga oʻtilishi bilan birga tom uyalar, yani yogʻoch va boyavovqdan qurilgan xonadonlar koʻpaygan. Uylarni oʻtovga oʻxshatib qurilgan holatlari boʻlsa-da, qoʻshni boʻlgan oʻzbeklarning taʼsiri kuchli edi. Zamonaviy qirgʻizlarning turar-joylari birmuncha takomillashgan boʻlib, hozirda koʻp hollarda pishgan gʻishtdan koʻp xonali uylar qurilmogʻda. Uylarda oshxona, mehmonxona va yotoqxonalar mavjud.

Kiyim-kechaklar. Qirgʻizlarning kiyimlari nihoyatda xilma-xil boʻlib, oʻziga xos milliy jihatlari bilan ajralib turadi.

Erkaklarning kiyimi asosan, iston, koʻylak, toʻri, chopon, bosh kiyimlar va poyafzalidan iborat. Koʻylaklari ochiq koʻrinishda boʻlib, bechilish va tikilishi jihatdan toʻnga oʻxshaydi. Keyinchalik oldi faqat koʻkrangacha ochiq tik yoqali koʻylak kiyilgan, bu koʻrinish qozq toʻralarning koʻylagini eslatadi. Koʻpincha qirgʻiz erkaklari boshida oppaq nomal tepagini koʻrish mumkin. Erkaklarning istoni charmandan tikilgan boʻlib, uning turli qismlari har xil nom bilan atalgan: chabbar, qandax, jangqabhim.

Qirgʻizlarning milliy anʼanalari asosan, ayollar kiyim-kechaklarida yashil saqlanib kelmoqda. Hozirgi ayollar koʻylagi (koʻymuk) bichini koʻylakka avvalgilardan keskin farq qiladi: ancha kalta, ochiq, baʼzan esa tik yoqali, burma, koʻproq, qizil, pushti rangli gazlamalardan tikiladi. Koʻylak undan turli xil gul va bezaklar solib tikilgan oʻngur kiyiladi.

Xotin-qizlar albatta, nimcha va kamzul (poyjen, kamzur, baʼzi yerlarda kiyamzur deb ham ataladi) kiygan. Ushbu kiyim yogasiz, oʻmizi keng yoki tik yoqali qilib tikiladi, ayrim hollarda kumush tugmachalar qoʻyiladi.

Qirgʻiziston togʻli oʻlka boʻlganligi sababli koʻp hududlarning iqlimi va tabiati ancha salqin boʻladi. Shuning uchun qishin-yozin issiqroq kiyim yonilavriga toʻgʻri kelgan. Koʻpincha duxoba palto yuritiladi.

Qirgʻiz ayollari bosh kiyim sifatida odatda, yorqin, rangdor chit toʻmol, bayram kunlari esa shohi toʻmol oʻraydi. Koʻpchilik yosh juvonlar,

ayniqsa, qizlar do'ppi kiyadi. Qirq kokil qilib sochlarini o'rish bozi maftun urdan qolgan. Ko'pincha sochlarini qo'sh kokil qilib o'rib, ustidan do'ppi kiyadilar. Qizlarning eng sevimli bosh kiyimi ikki chechi mo'ynali telpakchil Bunday telpakning uchiga chiroyli qush patlarini bog'ich bilan tikib qo'yiladi.

Ko'pincha qirg'iz ayollari quloqchin kiyadi va uning tashqi ko'rinishi hamda bezagi bilan bir-biridan farq qiladi. Qirg'izistonning shimoliy tumanlarida ayollar quloqchimini takiya kop, g'arbiy va janubiy tumanlar, jumladan, O'sh viloyati atroflarida esa chachqop nomi bilan ataydi. Takiya qopning orqasi yelkaga osilib turadi, qop ustidan yuqqa oq mato yoki dokadan salta (elechik) o'raladi. Quloqchining ikki tomoniga sochpuk osiladi.

Ayollar kiyimining noyob elementlaridan biri tugma qadalmaydigan yubka – "beldemchi" va bosh kiyim "elechek" hisoblangan, uni asosan, keksa ayollar kiygan.

Issiqko'l, Chuy va Tangritog' atroflarida yashaydigan qirg'iz qizlari sallari o'rta ko'rinishda o'raydi. Sallarning uchi chap tomondan o'rta ichiga qisqirib qo'yiladi. Talas vodiysi va O'sh viloyatining shimoliy tumanlarida sallarning iliq turi keng tarqalgan (yunalqoq yoki yalpoq ko'rinishda bo'ladi).

Ayrim hollarda salta ustidan duriya, ya'ni chiroyli to'mol tashlab olinadi. Ba'zi joylarda naqshdor hoshiya va kumush taqinchuqlar (tangra, marjon hamda dur) bilan bezaladi. Ushbu odanni ko'proq ichkilik guruhlari kiruvchi qirg'iz qizlarda uchraitish mumkin.

Qirg'iz ayollari, xususan, janubiy tumanlaridan yashaydigan xotin-qizlar ko'ylak ustidan belga taxlangan guldori to'mol yoki keng tasma (beldik) yoki bezkur bog'lab oladi. Qirg'izlarning oyog' kiyimlari orasida echiq tivitidan ishlangan namat etik keng tarqalgan. Ularning namat etikdan tashqari choqoy deb ataladigan pastak etigi ham bor. Keksalar postnasiz massi (maxsi)ni kalish bilan kiyib yuradi. Etik va maxsining ichidan namat paypoq hamda guldori jorob kiyadilar.

Miltiy taomlar. Qirg'izlar mavsumga qarab xilma-xil tartibda ovqatlanishga odatlangan, lekin taomlarning turlari unchalik ko'p emmas. Qadimda ko'pincha un va doming yetishtirilishi sababli asosan, sut va go'sht mahsulotlari bilan tirikchilik qilingan. Kun issiq kezlari asosan, qovurilgan va sut mahsulotlari, qishda esa un, don, shuningdek, pishloq, sariyog' va sho'tak suzma iste'mol qilingan.

Qirg'izlarda mehmonga alohida hurmat ko'rsatiladi. Boshqa turkiy xalqlarda bo'lgani singari qirg'izlarda ham mehmonni hurmati uchun qo'y

mo'yilib, qo'noq osh tayyorlanadi. Qo'noq osh tarzida qo'yning tanasi qozoniga solib pishiriladi va eng shirin joyi mehmonga tortiq qilinadi.

Ko'pchilikning kundalik taomi har xil suyuq oshlardan iborat bo'lgan. Qirg'iz tili bilan ifodalaganda, maqsim bilan jama ichilgan. Maqsim – suli talqoni yoki tuyilgan arpa unidan tayyorlansa, jama pishirish uchun esa arpa yoki bug'doyni yog'och keilda qaynab turgan suvga solingan. Atala sovuganidan keyin oziqina solod, ya'ni ko'kat va un qo'rilgan.

Oshqovog'dan sho'rva va chuchvara pishirilgan yoki o'zini qaynatib dindilab iste'mol qilingan. Tandirda non yopilib, buursuq pishirilgan, kund (tuzuma), pishloq tayyorlangan. Kul qo'rda kumuch, choymo tokoch, jupqa, non, qattama (qatlama), toytokoch, quymoq, kesma osh, sirguruch va boshqa taomlar pishirilgan. Sho'rva, beshbarmoq, quuroq, quurma, kuygan o'pka, olobo va kulchatoy taomlari ham sevilb iste'mol qilingan. Boshqa vaqtlarda jarkop, mani va lag'mon pishirish keng tarqalmog'da.

Oila va muhojir madaniyati. Qirg'izlarda yaqin-yaqingacha o'zida patriarxal an'analarning ba'zi qirralarini saqlab qolgan alohida (kichik) oila hududlari hisoblangan. Qirg'izlarda oilaning asosini oila boshlig'i, xotini va farzandlari, ba'zan esa ota-ona tashkil etgan. Nikoh tuzish sovetchilikdan boshlangan. Shu bilan birgalikda beshikkerti, bola tug'ilishi bilan yoti tug'ilmasidan unashirib qo'yilishi bilan bog'liq urf-odatlar mavjud bo'lgan. Shuningdek, ushbu xalq vakillari orasida levirat va sororat ham keng tarqalgan. Ba'zan opa-singillar yoki qarindoshlar o'rtasida qalin to'lamaidan almashirish hollari ham bo'lgan. Qizlar o'z roziligi bilan o'g'irlangan, lekin qiz o'g'irlash bilan kuyov qalin to'lashdan ozod bo'lmagan. Qalin miqdori turli xil bo'lib, kuyov tomonining iqtisodiy holatiga bog'liq edi. Qalin asosan, chorva hayvonlari bilan to'langan, keyinroq esa kiyim va sep buyumlari bilan o'rni qoplanagan.

Qirg'izlarda qizlar 13–15 yoshda turmushga berilgan. O'rta asrda oila tomonidan yetti pushtigacha yaqin bo'lmagan qarindoshligi ber olibdan xotinlikka olingan bo'lib, keyinchalik ushbu udumga amil qilinmay qo'yildi.

Xulosa, oila ko'p hollarda patriarxal tartiblar asosiga qurilgan. Oila boshlig'i oiladagi barcha holatlar va hatto farzandlarning taqdiri ham hal qilgan. Oiladagi barcha yumushlar: bola tartibyasi, hayvonlarga qarash, kuyov olish va boshqa mayda-chuyda ishlar ayollarning zimmasiga yotilgan.

Ajarda, o'rta asrda yanada teranroq nazar tashlansa, ayollarning jamiyatdagi roli boshqacharoq namoyon bo'ladi. Chunonchi, qirg'iz xalq

dostoni bo'lgan "Manas"da o'z e'ngga hatto qiyin harbiy ishlarda ham ko'maklashgan jasoratli ayollar timsoli saqlanib qolgan (masalan, Manasning xotini qiyofasida).

Xalq ijodiyoti. Qirg'iz xalqi o'z tarixi davomida ajdodlaridan avlodlarga o'tib kelayotgan xalq ijodiyoti va madaniyati bilan bog'liq bo'lgan xazinani bugungi kungacha saqlab kelmoqda. Qirg'iz xalq og'zaki ijodiyoti xalqning ko'p asrlik yorqin tarixiy taqdiri va madaniyati, tabiatun shoirona qarashlari, ozodlikka intiluvchi va mardlik kabi xislatlarini ifodalagan.

Xalq ijodiyoti orqali qirg'iz xalqining qahramonliklari va go'zal romantik kechimalari yoritib berilgan. Chunonchi, "Manas" dostoni qirg'iz xalqining durru gavharidir. "Manas" misoli bir epik asar bo'lib, dastlab XIX-asrning 50-yillarida Cho'qon Valixonov tomonidan yozib olingan, lekin rus tiliga faqat 1904-yilda tarjima qilinib, nashr etilgan. "Manas"ning qisqartirilgan varianti akademik V. V. Radlov tomonidan nemis tilida chop etilgan.

"Manas" xalq orasida yuksak poetik esdalik sifatida nafqat xotira tufayli, shu bilan birga xalq orasida mashhur bo'lganligi sababi ham hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan. "Manas" episi qirg'iz folklorining barcha janrlarini o'z ichiga qamrab olgan, ya'ni afsona, qo'shiq, ertak, aytishuv va masallardan iborat edi. "Manas"ning xalq ichida keng tarqalishida irchi (ырчы)larning roli katta bo'lib, ular dostonni mashhur bo'limlarini aytib, keng tarqatgan.

"Manas"da asosiy 9 ta qo'shiqlar uziviyiligi ko'rish mumkin. Manasning tug'ilishi va bolalik yillari, Manasni xon sifatida tanilishi, Manasni Qoshg'ar xonligiga qarshi birinchi yurishi, mintaga hududlariga yurishidan iborat. Doston Xitoy poytaxti (Beypin)ga yurish va Talas vodiysida Manasning o'limi bilan yakunlanadi.

Manasning qimmatli shundaki, unda tarixiy, etnologik, geografik va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olganligi sababi qirg'iz xalqi hayotining qomusi deb ham atash mumkin. Dostonda juda katta ijtimoiy-maishiy hayotga doir ma'lumotlar: to'ylarning tavsifi, dafn marosimlari, xalq o'yinlari va mashg'ulotlari o'rin olgan. Shu boisdan ham "Manas" qirg'iz xalqining tarixi va etnografiyasiga oid bebaho manbadir. Qolaversa, ushbu doston o'ziga xosligi bois dunyodagi eng uzun epos sifatida Ginesning "Rekordlar kitobi" va 2013-yil YUNESKOning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Nazorat savollari:

1. Qirg'iz xalqining shakllanish tarixi to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Markaziy Osiyoning turkiy tilli xalqlari bilan qirg'izlarning o'zaro etnik aloqalarini ko'rsatib bering?
3. Qirg'iz xalqining shakllanishida ishtirok etgan etnik komponentlar haqida so'zlab bering?
4. Qirg'iz xalqining an'anaviy xo'jaligi deganda nimalarni tushunarsiz?
5. Qirg'izlar xo'jaligining boshqa qo'shni xalqlar mashg'ulotlari bilan o'xshash va lokal jihatdan to'g'risida so'zlab bering?
6. Qirg'izlarning an'anaviy va zamonaviy moddiy madaniyati haqida ma'lumot bering?
7. "Manas" eposining qirg'iz xalqi madaniyati va xalq og'zaki ijodida tug'gan o'rni haqida ma'lumot bering?

IX BOB. MARKAZIY OSIYODAGI BOSHQA XALQLAR ETNOLOGIYASI

*

Markazga oid tayanch soʻz va iboralar: Markaziy Osiyo, arablar, loʻlilar, Buxoro yehudylari, uygʻurlar, dumganlar, tatarlar, koreyslar, kardlar, babililar, oltoyilar, moʻgʻullar, salorlar, saxalar, buryatlar, xakasar, ruslar, belorus, ukrainlar, muvillar, shorlar, yevropoid, moʻgʻullar, Janubiy Sibir tipi, antropologik tadqiqotlar, etnik tarix.

IX.1. Mintaqadagi boshqa xalqlarning etnogenezi va etnik tarixi

Markaziy Osiyo mintaqasida mahalliy oʻzbek, tojik, qirgʻiz, qozoq, qoraqalpogʻ va turkmanlar bilan birga turli tarixiy davrlarda kelib qolgan koʻplab xalqlar ham istiqomat qiladi. Aynan mazkur xalqlar qatoriga arablar, yahudiylar, uygʻurlar, dumganlar, tatarlar, koreyslar va loʻlilar kabi koʻplab etnoslarni kiritish mumkin.

Mintaqa xalqlari orasida arablar oʻziga xos madaniyati va milliy qadriyatlar bilan alohida ajralib turadi. Arablarning tarixiy vatani Arabiston yarim oroli boʻlib, ushbu hududning koʻp qismi choʻl va sahralardan iborat boʻlib, dehqonchilik qilish uchun noqulay edi. Shuning uchun Arabiston aholisining oʻzchilik qismigina oʻtroq hayot kechirar va dehqonchilik bilan shugʻullansa, ularning koʻpchiligi esa koʻchmanchi-badaviylardan iborat boʻlib, qoʻy, echki va bira boqar edi.

Arabistonning dehqonchilik uchun eng qulay boʻlgan oʻlka janubiy-gʻarbiy viloyat – Yaman yoki “Baxti Arabiston” boʻlib, bu yerda qadimda bir nechta yirik quldorlik davlatlari mavjud boʻlgan. Hijozning esa faqat ayrim vohalaridagina dehqonchilik qilish mumkin edi. Yarim orolning eng katta qismi Najd boʻlib, sugʻoriladigan yerlari juda kam va gʻoyat katta yassi togʻlikdan iborat boʻlganligi uchun faqat chorvachilik bilan shugʻullanish mumkin edi.

VII asrning oxiri – VII asrning boshlarida arablar iqtisodiy va ijtimoiy inqirozga uchraydi. Yarim orolning aholisi koʻpayib, tirikchilik uchun yer yetishmay qoladi. Arablar uchun katta daromad manbai boʻlib kelgan karvon savdosi ham tushkunlikka uchradi. VI asrda eronliklar bilan habashlar oʻrtasida uzoq davom etgan urushlar natijasida Yaman deyarli butunlay harob va vayron boʻladi. Shimoldan janubga va janubdan shimolga mahsulot sotish uchun borish kamayib ketadi.


Markaziy Osiyo arablari mintaga davlatlarida yashovchi, oʻzlarini arab deb hisoblovchi kichik etnos hisoblanadi. Ularning ajdodlari VII–XIV asrlar davomida Markaziy Osiyoga kirib kelgan. Ular koʻpgina hollarda oʻzlarini oʻzbek, turkman va tojiklar tarkibiga kiritadi. Markaziy Osiyo arablarining aksariyati Zaratshon daryosi boʻylari va Samarqand shahri atroflaridan tortib Qorakoʻl sohillarigacha boʻlgan oralqdagi shahar va qishloqlarda, shuningdek, Sherobod, Surxon, Kofimixon, Vaxsh, Qizilsu va Jilgʻa daryolarigacha boʻlgan hududlarda, shuningdek, Fargʻona vodiysining shimoliy-sharqiy qismida ham arablarning bir guruhini yashaydi. Ular Buxoro, Qarshi, Xoʻjand va Katragʻon kabi yirik shaharlar, Kossan, Nurota, Sherobod va boshqa tumanlarda ham istiqomat qiladi. Bir soʻz bilan aytganda, arablar butun Oʻzbekiston, Turkmaniston va Tojikiston boʻylab yoyilib ketgan. Ular asosan, ikki guruhga boʻlinadi: ibtidoiy va sanʼoniy. Umuman olganda, ularning hammasi umumiy non bilan *Markaziy Osiyo arablari* deb ataladi.

Arablarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi uchta davrga boʻlinadi: birinchi bosqich VII asr oʻrtalari – XIII asrlar. Ushbu davrda arablar, asosan, islom dinini qaror toptirish va mahalliy xalqlarning boyliklarini oʻzlashtirish maqsadi bilan kelgan hamda keyinchalik mahalliy xalqlar tarkibiga singib ketgan.

Arablarning migratsiyasining ikkinchi bosqichi XIV–XV asrlarga toʻgʻri keladi. Mazkur davrda arablar islom madaniyati va marosimlarini keng tarqatgan. Amir Temur Iroq va Suriya kabi arab davlatlariga yurishlari natijasida ushbu mamlakatlar aholisining katta qismini koʻchirib kelgan va mahalliy xalqlar orasiga joylashtirgan. Ushbu davrda arablarning asosiy qismi chorvachilik bilan shugʻullanib, ular XX asr boshlariga qadar oʻzlarining etnik va til xususiyatlari hamda anʼanalarini saqlab qolgan.

Arablarning koʻchib kelishining uchinchi bosqichi XVI–XIX asrlarga toʻgʻri keladi. Ushbu davrda koʻchib kelgan arablarning koʻpchiligi hunarmandlar boʻlib, ular asosan, Afgʻoniston hududlaridan koʻchib kelgan. Mazkur davrdagi arablar oʻzlarining til va etnik xususiyatlarini muhtam darajada unutgan.

**Markaziy Osiyo arablari urug' -
aymoq, qarindoshlik belgilari
jihatidan ham bir necha qavm -
qarindoshlarga bo'linadi:**



Markaziy Osiyo arablarining aksariyati o'z ona tilini unutgan bo'lib, hozirda ular asosan, o'zbek yoki tojik tilida so'zlashadi. Ular orasida ikkita, ya'ni asosan, Buxoro va Qashqadaryo shevalari keng tarqalgan. Arab tili ikkinchi til sifatida ayrim qishloqlarda hozirgacha qo'llanilib kelimogda. Ularning shevalarida mahalliy aholi tilining ta'siri yaqqol kuchli seziladi.

Arablarining o'zi ota-bobolarini Arabistondan emas, balki Afg'onistonning shimolidan kelib joylashgan, deb hisoblaydi. Qisman Balx (Saroniy qabilasi)dan, qisman Axchi va Andko'y (shayboniylar)dan, Qashqadaryo, Samarqand va Kattago'rg'on arablari ajdodlarini Amir Temur olib kelgan, boshqalari esa arablar Movarounnahr hududini istilo qilgan davrdan ancha oldin kelgan, deb hisoblaydi. O'zbekistonda arablar bilan bog'liq ko'plab joy etnotoponimlari mavjud.

XIX asr boshlarida mintaqadagi boshqa xalqlar qatori arablar ham o'troq hayotga o'tgan edi. Olib borilgan etnografik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, arablarning turmush tarzi va madaniyatiga kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi ularning xo'jalik hayotida ham katta o'zgarishlarga olib keldi.

Cho'l hududida yashaydigan arablar, asosan, chorvachilik bilan shug'ullangan bo'lsa, o'troq arablarning asosiy mashg'ulotlari dehqonchilik va chorvachilikdan iborat edi. Uchinchi turdagi arablar etnomadaniy identifikligida esa dehqonchilik va hunarmandchilik asosiy tarmoq hisoblangan.

Farg'ona vodiysida yashovchi arablarning xo'jalik mashg'ulotlari asosan, dehqonchilik va bog'dorchilikka moslashgan bo'lib, bu jihatdan

ular vodiyning boshqa etnoslaridan farq qilmagan. Xususan, Farg'ona viloyati Rishon tumanida yashovchi arablar tumanidagi o'zbek va tojiklar kabi bog'dorchilikning o'ziga xos sir-sanoatlarini yaxshi o'zlashtirgan.

Markaziy Osiyoda yashab kelayotgan arablarning an'anaviy kiyimlarida milliy xususiyat, urf-odatlarda estetik did yaqqol namoyon bo'lgan. Masalan, Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani Jeynov qishlog'ida oqsog'ollar "habbat" yoki "jaddi", momalar "nabba" yoki "judo", o'ra yoshi erkaklar "sabayin", bolalik ayollar "kadasa", yigitlar "ruzon", qizlar "binad", "binr" kiyadi. Yoshga qarab kiyimish qadimiy arab odadlaridan biridir.

Arab erkaklarining milliy kiyimlarida mahalliy xalqlar madaniyatining ta'sirini kuzatish mumkin. Jumladan, XX asrning 30-yillarida ko'yлак, yaktak, chopon odatiy kiyim hisoblangan bo'lsa, markaz asrning o'rtalarida kosiym-shim ommalasha boshlagan. Xuddi shu davrda yillarda palto va plash kirib kelgan bo'lsa, 70-yillarda esa jun molajardan tikilgan kiyimlar keng tarqalgan. Globallashtiruv jarayonida arablarning milliy kiyimlarida an'anaviylik unutilib bormogda.

Markaziy Osiyo arablari cho'l hududlarida o'ziga xos turar-joylari hamro eigan. Uylar gumbazi qilib qurilgan bo'lib, cho'l hududlarida yashovchi arablarda "o'tov", "cho'lgumbaz" va "toybon" deb nomlangan uylar mashhur bo'lgan.

XX asr boshlaridan uy-joy qurish va uni jihozlash an'analarida darholib pishgan g'ishtdan imorat solish, tunuka bilan tomini yopish, darazalariga oyna o'rnatish va ko'cha tomonini ochish kabi yangiliklar kirib kelgan. Kerosin, elektr lampasi, fabrika va zavodlarda ishlab chiqarilgan uy-joy to'rt buyumlardan foydalanila boshlangan. Qishloq uylarida han yangiliklar ko'zga tashlanib, ayniqsa, qurilish materiallari va imorat qurish usullarida muhim o'zgarishlar ro'y beradi.

Hozirgi vaqtda arablarning turmush tarzidagi o'ziga xos o'zgarishlardan biri - ularning zamonaviy va ko'p qavatli uylarda yashashidir. Chunki, ularning kundalik hayot tarzi avvalgidan tubdan o'zgarib ketgan. Turar-joylar tuzilishi va qurilishiga tabiiy-geografik muhit, xo'jalik turmush tarzi hamda etnik o'ziga xoslik ta'sir ko'rsatgan.

Markaziy Osiyo lo'ylari - ko'chmanchi xalq bo'lib, ularning boshqa vakillari jahondagi barcha mamlakatlarda tarqoq holda yashaydi. Ularning ikki asosiy guruhi: Yevropa va Markaziy Osiyo lo'ylari mavjud. Lo'ylar katta yevropeoid irqining hind o'rta dengiz guruhiga mansub bo'lib, ko'plab labiallarda so'zlashadi.

Ularni O'zbekistonda *lo'illar*, Tojikistonda *jo'gilar*, Armanistonda *bosha*, Angliyada *mistik*, Eronda *karachi*, Fransiya *firani qablahi*, Finlyandiya *qora*, Rossiya *sigan* va yana boshqa mamlakatlarda turli nomlar bilan ataladi. Lo'illarning asl vatani, qachon va qanday qilib jahonga tarqalganligi ham uzoq vaqt mobaynida jumboq bo'lib keldi. O'zbekistonning ayrim tumanlarida lo'illar *mo'loni* deb ham ataladi. Ushbu atama Karachi va Mo'lon shaharlari nomi bilan bog'liq, degan farazlar ham mavjud. Markaziy Osiyo lo'illarning ayrim guruhleri *jo'xi* (hindcha kambag'al yoki qashshoq), *hindistoniy* va *bo'lijiy* deb atalishi ham lo'illarning asl vatani Hindiston bo'lganligini tasdiqlaydi.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, lo'illarning dastlabki guruhleri milodning boshlarida V-VII asrlar va undan keyingi davrlarda Shimoliy Hindistonda targala boshlagan. Ularning ayrim guruhleri Hindiston-Balujiston-Afg'oniston-Eron-Kavkaz-Turkiya orqali Yunonistonga, ikkinchi guruh esa Hindiston va Eron orqali Markaziy Osiyoga tarqalgan.

Markaziy Osiyo lo'illari mintaqaga bir vaqtda emas, balki turli davrlarda kichik-kichik guruhlar tarzida kelib joylashgan. Ularning migratsiyasi qo'shni davlatlar – Eron va Afg'oniston orqali amalga oshgan. Masalan, lo'ili guruhlaridan biri o'zlarini *afg'oni* (*kovuli*) deb ataydi. Bundan tashqari, lo'ili guruhleri azaliy vatani bo'lgan Hindistonni tark etgach, O'rta Osiyoga kelishlaridan oldin ko'p vaqt mobaynida Arab mamlakatlarida kun kechirgan bo'lishlari ham mumkin. Bunga lo'illarning shevasida arab tiliga xos bo'lgan ko'plab so'zlarning uchrashi va ular o'zlarining yashirin tiliari (argo)ni "arabcha" deb, o'zlarini esa "arablarning amakiyachchalari" deb nomlashlari dalil bo'ladi.


Lo'illarning yana bir guruhini *afg'on* yoki *mo'g'at qovuli* deb ataganlar. O'z navbatida afg'onlar ham uch guruhga bo'linadi: qavul, chistoniy va parya. XX asrning 20-yillarida Surxondaryodagi Sariosiyo va Yurchida Qoratog' lo'illari yashagan, shuningdek, Surxon va Hisor vodiylarida ham ularni uchratish mumkin edi. Hisorda ularning katta mozori, ya'ni xilxonasi ham bo'lgan. Olimlar "mahalliy lo'illar"ning Markaziy Osiyoga Hindistondan kirib kelganligi va bunga ko'p vaqt bo'lganligini qayd etadi. Jumladan, tadqiqotchi A. P. Baranikov ushbu fikrni asoslash maqsadida, Abdulqosim Firдавsiyning "Шоҳнома" dostoniga murojaat qiladi. Dostonda Eron shohi Bahrom Go'r (V asr) lo'illarning Hindistondan tortiq sifatida 12 ming lo'illar yuborilgani haqida ma'lumot keltiriladi.

Shuningdek, lo'illar to'g'risida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Abulg'oziy Bahodirxonning "Шаҳарайн тупр" va Mir

Muhammad Amin Buxoriyning "Убайдуллаҳона" asarlarida ham ma'lumotlar mavjud.

Buyuk Amir Temurning Hindistonga qilgan yurishlari davrida ham lo'illarning o'z vatani tark etishi kuchaygan. Solhbiqiron Hindistondan qaytayotganida ko'plab ustalani Samarqandga olib kelgan. Ularning orasida lo'illar ham mavjud edi. Samarqandda Amir Temur davrida lo'illar mahallasi bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona, Qo'qon va Qarshi kabi yirik shaharlar hamda bazi qishloqlarning chekkalarida lo'illarning mahalla va to'p (to'por)lari bo'lgan.

MARKAZIY OSIYO LO'ILLARI



Markaziy Osiyo lo'illari asosan, o'ziga xos sheva bilan tojik tilida so'zlashadi, ya'ni ular argo (o'ziga xos jargon) uslubiga ham ega. Ammo, Tojikistonning Dushanbe, Hisor, Ko'lob va Qo'rg'on tepa kabi hududlari, shuningdek, O'zbekistonning Buxoro viloyatida istiqomat qilayotgan lo'illarning ba'zilari o'zbek tilida gaplashadi.

Markaziy Osiyo lo'illarning an'anaviy mashg'ulotlari asosan, dalollik, zuluk sotish, yog'ochlardan turli uy-ro'zg'or buyumlarini tayyorlash, panshaxa, ketmon, g'ildirak to'g'i va gupchagini charchash, do'ppi, belbog' tikish hamda qalaydan xalqa yasash kabildardan iborat bo'lgan. Shu bilan birga, zarqarlik va chachvon tayyorlash ham ularni faoliyatining bir qismini tashkil etgan. Ayollari tilanchilik, folbimlik va xalq tabobati bilan mashg'ul bo'lgan.

Lo'illar asrlar davomida hamma yerda mutasil quvg'inda bo'lgan va och-yalang'och kun kechirgan. O'tmishda lo'illarning ko'pchiligi ijtimoiy foydali mehnat bilan emas, asosan, tilanchilik bilan shug'ullangan. XX asrning 20-yillaridan so'ng lo'illarning o'troq madaniy hayot kechirishi va ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga alohida ahamiyat berildi. Shu to'rt hukumat ko'chmanchi lo'illarni o'troq hayot va foydali mehnatga jalb etish bo'yicha muhim qarorlar qabul qildi. Jumladan, 1933-yilda "Lo'illarni ishlab chiqarish, ta'lim muassasalari va rahbarlik faoliyatlariga jalb etish" to'g'risidagi hukumat qarori hamda 1956-yilda Sobiq Ittifoq Oliy Kengashi Rayosati lo'illar haqida "Daydilik bilan shug'ullanayotgan lo'illarni mehnatga jalb etish haqida"gi Qonuni qabul qildi.

Markaziy Osiyo lo'illari vaqtlar o'tishi bilan o'troq hayot kechirib, turmush darajasi tobora yuksalib bormoqda. Ular hozirgi davrda jamoa xo'jaliklari, shirkatlar va sanoat korxonalarida ishlashmoqda. Turli idoralarda faoliyat ko'rsatuvchi ziyoli lo'illar qat'ian salmoqli foizni tashkil etadi. Lo'ili bolalarining aksariyati maktabga jalb etilgan, yoshlari esa o'rtin maktab va oliy o'quv yurtlarida ham ta'lim olmoqda.

Lo'illarda qadimdan endogam (ichki) nikoh hukmron bo'lgan, biroq hozirgi kunda atrofda xalqlar bilan o'zaro munosabatlar tobora yaqinlashib, aralash nikohlar soni kundan-kunga o'rtib bormoqda. Qadimda jamiyatan biqiy yashagan lo'illarning keyinchalik xo'jaligi va madaniyati tarqagiy etib borishi natijasida, ular atrofda aholiga yanada yaqinlashib, o'zaro do'stlik va ishonch yanada mustahkamlandi. Nikoh marosimlari asosan, xonadonlarda, yaqin qarindoshlar ishtirokida o'tkaziladi. To'ylar qizg'in va jo'shqin o'tishi odat tusiga kirgan. To'yga taniqli polvonlar ham taklif etilib, g'oliblarga ot, bo'kiz va pul berilgan.

Lo'illarning qon-qarindoshlik guruh (to'p, to'por)ga obro'li oqsogol rahbarlik qilgan. To'p va to'por shu oqsogol nomi bilan ham atalgan. O'zbek xonliklarida lo'illarning oqsogollari maxsus yorliq bilan tasdiqlangan va ularga muhim vazifalar yuklatilgan. Lo'illar to'p va to'por oqsogollari hamda boshqa qarindoshlari to'y, dafn va boshqa marosimlarda bir-birlariga har tomonlama yordam bergan. Katta tadbirlarga esa asosan, ota rahbarlik qilgan.

Markaziy Osiyo lo'illari e'tiqod jihatidan musulmon sunniylari hisoblanadi. Shuningdek, lo'illarda islomgacha bo'lgan jin, pari, alvasti va ziyorat-zahmat haqidagi tasavvurlar juda kuchli saqlanib qolgan.

Lo'illarda san'atga bo'lgan ishtiyok tobora kuchaymoqda, "Jo'g'i" qo'shiq dastarlari xalq shodiyonalari va bazmlarda xizmat qilmoqda.

Buxoro yahudiylari – Markaziy Osiyo yahudiylari (o'zlarini yevudim, idn, isroel, bani isroel, yahudiy-tojik deb ataydi) mazkur mintaqaning turli shaharlarida yashovchi etnik guruh hisoblanadi. Buxoro yahudiylari atamasi birinchi marta XVI asrda paydo bo'lgan. Ularning o'rtinidagi umumiy soni haqida aniq ma'lumot yo'q, lekin ingliz missioneri Volf Amir Nasrulloxon hukmronligi davri (1826–1860)da Buxoroda 10 ming nafar yahudiy yashaganligini qayd etgan. Aholini to'xtatib olish ma'lumotlariga ko'ra, 1926-yilda O'zbekistonda 1812 nafar, 1982-yilda esa 28369 nafar, shu jumladan, Buxoroda 4200 nafar Buxoro yahudiylari yashagan.

O'zbekistonda Buxoro yahudiylari asosan, Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Xatirchi, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon va Toshkent shaharlarida istiqomat qiladi. Ularning tili yahudiy-tojik oilasiga mansub bo'lib, tojik tilining janubiy guruhiga kiradi.

Buxoro yahudiylarining Markaziy Osiyoda qachon paydo bo'lganligi ancha munozarali masala hisoblanadi. Markaziy Osiyo qadimgi aholilariga ko'ra, yahudiylarning ajdodlari Bobildan kelgan. Ayrim ma'lumotlarda mo'g'ullar istilosi davrida yahudiylarning bir guruhi Erondan Shahrisabz, Buxoro va Samarqandga ko'chib kelgan hamda Markaziy Osiyoning boshqa hududlariga o'tmagan, deb qayd etilgan.

Marg'ilon, Toshkent va boshqa shaharlarga yahudiylar XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida, Farg'ona shahriga esa ilk bor XX asrda ko'chib o'tgan. Keyinchalik mahalliy yahudiylar "yahudiyxon" mahalliy nomi bilan yuritilgan.

Yahudiylar qadimdan boshqalarga ko'p qo'shilmay, o'zlariga yakka hol yashashga o'rganib qolgan. Erub deb ataladigan to'siqning mavjud bo'lganligining o'zi, ularni boshqa xalqlardan ajralgan holda yashashga intilganligining yorqin dalili hisoblanadi. Ularning diniy ta'limotida qat'iyat bilan, yahudiy boshqa dindagi odamlarga aslo yaqinlashmasligi kerek. Erub – yahudiylar bilan musulmonlar yashayotgan chegarada ilki qo'zg'atqich tortilgan simdir.

Ba'zi olimlar (M. Zamdning fikricha, yahudiylar Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi VI asrda paydo bo'lgan. "Yahudiylar ensiklopediyasi"da Buxoro hududi Bibliyadagi Xabar bilan isroilliklarning o'n pusti surgan qilgan joylardan biri sifatida tenglashtirilgan (mil avv. 722-yil). Arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, yahudiylar Markaziy Osiyo (Marg'ilon, Samarqand)ga II–V va VIII asrda kirib kelgan. Yozma manbalarga ko'ra, yahudiylar miloddan avvalgi I – milodiy I asrlarda Marg'ona, VI–VIII asrlarda esa Xorazmda paydo bo'lgan. Akademik V. V. Bartoldning

yoziishicha, X asrda Movarounnahrda yahudiylar xristianlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil qilgan. Tudellik sayyoh Venlamin (XII asr)ning ma'lumotiga ko'ra, Samarqand shahrida 30 ming nafar yahudiylar yashagan. Yahudiylarning Buxoroda bo'lishlari to'g'risida ilk ma'lumotlar XIII asrga to'g'ri keladi. Buxoro yahudiylarining oliaviy afsonalariga ko'ra, XIV asr oxiri – XV asr boshlarida yahudiylar to'g'ri chilar Amir Temur tomonidan Sabzavot, Sherov va Bag'doddan Movarounnahrda olib keelingan va ular keyinchalik mahalliy yahudiylar jamoalariga aralashib ketgan. XVI asrda Buxoro yahudiylarining bosh markaziga aylangan, aynan ushbu asrda shaharda yahudiylar mahallasi – "Mahallai ko'hna" tashkil topgan. Ular asosan, yahudiylar diniga e'tiqod qiladi.

Uyg'ur'lar. Xitoy Xalq Respublikasidagi Shinjon-Uyg'ur muxtor tumanining tub joy aholisi bo'lib, ularning nufusi 11 mln kishidan iborat. Uyg'ur'lar, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, Qozog'istonda 243 ming, Qirg'izistonda 50 ming, O'zbekistonda 20 ming, Turkmanistonda esa 1,2 ming kishi istiqomat qiladi. Shuningdek, ular Hindiston, Afg'oniston va Pokistonda ham yashaydi. Jahon bo'yicha jami 12 mln dan to 15 mingga yaqin uyg'ur millatiga mansub aholi yashaydi. Ular asosan, uyg'ur tilida so'zlashib, islom dinining sunniylik mazhabiga e'tiqod qiladi.

Tarixdan ma'lumki, uyg'ur'lar turkiy tili aholi bo'lib, uzoq davom etgan etnogenetik jarayonlar natijasida Sharqiy Turkistonda alohida etnik jamoa bo'lib shakllangan. Taniqli tishunos olim Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "uyg'ur" atamasining etimologiyasi, "Turkiy davmlar tarixi" va "Shakarain turk" asarlarida esa ular tarkibidagi urug'-qabilalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xitoyshunos A. Xo'javev xitoy yozma manbalariga asoslangan holda qadimda uyg'ur'lar 9 ta qabiladan iborat bo'lib, keyinchalik ular soni 30 taga ko'payganligini qayd etgan. Shuningdek, olim "uyg'ur" etnonimining turli talqinlari haqida ham ma'lumotlar bayon qilgan.

Yana bir xitoyshunos olim N. Bichunining tadqiqotlarida esa "uyg'ur" etnonimining transkripsiyasiga doir ma'lumotlar mavjud. "Uy'ur" atamasining kienkara tarixi asarida qayd qilinshicha, "uyg'ur" so'zi turkiyda "umtoq", "xuyxe" esa xitoychada "birlashmoq" degan ma'nolarni bildiradi. "Uyg'ur'lar tazkiras" nomli asarda keltirilishicha, "... uyg'ur'lar buki, tungro va bo'yig'ur'lar bilan birlashib, turklarga qarshi isyon ko'tarib, mustaqillikka erishgan, o'zlarini esa avvaliga "erkin", so'ngra "uyg'ur" deb atagan. Mazkur etnonim genezisi ga doir bildirilgan barcha fikrlar orasida "uyg'ur" atamasining "birlashgan" yoki "tashkil topgan" degan ma'nolarni

haqiqatga yaqin bo'lib, ushbu termin turkiy qabilalar ittifoqiga nisbatan qo'llanilgan.

Uyg'ur'lar 646-yilda Sharqiy Turk xoqonligi hududida Uyg'ur xonligi tashkil topgan. Uyg'ur-Urxun xoqonligi (Uyg'ur xoqonligi) davrida (744-840) uning barcha fuqarolari "uyg'ur", IX asrda uyg'ur'larining Idiqut (Turfon) davlati Xitoy manbalarida esa "Kujun xonligi" deb atalgan. XI asrda uning hududi g'arbda Kuchar shahridan Buyuk Xitoy devorigacha olib kelingan bo'lib, arab manbalarida "bilod Uyg'ur" yoki "Yug'ur" (al-Muvaziy) deb qayd etilgan.

Qozog'istonda uyg'ur'lar butun bir katta tumanini egallagan. Issiq (Chilik, Chungja) hududlari, Norinko'l hamda Ili tumanlari, Olmaota va Chirchikent shaharlarida ham ko'plab uyg'ur'lar yashaydi. Qirg'izistonda esa Bishkek, To'g'moq, Pjyevalsk va O'sh shaharlari, shuningdek, ayrim qishloqlarda, Turkmanistonning Beyramali va Mari tumanlari hamda Tajikistonning ayrim hududlarida uyg'ur oilalari yashaydi. O'zbekistonda uyg'ur'lar Farg'ona vodiysining Andijon shahri va Asaka, Izboskan va Paxtobod tumanlarida istiqomat qiladi.

Sharqiy Turkistonda "uyg'ur" etnonimi bilan birga joy nomlari asosida ham o'zlarini atash keng tarqalgan. Shu sababli ham 1921-yil mingda Toshkentda chiqarilgan "Jung'or va Olisshahar mehnatkashlarining iqtisodiy" da Sharqiy Turkistondan kelgan barcha aholiga nisbatan yaqinroq "uyg'ur" nomi berilgan.

Dunganlar. Mazkur xalq o'zlarini loxuey, loxueyxuey, xuey yoki chingyuangjin (dunyuanjin) deb atab, asosan, Qozog'iston, Qirg'iziston, qisman O'zbekiston hududida yashaydi. Ular dungan tili (Shimoliy Xitoyning shensi va gansu shevalari asosida shakllangan)da so'zlashad. Dunganlar Xitoydagi xuey xalqi bilan etnogenetik jihatdan yaqindir. Ular 1937-yildan boshlab rus grafikasiga asoslangan yozuviga, gansu shevalari asosidagi adabiy tiliga ega va islom dinining hanafiylik mazhabiga e'tiqod qiladi.

Dunganlarning kelib chiqishi faqat hali uzi-kesil hal etilmagan bo'lib, bu borada tadqiqotchilar asosan, uchta guruhga bo'linadi. Birinchi guruh tadqiqotchilari ularni arablar va xitoyliklarning aralashuvidan kelib chiqqan deb hisoblasha, ikkinchi guruh olimlari esa ularni uyg'ur'larining xitoy madaniyatini qabul qilgan, ichki Xitoyda yashaydigan qismi deb hisoblaydi. Tadqiqotchilarning uchinchi guruhida esa ularni VII-XV asrlar davrida Shimoliy Xitoyga kirib kelib, o'tmaslab qolgan arab, fors va Markaziy Osiyoning islom diniga e'tiqod qiluvchi turkiy qabilalarining avlodlari deb biladi. Dunganlar enogenezi bilan shug'ullangan

tadqiqotlarning ko'pchiligi, shu jumladan, xitoyliklar ham uchmochi guruh fikrini qo'llab-quvvatlaydi.

Taniqli xitoyshunos olim Abbat Xo'jaevning dunganlar etnogenezi bo'yicha fikrlari esa umuman boshqacha. Uning yozishicha, "Xitoyning asosan, dungan (xuey)lar yashaydigan provinsiyalarda qadimdan xitoy manbalarida "g'arbiy rivemlar (西戎 – g'arbiy otliqlar)" deb ataluvchi ilk turklar, ya'ni bugungi turkiy xalqlarning avlodlari yashagan tek-rivemlar (ilk turklar) o'z makonlarini tashlab, shimol va g'arbga ketishga majbur bo'ladilar. O'z ona yurtlarida qolgan tek-rivem qavmlarining bir bo'lagi shimolga kegan xunlar bilan qo'shni yashagan va o'zlarini turkiy deb hisoblagan (Ular Xitoy aholisiga mansub xonlardan tubdan farq qilgan, lekin ming yillar jarayonida xitoy xalqlari bilan (keyinchalik o'zlarini xanszu deb ataganlar bilan) yaqin yashaganliklaridan ularning qiyofasi, tili va ba'zi bir urf-odatlarini o'zlashtirgan. Shunga qaramasdan, ularning asosiy qismi ming yillar jarayonida xan (xitoy)lar bilan qo'shila olmasligi oqibatida islom dinini qabul etib, dungan (xuey) va shu kabi mayda millatlar shakllanishida eng muhim omillardan biri bo'lganligi ma'lum".

Dunganlarning alohida etnik guruh bo'lib shakllanish bosqichlari ko'p asrlar mobaynida davom etib kelgan ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayon, asosan, Xitoyning shimoliy va shimoliy-g'arbiy viloyatlarida ro'y bergan.

Dunganlarning qo'shnilari hisoblangan xitoyliklar ularni "synoszya", ya'ni "kichik oila" deb atagan. Xitoyda qadimdan yashab kelayotgan aholisi esa o'zlarini "xan sulolasining avlodlari" deb hisoblaydi.

"Dungan" nomi Sinszyan viloyatida XVIII asrda paydo bo'lib, Xitoyning ichki viloyatlaridan ko'chib kelib, o'troqlashib qolgan harbiy xizmatchilar, savdogarlar, hunarmandlar va boshqa ijtimoiy tabaqalarni ifodalagan (ba'zan "dungan" etimologiyasini "tungan" – hammasi Gansudan, "dunyuanjin" – "Xitoyda yashovchilar" yoki turkiycha "tungan" – "turi o'lkalaridan kelib, turib, o'rmaslab qolgan" deb talqin etiladi). Dunganlar Xitoyda "xueytszu" – "musulmon millat" deb atalib, 1949-yilda alohida millat maqomi berilgan. Ularning asosiy qismi Xitoyning Gansu, Shensi va Ninsya-Xuey avtonom viloyatlarida yashaydi.

1864–1878-yillarda Xitoyning shimoliy-g'arbidagi Sin sulolasi zulmiga qarshi dehqonlar qo'zg'oloni bo'lib o'tgan edi. Qo'zg'olonchilarning dunganlar va boshqa musulmon xalqlarining kambag'al tabaqasi asosiy kuch sifatida ishtirok etgan. Uzoq davom etgan harbiy harakatlar natijasida qo'zg'olonchilar yengilgan, natijada 1877–1878, 1881–1884-yillarda dunganlar guruh-guruh bo'lib, o'sha vaqtda Rossiya imperiyasi hududlari

hisoblangan Qirg'iziston va Qozog'iston yerlariga qochib o'ta boshlagan hamda ushbu hududlarda o'rmaslab qolgan.

Ularning Markaziy Osiyo hududiga ko'chib kelib joylashuvi uchta bosqichdan iborat. Har qaysi guruh Xitoyning ma'lum bir viloyatidan O'st, Qashqadaryo va Soqulub atrofidagi yerlarga kelib o'rmaslab. Markaziy Osiyo dunganlarning ko'pchiligi Xitoyning Gansu viloyatidan ko'chib kelgan dunganlar tashkil etib, ularning madaniyati boshqalaranikidan birmuncha farq qiladi. Chunki, ularning madaniyati va til xususiyatlarida uyg'ur madaniyatining ta'siri nisbatan kuchli seziladi.

Markaziy Osiyo dunganlari XX asr boshlarida xalq bo'lib shakllandi va asrning o'rtalariga kelganda o'z adabiy tili, madaniyati, adabiyoti va matbuotiga ega bo'ldi. Dunganlar asosan, savdo-sofit, dehqonchilik (bug'doy, sholi, jo'xori, qand lavlagi, tamaki v.b.), baliqchilik hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanadi.

Dunganlar O'zbekiston hududiga dastlab 1877–1883-yillarda ko'chib kelgan. Aynan ushbu davrda Farg'ona vodiysining O'sh viloyatiga atqaga 343 nafar dungan ko'chib kelgan. Toshkentda dastlab dungan savdogarlari XIX asr oxiri – XX asr boshlari va 1917-yilgacha Toshkentga yollanuvchi bir nechta dungan savdogar oilalari ko'chib kelgan. Dunganlarning asosiy qismi Xitoyning Shensi viloyatidan 1930–1936-yillarda dunganlar Toshkent viloyatiga joylasha boshlagan. 1935–1936-yillarda dunganlar Toshkent viloyatida "Lunmin Gunxo" va "Staxanovskiy jamoat" nomli jamoa xo'jaliklari tashkil qilindi. Hozirgi davrda dunganlarning asosiy qismi Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani bo'yicha MFV (Dungan mahallasi), Toshkent, Andijon va Farg'ona vodiysining boshqa shaharlarida yashaydi.

1973-yilda SSSR va Xitoy o'rtasida chegaradan o'tish tartibi kuchaytirilganligi tufayli O'zbekistondan Xitoyga qayta olmagan savdogar dunganlarning oz sonli qismigina doimiy yashab qolishga majbur bo'ldi. Keyinchalik ular o'z farzandlari bilan birga dunganlar jamoasining eng o'qimliligi qismini tashkil etadi.

XX asrning 50-yillari oxiri – 60-yillarining boshlarida O'zbekistonga XXRdan ko'chmanchilarning yana bir to'ligini kiritib keldi. Hozirgi 10–15 yil mobaynida dunganlarning mazkur qismini Qirg'iziston va Qozog'istonga ko'chib keldi. Hozirda ularning avlodlari Toshkent shahri va viloyatida yashaydigan dunganlarning 10% ga yaqinini tashkil qiladi. Ularning ayrimlari kelib chiqishiga ko'ra salarlardir. Bugungi kunga kelib ular dunganlar bilan

deyari to'liq chatishib ketgan va o'zlarini "dungan" deb hisoblaydi. Shuni qayd etish kerakki, salarlar, shuningdek, dunsiyon va baoralarning dunganlar bilan aralashuvi verbal darajada Xitoyda ham sodir bo'lgan.

XXR Nimsya-Xuey Avtonom hududining markazi bo'lgan Inchiun shahrida xitoylik eng mashhur dunganlarga 10 ta haykal o'rnatilgan. Ularning orasida 4 nafari buxorolik va samarqandlik, shulardan uchta sinning haykali markaziy osiyoliklarning choponi va sallasi tasvirlangan. To'rinci mashhur zot, kelib chiqishi buxorolik bo'lgan admiral Chjen Xe XV asrning birinchi choragida, imperator Yuntse hukmonik qilgan davrda Hindiston, Arabiston, sharqiy va janubi-sharqiy Afrika qirg'oqlariga yetti marta dengiz orqali sayohat qilgani bilan tanilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi o'z millatdoshlari bilan va o'z milliy-madaniy markazi orqali XXXRning O'zbekistondagi rasmiy vakolatxonalarini, shu jumladan, Xitoy elchixonasi bilan aloqa qilish imkoniyatlari yanada kengayishi natijasida dunganlarda o'z tarixi, madaniyati va tiliga bo'lgan qiziqishi yanada kuchaydi. So'nggi yillarda O'zbekiston va Xitoy o'rtasida dunganlar do'stlik ko'prigi vazirlar baxarmog'ida.

Tatarlar. Qozon tatarlarining asosiy qismi Tatariston Respublikasida yashaydi. Ular, shuningdek, Rossiya Federatsiyasining Boshqirdiston, Mari, Mordoviya, Udmurtiya va Chuvashiston respublikalari, Nijniy Novgorod, Kirov va Penza viloyatlarida yashaydi. Shuningdek, turkiy tilda so'zlashuvchi Sibir (Sibir tatarlari), Qrim (Qrim tatarlari) va boshqa qavmlari ham o'zlarini "tatarlar" deb ataydi va tatar tilida so'zlashadi. Dindorlari – sunniy musulmonlar bo'lib, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanadi.

Birinchi marta "tatar" etnonimi VI–IX asrlarda Baykal ko'lining janubiy-sharqiy sohillarida yashovchi ko'chmanchi mo'g'ul qabilalari orasida uchragan. Mo'g'ullar istilosi davri (XIII asr)da "tatar" nomi Yevropaga ma'lum bo'lgan. Turkiy tili qabilalarning Ural va Volga bo'yilariga kirib borishi milodiy III–IV asrlarga to'g'ri kelib, xun va boshqa qabilalarning Sharqiy Yevropaga istilosi davri bilan bog'liq. Tatarlar ugor-fin xalqlari bilan aralashib ketgan. V – VII asrlarda turkiy qabilalar Turk xoqonligi bosqini munosabati bilan G'arbiy Sibir, Volga va Ural bo'y mintoqalariga qayta kirib kelgan. VII–VIII asrlarda Arablar bo'yilaridan Volga bo'yiga bulg'orlar kirib kelib, turkiylar va mahalliy ugor-finlar bilan birga Volga-Kama Bulg'oriyasi davlatini tuzgan. XV–XVI asrlardagi davlat (Qozon, Astraxan, Qrim, Sibir va b.)lar davrida

tatarlarning alohida guruhlari – O'rta Volga bo'y va Ural bo'y (Qozon tatarlari, mahalliy), Astraxan, Sibir va Qrim tatarlari shakllana boshlagan.

Koreyslar. Koreyslar o'zlarini "Choson sarom" – "Choson mamlakati odamlari" deb ataydi hamda Koreyaning asosiy aholisini tashkil qiladi. Ular asosan, KXDR, Koreya Respublikasi, AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Yaponiya, O'zbekiston, Qozog'iston va boshqa qat'iy mamlakatlarda yashaydi hamda koreys tilida so'zlashadi. Mongoloid irqiga mansub bo'lib, asosan, budda, konfutsiylik va xristian dinlariga sig'inadi.

Koreyslarning ajdodlari juda qadimdan Koreya yarimoroti hududida yashab kelmog'ida. Koreyslarning rivojlanishida uchta qabila guruh (paleosyo, oltoy, avstronez) faol qatnashgan bo'lib, bunda yetakchi o'rin protooltoy qabilalari o'ynagan. Koreys qabilalarining birinchi ittifoqi – Choson milodiy I asrda vujudga kelib, ushbu holat aholining etnik tarkibiga katta ta'sir ko'rsatgan. Miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida Manjuriyaning janubi va Koreyaning shimida Choson davlati (o'zlarini choson deb ataganliklari shundan) tashkil topgan.

III o'rta asrlarda Koreys davlatining vujudga kelishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tarixida hamuzgacha bahsli masala hisoblanadi. Koreysda quldorlik davri bo'lganmi? – degan savolga haligacha uzil-kesil javob berilmagan. Ba'zi koreys tarixchilari mamlakat hududidagi ilk feodal ierarhiyalarni quldorlik davrlari, deb hisoblaydi.

Mamlakarda yarim orolda yashagan turli qabilalar haqida ma'lumotlar mavjud. Shimolda koguryo, yemek va ochko. Xangien bo'yidan janubroqda esa xan qabilalari yashagan. Ular uchta shaxslarga bo'lingan: maxan (xan), chinxan va pyonxan. Ahdi chorvachilik, baliqchilik va ovchilik bilan mashg'ul bo'lgan, lekin asosiy mashg'uloti dehqonchilik hisoblangan. Asosan, "besh-non" deb atalgan oshlar etilgan va kiyimlari bo'z va shoyidan tayyorlangan.

Sinfy munosabatlari shimoldagi Annokan daryosi havzasida yashovchi koguryo qabilasida etaroq boshlangan va natijada okcho hamda yemek qabilalari Koguryoga bo'yusundirilgan. O'liponlar don, materid, hashq va kumzakar bilan to'langan. Janubda sinfy jamiyat qaror topishi jarayoni kechroq boshlangan. Xan qabilasi 78 ta uruqqa bo'lingan va xitoy mamlakatida ham tilga olingan Koguryoda harbiy dohiy Van (kord) davlati o'lgan.

Koguryo davlati gachon paydo bo'lganligi xususida tarixchilarda fikr-ma'yaning emas, lekin u IV asr oxiri – V asr boshlarida jarayonning shimoli hamda qo'shni Lyadun hududini egallagan kuchli davlat edi. Yarim orol janubida davlatning paydo bo'lish jarayoni pektu,

saro va kaya qabilalari tomonidan zaifroq qo'shinlarni bo'yisundirish orqali yuz bergan. Bo'yisundirilgan yerlar anstokratiyasi tabiiy ravishda bosqinchi zodagonlar bilan qo'shilib ketgan. Pekche jamoasi III-IV asrlarda qo'shinu jamoa va qabilalarni bo'yisundirgan. Koreya janubiy g'arbida Xanggan va Kimgan dayvorlari havzalarida ancha kuchli Pekche davlati paydo bo'lgan.

V-VI asrlarda yarin orolning janubiy-sharqiy qismida Silla davlati vujudga kelgan. Uning yadrosini saros (sobil) qabilasi tashkil etgan. Yangi davlatda ma'muriy bo'yinishning hududiy tamoyiliga amal qilingan. Ushbu darajadagi maxsus chinovniklar apparati vujudga kelgan. Silla davlatining eng janubidagi Kaya qabilalar ittifoqi va uzog Usan orolini o'ziga qo'shib olgan. Shunday kilib, VI asrga kelib, Koreya yarimorolida hukmronlik uchun o'zaro kurashayotgan Koguryo, Pekche va Silla davlatlari bor edi. Ushbu davlatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar xarakteri masalani koreys tarixshunosligida uzog vaqt bahslarga sabab bo'lib keldi. Ba'zi tarixchilar ularni quldorlik davlatlari edi, deb hisoblasalar-da, ular feodal xarakterga ega bo'lib, dehqon jamoalari davlat fuqarolari sifatida soliq to'lagan.

Koguryoda dastlabki budda rohiblari 372-yilda paydo bo'lgan Pxenyan yaqinida ikkita budda monastiri qurilgan bo'lib, 384-yilda Pekche vanni iltimosiga binoan, Xitoydan rohiblar kelgan va ularga katta yerlar in'om etilgan. Silla davlatiga Koguryodan kirib kelgan buddizm VI asr birinchi yarmida keng tarqalgan. Sillada ham ma'muriy bo'yinish Xitoydagi kabi ko'rinishda bo'lib (viloyat, okrug va uезд), ularning rahbarlari poytaxtdan tayinlangan. Davlat poytaxti Kimson vaqtlar o'tib, yirik shaharga aylangan. X asrining boshlarida koreyslar yagona xalq sifatida shakllangan.

Koreyslar O'zbekiston, Qozog'iston va boshqa MDH respublikalariga XX asrning birinchi yarmida kelib qolgan. Dastlab ular XIX asr o'rtaalaridan Rossiya imperiyasining shahar va qishloqlariga ko'chib o'ta boshlagan. Qashshoqlik va og'ir hayotga barham bera olmagan kambag'al koreyslar tirikchilik uchun qulay shart-sharoitlarni izlab, o'zga yurtlar, birinchi navbatda, Xitoy va Rossiyaga o'z oilalari bilan yoki yolg'iz qochib bergan. 1920-yilgacha vaqt-vaqt bilan koreyslar sovetlar mamlakatiga ko'chib o'tgan. XX asrning 20-yillari oxiriga kelib sobiq ittifoq hududida yashayotgan koreyslarning ko'pchiligi ushbu fuqaroligiga o'tdi.

O'zbekistonda koreyslar ko'proq Toshkent viloyatining Bo'ka, Piskent, To'ytepa, Ogqo'rg'on, G'azalkent va Ohangaron shaharlari va ularning atrofidagi qishloqlarda yashaydi. Shuningdek, koreyslar Xorazm,

Samarqand, Namangan, Farg'ona va Andijon viloyatlari hamda Qashshoqlikiston Respublikasida ham yashaydi.

Qozog'istonga ko'chib o'tgan koreys oilalari asosan, Qizilo'rda va Chirchik viloyatlarida istiqomat qiladi. Koreyslarning aksariyati ikki til (o'z tili va rus tili)da gaplashadi, ba'zilari esa uchta til, ya'ni mahalliy tili ham biladi.

1917-1939-yillarda sovet tuzumi zo'ravonlik bilan Rossyaning Uzoq Sharq o'lkasidan 74500 nafar koreyslarni O'zbekiston hududiga ko'chiradi. Bunga asosiy sabab, Sovet Ittifoqi bilan Yaponiya o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi bo'lgan. O'sha davrda Koreya yarimoroli Yaponiya tomonidan bosib olingan bo'lib, tub koreys aholisi bilan Uzoq Sharq hududidagi koreyslarning etnik kelib chiqishi bir xil edi. O'zbek selp koreyslarga nisbatan o'zining mehmondo'stligi va bag'rikengligini ko'rsatdi. Ularni uy-joy, ish bilan ta'minladi, ularga maishiy xizmat va mahalliy o'choqlar yaratdi, bolalarining o'qishi hamda ta'lim olishi uchun mad'ablar ochdi.

Kurdlar. O'zlarini "kura", "kurmag" deb ataydi. Ular Turkiyada 15 mln, Eronda 7,2 mln, Eronda 10-12 mln, Suriyada 2,5-3 mln, Germaniyada 800 ming, Afg'onistonda 200 ming, Ozarbayjonda 6,1 ming, Livanda 80 ming, Rossiyada 65 ming, Gruziyada 12 ming, Qozog'istonda 38 ming, Turkmanistonda 6 ming kishini tashkil qiladi. Ularning asosiy qismi sunniy musulmonlar bo'lib, shuningdek, shialar va alaviylar hamda boshqa mad'ab egalarlari ham bor.

Kurdlar asosan, Turkmanistonning Ashxobod, Bayramali va boshqa tumamlarda joylashgan. Ular gadimdan Xuroson va Turkmanistonda yashab kelgan. Kurdlarning asosiy mashg'ulotlari chorvachilik va dehqonchilik, shuningdek, hunarmandchilik turrlaridan biri bo'lgan to'quvchilik ham keng tarqalgan.

Balujlar. O'zlarini "baluch" yoki "baloch" deb ataydilar, asosan, Turkmaniston (6,2 mln, kishi) va Eron (2,5 mln, kishi)da yashaydi. Shuningdek, Afg'oniston (567 ming), Turkmaniston (28,3 ming, kishi) va arab musulmonlarida ham yashaydi. Umumiy soni 9 mln, kishi atrofida bo'lib, kishilarda ko'zlashadi va islom dinining sunniy mazhabiga e'tiqod qiladi.

Balujlar ko'chmanchi chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Arab geograflarining bergan ma'lumotlariga ko'ra, balujlar Turkmaniston (Eronning janubiy-sharqidagi shahar) va uning sharqiy qismidagi boshqa viloyatlarda yashagan hamda ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan. Balujlar ushbu hududlarga arablar istilosidan taxminan 300 yil avval kelib joylashgan. Ingliz olimi M. Longdos Deymosning

ma'lumotlariga ko'ra, baluylarning vatani Shimoliy Eron bo'lib, eftaliylarning shimoliy Eronga qilgan hujumi (VI asr) natijasida, ular Kermonga ko'chib ketgan. Keyingi asrlarda vaylovlarning tarqalishi turli asla-sekin sharqqa siljishga majbur etgan. XI-XIV asrlar davomida baluylar yashagan hudud hozirgi Balujiston joylashgan yerlarigacha kengaygan. XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida Afg'oniston va Eron Seyistonida yashovchi baluylarning bir qismi Turkmaniston Respublikasi, Mari va Choy'o'y (hozirgi Turkmanobod) viloyatlariga kimb kelib joylashgan. Baluylarning ayrim guruhlari Farg'ona vodiysi va qora Qashqadaryodagi Baluch qishlog'ida ham yashagan.

Markaziy Osiyo baluylari asosan, Turkmaniston (Mari viloyati)ning shahar va qishloqlarida joylashgan, ko'proq Bayramali tumani yashaydi. Ular qisman Tojikistonda ham yashab, asosan, chorvachilik bilan shug'ullanadi.

Baluylarning turar-joylari boshqalarnikidan ancha farq qiladi. Ular orasida gedan nomi bilan mashhur bo'lgan uy asosiy yashash maskani vazifasini o'tagan. Chodirning ustiga echki junidan qalin qilib to'qilgan, to'q jigarrang to'qilgan mato yopilgan. Qishda yarim yerto'la yoki loy suvoqdan qilingan "qora uy"larda yashagan. Erkaklari ishton, sholvor, oq ko'yak, jumag, oq yoki qora chit gazlamadan tikilgan mimcha (voskan) kiyib yurgan. Oyoqlariga turkman poyafzalini kiyib, boshlariga qalin salta o'taydilar.

Ayollari ham sholvor, ko'yak va jumak kiyib, boshlariga ro'mol o'taydi hamda ro'mol ustidan durracha, ya'ni chargat va pat taqib oladi. Qo'sh ro'mol ustidan yana chodir tashlab yuradilar.

Taomlari orasida tandir non, turli pishloqlar, qovun va tarvuzni ko'p tanovul qilindi.

Salorlar, salurlar - (o'zlarini "salir" deb ataydilar) Xitoydagi turkiy xalq bo'lib, asosan, Chingxay (Sinxay) o'lkasi Syunxua ("to'atkorlik" ma'nosini bildiradi) tumani yashaydi. 1954-yilda ushbu tumanga muxtoriyat maqomi berilgan. Salorlarning kam qismi Gansu va Shining-Uyg'ur muxtor viloyatida istiqomat qiladi. Ularning umumiy soni 130607 kishini tashkil etadi va salor tilida so'zlashadi. Salorlar sunniy musulmonlar hisoblanadi va 1954-yilda ular alohida millat sifatida tan olingan.

Xitoy yilnomalarida salorlar XIV asrdan boshlab tilga olingan Akademik V. V. Bartold salorlarning Turkmanistonda yashaydigan turkman (o'g'uzlar) tarkibida bo'lgan salor (salir) qabilasi bilan tarixan bog'liq, deb ta'kidlagan edi. Abdulg'oziy Bahodirxonning yozishicha,

O'g'uzxonning o'g'li Tog'xonning 4 nafar o'g'li bo'lib, kattasining ismi salor edi. Hozir XXRda yashaydigan salorlarning hayotida turkistonliklar, arablar, o'zbeklarning urf-odatlari yaxshi saqlanib qolgan. Masalan, ular to'rtinchi atrofi, ko'chalari va hovlilariga mevali daraxtlar ekib, boqqa solib, uy-joy qurishda to'sinlarni bezatib, hovlilarga qaratilgan katta ayvon harpo etadilar. Mahallalarda masjid solishga alohida e'tibor beriladi, masalan, birgina Syunxua tumani 79 ta katta-kichik masjid mavjud bo'lsa va Qubon hayitlari katta tantana bilan nishonlanadi.

Xitoylar bilan yaqin yashashga qaramay, islom bo'yicha haron deb ko'ratilgan narsalar yeyilmaydi. Erkaklar oq yoki qora do'ppi, yosh ayollar esa oq ko'yak, uning ustidan mimcha kiyib, bellariga qizil belbog' bog'laydi, shuningdek, katta yoshdagilar to'n kiyadi.

Salor qizlari qizil ko'yak, uning ustidan qora mimcha va do'ppi kiyadi, qulog'iga bir nechta xalqadan iborat bo'lgan zirak taqadi. Yosh ayollar yashil, o'rta yoshdagilar qora, keksalari esa oq ro'mol o'taydi. Erkak va motam marosimlari o'zbek va uyg'urliklarga o'xshab ketadi. Har yili yillarda salorlarning maishiy hayoti, ayniqsa, kiyinish ma'naviyatida ancha o'zgarishlar bo'lsa-da, milliylik yaxshi saqlanib qolgan.

Salorlar qadimdan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan, shuningdek, savdogarchilik, bog'bonchilik va oltin qazish kabi kasblar ular hayotida katta o'rin tutadi va aksariyat oilalar tuman-mondchilik bilan ham shug'ullanadi.

Mo'g'ullar - (o'zlarini mo'g'ul deb ataydi) Mo'g'uliston yashaydigan asosiy xalq bo'lib, XX asrning o'rtalarida mo'g'ullar yashagan hududning janubiy qismlari XXR tarkibiga kiritilib, unga Ichki Mo'g'uliston deb nom berilgandan so'ng ular Mo'g'uliston va XXR mo'g'ullariga bo'linib ketgan.

Mo'g'ulistonida 3 mln, XXR da 6 mln, Rossiya Federatsiyasida esa 100 ming mo'g'ullar yashaydi va ularning umumiy soni 10 mln. kishini tashkil etadi. "Mo'g'ul" etnonimi Chingizxon davriga oid bo'lib, tarkibi muvofiq bo'lgan qabilalar ittifoqi nomini anglatgan.

Xitoy manbalarining guvohlik berishicha, mo'g'ul nilun-mo'g'ul (mo'g'ul) va xannux-mo'g'ul (omuxta, ya'ni aralashtirgan mo'g'ul) kabi ikki guruh bo'linadi. Birinchi toifaga dastlab 30 ta qabila kirgan bo'lib, ular orasida ko'k ko'zliklar ko'pchilikni tashkil etgan. Chingizxonning o'g'li Yengay bahoir (Asugay-batur) tobe bo'lgan avlod ham ko'k ko'z bo'lgan filu bo's u Xitoy manbalarida "Yanyan chiyati" (ko'kko'z chiyat) deb nomlangan. Ularning tarkibiga kirgan qabilalarning eng yiriklari tatlar

(dadani-aluxay, dutaut, alchi va chagan kabi yirik qabilalardan tashkil topgan ittifoq), qiyot (kele), nayman, jalyoyir, merkit (meerchiti, vuduyiviti, melichi, meliji) va boshqalar bo'lgan.

XII asming birinchi choragida tatar va boshqa xalqlar Chingizxon boshchiligidagi o'zlarining g'arb va janubdagi qo'shinlari (kidanlar, qipchoqlar, uyg'urlar, naymanlar, keraitlar, merkitlar (marqitlar) va tangutlar)ni bo'yusundirib, yirik davlatni barpo etgan. Mo'g'ul elati aynan shu davrda shakllangan. Shu sababli "mo'g'ul" nomi XIII asrdan boshlab Chingizxoniga tarafdor va tobe barcha qabila hamda elatlarning umumiy nomiga aylanib ketgan.

XIII-XIV asrlar ko'chmanchilikka asoslangan Mo'g'ul saltanatining gullagan davri hisoblanadi. Aynan o'sha davrda mo'g'ullar xalq sifatida shakllangan. XV asr boshlarida ma'lum siyosiy voqeaalarga ko'ra, mo'g'ullarning g'arbiy qismi (4 ta katta qabiladan iborat bo'lgan oyrot va, derbentlar) ajralib chiqib, 1635-yilda o'z davlati – Jung'or xonligi (1635–1758)ni tashkil etgan va Markaziy Osiyodagi yirik kuchga aylangan. XVI asr o'rtalarida esa sharqiy mo'g'ullar shimoliy (xalxaliklar) va janubiy (uzunchinlar va ordalar) kabi qismlarga bo'linib ketgan. XVI–XVII asrlardan mo'g'ullar lamaizmg'a e'tiqod qila boshlagan.

MO'G'ULLARNING ETNOGENEZI MASALASI

Xitoy manbalarida mo'g'ullarning kelib chiqishi turkiy bo'lib, ularning ilk ajdodlari tatarlar (tat, dadan)ga borib taqaladi, deb qayd etiladi.

Yaponiya va Xitoy tadqiqotchilari mo'g'ullar xunmlarning avlodi, deb hisoblaydi.

Mo'g'ul olimlari, jumladan, Suren Badalax (Suri-badalax) mo'g'ullarning qadimiy turkiy xalq bo'lishi "di" larning avlodi, miloddan avvalgi III asrlarda govchilardan ajralib chiqqan muoge qabilasi mo'g'ullarning ilk ajdodidir, deb hisoblaydi.

Hozirgi zamon Xitoy olimlari ichida mo'g'ul tunguslar (dungxu – sharqiy xo'rlar) demakiridnan kelib chiqqan, degan fikrlar keng tarqalmoqda.

XIII-XIV asrlar ko'chmanchilikka asoslangan Mo'g'ul saltanatining gullagan davri hisoblanadi. Aynan o'sha davrda mo'g'ullar xalq sifatida shakllangan. XV asr boshlarida ma'lum siyosiy voqeaalarga ko'ra, mo'g'ullarning g'arbiy qismi (4 ta katta qabiladan iborat bo'lgan oyrot va, derbentlar) ajralib chiqib, 1635-yilda o'z davlati – Jung'or xonligi (1635–1758)ni tashkil etgan va Markaziy Osiyodagi yirik kuchga aylangan. XVI asr o'rtalarida esa sharqiy mo'g'ullar shimoliy (xalxaliklar) va janubiy (uzunchinlar va ordalar) kabi qismlarga bo'linib ketgan. XVI–XVII asrlardan mo'g'ullar lamaizmg'a e'tiqod qila boshlagan.

XVII asr boshlarida Mo'g'ulistonni manchjurlar bosib olganidan so'ng mo'g'ullar deyarli uch asr (1691–1911) mobeyimda asoratda yashab, 1921-yilda mustaqillikka erishgan. Xalq inqilobidan keyin mo'g'ullar shimoliy g'oyasiga berilib, o'z davlatini Mo'g'uliston deb e'lon qilgan. XNRda yashaydigan mo'g'ul elatlari (xochinlar, barinlar, ordoslar, namenchinlar va b.) o'z nomlarini saqlab kelmogda. Ularning xo'jaligi va ma'ddiy madaniyatida xitoy hamda manchjurlarning ta'siri yaqqol seziladi.

Mo'g'ullarning azaliy mashg'uloti chorvachilik hisoblanadi. Dehqonchilik mo'g'ullarga kidanlar davridan beri ma'lum bo'lib, asosiy ehtiyoj lalmukor g'allachilik (bug'doy, arpa) hisoblendi. Shuningdek, ovchilik xo'jaligi an'analari ham yaxshi saqlangan.

Buryatlar – o'zlarini buryat deb atab, Rossiya Federatsiyasining Buryatiya Respublikasining asosiy aholisi hisoblanadi. Hozirgi kunda ularning 286 ming nafar kishini tashkil qiladi. Ular Rossiya Federatsiyasida 401 ming, dunyo bo'yicha esa 600 ming kishidan ortiq. Buryatlar budag'ular, exindlar, harinilar va xo'ndxo'rlar) Mo'g'ulistonning shimidi va Xitoyning shimoliy-sharqida ham yashaydi.

Buryatlar mongoloid irqiga mansub bo'lib, buryat tilida so'zlashad. Ular o'zlarida budda, lamaizm, shuningdek, xristianlik (pravoslaviye) tarqalgan va qadimiy diniy e'tiqodlar (shomonlik) ham saqlangan.

Buryatlar ikki qismga bo'lingan: g'arbiy o'troq chorvadorlar va dehqonlar. Ular XX asrning 20–30-yillarida o'troqlashgan.

Buryatlar xo'jaligini asosan, chorvachilik tashkil etadi, ba'zi tuman (aymaqlarda) dehqonchilik, ovchilik va hunarmandchilik bilan ham shug'ullanadi.

Naxalar – rus manbalarida "yakutlar" deb qayd etilgan. Ular Rusiya Federatsiyasi Saxa Respublikasining tub aholisi (466 ming) hisoblanadi va Rossiya Federatsiyasida saxalardan jami 478 ming kishi yashaydi. Shuningdek, saxalar Amur, Megaden va Saxalinsk viloyatlar, Taymyr va evenk muxtor o'lkalarida ham tarqalgan. Ular Lena daryosi

o'ra oqimi, Janubiy Oldan va Vilyuda, qisman Olekmaning quyri oqimi va chekka shimol hududlariga joylashgan.

Saxalar tili turkiy tillarning sharqiy tarmog'iga mansub bo'lib, saxa tilida so'zlashadi. Dindorlari – pravoslavlar.

“Saxa” etnonimining kelib chiqish tarixi juda murakkab. Ular Baykal ko'lidan Lena daryosining o'ra oqimi bo'yiga ko'chib kelib (X-XV asrlar), tub aholi (evenklar va yukagirklar) bilan qo'shib kelgan. Milodning dastlabki davrida Saxa hududiga evenklarning ajdodlari ko'chib kelgan.

“Saxa” etnonimi milodiy II asrning birinchi yarmida Lena daryosining o'ra oqimi va Baykal sohillaridan kelgan turkiy qabilalarning qadimgi paleosiy va tungus tillaridagi elatlarning o'zida singdirishi natijasida paydo bo'lgan.

X-XV asrlarda Baykal ko'li atrofidan kelgan turkiy qabilalar bilan tub aholi aralashib, saxa xalqi vujudga kelgan. XVII asrda saxalarning katta guruhini Lena, Yana, Indigirka va boshqa yirik daryolarning vodiylariga yoyilib, mahalliy aholi bilan aralashib ketgan. Saxalarning etnik birlashuvi XVII asrning 20-30-yillarida Rossiya imperiyasi tomonidan boshlab olinganidan keyin tugallangan.

Saxalar turkiyzabon xalqlardan uzoqlashib ketgan. Chorvachilik bilan shug'ullansalar-da, lekin o'z qo'simlari – shimolda yashovchi ovchilik xo'jaligini yurituvchi kichik etnoslardan keskin farq qiluvchi. Shuningdek, saxalar dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanadi.

Oltoyliklar – o'zlarini “oltoy-kiji” deb arab, G'arbiy Sibirdagi Oltoy Respublikasida yashaydi (68 ming kishi). Rossiya Federatsiyasida oltoyliklar jami 74 ming nafar kishini tashkil etadi.

Oltoy hududida qadimdan olon qabilalari yashagan. Quyri va yuqori paleolit davrlariga oid manzilgohlar (Usalinka va Ukan) topilgan. Ushbu hududlardan xunmlar, turk qabilalari, uyg'urlar, Enasoy qirg'izlari, qoraxitoylar va mo'g'ullar o'tgan.

XIII asr boshlarida Oltoy hududi mo'g'ullar davlatiga tobe qilingan bo'lsa, 1756-yilga kelganda oltoyliklar Rossiya imperiyasi tarkibiga o'tgan.

O'rnishda “oyrotlar” deb noto'g'ri atalgan Oltoy xalqi qadimiy samoviy, ket, utar va turk qabilalarining aralashish jarayoniga natijali bo'lgan. Janubiy oltoyliklar esa Sayan-Oltoy qadimiy turklari (X-XVIII asrlar) bilan ko'chib kelgan mo'g'ul qabilalari (XIII, XV-XVIII asrlar) bilan aralashishi oqibatida paydo bo'lgan.

Oltoyliklar quyidagi etnografik guruhlarga bo'linadi: oltoy kili, telengitlar, teleslar, teleutlar, tubalarlar, chikanlar va kumandnlar (tillar).

oltoy tilida so'zlashadi, dindorlari esa pravoslav, bir qismi baptistlar hamda an'anaviy diniy e'tiqodlar saqlangan. Aholi asosan, chorvachilik va ovchilik bilan shug'ullanadi. Oltoyliklar hozirgi davrda yuqori Ob daryosi havzasi va Oltoy orolig'idagi vodiylarda yashaydi.

Tuvalliklar – asosan, Rossiya Federatsiyasining Tuva (Tiva) Respublikasida yashaydi (273 ming nafar kishi). O'rnishda “uyunxayliklar”, “soyotlar” va “sayanliklar” deb atalgan. Tuvallarning kelib chiqishi VII-VIII asrlardagi Urxun-Enasoy yozuvlarini yaratgan turkiy qabilalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ularning etnogenezida namodiy qabilalari (nenetslar va selkuplar) ham qisman ishtirok etgan.

Tuvalliklar tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, ushbu tili Tuva Respublikasi, qisman Mo'g'uliston va Xitoyda tarqalgan. Mazkur tilda 250 ming nafardan ziyod kishi gaplashadi.

Xakaslar – Sharqiy Sibirming janubiy qismida yashab, o'zlarini “xakas” deb ataydi. Ular qadimda “Abakan yoxud Minusinsk tatarlari” deb ham yuritilgan. Ular asosan, Rossiya Federatsiyasining Xakasiya Respublikasida yashaydi (63,9 ming nafar kishi). Rossiya Federatsiyasida xakaslar soni jami 74 ming nafar kishidan oshadi. Ular xakas tilida so'zlashadi. Dini xristian dini bo'lib, an'anaviy e'tiqodlar ham saqlangan.

Xakaslar asosan, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bilan shug'ullanadi.

Shorlar – Rossiya Federatsiyasining Kemerovo viloyati (Tog'li Shorlari), qisman Oltoy va Xakas Respublikalarida yashaydi. Ularning soni 13 ming nafardan ortiq bo'lib, shor tilida so'zlashadi. Ushbu tili turkiy tillarning uyg'ur-o'g'uz guruhini xakas shoxobchasiga kiradi. Dindorlari deyarli rasman xristian bo'lsalar-da, qisman shomonlik ham saqlangan. Ular ket va ugorlarga xos bo'lgan mahalliy emoslar asosida shakllangan.

VI-VIII asrlarda shorlar Turk, Uyg'ur va Yenisey xoqonliklari tarkibiga kirib, qadimgi oltoy, uyg'ur hamda Yenisey qirg'izlari ta'sirida turkiylashgan. XVII-XVIII asrlarda shorlar shimoldan kirib kelgan teleutlar bilan aralashib ketgan. XVII-XVIII asrlarda ruslar shorlarni “yemirchi tatarlar”, “kondom va mras tatarlari, abinlar” deb atagan. Shorlar o'zlarini urug' (qarg'a, qiy, qabiy), hudud (Tayash choni-Tayash hudud) yoki daryo nomlari (Mras kiji-Mras odamlari, Kandum chani-kondum kulg'lar), yashash joylaridan tashqarida bo'lsa, aba kiji (aba-urug', kiji-odamlar), chji kiji (tayga odamlari) nomlari bilan ataganlar.

Oltoyliklar va xakaslar ularni urug' nomi bilan “shorlar” deb atagan. Ushbu atama keng tarqalib, XX asrdan boshlab shu nom bilan faqat yuritib kelinadi. XIX asrgacha shorlarning asosiy mashg'ulotlaridan

biri temirchilik bo'lgan. Ular temir va temir mahsulotlari bilan Turk xoqonligiga o'lgan to'lar, qo'shni chorvadorlar bilan bo'lsa, qoramolga almashirar edi.

XVIII asrdan boshlab ishlab chiqargan temir mahsulotlarini rus savdogarlariga o'tkazgan. Ruslar shorlarni "temirchi odamlar", o'lkasini bo'lsa, "Temirchilar yeri" deb atagan. XVIII asrning oxirlaridan boshlab, ko'chmanchilar bilan aloqalarning susayishi, aksincha, ruslar bilan kuchayishi natijasida shorlarning temirchilik mahsulotlari raqobatiga bardosh berolmadi va asta-sekinlik bilan yo'qolib, asosiy mashg'ulotlari ovchilikdan iborat bo'lib qoldi.

Kundalik oziq-ovqatlarining asosini baliq mahsulotlari tashkil etib, shorlarning 40-70 % aynan shu mashg'ulot bilan band bo'lgan. Qo'shimcha mashg'ulotlardan yana biri temirchilik bo'lib, bahor va yoz oylarida shor ayollari turi o'rmon mevalari va o't o'lanlarni terib, qishga saqlab qo'ygan. O'lkaga ruslar kirib kelguniga qadar shorlar dehqonchilik bilan ham shug'ullanib, asosan, bug'doy ekan bo'lsa, ruslar kirib kelganidan so'ng esa shorlar otlarni ko'paytirish (urchitish), arava va chanelar yasash hamda ulardan foydalanishni o'zlashtirib olgan. Shor ayollari xonaki usullardagi tikuvchilik bilan ham shug'ullangan. XX asrning 20-yillaridan so'ng shorlar an'anaviy xo'jalik yuritish shakllarini yo'qolib, o'rmon, yog'och tayyorlash va oltin qazish ishlari bilan band bo'lgan.

Shorlarning dastlabki oziq-ovqat mahsulotlari turli hayvon va parrandalarning go'shti, baliq hamda yovvoyi o'simliklardan iborat bo'lgan. Keyinchalik dehqonchilik rivojlangach, un mahsulotlaridan keng foydalanish boshlangan. Dastur hududlarida yashovchi shorlarning oziq-ovqat ratsionida sut va sut mahsulotlarini keng o'rta egallagan. Shorlarda boy an'anaviy folklor rivojlangan bo'lib, xalq orasida etaklar, ovchi hikoyalari, afsonalar, ashula, ayitshuv, maqollar va topishmoqlar keng tarqalgan.

1980-yillardan boshlab shorlarning an'anaviy madaniyatiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. 1989-yilda "Tog'li shorlarning uyg'onishi" dasturi qabul qilindi. Bugungi kunda shor milliy parki va turli folklor ansambllar tashkil qilinmoqda.

Ruslar – Rossiya Federatsiyasining asosiy aholisi hisoblanadi (120 mln. dan ziyod kishi). Shuningdek, ular Ukrainada 11,35 mln., Qozog'istonda 3,5 mln., O'zbekistonda 750 ming, Belorussiyada 916,6 ming, Latviyada 900 ming, Moldaviyada 560 ming, Estoniyada 475 ming, Ozarboyjonda 390 ming, Tojikistonda 390 ming, Litvada 345 ming.

O'zboyjonda 340 ming, Turkmanistonda 330 ming, Armanistonda 51 ming, shuningdek, Shimoliy Amerika mamlakatlari (asosan, AQShda 1 mln. nafar, Kanada va boshqa davlatlarda taxminan 1,4 mln. nafar) va G'arbiy Yevropada yashaydi. Ularning umumiy soni 140 mln. kishidan iborat bo'lib, rus tilida so'zlashadi hamda xristianlik dinining pravoslav mazhabiga e'tiqod qiladi. Ruslar ukrain va beloruslar kabi urug'-qabillachilik munosabatlarning yemirilishi hamda Kiev atrofiga Qadimgi Rus davlatining vujudga kelishi jarayonida sharqiy slavyan qabillaridan shakllangan qadimgi rus elatidan paydo bo'lgan.

Rus dehqonlari Qozog'istonda XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida birinchi marta paydo bo'lgan. Ushbu rus oilalari asosan, Buxoroda daryosining tog'li tizmalariga yaqin vodiylarda uy-joylar qurgan. XVIII asrning 60-yillarida rus starobryadchilari (Polshada yashayotgan va diniy e'tiqodlari uchun taqib qilinayotgan ruslar) hisobiga ko'payib borgan. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida krepostnoylik huquqi bekor qilinganligiga qaramay, hamon og'ir ahvolda yashayotgan janubiy rus va ukrainlar Markaziy Osiyo hududiga ko'cha boshlagan. Ruslar Qozog'istomning to'rtta va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlaridagi yetti viloyatida mutlaq ko'pchilikni tashkil etadi.

Ruslarning Markaziy Osiyo xalqlari bilan aloqalari qadimga borib taqqabul. Rus knyazlari o'rta asrlarda Markaziy Osiyo hukmdorlari bilan aloqada bo'lgan. 986-yilda knyaz Vladimir Xoraznga elchilar yuborgan, shuningdek, Plano Karpini va V. Rubrukning kundaliklarida ham Markaziy Osiyoda yashovchi ruslar haqida ma'lumotlar mavjud.

XVII asrda Buxoro va Xiva xonliklariga rus sayohatchilari Ivan Koslov hamda aka-uka Pazuxinlar kelgan. XVIII asr sayohatchilarining ma'lumotlarida Markaziy Osiyodagi rus asirlari tilga olinadi. 1820-yilda Buxoro amirligiga A. F. Negrining diplomatik missiyasi kelgan bo'lsa, 1840-yilda o'lkaga ilmiy ekspeditsiyalar ham yubostirilgan.

XIX asr o'rtalarida Turkiston Rossiya tomonidan istilo qilingach, ruslarning mintaqadagi soni ortib borgan. 1897-yildagi aholi ro'yxatiga ko'ra, Qo'qon xonligida 197 ming, Buxoro va Xivada esa 16 ming nafar ruslar yashagan hamda ular Orenburg va Samara guruhlarini deb atalgan. XIX asr boshlarida Buxoroda 19 ming nafar rus yashar edi. 1926-yilda O'zbekistonda 275000, 1979-yilda 1665658, 1989-yilda 1653474, 2000-yilda esa 1199015 nafar ruslar istiqomat qilgan edi.

Ukrain va beloruslar ham qariyb ruslar yashagan tuman hamda shaharlarda istiqomat qilgan. Ular ayni bir vaqtda ko'chib kelganliklari tufayli, urf-odat, turmush tarzi va an'analari bir-biriga o'xshaydi, lekin

ularning milliy ar'ana va udumlarida bir-biridan farqli xususiyatlar ham mavjud.

Ukrainlar – Ukrainaning asosiy aholisi bo'lib, jami 37,42 mln nafar kishini tashkil etadi. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasida 1 927 988 nafar, Qozog'istonda 333 031 nafar, Belorussiyada 291 ming nafar, O'zbekistonda 77 ming nafar, Qirg'izistonda 108 ming nafar, Latviyada 92,1 ming nafar, Kanadada 530 ming nafar, Polshada 300 ming nafar, Argentinada 100 ming nafar ukrainlar yashaydi. Ularning umumiy soni 46 mln. nafardan iborat bo'lib, ukrain tilida so'zlashadi. Dini – xristianlik bo'lib, pravoslav mazhabiga e'tiqod qiladi.

Ukrainlar ruslar va beloruslar singari sharqiy slavyanlarga mansub. Ularning umumiy etnik asosini X asrga kelib yaqin qardosh sharqiy slavyan qabilalari asosida shakllangan va Kiev Rusini barpo etgan qadimgi rus elati tashkil qilgan. Keyinchalik ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot hamda qadimgi rus yerlarining siyosiy tarqoqligi davri (XII–XIV asrlar)da qadimgi rus elati asosida uchta qardosh xalq – rus, ukrain va belorus xalqlari shakllangan. Taxminan, XIV–XVII asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiyotgan xalqlarning litva, polyak va venger agressiyalari hamda turk-tatar bosqinchilarining talonchilik hujumlariga qarshi kurashi natijasida ukrainlar birlashishga muvaffaq bo'lgan.

Rossiya imperiyasining rasmiy hujjatlarida Ukraina "Malorossiya", ukrainlar esa "maloruslar" degan nomlar qayd etilgan. Ilk bor ukrain etnosi vakillari taxminan XVII asr boshlarida Qozog'iston kengliklarida paydo bo'lgan. Markaziy Osiyo xonliklariga esa bundan oldin tutqun sifatida olib kelingan. Ukrainaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalari tanqili ukrain shoiri T. G. Shevchenko nomi bilan bog'liq. Shoir surgundaliygida, ya'ni 1848–1849-yillarda A. I. Butakov rahbarligidagi ekspeditsiyada qatnashgan edi.

XIX asr o'rtalarida Turkistonga kelgan rus harbiylari ichida ukrainlar ham bor edi. Turkiston o'lkasiga ukrainlarning ommaviy tarzda kirib kelishi 1885-yildan boshlangan. 1861-yildagi islohotdan so'ng ukrain dehqonlari Sirdaryo va Farg'ona viloyatlari hamda Mirzacho'lga kelib joylashgan. Ular g'allachilik, paxtachilik, bog'dorchilik va polizchilik bilan, 1890-yillarda kelganlari esa chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan.

Ukrainlarning Buxoroga kirib kelishi XVII asrning o'rtalari, ya'ni ular Rossiya qaramog'iga o'tganidan so'ng boshlangan. Dehqonlardan so'ng hunarmand va temiryo'lichilar kelgan. Ushbu ishchilar Toshkent, Samarqand va Farg'ona vodiysi shaharlariga joylashgan.

XX asrning 20-yillarida Turkistonda 500 ming nafar ukrain yashagan. O'zbekistonda 1926-yilda ukrainlardan 25 804 kishi, 1979-yilda 113 826 kishi, 1989-yilda 93 197 kishi, 2000-yilda esa 104 720 kishi yashaganligi manbalarda qayd etilgan. O'z o'rnida shuni ham qayd etish kerakki, 1966-yildagi "Toshkent zilzilasi" oqibatlarini bartaraf etishda ukrainalik 2600 nafar muhandis-quruvchilar qatnashgan edi.

Beloruslar – Belorus Respublikasining asosiy aholisi (9 475 174 kishi). Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi (1 206 ming nafar kishi), Ukraina (440 ming nafar kishi), Qozog'iston (183 ming nafar kishi), Latviya (120 ming nafar kishi), Estoniya (27,7 ming nafar kishi), Litva (63 ming nafar kishi) va O'zbekistonda (63 ming nafar kishi) yashaydi. Polshada 300 ming nafarga yaqin aholi belorus tilida so'zlashadi. Dindorlari asosan, pravoslavlar, qisman katoliklar ham mavjud.

Tarixiy manbalarda beloruslarning dastlabki paydo bo'lishi XIX asrning 60-yillari birinchi yarmida K. Kalinovskiy rahbarligidagi xalq qo'zg'oloni davriga to'g'ri kelishi qayd etilgan. Beloruslarning o'zchilik g'iyohi XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi bosqini davrida rus armiyasi tarkibida talabgorlar sifatida Turkistonga kelgan bo'lsa, belorus dehqonlari esa XIX asrning 90-yillarining boshlarida kelib joylashgan. Beloruslar rus, ukrain va moldovan xalqlari bilan birgalikda yashagan. Ular Samarqand viloyati, Mirzacho'l hududlari, Toshkent va Farg'ona vodiysi shaharlarida yashagan.

Birinchi jahon urushi yillarida ham beloruslar qochoq sifatida Turkistonga kirib kelgan. Turkistonda fuqarolar urushi tugaganidan so'ng beloruslarning kirib kelishi yanada kuchaygan. Ushbu holat XX asrning 30-yillari boshlarida ham kuzatilgan. 1966-yildagi Toshkent zilzilasiini bartaraf etishda ikki ming belorus quruvchisi qatnashgan. 1970–1975-yillarda Toshkent traktor zavodi qurilishida ham belorus mutaxassislari qatnashgan. 1990-yillardan beloruslarning ona vatanga qaytish jarayoni boshlangan.

IX. 2. An'anaviy xo'jaliklarning o'ziga xos xususiyatlari

Markaziy Osiyo arablari xo'jaligida chorvachilik yetakchi o'rinda turgan. Sug'oriladigan hududlarda dehqonchilik bilan shug'ullanilad. Arablar xo'jaligida qorako'l qo'yilari va tuya boqilgan bo'lsa, ro'zg'or hunarmandchiligida esa ko'proq g'illam to'qilgan. Sherobod va Denov aholilari ham g'illamdo'zlik bilan shug'ullangan. Turar-joylari asosan, o'tov va kupa hisoblanib, uy ichining tuzilishi, buyumlarning joylashishi va kiyim-kechaklari o'zbekliklariga o'xshash bo'lgan.

Qadimda uyg'urlarning aksariyati dehqonchilik bilan shug'ullanib, o'troq hayot kechirgan. Shu sababli ularda qabila-urug'chilik munosabatlari yo'qolib, yashagan joylari nomi bilan arab kelingan. Tog'li o'lkalarda chorvachilik bilan shug'ullangan qismi ko'chmanchi hayotga moslashgan. Yetitsuv va Farg'ona vodiysiga ko'chib kelganlarning ahvoli unchalik yaxshi bo'lmagan: yer yetishmas, bo'lsa ham og'ir va unumsiz edi. Yaxshi yerlar boylarning qo'lida edi.

Uyg'urlar yangi yerlarga ko'chib kelganlaridan keyin yangitdan suv chiqarish va arqo hamda kanallar qazishga majbur bo'lgan. Ko'p joylarga suv yetishmas edi. Dehqonlar bug'doy, arpa, tariq, makkajo'xori, jo'xori va sholi ekilgan, shuningdek, kanop hamda kunjut yetishtirilgan. Dehqonchilikdan uch paykalik tizimi qo'llanilgan. yerlar go'ng va kunjut bilan oziqlantirilgan hamda yog'och sapan (bugusa) bilan haydalgan. Urug' qo'lida ekilgan va yetishtirilgan hosil o'troq (og'aq) bilan o'rib olingan hamda ot yoki ho'kizlar tulug' (tosh) bilan yanchilgan.

Dehqonchilikda ishlatiladigan qurollar o'zbeklarnikidan farq qilmagani. Ketmon, omoch, mola va yerni yumshatish uchun chanchaba (kichkina krak) ishlatilgan. Uyg'urlarda bog'dorchilik yaxshi rivojlangan, umuman olganda, ularning aksariyati yaxshi bog'bon va polizchi hisoblangan. Poliz ekinlaridan qovun, tarvuz va har xil qovoqlar, sabzavotlardan piyoz, sabzi, rediska, gamdori, ukrop va boshqa xil ko'katlar yetishtirilgan.

Farg'ona vodiysi va Yetitsuvdagi har bir xonadonda albatta, bog' bo'lgan. Unda uzum, shaftoli, o'rik, anor, olma, nok va jiyda daraxtlari ekilgan. Farg'ona uyg'urlari piliachilik bilan ham shug'ullangan. Har bir qishloqda suv tegirmoni va juvoz bo'lgan.

Dunganlarning ajdodlari dehqon bo'lib, ular bug'doy, arpa, makkajo'xori, kunjut, kungaboqar, ko'knori, beda va jo'xori ekanlar.

Qirg'iziston, Qozog'iston va Markaziy Osiyoning boshqa hududlariga kirib kelganidan so'ng atrofdagi yerlarga qarab turli ekinlar ekish bo'yicha ixtisoslasha boshlagan. Jumladan, Botkent shahri atrofidagi hududlarga o' mashgan dunganlar sholikorlik, O'sh dunganlari paxta yetishtirish, Olmaota va Yarkent atrofiga kelib joylashgan dunganlar g'alla ekish bilan shug'ullangan. Dunganlar orasida bog'dorchilik, sabzavotchilik, polizchilik, sohalari ham keng rivojlangan. Dehqonchilikdagi ish tartibi qo'llanadigan qurullari jihatidan dunganlar mahalliy aholiga yaqin turadi.

Koreyslarning asosiy mashg'ulotlari sholikorlik, chorvachilik, baliqchilik, ipakchilik va hunarmandchilikdan iborat. Ularning ko'pchiligi dehqonlar bo'lib, mehnatkash va serg'ayrat xalq hisoblanadi. Shu sababdan

ham bu yerga ko'chib kelgan yillardayog, yerni sug'orib, dehqonchilik qilish bilan shug'ullangan.

Keyingi yillarda Markaziy Osiyoda sholi yetishtirishning yanada rivojlanishida dunganlarning hisssasi katta bo'lmogda. Sholikorlikda yangi *Ayoviylo* navining joriy etilishi xo'jalikning usbu sohasini tez sur'atlar bilan rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur sholi navlari Toshkent viloyatidagi "Politorde" jamoa xo'jaligi sholikorlari tomonidan 1928-yilda yetishtirilgan edi. Kyorio sholisi ekilgan yerlarda har gektardan 50 sentnerga yetkazib, yahi mahalliy nav sholi ekilgan yerlardagiga nisbatan qariyb 20 sentner ortiq hosil yig'ishtirib olingan.

Koreyslar sholichilik bilan bir vaqtda sabzavotchilik, polizchilik va rezavorchilik bilan ham yaqindan shug'ullanib keladi. Bu ota-bobolaridan o'lib kelayotgan azaliy kasbidir. Koreyslar ko'chib kelganlarida xilma-xil sabzavot ekinlari urug'larini olib kelgan edi. Ular Markaziy Osiyo hududlariga kirib kelgan vaqtdan boshlab koreys karami, sarimsoqpiyoz, piyoz, turp, bodring va bir qancha dukkakli ekinlar tur ancha ko'paydi va eng muhimi, mintaga uchun yangi ekin turi - kanop yetishtirila boshland. O'zbekiston bilan Qozog'istonda bir qancha koreys fermer xo'jaliklari tashkil etilgan va ular hozirgi kunda hosildor xo'jaliklarga aylangan.

Hunarmandchilik. Uyg'urlar juda qadimgi turli-tuman hunarlar bilan shug'ullanib kelgan. Ular orasida tikuvchi, to'quvchi, etikdo'z, tepakchi, g'isht teruvchi, suvog'chi, temirchi, ko'ndchi, zargar va daradig'orlari uchratish mumkin. Kamroq bo'lsa ham nonvoy, sartarosh, sovatchi va sovungar kabi kasb egalari topiladi.

Yarkent, Andijon, O'sh va boshqa yirik shaharlarda ustalar nafqati o'z ehtiyojlari, shuning bilan birga bozorlarga olib chiqib sotish uchun han turli xil buyumlar yasaganlar. Shu sababdan ham ko'plari yirik bozorlarga yaqin joylarda yashar edi.

Uyg'urlar orasida paxta va pilla tolasidan charxda ip yigirish hunari ham keng tarqalgan edi. Ushbu mashg'ulot bilan asosan, xotin-qizlar o'z uy-larida shug'ullanar edi. Shuningdek, qamishdan bo'ya to'qish hunari rivojlangan edi. Qolaversa, Yetitsuv va Farg'ona vodiysiga ko'chib kelgan uyg'ur mahalliy aholi, ayniqsa o'zbeklar, tojiklar va qozoqlardan bir qancha hunarlarini o'rganadi (masalan, qozoqlardan kigiz tayyorlash).

Dunganlar orasida eng ko'p tarqalgan kasb-hunarlar: savdogarchilik, aravakashilik va yuk tashuvchilik bo'lib, ular Bishkek, To'g'inoq, Verniy (Olmaota), Toshkent va Prejevalsk orasida qatnat, o'limlik yog'i, un, bug'doy va guruch bilan savdo qilganlar.

Shaharlarda yashayotgan dunganlarning aksariyati oshxona va karvonsaroylariga joylashib olgan edi. Bazilari dungan taomlari bilan savdo qilari, holva (tunjın) pishirish, shuningdek, chigachilik (dinva) bilan shug'ullanar edi.

IV–V asrlardagi o'zaro urushlar davrida Xitoyning deyarli barcha shaharlari talangan va yondirilgan. Qadimiy poytaxt shaharlar bo'lgan Chan'an va Loyan xarobazoriga aylantirilgan. Xitoy janubidagi shahar hayoti qishloqchilikdan farq qilmagan.

VI asrga kelibgina shahar hayoti va shaharsozlik qayta tiklandi. Shaharlar chegara qasrlari, savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida xom-ashyo mavjud bo'lgan joylar, daryo bo'yli hamda dengiz qirg'oqlarida vujudga keldi.

O'rta asr dunyosining yirik shahri hisoblangan Chan'an rejali qurilganligi bilan ajralib turgan. Shaharning sharqiy qismida imperator saroyi va boy xonadonlar joylashgan. VIII asr boshlarida shaharda daosizm, buddizm, nestorian, zardushitilik, mazdakchilik va moniylik ibodatxonalari hamda bir nechta bozorlar bo'lgan.

XII asr boshlarida Buyuk kanal bo'yida Xanchjou shahri qurilgan bo'lsa, shimolda esa Kayfin shahri vujudga kelgan. Chendu, Chengjou va Suchjoular yirik savdo va hunarmandchilik markazlariga aylandi. Guanchjou, Syuanjou va Uchan kabi port shaharlar kengaytirildi.

Shaharlar harbiy-mudofaa, ma'muriy, iqtisodiy va madaniy funksiyalarni bajaragan. Yuqori darajadagi amaldorlardan tashqari, fuqarolarning kechasi ko'chalarda yurishi taqiqlangan. Shahar devori va to'siqlardan oshib o'tganligi uchun 70 darra urush usuli joriy etilgan. Ilk o'rta asrlar qonunlarida shaharliklar uchun alohida normalar mavjud bo'lmagan.

Suy va Tan imperiyalari davrida tog' sanoati hamda metall eritish sanoati paydo bo'lgan. Szyansida sopol va chinni, Yanchjouda esa kemasozlik maktablari shakllangan. Chendu shoyilari Buyuk ipak yo'li orqali dunyoga tarqalgan.

Hunarmand buyurtmaga qarab ishlab, ortiqchasini bozorda sotgan. Monastirlar huzurida ham ustaxonalar bo'lgan. Bir soha hunarmandlari bitta ko'cha yoki mahallada yashagan. VI asrda savdo va hunarmandchilik birlashtirilgan tarkib topgan – tuan va xan (Yevropada sex, XI–XII asrlar) bazi xanlarga 400 tagacha oila kurgan. Xanni oqsoqollar boshqargan va ular shogirdlarni olib, ish vaqtini belgilagan hamda kash sirini saqlagan.

VII–VIII asrlarda davlat hunarmandchiligi ham ancha taraqqiy etgan. Konlar, ustaxonalar va malaka talab qiladigan hunarlar merosiy

bo'lgan. Katta shaharlardagi bozorlar amaldorlar nazoratida bo'lib, kun bekalishi bilan berkitilgan. Do'kon va ustaxonalar joylashgan yer va sotilayotgan choy uchun alohida soliq solingan, (te-yashil barg) korralabunda choyini sotgan savdogar uch marra qo'lga tushsa, qat qilingan.

Xitoy manbalarida Yanszi daryosidan janubda yashagan ko'p sorti Yose qabilasi ham tilga olingan. Ushbu qabilalarning ko'pchiligi asosan, tay, shuningdek, indonezlar, vetnamlar va monxmer xalqlarining ajdodlari hisoblangan. Xitoyning o'ziga xos mentaliteti, an'analari, urf-odatlar, soliq normalari, milliy g'oyasi va madaniyati mavjud. Asosan, qishloq xo'jaligida sholi, paxta va choy yetishtirish, piliachilik hamda bog'dorchilik bilan shug'ullanadi. Xitoy chinnisi dunyoga juda ham mashhur buyum hisoblanadi.

Markaziy Osiyo yahudiylari qadimdan boshqa millatlarga deyarli qo'shilmay, o'zlari alohida xo'jalik yuritib kelgan. Ularning hatto, o'z yerlari ham bo'lmagan. Mahalliy hukmdorlar va Rossiya imperiyasi rahbarlari yahudiylarga yer bermagan. Shu sababdan, turli hunar va savdo-so'liq, qisman to'quvchilik bilan shug'ullangan. Ular orasida oz bo'lsa-da, o'z zargarlari, mashindoz (tikuvchi), telpakdov, sarratosh (mo'yasgar) va kir yuvuvchi (jomasho'y)lari bo'lgan. Yahudiylar orasida eng ko'p tarqalgan kasb – bo'yovchilik bo'lib, ularni "kabudgar" deb ataganlar (kok indigo – nil bo'yov bilan bo'yovchilar "kabudgar" deb atalgan).

Olinlar lo'jilarni uchta etnologik guruhga bo'ladi: 1) asosan, ko'chmanchilik qilib, xayr-sadaga yig'ib, kun ko'radigan, folbinlik, taliblik hamda zargarlik bilan shug'ullanuvchi lo'jilar; 2) tovoqqtarosh, ular yerni o'troq hayot kechiradi, asosan, yog'ochga ishlov berish bilan shug'ullanadi, xususan, yog'ochdan beshik, tovoq, qoshiq va cho'mich yasaydilar. Qadimda ular tomonidan tayyorlangan yog'och tovoqlariga ehtiyoj katta bo'lgan, shu sababli ularni *tovogqtaroshlar* deb ham atalgan; 3) o'zining, ya'ni o'troq lo'jilar (jo'gilar), asosan, mayda savdogarchilik, shuningdek, dehqonchilik bilan shug'ullanadi.

Lo'hi erkaklari ot urtirish, ovchilik, temirchilik, metall eritish, savat to'qish, g'alvir va elak kabi buyumlar yasash hamda ayiq, maymun, don o'rgatish bilan, ayollari esa tilanchilik va folbinlik bilan shug'ullangan.

IX.3. Moddiy va ma'naviy madaniyat

Turur-joylar. Yahudiylar alohida mahalla-mahalla bo'lib yashagan. Ularning uy-joylari eski shahar qismida joylashgan. Aksariyat shaharlarda yahudiylarning mahalla yoki guzarlari bir nechta bo'lakka bo'lingan.

Qadimdan yashab kelayotgan yahudiylarning mahallalari "gettolar" deb yuritilgan.

Markaziy Osiyo yahudiylarining uy-joylari o'zbek va tojiklarnikidan deyarli farq qilmagan, lekin ularda hovining ichkari-tashqarisi bo'lmagan. Xonalari odatda, derazasiz quriladi. Tuvnuk panjara (yahudiylarda tobador) yoki xona eshiklaridan tushib turadigan yorug'da o'tiriladi. Har bir xona oldidan seni (dahliz) quriladi va polga bo'yra to'shaladi. Bo'yra ustidan sholcha, namat va gilam solinadi. Qishning sovuq kunlarida asosan, sandal yonida o'tiriladi va o'sha yerda tamaddi qilinadi. Xo'jalik xonalari oshxona, xezumxona (yoqilxona), angishtxona (ko'mirxona), govxona (og'il, molxona) va aspxona (otxona)dan iborat bo'lgan.

Mintaqaga ko'chib kelgan koreyslar yangicha uylarda yashay boshlagan, lekin ular o'z milliy an'analari saqlab qolgan. Chunonchi, uyini istish, xonalarning joylashuvi va ulardan foydalanish bobida o'zlariga xos tarzda ish tutadi. Masalan, koreys xonadonida albatta, alohida oshxona (puok) bo'ladi. U yerga 2-3 ta qozon o'rnatilgan loy o'choq (pech) qurilib, u odatda, xonaning yarmini egallaydi.

Koreyslar yotoqxonani *ukkan* deb ataydi va xonaning poliga qamish bo'yra solinadi. Poli ostiga uyg'urlarning o'choqi singari quvur o'tkazilgan bo'ladi. O'choqda olov yoqilganda, ushbu xonaning poli ham isiydi. Xonadon a'zolari issiq polda o'tirib, o'sha yerda dam oladi.

Koreyslar uyida uchinchi xona (marupan) yog'och poli qilib quriladi. Odatda, ushbu xona mehmonxona vazifasini o'taydi, mehmon kelmagan paytda esa ayollar yotoqxonasi vazifasini ham bajaradi.

Qavsi vaqtda, kimlar bilan kelganlariga qarab uyg'ur oilalari har xil yerlarga joylashadi. Sinszyan viloyatida qo'ni-qo'shni bo'lib yashagan va qavm-qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan oilalar bir yerda bo'lishga harakat qilgan hamda alohida-alohida qishloq bo'lib joylashgan. Qishloqlarning nomlari ham eskicha, ya'ni Sinszyanda nima deb atalgan bo'lsa, ushbu nom bilan yuritila boshlangan. Qishloqlarda hovilar soni har xil bo'lib, yiriklarida 500-900 ta xonadon joylashgan.

Qishloqlarda uylar yonma-yon, bir-biriga taqab qurilgan, har bir hovida mevati bog', uyning orqasida o'ziga yarashta tomorqasi mavjud bo'lgan. Hovilar asosan, yo'l chetlari, suv bo'yli va tog' etaklariga qurilgan. Ko'chalarga daraxt (tok, terak va chinor)lar o'tqazilgan. Hovilariga turli xil gullar ekilgan, chunki uyg'urlik gullarni nihoyatda yaxshi ko'radi.

Yirik qishloqlar o'z bozoriga ega bo'lgan. Qishloqning eng yaxshi va yuqori qismiga masjid qurilgan va u yerda turli do'konlar joylashgan.

Uylar asosan, paxsa va xom g'ishtdan qurilgan. Devorlarning yuqori qismida ochiq joy tuvruk qoldirib, deraza, panjara o'rnatilgan. Uylarning burchagi yoki devorlarning o'rtasiga o'choq (morochok) qurilgan. Xonaning burcha katta-kichik supa (kong) qurilib, o'choq quvuri ana shu supa ichidan o'tkazilgan. O'choq tutuni xona burchagiga devor bo'ylab o'rnatilgan quvur (mo'ri)dan tashqariga chiqib ketgan.

Qadim uyg'ur hovisida ushbu bera, keng ichki hovli - dolan (dahliz) bo'lgan va darvozadan to'g'ri shu dolanga kirilgan. Dolanning bir tomoni mehmonxona (saroy), o'choqxona va oshxona, keyin turli xil, katta-kichik xonalar (ombor, sang, qaznoq)dan iborat bo'lgan. Dolanning boshqa tomoniga molxona (yegil) va somonxona (somonlik) kabi turli yordamchi xo'jalik xonalari qurilgan. Ushbu xonalarga ham dahliz (dolan)dan kirilgan. Dolanning orqa tarafida hovli va tomorqa, boqqa chiqadigan ayvon (lampa) bo'ladi. Bu yerga o'choq qurilgan bo'lib, yozda ovqatlar shu yerda pishiriladi. Bog'da barangilik bir yog'iga paxsa devor urilib, ushbu shox-shabbalar bilan yopilgan ayvonda o'tirish mumkin.

Uyg'ur orasida keng tarqalgan hovilardan yana birini alohida ta'kidlash kerak bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan hovining to'rtida xonalarning barchasi yonma-yon qurilib, hammasi bir tom ostida bo'lib, keyingi xil hovida esa xonalar alohida-alohida joylashiriladi. Darvoza orqali dahlizga emas, hovliga kiriladi. Hovlining o'ng va chap tomonlariga alohida 2-3 xonali uylar qurilgan, ushbu uylarning eng kattasida ota-onalar, kichiklarida esa o'g'illar yashaydi. Xo'jalik xonalari alohida joylashtirilgan bo'lib, ularning oldiga boshidan oxirigacha cho'zilgan ayvon qurilgan.

Dunganlarning uylari Shimoliy Xitoydagi faizalarga o'xshaydi. Uylarning derazalari hovli ichiga qarab o'rnatiladi va uning atrofi baland loy devor bilan o'rab olinadi. Ba'zan dungan uylari xom g'isht va toshdan tashlangan sinchi devorlar bilan o'ralgan. G'ishtni bir xil emas, navbatma-navbat, bir qator uzunasiga, bir qator tikkasiga o'rnatiladi. Derazaga panjara o'rnatilib, moy qog'oz yopishtirib qo'yiladi, xonaning tashqarisi (hovli tomoni) esa ayvon bilan to'siladi. Xonaning har biri uyg'urlikning kong (pech) bilan isitiladi.

Hovlida shiyponga ayvon qurilib, ikki tarafdan tok ko'tarilgan bo'ladi. Atrofiga turli-tuman gullar ekiladi va xuayyan (gulzor) yonlari pastak qamish devor bilan o'rab chiqiladi.

Xonalarga pastak va kichik shkak (komod, gujiuse, yumaloq va boshqa burchak narsalar)lar o'rnatilgan. Dunganlarning uylari loydar,

pastakina qilib qurilib, usti gamish bilan yopilgan. XX asrning 30-yillari va ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda paxsali uylar paydo bo'lgan. O'rimshda lo'hlarda shomanda odati mavjud bo'lgan. Qarindosh-urug' lo'hlilar oqsoqol rahbarligida etra bahordan to kech kuzgacha daryo vodiylariga chodir tikib, o'sha yerda yashagan. Sovuq tushishi bilan yana o'z joylariga qaytib kelgan va ushbu odat hozir ham saqlanib qolmoqda. Lo'hlilarning ikki xil chodiri mavjud: chodiri zimiston (qishki) va chodiri soyabon (yozgi).

Kiyim-kechaklar. Arablarda junli matolar ko'p ishlatilgan. Masalan, kigiz astarli to'n (chaydaniya) boshqa emik guruhlarda *kechenik* deb ataladi. Shuningdek, ichi mo'ynali po'stinning turiga ko'ra, qo'zi po'stin, barra po'stin va tulki po'stinlarga bo'lingan. Cho'ponlar esa sovuq qish paytlarida po'stin bilan birgalikda ichi mo'ynali keng ishton (chol vor) ham kiygan. Keksa arablarda esa ro'mol shaklidagi belbog'lardan emas, balki uzunligi 3-4 metrli bo'lgan bir necha marta o'ralgan *vazira* (kamar)dan foydalanilgan.

Ertaklar an'anaviy bosh kiyim sifatida salla o'ralgan. Salla 4-5 metrli mato bo'lagidan o'ralgan bo'lib, u hamisha o'rab yurilgan, ammo ish paytlari kichkina, bayram va to'y paytlari esa kattaroq hamda salobatliroq qilib o'ralgan. Salla ipak, paxta va jun matolaridan turli ranglarda tayyorlangan. Diqqatga molik tomoni shundaki, arablarda yoshiga qarab turli rangdagi sallalar o'ralgan. Yosh erkaklar odatda, qizil salla, o'rta yoshlilar ko'kish va keksalar esa oq rangdagi salla o'ralgan. Bo'ydoq yoshlar va uylangan yosh erkaklar oddiy gardi salla kiygan. Albatta, sallani to'g'ridan-to'g'ri boshga emas, balki kallapo'sh kiyilib, uning ustidan o'ralgan, keksalar salla ostidan ko'loh kiygan. Arablar qadimdan mo'ynali telpak ham kiyishga odatlangan.

An'anaviy oyoq kiyimlari ham turlicha bo'lib, odatda, etik va maxi-kavush bilan kiyilgan. Cho'ponlar esa yumshoq cham chirik va chig sifatida hisoblangan "kalla xasani" deb atalgan chammidan etik tayyorlagan. Shuningdek, qora va yashil teridan tayyorlanadigan kavush chig qimmatbaho hisoblanib, eshak terisidan tikilgan. Bundan tashqari, arablarda qora rangli kavushlar oq teridan tikilgan bo'lsa, etik-muzalar esa oq dag'al teridan tayyorlangan.

Kuyov to'y paytida ochiq rangdagi ko'ylak, yo'l-yo'l paxtal matodan ishton, beqash (o'zbeklarda begasam) chopon, uning ichidan oq matodan tikilgan yengil yaktak, shoyi atlasdan kelin tomonidan maxsus tayyorlangan belbog' va kamar taqqan. Kuyovning bosh kiyimi to'q qizil yoki qizil salla bo'lib, bir uchiga kasha tikilgan va jig'a taqilgan.

Ayollar kiyimi tarkibiga ko'ylak, ishton, kamzul va paxtali xalat kirgan. Arab ayollarining qadimgi ko'ylagi O'ra Osiyo uchun xos bo'lgan nov shaklidagi kiyimdir. Shunday odat bo'lganki, ustma-ust ikki qavat ko'ylak kiyilgan va ushbu kiyim kengroq va uzunroq ko'rinishda bo'lgan. Keksa ayollar oq yoki ko'k rangdagi ko'ylak kiygan va uning uzunligi to'pligacha yetib, yangi hamda yogasi qora kashta bilan bezatilgan. Arab qizlari yaqin kunlargaacha "mudi yoga ko'ylak" kiygan. Turmushga chiqqan ayollarning kiyimlari tik yoqali ko'ylak – keng ko'rinishda va uzun yengil bo'lib, arana bo'yicha qizlarning kiyimlari o'ra yosh va keksa ayollarnikidan farq qilgan. Arab qizlari turmushga chiqqandan so'ng qizik ko'ylagini vertikal yoqali qisqa qirgimga ega bo'lgan ko'ylakka almastiradi. Bunday fasondagi ko'ylak kelining ota-onalari tomonidan tayyorlab qo'yiladi. Yangi oilada birinchi farzand tug'ilgach, ayol onalar ko'ylagi (subimoro)ni kiyishni boshlaydi. Uni yogasi uzun vertikal qirgimga ega bo'ladi.

Arab ayollarining an'anaviy kiyimlarida o'ziga xoslikni saqlab qolgan bosh kiyimi – gizza bo'lib, u qizil satin va alvondan, yogasi esa o'yima, qora satindan jiyagi qo'shib tikiladi. Ushbu jiyak ustidan oq ipdan hoshiya kashtrai bo'ladi. Gizzaning oldi beligacha tushadi, yengisi esa kalu, tinnakacha yotmaydi. Orga tomoni ko'ylak uzunligida, ko'krak tomoni esa oq ipak bilan chiroyli kashtralgan bo'ladi. Bo'yigacha bo'lgan qismi uch-to'rt xil rangdagi materialdan ko'ndalang tikiladi va ustidan esa 8-10 qator kumush tanga baldoq musulxa va boshqa yaltiroq taqinchoqlar terib tikiladi. Gizza ikki xil: birinchisi qizil gizza, buni arab qizlari to'rt yoshdan hoshiyab kiyadi. Qiz gizzasi qizil rangda bo'lib, uni ular turmushga chiqqanlarigacha kiyisalar, ikkinchisi oq matodan tikiladi va uni turmushga chiqqan kunlaridan hoshiyab kiyadilar.

Arab qizlari turmushga chiqqanlaridan keyin uch kun o'lgach, "qashbandan", ya'ni "ko'rpa yig'idi" marosimi o'tkaziladi. Ushbu marosimda qishloq xotin-qizlari qatnashadi. Kuyovning otasi mol so'yib, qishloq ayollariga ziyofat beradi. Kelining yaqinlari sovg'a-salom olib keladi va shu kuni kelimga qizil gazmoldan tikilgan qalin kashtral, hoshiyali bosh kiyim – buxnak kiydiriladi. Mazkur bosh kiyimi peshonadan belgacha tushib, quloq-chakkani yopib turadi. Bog'ichi bilan iyak ostidan bog'lansa, buxnak ustidan esa taqinchoq (sinsila) taqiladi. Hoshi va peshona taqinchoqi bo'lgan sinsila bayram kiyimi bilan birga taqiladigan go'zallik bezaklari majmuasidir.

Barcha tabaqadagi arab qizlari va ayollari qadimdan hammabop taqinchoqlarni afzal ko'rganlar. Ularning sifati va soni oilaning iqtisodiy

holatiga bog'liq bo'lgan. Taqinchoqlar ichida eng ko'p tarqalgani va barcha ayollar taqishi zarur bo'lgan taqinchoq – bilakuzuk va uzun hisoblantib, u moviy yashil ko'zli bo'lib, kumush yoki tillodan yasalgan. Shumasi xarakterliki, O'ra Osiyoning boshqa mahalliy xalqlarida keng tarqalgan quloq taqinchoqi sirg'a arablarda kam uchraydi. Faqatgina butuniga taqiladigan sirg'a (izmak, natti, chei-natti)ni oldinlari arab ayollari ko'p taqqan, hozirda esa keksa yoshli momolardagina saqlanib qolgan.

Buxoro yahudiylarining kiyimlarida o'ziga xos milliy an'analar yaxshi saqlanib qolgan. Erkaklarning kiyimi uzun ko'ylak (kurta) va ishton (ezor) dan iborat bo'lib, ular har xil bichimda tikilgan. Ayollarning kiyimi esa (ich ko'ylak), kurta ro' (ustki ko'ylak), ishton (ezor)dan iborat bo'lgan. Bosh kiyimlari haqida shuni ta'kidlash kerakki, erkaklar telpak, qorak o'li, kallapo'sh, do'ppi, qishda baragi, ayollar esa yoshiga qarab durra ro' mol o'ragan. Emizakli bolasi bor juvonlar lachnak kiyib yurgan.

Uyg'urlarning kiyimlari ko'p jihatdan qo'ni-qo'shnilari va mahalliy aholidan keskin farq qiladi. Erkaklar tor tik yogali ko'ylak bilan keng bog'ichli ishton (tanbal) kiyib yurgan. Ishtonning poychasi etik ichiga tiqib yurilgan. Ko'ylak ustidan yengli tor, tik yogali beshmet, keyin uzun chopon kiyilgan va chopon ustidan uzun chit belbog' bog'langan. Qishda qo'y tensidan tikilgan po'stin (yuga) kiyilgan. Oyogqa masi (maxsi), chann kalish va etik kiyilgan.

Ayollar esa uzun keng qilib tikilgan kichkina tik yogali ko'ylak, pastga torayib boradigan ishton kiyib yurgan. Turmushga chiqqan ayollarning ko'ylaklari oldi ko'krigidan, qizilamiki esa yelkasidan tugmalanadigan qilib tikiladi. Ko'ylak ustidan uyda va ko'chada ko'pincha tugmalanmaydigan etagi tizzaga tushib turadigan, yengsiz kamzul kiyilgan.

Xitoyda ko'ylak ham kiyilib, boshlariga do'ppi yoki ro' mol o'ragan bo'lsa, qishda esa cheit mo'ynali yapaloq telpak kiyilgan. Boyroq ayollar bayram kunlari chittari mayda burma rangdor toshlar bilan bezatilgan uchli yumaloq telpak – kimxob bo'rik bilan ko'chaga chiqqan bo'lsa, kambag'al ayollar esa telpaklarini munchoq va tangachalar bilan bezatgan.

Farg'ona vodiysi va Yetiisuv uyg'urlarining kiyimlari bir-biridan ancha farq qiladi. Farg'onalik uyg'urlar yaktak va qavilgan paxtali chopon kiyadi, belbog'lariga qing'a solingan pichog bilan nosto'rva yoki nosqovov osh oladi. Qishda esa chopon ustidan chakmak kiyadi.

Dunganlarda erkaklarning kiyimlari kurta (guaza) va uzul chopondan iborat bo'lgan. Kurta qora yoki ko'k matodan tikilgan. Keng ko'ylak (sanza), bog'ichli ishton (ko'zi), oyog'lariga paypoq, chuqur, uzun, past postnali tufli, boshlariga esa mo'yna telpak, oq yoki kulrang yuypin

nomut qulpoq kiygan. Sharisi dunganlari yozda, ayvoni keng katta somon shlyapa kiyib yurgan va uning ostidan do'ppi kiyib olgan.

Dungan ayollarning kiyimlari erkaklarikidan deyarli farq qilmagan. Ko'ylaklarning rangi yorqin gazmollardan bo'lib, ancha uzun qilib tikilgan. Ishtonlarning poychasi qora shoyi yoki satin parcha qo'yib tikiladi va ingichka lenta bilan bezatiladi. Ko'ylak va ishton ustidan chopon hamda uning ichidan albatta, yengsiz nimcha (jinjizi) kiyilgan.

Hozirda koreyslar orasida milliy kiyimda yuradiganlar kamayib bormoqda, faqatgina qariya ayollarda, u ham bo'lsa, ko'pincha bayram-taomlana kunlari bunday holatni kuzatish mumkin. Yoshli katta erkak va ayollar asosan, oq kiyimni yaxshi ko'radi. Keksalar xotinlar burnali odini yopqa, yenglari uzun oq kofta va katta ko'ylak kiyib yuradi hamda oq chechecha, shuningdek, gazlamadan ko'p foydalanadi.

Koreys ayollari yenglari uzun oq katta ko'ylak, chotari va uzun burna yuypa (chixima) kiyib yuradi. Mazkur yubkalarning rangi sarig' puchli va yashil rang gazlamadan tikiladi. Erkaklarning kiyimlari esa keng ishton (padzi) va ayollar ko'ylagi singari tikilgan, lekin nisbatan uzun ko'ylak hamda uning ustidan odni matodan nimcha (chokki) kiyadilar. Koreys erkaklarining bosh kiyimlari orasida somon shlyapa (kat) ko'p ishlatiladi. Ayollari esa boshyalang yoki ro' mol hamda durra o'rab yuradi.

Markaziy Osiyo lo'illari o'zbek va tojiklarning kiyim-kechaklari va urf-odatlarini qabul qilgan. Lo'illlar kiyimshda yerli aholidan farq qilmaslikka intiladi. Erkaklari chopon (to'n), etik, telpak, ba'zan esa belbog' o'rab yursa, ayollari esa mahalliy aholidek kiyinsa-da, lekin ularning ro' mol o'rash uslublari faqat lo'illarga xos. Lo'li erkaklar hat, ayollar ham asosan, qora va ko'k ranglarni yoqtiradi.

Taomlari. Yahudiylar ovqatlanish masalasida diniy urf-odatlarga katta e'tibor beradi. Yahudiylarning ovqatlari ikki turga bo'linadi: sutli va go'shli taomlar. Cho'chqa, ot va tuya go'shti yeyilmaydi. Ular orasida eng taomlanganlari sifatida palov, oshi porakarda, sirkantz, oshimoxi va baxshir alohida ko'rsatish mumkin. Bular yahudiylarning milliy taomlari hisoblanadi. Ular obinon, quyimoq, chalagan va argonpak pishiradi, shinni, va kama iste'mol qiladi. Bog'dorchilik va rezavorchilik ham keng tarqalgan.

Koreyslar dasturxonida hamma vaqt albatta, gurnuch bilan shayavonlar bo'lishi shart bo'lgan. Koreyslar gurnuchni qaynatib iste'mol qiladi, ushbu taom koreys tilida *pap* deb ataladi. Shuningdek, shirgurnuch va kimcheb nomli achchiq-chuchuk salat sevilb iste'mol qilinadi. Kimchix

odat, a tuzlangan karam, bodring va turpdan tayyorlanadi va ustiga koreya piyoz va sarimsoq to'g'ralib, qalampir sepiyadi.

Bayram kunlari, turli sayil va marosinlar paytida, shuningdek, mehmondo'stlikda kuksi va chxalok tayyorlanadi. Kuksi xamirli taom bo'lib, xamirosh (ugra)ga o'xshab ketadi. Uni tayyorlash uchun xamir nihoyatda ingichka va soch tolasi qalinligida to'g'raladi. Keyin mayda to'g'ralgan qaynama yoki qovurma go'sht, loviya, kimchi va qalampir solingan sho'rva pishiriladi.

Chxalok taomi ham juda qiziqarli usulda tayyorlanadi. Mazkur taom damlab pishirilgach, guruchni katta yog'och idishga ag'darib, ikki erkak galma-gal katta bolg'alar bilan urib yanchiydi. Guruch ezilib, xamirga o'xshab qoladi va dasturxonga tortilib, loviya, no'xat va boshqa ko'katlar qo'shib iste'mol qilinadi.

Uyg'urlar ovqatga makkajo'xori, un, gurunuch, sabzavot va go'shtni ko'p ishlatadi. Undan xilma-xil taomlar, jumladan, qalama, yog'li yoki yog'siz posilqal, sangga (o'rana) tayyorlaydilar.

Uyg'urlar xamirli taomlarga nihoyatda boy xalq hisoblanadi. Hamma yaxshi biladigan cho'zma lag'mon, chushura, manti va mamardan tashqari, xavilyash (uzma osh), manjura osh, umoch, (xamirni g'alvirdin o'tkazib, yog'li go'sht va dumba to'g'rab, ko'kat aralashirib tayyorlanadi) Shuningdek, xuluk non (xonin), go'sht non, somsa, palau, shavla, shavla va suyuq osh ham tayyorlanadi.

Uyg'urlar china yoki pakura china (kichik va katta piyolalardan atkan chay (sut choyi) ichishni xo'sh ko'radi. Mehmonga kelgan zahoti va kechqurun kechidan oldin albatta, atkan choy beriladi. Ular xamiridan yuzga yaqin turli-tuman taomlar pishirishni biladi. Birgina mantining o'zi bir necha xil bo'ladi. Puntucha (puntuza) taomlari, ayniqsa, mosh undan tayyorlangani juda mazali bo'ladi.

Dungan ovqatlari Xitoy taomlariga o'xshab ketadi, ular ham xamir va sabzavotlarni ko'p iste'mol qiladi. Taom tayyorlashda o'simlik yog'idan tashqari mol yog'i ham foydalaniladi.

Dunganlar asosan, mol va qo'y go'shtini iste'mol qiladi. Suyuq taomlardan un oshi (keskan osh), no'xat va loviya sho'rva tez-tez tayyorlanadi. Ular qovun bilan tarvuz, obi non, ayniqsa, dimlama non ko'p iste'mol qiladi va quruq meva bilan choy ichishni yoqtiradilar. Ovqatlar yog'och, suyak yoki bambukdan yasalgan tayog'cha (kuezi)lar bilan iste'mol qildilar.

Dunganlar qishda yog'li, yozda esa yog'siz ovqatlar tayyorlaydi. Illah bahorda vitaminlarga boy, yovvoyi o'tlar ko'p ishlatilsa, yozning illah

kunlarida esa taom tayyorlashda ko'k loviya, yangi kartoshka va sabzidan kech foydalaniladi. Iyul oyidan boshlab shirin ko'k bulg'ori garmidoris, haqiljon, sinchuan karami (sunzi), pomidor va boshqa sabzavotlar ishlatiladi.

Dunganlar kishi organizmining talab ehtiyojlarini nazarda tutib, kun davomida muayyan tartibda ovqatlanadilar. Nonushaga odatda, sovuq osh, manchiya, atala (bantun), tushlik paytida esa lag'mon, shirgurnuch, tufi haqiljon xamirli ovqatlar tayyorlanadi. Sabzavot bilan qo'shib pishirilgan go'sht va ularidan tayyorlangan salat ham dasturxonga qo'yiladi.

Madaniy madaniyat. Arab tilidagi "madaniyat" so'zi o'z zamonasi uchun juda yuksak sivilizatsiya hisoblanib, G'arbiy Yevropaning o'ra asarlar jamiyatiga katta ta'sir ko'rsatgan edi. Madaniyatning vujudga kelishida mazkur etnos (arablar) katta rol o'ynaganligi sababli "Arab madaniyati" deb nomlangan ushbu tushuncha xalifalik tarkibidagi ko'p asarlar uchun xos edi. Arab madaniyatining keyingi taraqqiyotida Gretsiya-Rim (Vizantiya), Eron (Fors), Kavkazorti (Ozarbojyon), Markaziy Osiyo va Hindistonning ta'siri katta bo'lganligi ayni haqiqat.

Shuniisi diqqatga sazovorki, vizantiyaliklar singari arablar ham o'z davr an'analarni davom ettirib, grek klassiklarining asarlarini qutib olib o'lganib, arab tiliga tarjima qilganlar. Aristotel, Gippokrat, Ptolomey va yovkild asarlarini arab olimlari yaxshi bilard edi. Yevropaliklar Avistoniing asarlari bilan dastlab arabchadan lotin tiliga tarjima qilingan asarlar orqali tanishganlar.

Arab madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, unda aniq fanlar juda taraqqiy etgan edi. Arablar tibbiyot sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lib, ular tirik organizmni tilish yo'li bilan tekshirib, odam anatomiyasini juda yaxshi o'zlashtirgan edi. Arablarning tibbiyotga oid darsliklari G'arbiy Yevropa universitetlarida butun o'rta asr davomida o'qildi. Shuningdek, matematika sohasida ham arablar geometriya va trigonometriyani rivojlantirdilar. Ular algebra fanining taraqqiyoti borasida juda ko'p amaliy ishlarni bajarib, hind raqamlari matematikani mukammallashtirdilar. Qolaversa, arablar juda yaxshi sayyohlar edi. Ular nafis adabiyot sohasida ham mashhur asarlar yaratdi.

Arab san'atida asosiy o'rinni arxitektura egallaydi. Ular monumental binolar, masjidlar, saroylar, maqbaralar, hammomlar va boshqa jamoat binolarini juda antika usulda qurganlar. Arab madaniyatining eng qadimgi yodgorliklaridan biri Qudusdagi Umar masjid bo'lib, u Ummaviylar davrida, 688-yilda qurilgan.

Haddan tashqari sipo, o'zining nihoyatda nozik san'atkorona ishlanganligi bilan kishini hayratda qoldiradigan va ziymati naqsh solish arab rassomchiligining xarakterli xususiyatidir. Qo'lyozmalar, kitob mug'ovalari va shu kabilar mana shu xildagi rasmlar bilan bezatilgan edi. Kundalik turmush hayotidan olingan xilma-xil mavzudagi ajoyib miniatyuralar ham qo'lyozmalarga bezak bo'lib xizmat qilardi.

Barcha shaharlarda yahudiylar gettolarida g'uj bo'lib yashagan va mahallalarda sinagogalar joylashgan edi. XX asrning 30-yillari boshlarida stalincha qatag'on davrida 100 ga yaqin buxoro yahudiylari hibsga olingan, sinagogalar, yahudiy maktablari, teatrlar, muzey va gazetalari yopilgan. Ulardan adabiy esdaliklarning mashhur mualliflaridan biri Solomon ben Samuel bo'lgan. U 1338-yilda Uryanchda yahudiy tili lug'atini tuzgan bo'lsa, Mo'is ben Dovud esa forsiyda poemalar bitgan. XVII asr oxiri - XVIII asrning birinchi yarmida shoir Yusuf Yagudi (Mollax Iosif ben Isaak)ning "Ettri aka-yka" asari Buxoroda mashhur bo'lgan.

Buxoro yahudiylarining asosiy mashg'ulotlari savdo, musiqashunoslik, san'at, hunarmandchilik bo'lib, keyinchalik maishiy xizmat, pedagogik, muhandis va shifokorlik kasblarini egallagan. Ular orasidan fan va madaniyatning yirik arboblari yetishib chiqqan: fan doktorlari - prof. Yu. I. Is'boqov, I. A. Kalantarov, B. I. Pinksasov, N. M. Mallayev, kompozitorlar - M. Leviev, S. Yudakov, rassomlar - Yu. M. Yelizarov, O'zbekiston xalq artistlari - L. Boboxonov, B. Davidova, I. Oqilov, M. Yodubova, M. Shamayeva va Izro Malakov shular jumlasidandir.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng Respublika Konstitutsiyasida barcha millat va elat vakillarining tili, urf-odati hamda an'analarga hurmat bilan munosabatta bo'lishni, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratish kafolatlandi. Shundan keib chiqib, Buxoroda ikkin sinagoga, yahudiy tilida o'qitiladigan maktab va bolalar bog'chasi faoliyat ko'rsatmoqda. Samarqandda esa 1998-yildan boshlab "Shofar" gazetasi nashr qilinadi va turli diniy marosimlar o'tkaziladi.

Uyg'urlar mamlakati qadimgi madaniyat o'choqlaridan hisoblanadi. Ushbu hududda ko'plab qadimgi davlatlar va shaharlar mavjud edi. Uyg'urlar qadindan 26 ta harfdan iborat yozuvdan, V-VI asrlardan boshlab esa maxsus yozuvdan foydalanila boshlagan.

Qadimgi uyg'ur xitoy musiqasiga katta ta'sir ko'rsatgan. Xalq musiqasining gavhari hisoblangan 12 maqom XVI asrda Omonnisonxon tomonidan tartibga solingan.

Uyg'urlar hayotida tosh, suyak, kumush, mis va temirdan turli zeb-ayrat buyumlari yasash rivojlangan. Ular qadimdan jun, ipak va paxtadan maxsus dastgohlarda matolar to'qilgan. Miloddning boshlari (III asr)da ular tomonidan ishlab chiqarilgan qog'oz nusxalari eng qadimgi topilma hisoblanadi.

Uchta davlat davrida o'rta asr umumikoreys madaniyatiga asos solingan. Ushbu davr makburasida ibtidoiy etiqod va tasavvurlar saqlanib qolgan. Konfutsiylik va buddizmning kirib kelishi bilan (rasmiy din hamda ma'rifat sifatida) koreys madaniyatiga xitoy adabiyoti hamda yozuvi ta'sir ko'rsatgan. Dastlabki tarixiy asarlar xitoy tilida yozilgan. Koreyada (kano shakli) saqlanib kolgan maqbaralar, me'morchilik va tasviriy san'at rivojlanganidan dalolat beradi. Tasviriy san'atning freska (bo'rtna surati) turi bilan maqbara devorlari bezatilgan (rulhar fantastik hayvon va qushlar). Kyondju tumanidagi arxeologik yodgorliklar Silla davlati hunarmandchiligi yuksak bo'lganligidan dalolat beradi (V asrga oid sof oltindan ishlangan toj, uzuk, bilaguzuk, sirg'a qurollar).

VII asr o'rtalarida Kyondjuda astronomik rasadxona qurilgan va o'yin uyshu davrida koreys umumxalq tili shakllangan. VII asr oxirida olim Boshxon xitoy ierogliflari asosida koreys tili fonetikasi va grammatik tushlabiga mos yozuv tizimini yaratgan edi.

Konfutsiylik buddizm asosidagi o'rta asr makbura birligi, Koreyaning Tan sulolasi bilan mustahkam madaniy aloqada bo'lishiga yordam bergan. Ko'pchilik ruhoniylar Chanan (Xitoy)da o'qib kelgan bo'lib, ular orasida budda rohibi Xe Chxo (VII asr) ham bor edi. U Xitoydan Hindiston va Markaziy Osiyoga sayohat qilgan hamda "Xuanetron no'umoxinje" xakizma xikoxlap" asarini yozgan edi. Xitoyda talim olganlardan yana biri, olim va yozuvchi Chxve Chxuvan (918-951) poeziya hamda hikoya janrlarida sermahsul ijod qilgan edi.

Nazorat savollari:

1. Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari deganda, qaysi etnoslari tushuniladi?
2. Mintaqaning boshqa xalqlari etnik tarixi va etnogenezi to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Markaziy Osiyoning kam sonli xalqlari etnogenezi va etnik tarixi haqidagi ma'lumot hamda adabiyotlarni izohlang?
4. Mintaqaga turli tarixiy davrlarda kirib kelgan xalqlar va ularning ixtislosi hayoti to'g'risida so'zlab bering?

5. Yahudi, uyg'ur va koreys xalqlarining an'anaviy xo'jaligi to'g'risida so'zlab bering?
6. Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari an'anaviy xo'jaligi ma'lumot bering?
7. Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari ma'naviy hayoti to'g'risida so'zlab bering?
8. Moddiy va ma'naviy madaniyat tushunchalari izohlang?
9. Markaziy Osiyo xalqlarining milliy urf-odat, ari'ana va qadriyatlarini deganda nimalarga e'tibor berish kerak?

XOTIMA

Qadimdan "Turon", "Turkiston" nomlari bilan arab kelingan Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan "O'rta Osiyo" atamasi, asosan, XIX asrdan boshlab rossiyalik sharqshunos va geograflar tomonidan ko'llana boshlangan. Ushbu atama XX asr davomida, asosan, sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan respublikalar (O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston qisman Qozog'iston)ga nisbatan ishlatib kelindi. Yevropa va umumaiy, G'arb olimlari tomonidan esa ancha keng geografik hududlar (hozirgi Pokiston, Afg'oniston, Turkmaniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Xitoyning shimoliy qismlarini o'z ichiga olgan Sharqiy Turkiston hamda Mo'g'uliston) qamrab olgan yerlarga nisbatan "Markaziy Osiyo mintaqasi" termini qo'llaniladi.

1991-yilda Ittifoq parchalangach, uning tarkibidagi O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari ham milliy mustaqillikka erishdi. Mustaqillik mintaqasi xalqlari taqdirida tub o'zgarishlarni boshlab berdi va yangi daryo-yangi ishqibollar uchun keng yo'l ochildi. Mintaqadagi mustaqil davlatlar jihatining nufuzli tashkilotlari tomonidan teng huquqli sub'ekt sifatida e'tirof etilib, xalqaro hamjamiyatning diqqat-e'tiborini torta boshladi. Bunday e'tirof mintaqadagi yangi mustaqil davlatlarga ulkan ishonch bilan bir qatorda yuksak mas'uliyat ham yukladi.

Mintaqasi xalqlarining milliy mustaqillik tufayli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va etnomadaniy hankortlari yangicha mazmun kasb etib, xalqlarining milliy o'zligini anglash hamda etnotarixiy va madaniy meroslariga mansublik hissining o'sishi bevosita mintaqada umumiy taqdir uchun mas'ullik tuyg'usini ham rivojlantirmoqda.

Shu bilan birga, bozor munosabatlari tamoyillariga asoslangan huquqiy demokratik va ochiq fuqarolik jamiyati poydevorining yaratilishi xalqlarining milliy mentaliteti, geosiyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'ziga xos jihatlari hisobga olib, ushbu xususiyatlarni o'zida mujassam etgan holda amalga oshirmoqda.

Mintaqaning mustaqil davlatlarida milliy-etnik sohadagi hankorlik hamda mazkur hudud xalqlari tafakkurida musharakat jihatlari tabiiy ravishda ijtimoiy taraqqiyotni ta'minladi. Bunday hamjihatlikka eluvchi tomonlar an'anaviy etnik barqarorlikning rivojlanishi jamiyatning etnosiyosiy taraqqiyotida ham juda ahamiyatidir.

Mambalarga ko'ra, ushbu mintaqada o'lmishda Baqriya, Xorazm, Bag'diyona, Parfiya, Parkana va Shosh singari qadimiy davlatlar mavjud bo'lib, ular ma'lum bir hududda o'ziga xos xo'jalikni yuritgan, harbiy

jihatdan o'z chegaralarini qo'riqlagan hamda tanga (pul), tang'a va bayroqlarga ega bo'lgan.

Milodiy asr boshlarida qaror topgan Kushon va Effaliylar davlatlari ham o'zlarining kuch-qudrati bilan ajralib turgan. Ushbu davrda Sharqni G'arb bilan bog'lab turgan Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan Turon – Movarounnahrda turli mamlakatlarning vakillari savdo-sotiq, ishlab chiqarish va ilm-fan asoslarini o'rganish bilan mashg'ul bo'lgan.

Turk xogonligi davrida esa hududdagi davlatlar nisbatan ozod va erkin faoliyat yuritgan va hokimiyatini mustaqil boshqarish yuksak darajaga ko'tarilgan edi. Har bir urug', el va shaxsning tengligi davlat tomonidan himoya qilingan. Davrlar o'tishi bilan turli urug', qavm va elatlar o'zaro birlashgan hamda mustaqil xalqlar ham paydo bo'lgan. "Turk" atamasi va turkiy xalqlar aynan ushbu jarayonlar ta'sirida vujudga kelgan edi.

Hozirgi davrda jahonda 24 ta turkiy davlat mavjud bo'lib, ularda 250 milliondan ziyod aholi vakillari yashaydi. Turk, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, ozoriy, tuva, yoqut, uyg'ur, tatar, boshqird va yana boshqa millatlarda xalqlar ana shular jumlasiga kiradi. Ko'ina Turonzaminida istiqomat qilayotgan tojiklar bilan turkiy (o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman va qoraqalpog'lar) shu darajada yaqinki, ularning tillaridagi ayrim tafovutlarni hisobga olmaganida ajratish juda qiyin. Mazkur mintaqalarning tarixi, dini, madaniyati va mahaviyati musharakdir.

Mazkur mintaqalarning xalqlari butun Markaziy Osiyoni Vatan deb bilish, qo'lni-qo'lga berib, bir yopqandan bosh chiqarib, mustaqillikni himoya qilishlari shart. Faqat shu yo'l bilanгина bugungi iqtisodiy qiyinchiliklardan tezroq qutulib, yangi marra(lar)ga qadam tashlash mumkin.

Markaziy Osiyo mamlakatlari geografik jihatdan bir-biriga yaqin va tutash hududda joylashgan. Ko'p millionli aholi tarixan yagona taqdir, bir-biriga uyg'unlashib ketgan dunyoqarash va an'analarga ega. Ming yillar mobaynida ma'naviy, madaniy, axloqiy va diniy musharaklik ham mavjud.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz – qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, tojiklar va o'zbeklar, go'zal Markaziy Osiyoda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlar vakillari birgalikda tinch-totuv, do'st-inog bo'lib yashashimiz taqdirining o'zi tomonidan belgilab berilgandir.

Shuning uchun ham biz umumiy uyimizni, farzandlarimizni turli mizo va qarama-qarshiliklardan himoya qilish, mintaqamizda tinchlik va farovonlik hukm surishini ta'minlash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur".

Mazkur mamlakatlarda aholining joylashuvi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, hozirgi Tojikistonning 23% aholisi (1,2 mln. nafardan ziyod) o'zbeklar tashkil etadi. Qozoqlar va turkmanlar ham ancha salmoqli o'rinda turadi. Qozog'iston (500 ming nafarga yaqin)da ayrim viloyatlari (Chimkent)da, Qirg'iziston (800 ming nafarga yaqin)ning O'sh va Jalolobod, Turkmaniston (250–500 ming nafar)ning Toshhovuz va Turkmanobod viloyatlarida asosan, o'zbeklar yashaydi. Yohi aksincha, O'zbekistonning ayrim viloyatlarida nisbatan ko'proq qozoqlar, bal'alarida esa turkmanlar va tojiklar istiqomat qiladi.

O'ra Osiyo davlatlari o'ziga xos tabiiy ishlab chiqarish tizimiga ega bo'lib, sobiq SSSRda qazib olingan ko'mirning 20%, gazning 18%, oltinning 33%, o'simlik yog'ining 26%, paxtaning 92% ana shu mintaqalarga hissasiga to'g'ri keladi. Sug'oriladigan yerlarning umumiy hajmi 9,5 million gektarni tashkil etadi. Ushbu mintaqada ekin maydonlarining hajmi jihatidan 3–4 o'rinni tashkil etadi. Mazkur mintaqada MDHda ishlab chiqarilgan paxtaning 90%ni, qorako'lining 60% ni, ipakni 70 va chorvachilik mahsulotlarini 30%ni beradi.

